Interfaol metodlar esa talabalarning chet tilida gapirishga bo'lgan psixologik to'siqlarini kamaytiradi. Ko'plab talabalar chet tilida xato qilishdan qo'rqadi, auditoriya oldida gapirishda tortinadi yoki lug'at boyligi yetarli emasligi sababli muloqotdan chetlashadi. Juftlikda ishlash, kichik guruhlar, rol o'ynash, debat va loyiha topshiriqlari bunday to'siqlarni kamaytirib, talabalarga xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda nutq amaliyotini bajarish imkonini beradi.

Digital usullar yordamida chet tili darslarida individual yondashuv kuchayadi. Masalan, bilim darajasi yuqori bo'lgan talabalarga murakkabroq matnlar, mustaqil loyiha yoki erkin yozma topshiriqlar berilishi mumkin. Bilim darajasi pastroq talabalar esa qo'shimcha lug'at mashqlari, qisqa audio materiallar, namunaviy dialoglar va bosqichma-bosqich topshiriqlar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv guruhdagi barcha talabalarni o'quv jarayoniga jalb etishga yordam beradi.

Chet tili darslarida digital va interfaol metodlardan foydalanish natijasida quyidagi pedagogik samaralar kuzatiladi:

Birinchidan, talabalarning darsga motivatsiyasi oshadi. Multimedia, interaktiv testlar, onlayn muhokama va amaliy vazifalar darsni qiziqarli qiladi.

Ikkinchidan, kommunikativ kompetensiya rivojlanadi. Talabalar chet tilida ko'proq gapiradi, savol beradi, munozara qiladi va real vaziyatlarga yaqin topshiriqlarni bajaradi.

Uchinchidan, mustaqil ta'lim samaradorligi ortadi. Talabalar darsdan tashqari vaqtda ham raqamli resurslar orqali o'rganishni davom ettiradi.

To'rtinchidan, baholash jarayoni shaffoflashadi. Onlayn testlar, elektron portfoliolar va raqamli rubrikalar natijalarni aniqroq ko'rsatadi.

Beshinchidan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi teskari aloqa kuchayadi. Talaba o'z xatosini tezroq ko'radi va uni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, digital va interfaol metodlarning samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq. Bular texnik ta'minot, o'qituvchining metodik tayyorgarligi, talabalarning raqamli savodxonligi, dars maqsadining aniqligi, materiallarning sifatli tanlanishi va baholash mezonlarining adolatli ishlab chiqilishidir.

Chet tili darslarida digital va interfaol yondashuvni samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik modelni taklif etish mumkin:

1. Diagnostik bosqich – talabalarning chet tilini bilish darajasi, ehtiyojlari, qiziqishlari va raqamli savodxonligi aniqlanadi.
2. Rejalashtirish bosqichi – dars maqsadi, digital vositalar, interfaol metodlar va baholash mezonlari belgilanadi.
3. Amaliy bosqich – raqamli materiallar, guruh ishlari, muhokama, loyiha va kommunikativ vazifalar bajariladi.
4. Nazorat bosqichi – onlayn test, og‘zaki chiqish, yozma ish yoki portfolio orqali natija baholanadi.
5. Refleksiya bosqichi – talaba o‘z natijasini tahlil qiladi, o‘qituvchi esa keyingi rivojlanish bo‘yicha tavsiya beradi.

Ushbu model chet tili darslarini tizimli, maqsadli va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa. Oliy ta’limda chet tili darslarini digital va interfaol usullar asosida tashkil etish zamonaviy ta’lim talablariga mos keladigan muhim pedagogik yondashuvdir. Raqamli texnologiyalar chet tili ta’limini moslashuvchan, ko‘rgazmali, individual va mustaqil o‘rganishga yo‘naltirilgan jarayonga aylantiradi. Interfaol metodlar esa talabalarning faolligini oshiradi, ularni real kommunikativ vaziyatlarda chet tilidan foydalanishga o‘rgatadi.

Chet tili darslarida digital platformalar, mobil ilovalar, multimedia vositalari, sun‘iy intellekt, onlayn testlar, elektron portfolio, virtual sinflar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Oliy ta’limda chet tili darslarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Chet tili o‘qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyasini muntazam oshirish zarur.
2. Har bir chet tili kursi uchun raqamli resurslar, audio-video materiallar va interaktiv topshiriqlar bazasi yaratilishi kerak.
3. Darslarda kommunikativ, muammoli, loyiha va guruhli metodlar keng qo‘llanishi lozim.

Umuman olganda, digital va interfaol usullar oliy ta’limda chet tili o‘qitish sifatini oshirish, talabalarni global axborot makoniga tayyorlash, ularning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Baxodirova, G. Chet tillarini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

2. Beatty, K. Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning. – London: Routledge, 2013.
3. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014.
4. Chapelle, C. A. Computer Applications in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
5. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. – London: Longman, 2015.
6. Hymes, D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
7. Jalolov, J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
8. Larsen-Freeman, D., Anderson, M. Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2011.

DRAMALARNING SAHNA TALQINIDAGI LINGVOTRANSFORMATSION JARAYONLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Tohirov Oybek, katta o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

o.toxirov@tipi.uz

[orcid.0009-0004-4900-2055](https://orcid.org/0009-0004-4900-2055)

UO'K: 894.375:494.375

Annotatsiya. Mazkur maqolada folklor-etnografik asarlarning yozma matndan teatr sahnasiga ko'chirilishi jarayonida yuz beradigan lingvotransformatsion o'zgarishlar hamda ularning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida dramaturg Erkin Xushvaqto'vning «Chimildiq» folklor-etnografik dramasi va uning O'zbek Milliy akademik drama teatrida amalga oshirilgan sahnaviy talqini tanlangan. Tadqiqot davomida asardagi milliy-madaniy kodlar, paremiologik birliklar, marosim qo'shiqlari, dialektal elementlar hamda xalqona nutq namunalarining sahna diskursi talablari asosida rejissyor va aktyorlar tomonidan qayta talqin qilinishi o'rganilgan. Ayniqsa, asardagi «Kelin o'tirmadi» marosimi misolida improvizatsiya jarayonida amalga oshirilgan transformatsiyalarning lingvopoetik hamda kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ochib berildi. Tadqiqot natijalari folklor-etnografik dramalarning sahnaviy talqini matn lingvistikasi, diskurs tahlili va zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ilmiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: folklor-etnografik drama, sahnalashtirish, lingvotransformatsiya, sahna diskursi, lingvopoetika, antropotsentrik tilshunoslik, improvizatsiya, milliy-madaniy kod, etnografik kolorit, «Chimildiq».

ЛИНГВОТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В СЦЕНИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДРАМ И ИХ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Тохиоров Ойбек, старший преподаватель

Аннотация. В данной статье анализируются лингвотрансформационные изменения, возникающие в процессе переноса фольклорно-этнографических произведений из письменного текста на театральную сцену, а также их лингвопоэтические особенности. Объектом исследования послужили фольклорно-этнографическая драма Эркина Хушвактова «Чимилдик» и её сценическая интерпретация, осуществлённая в Узбекском национальном академическом драматическом театре. В ходе исследования рассматривается процесс переосмысления режиссёром и актёрами национально-культурных кодов, паремиологических единиц, обрядовых песен, диалектных элементов и образцов народной речи в соответствии с требованиями сценического дискурса. Особое внимание уделено обряду «Келин ўтирмади» («Невеста не села»), на примере которого раскрываются лингвопоэтические и коммуникативно-прагматические особенности трансформаций, реализуемых в процессе импровизации. Результаты исследования показывают, что сценическая интерпретация фольклорно-этнографических драм имеет важное научное значение с точки зрения лингвистики текста, дискурс-анализа и современной антропоцентрической лингвистики.

Ключевые слова: фольклорно-этнографическая драма, сценическая интерпретация, лингвотрансформация, сценический дискурс, лингвопоэтика, антропоцентрическая лингвистика, импровизация, национально-культурный код, этнографический колорит, «Чимилдик».

LINGUOTRANSFORMATIONAL PROCESSES IN STAGE INTERPRETATIONS OF DRAMAS AND THEIR LINGUOPOETIC FEATURES

Tohirov Oybek, Senior Lecturer
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract. This article analyzes the linguotransformational changes that occur in the process of transferring folkloric-ethnographic works from written text to the theatrical stage, as well as their linguopoetic features. The research object is the folkloric-ethnographic drama Chimildiq by the playwright Erkin Khushvaqtov and its stage interpretation performed at the Uzbek National Academic Drama Theatre. The study examines how national-cultural codes, paremiological units, ritual songs, dialectal elements, and samples of folk speech represented in the play are reinterpreted by the director and actors in accordance with the requirements of stage discourse. Particular attention is paid to the ritual episode “The Bride Did Not Sit Down”, through which the linguopoetic and communicative-pragmatic characteristics of transformations realized during improvisation are revealed. The findings demonstrate that the stage interpretation of folkloric-ethnographic dramas possesses significant scholarly value from the perspectives of text linguistics, discourse analysis, and contemporary anthropocentric linguistics.

Keywords: folkloric-ethnographic drama, stage adaptation, linguotransformation, stage discourse, linguopoetics, anthropocentric linguistics, improvisation, national-cultural code, ethnographic color, Chimildiq.

Kirish. Folklor-etnografik asarlarning matndan teatr sahnasiga ko‘chirilishi murakkab lingvotransformatsion fenomen hisoblanadi. Bu jarayonda dramatik matnda aks etgan milliy-madaniy kodlar, urf-odatlar, marosimlar va xalqona nutq namunalari rejissyor hamda aktyorlar tomonidan qayta talqin qilinib, sahna diskursi talablariga moslashtiriladi. Sahnaning o‘ziga xos qonuniyatlari, vaqt va makon cheklovlari hamda tomoshabinga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan pragmatik maqsadlar natijasida asl matndagi ayrim iboralar, dialoglar va monologlar qisqartiriladi, transformatsiya qilinadi yoki yangi badiiy vositalar bilan boyitiladi. Natijada yozma matnga xos lingvopoetik unsurlar sahna nutqi tizimida yangi audiovizual xususiyat kasb etadi. Folklor-etnografik asarlarning sahnalashtirishida kuzatiladigan o‘zgarishlarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish shu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun qiziq ma’lumotlarni berishi tayin. Chunki bunday asarlarda xalq og‘zaki ijodiga xos maqollar, matallar, aforizmlar, marosim qo‘shiqlari, dialektal birliklar va milliy-madaniy realiyalar muhim o‘rin tutadi. Sahna talqini jarayonida ushbu birliklar paralingvistik vositalar – mimika, jest, ovoz tembri, intonatsiya, musiqiy hamrohlik va harakatlar bilan uyg‘unlashib, yangi semantik va pragmatik mazmun kasb etadi. Ayrim hollarda tomoshabin idrokini yengillashtirish maqsadida arxaik yoki dialektal birliklar zamonaviy til vositalari bilan almashtirilishi mumkin. Yana shunday holatlar kuzatiladiki, aktyor va aktrisalar improvizatsiya qilib matndagi muayyan birliklarni tamoman o‘zgartirib yuboradilar. Ammo bu jarayonda asarning milliy ruhi, etnografik koloriti va badiiy-estetik qimmatini saqlab qolinishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, matnga bunday aralashuv aniq maqsad va badiiyatga xizmat qilishi lozim. Shu kabi holatlar folklor-etnografik dramalarning sahnaviy talqinini o‘rganishni taqazo qiladi. Umuman, aytish mumkinki, matnning sahna talqinidagi o‘zgarishlarni tadqiq qilish zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan matn lingvistikasi, diskurs tahlili va lingvopoetikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Dramaturg Erkin Xushvaqtoev qalamiga mansub “Chimildiq” folklor-etnografik dramasi O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Azizov rejissyorligida 1998-yilda O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan. “Chimildiq” spektaklining “Kelin o‘tirmadi” marosimi voqealari ijrosida lingvotransformatsiyaning turli ko‘rinishlari kuzatiladi. Aksar o‘zgarishlarda jonli nutqqa xoslik ta’kidi sezilib turadi. Xalq tiliga xos latifago‘ylik, so‘z o‘yini ustalik bilan ijroga singdirilgan. Masalan, matnda qaynona nutqida “*Oy qizim, oydin qizim! Kundek o‘g‘limni berdim, o‘tira qoling*” gapi sahna talqinida aktyorlar tomonidan quyidagidek transformatsiya qilingan: “*Aylanay bolaginam, o‘tiraqoling! Jonim bolam o‘tiring! Mana shu katta hovlini taxta-o‘qlovi bilan, qozon-tovog‘i bilan, echki-buzog‘i bilan berdim, bolaginam. Yetsa molim, etmasa jonim sizga sadaqa, bolaginam*”.

Ko‘rinib turganidek, xalq og‘zaki ijodiga xos so‘zga chechanlik ijroda yaqqol seziladi. Shuni ta‘kidlash lozimki, mazkur epizoddagi qaynona nutqida amalga oshirilgan transformatsiya muvaffaqiyatli chiqqan. Agar qaynona matndagi gap bilan cheklanganida ijroda *“kommunikativ bo‘shliq”* paydo bo‘lishi mumkin edi. Xalqona iboralar qo‘shilishi natijasida o‘sha *“bo‘shliq”* o‘rni ta‘sirchan nutq bilan to‘ldirilgan. Keltirilgan misolda fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklar faol transformatsiyaga uchraganligini kuzatishimiz mumkin. Matnda ona o‘z o‘g‘liga nisbatan qo‘llagan *“kundek”* o‘xshatish etaloni *“oydek”* etaloniga o‘zgartirilgan. Morfologik jihatdan matnda mavjud bo‘lmasa-da ijroda *“-gina”* erkalash affiksining qo‘shilishi, murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan so‘zlovchi munosabatini mayinlashtirgan bo‘lsa, *“aylanay”*, *“jonim”* so‘zlari bilan *“yoqimlilik”*, *“yaqinlik”* belgilari yanada kuchaytirilgan. Gapdagi *“o‘tiring”* buyruq fe‘lining takror qo‘llanishi natijasida quloqqa xush keladigan o‘ziga xos ohang butunligi hosil qilingan. Matnda mavjud bo‘lmagan, lekin kelin tushirayotgan qaynonaning jo‘mardligini, oiladagi o‘rnini, kuchini ko‘rsatuvchi qolip birikmalarning qo‘shilishi nutqning musiqiyliigi va ta‘sirchanligini ta‘minlagan. Xalq tilida faol qo‘llanadigan bunday birliklar *“Chimildiq”* spektaklining sahna ijrosida juda ko‘p uchraydi va asarning ijro jihatidan badiiy barkamol bo‘lishiga xizmat qiladi. Asardagi checha (momo) nutqi takroriy birliklarga boyligi bilan alohida e‘tiborga molik. Matnda takrorlanuvchi birliklar qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, aktyor va aktrisalalar statik matni dinamik matnga aylantirish jarayonida xalq tilining folklor-etnografik qatlamiga mansub birliklardan foydalangan holda sahna talqinida yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan kommunikativ bo‘shliqlarni to‘ldirib borganlar. Masalan: *“Kelin osh yemadi”* urf-odati talqinida kuyovning erkak qarindosh-urug‘lari kelin ovqat eyishi uchun o‘z imkoniyatlari doirasida ko‘rmana va‘da qiladilar. Ko‘rmanaga qarab, kuyovning erkak qarindoshlariga baho beriladi. Ayni shu urf-odatning sahna talqiniga e‘tibor qaratilsa, asos matn va transformatsiyalangan matn o‘rtasidagi tafovut anglashiladi.

Aktyor Shavkat Tolipov asos matndagi *“Kelin osh yeyavering, men Sizga atab o‘g‘illaringizning to‘yiga ikkita ho‘kiz boqib beraman”* gapini quyidagicha transformatsiya qilgan: *“Kelinposhsha-a-a, bemalol oshshi yeyavering, ikkita novvos boqib qo‘yganman, baqvat-baqvat, bittasini sizga beraman. Bemalol oshshi yeyavering.”*

Ko‘rinadiki, asarda yaxlit, adabiy nutq qoidalariga mos holda shakllangan gap ijroda jonli nutqqa xos parselyativ konstruksiyalarga aylantirilgan. Shuningdek, dialektal talaffuz ham jonli nutqqa xoslikni ta‘kidlagan. Natijada jozibador va tomoshabinga tez yetib boradigan ta‘sirchan nutq hosil bo‘lgan.

“Parsellyatsiya” termini lingvistik lug‘atlarda shunday izohlanadi: “Parsellyatsiya gapning shunday bo‘linishiki, unda ifodaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intonatsion-ma‘naviy nutqiy birliklarda anglashiladi.

Bunday birliklar biri ikkinchisidan so‘ng ketma-ket keladi” [6]. Shunga ko‘ra, ularni asos va parsellyat sifatida ikki qismga ajratib tekshirish maqsadga muvofiqdir. Parsellyatsiya hodisasini turli tillar materiallari asosida tadqiq etgan tilshunoslar bu hodisaning til universaliyasiga oid ekanini ta’kidlar ekan, matn, uning bo‘laklanish va tashkillanish usullarini o‘rganishning kuchayib borishi bilan parsellyatsiya muammosi sintaksis tadqiqidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligiga e’tiborni qaratadilar. Ular ayni paytda “parsellyatsiya” termini fransuzcha “bo‘laklamoq, qismlarga ajratmoq, maydalamoq” ma’nosidagi *parceller* so‘zidan olinganligi va matnni bo‘laklash usulini ifodalash uchun qo‘llanishiga urg‘u berib, parsellyatsiyaning ekspressiv sintaksisga oid ekanligini ta’kidlaydilar [3]. Bu o‘rinda shuni ham qayd etish joizki, lug‘atlarda “parsellyatsiya” so‘zining fransuz tilida “dehqon o‘z xo‘jaligini yuritishi uchun erni kichik qismlarga (parsellalarga) bo‘lish” tarzidagi ma’nosi mavjudligi aytiladi [4].

“Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, bu nutqning tabiiyligini ta’minlashda ham parsellyativ konstruksiyalarga murojaat qilinadi. Aslida parsellyatsiya og‘zaki nutqning “fotografik” ifodasi uchun favqulodda mos konstruksiya hisoblanadi. Chunki parsellyatsiyaning yuzaga kelishi mohiyatan og‘zaki so‘zlashuv nutqi bilan bog‘liqdir” [5]. Badiiy matnda bunday qurilmalar alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Mazkur nutqda partselyativ konstruksiyalar aktyor uchun jumlaning intonatsion tabiatini erkin boshqarish imkoniyatini yaratadi. Matndagi kabi qo‘shma gap tarzida ijro qilinganida nutqning ta’sirchanligiga putur etgan bo‘lar edi. Aynan shu o‘rinda lingvopoetik va lingvopragmatik strategiya oldingi planga chiqqan, ya’ni ijrochining matn strukturasi dahl qilishi aniq poetik va pragmatik maqsad asosida amalga oshgan. Matnda *tog‘a* nutqi sifatida keltirilgan parcha sahna ijrosida *amaki* nutqida beriladi. Amaki rolini esa O‘zbekiston xalq artisti Tohir Saidov mahorat bilan ijro etgan. Uning ijrosidagi *amaki* nutqi matnga qaraganda faol transformatsiyaga uchragan va hazil-mutoyibaga boy nutqqa aylangan. Masalan, “*Kelin osh yeyavering, men sizlarga bolalik sigirimni beraman. Sut-qatiq ichib maza qilasizlar!*” gapi sahna talqinida quyidagicha transformatsiya qilingan “*Mani ikkita bolalik sigirim bor, agar osh yesa shuni bolasini beraman.*” Shu o‘rinda Ra’no Yarasheva ijrosidagi matnda mavjud bo‘lmagan yangi nutqi qo‘shiladi “*Manga qarang, amakisi, shuni onasiniyam qo‘shib bering, sog‘ib ichishadi-da bular*”. Amaki javob nutqi ham matnda mavjud emas, lekin ijroda kommunikativ bo‘shliq nihoyatda mohirona hazil mutoyiba bilan improvizatsiya qilingan. “*Mayli, onasiniyam beraman, keyin ochko‘zlik qilib dadasini so‘ramang!*”

Matnda amaki aytishi kerak bo‘lgan nutqiy parcha asarning sahna talqinida uka tomonidan ijro qilinadi. Bunday o‘zgarish ham qahramonlarning xarakteriga mosini topish ehtiyoji bilan yuzaga keladigan o‘zgarish bo‘lib lingvopragmatik

transformatsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Qizig‘i shundaki, uka matnga ko‘ra ikkita qo‘chqor va‘da qilishi kerak edi, lekin ijroda ikkita xo‘roz berishini e‘lon qiladi: *“Kelinoyi osh yeyavering. Men ham sizlarga atab ikkita qo‘chqor beraman.”* gapi *“Kennayi, agar osh yesayiz men sizga ikkita xo‘...”* shu o‘rinda kelinning yangasi gapga aralashib matnda mavjud bo‘lmagan replikani – *“echki...”*ni o‘rtaga tashlaydi. Uka rolidagi Rixstilla Abdullayev hayajon bilan duduqlangan holda *“ikkita qo‘chqor oberaman”* deya va‘da beradi. Yanganing matnda mavjud bo‘lmagan quyidagi gapi voqealar rivojini tezlashtiradi: *“bo‘lmaydi, bo‘lmaydi hamma joyni yosh yigitlar bosib ketti, ha bir yoshi katta nuroniy otaxonlar bormi? Chaqiring!”* Shu o‘rinda checha (momo) matnda mavjud bo‘lmagan etnografik aytim orqali kuyovning otasini sahnaga taklif qiladi: *“eshshagini hangigan, nosvoyini tuf degan buvajonlariyuuuu, keloviring, kelovuring keliniz osh yemayapti”*. Buva esa *“Osh yemayapti? Tayyor osh bo‘ladi-yu nega yemaydi?”*. Matnda mavjud bo‘lmagan yanga nutqi yana oraga kiradi: *“voy, osh emayapti-da ataganizni bering! To‘yga kech qolganingiz etmay, fikrimniyam buzib yuboryapsiz. Vaqtida kelib o‘tirishmaydi!?”* Asarning prologida yanga matnda mavjud bo‘lmagan gaplar bilan muloqotga harakatlilik qo‘shadi. Buva nutqi quyidagicha o‘zgarishlar bilan davom etadi. Matnda *“Kelin osh yeyavering, men sizlarga bitta sandiq to‘la sarposi bilan beraman.”* Sahna talqinida esa *“Kelin bemalol oshshi yeyavering, men ham sizlarga bitta katta sandiq to‘la sarpo beraman”* tarzida ijro qilinadi. Og‘zaki nutqqa xoslik ta‘kidi dialoglarda aniq anglashilib turadi. Shu o‘rinda matnda mavjud bo‘lmagan qiz gapga aralashib kulguli vaziyatni yuzaga keltiradi; *“Dadajon, shunday deysizda, lekin obermaysiz”*. Buva *“O‘chir ovozingni!”* tarzida hazil-mutoyibali sahna talqini hosil qilingan. Yuqorida qayd qilingan transformatsiya natijalaridan ko‘rinib turganidek aktyorlar asarni sevib ijro qilganliklari uchun erkin tarzda muayyan o‘zgarishlarni kiritganlar. Bunday o‘zgarishlarni asar badiiyatini kuchaytirish maqsadi bilan amalga oshirilgan deyishimiz mumkin. Qaynota nutqida ham jiddiy transformatsiyalar kuzatiladi. Matnda berilgan *“Kelin, osh yeyavering. Men ham sizlarga atab uch xonali uy qurib beraman. Nasib etib o‘g‘illi bo‘lsanglar, o‘g‘il to‘yini ham qilib beraman.”* gapi *“kelinposhsha mashi oshshi yeng, xudo xolasa dang‘illama uchaska quriberaman, agar xudo o‘g‘il beradigan bo‘lsa, eeee dang‘illama to‘y qiberaman!”* tarzida transformatsiya qilingan.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, folklor-etnografik dramalarning sahnaviy talqinini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dramatik matnning sahnaga ko‘chirilishi oddiy reproduksiya emas, balki ko‘p qirrali lingvotransformatsion jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda asar tarkibidagi milliy-madaniy kodlar, paremiologik birliklar, marosim qo‘shiqlari, dialektal elementlar va xalqona nutq namunalari sahna diskursi talablari asosida qayta ishlanib, yangi kommunikativ va estetik vazifalarni bajaradi. Erkin Xushvaqtovning «Chimildiq»

dramasi misolida kuzatilganidek, rejissyor va aktyorlarning ijodiy talqini natijasida matndagi lingvopoetik vositalar paralingvistik omillar — intonatsiya, ovoz tembri, mimika, jest va sahnaviy harakatlar bilan uyg'unlashib, tomoshabinga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, «Kelin o'tirmadi» marosimi bilan bog'liq sahnalarda improvizatsiya elementlarining qo'llanilishi dramatik matnning pragmatik salohiyatini oshirib, milliy urf-odat va an'analarning sahnaviy ifodasini yanada jonlantiradi. Tadqiqot natijalari folklor-etnografik dramalarning sahnaviy talqinini lingvopoetika, matn lingvistikasi va diskurs tahlili nuqtayi nazaridan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Zero, bunday tahlillar dramatik matnning sahnada qayta yaratilish mexanizmlarini, milliy-madaniy mazmunning saqlanishi va transformatsiyalanish xususiyatlarini hamda teatr san'atida tilning estetik imkoniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan, folklor-etnografik dramalarning sahnaviy talqinini antropotsentrik tilshunoslik doirasida tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Axmedova A. Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari. (Abdulhamid Sulaymn o'g'li Cho'lpon asarlari misolida): Filol. fan. fals. d-ri... (PhD) diss.– Toshkent, 2025. – 117 b.
2. Yuldasheva Z. “Xoldorxon” dostonidagi takrorlarning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. fals. d-ri ... (PhD) diss. – Toshkent, 2024. – 155 b.
3. Александрова О.В. Проблемы экспрессивного синтаксиса. – Москва: Высшая школа, 1984. – С. 63.
4. Словарь иностранных слов. – 16-е изд., исправл. – Москва: Русский язык, 1988. – С. 374.
5. Ҳайдаров Ш. Бадий матнда патселлятив конструкцияларнинг қўлланилиши: Филол. фан. номз. дисс... автореф.– Тошкент, 2011. – Б. 7.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 80.
7. Юлдашев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романининг тили): Филол. фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2000. – Б.23.

O'ZBEK VA RUS TILLARI MUROJAAT ODOBINING KOMMUNIKATIV VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Shadmanova Nigora Irgashevna, dotsent v. b.
Qarshi davlat texnika universiteti
orcid 009-0005-9823-5696
UO'K 81:811.512.133:811.161.1

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va rus tillarida murojaat odobining kommunikativ va pragmatik xususiyatlari qiyosiy aspektida tahlil qilinadi. Murojaat shakllari ijtimoiy munosabatlar, madaniy me’yorlar va muloqot vaziyati kontekstida ko‘rib chiqilib, ikkala tildagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar aniqlanadi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakter kasb etib, adabiyotlar tahlili va qiyosiy-tipologik metod asosida amalga oshirilgan. Natijada o‘zbek tilida murojaat odobining qarindoshlik terminlaridan foydalanish, “ijobiy yuz” strategiyasining ustunligi va yosh prinsipi kabi milliy-madaniy xususiyatlari, rus tilida esa grammatik “Вы” va “ты” shakllarining pragmatik chegaralanishi va rasmiy hamda norasmiy muloqot uslublari o‘rtasidagi farqlanish asosiy belgi sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: murojaat odobi, nutq odobi, pragmatolingvistika, kommunikativ kompetensiya, qiyosiy tahlil, ijtimoiy maqom, muloyimlik tamoyillari.

КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕМЕНТА УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Шадманова Нигора Иргашевна, и.о. доцента
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье коммуникативные и прагматические особенности речевого этикета узбекского и русского языков анализируются в сравнительном аспекте. Формы обращения рассматриваются в контексте социальных отношений, культурных норм и коммуникативной ситуации, выявляются общие и специфические черты, присущие обоим языкам. Исследование носит теоретико-аналитический характер и осуществляется на основе обзора литературы и сравнительно-типологического метода. В результате выявлены национально-культурные особенности речевого этикета узбекского языка, такие как использование терминов родства, преобладание стратегии «положительного лица» и принцип возраста, а также прагматическая разграниченность грамматических форм «Вы» и «ты» в русском языке и дифференциация между официальным и неофициальным стилями общения.

Ключевые слова: речевой этикет, этикет обращения, прагматлингвистика, коммуникативная компетенция, сравнительный анализ, социальный статус, принципы вежливости.

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF THE ELEMENT OF THE UZBEKISTAN AND RUSSIAN LANGUAGES

Shadmanova Nigora Irgashevna, acting Associate Professor
Karshi State Technical University

Abstract. This article provides a comparative analysis of the communicative and pragmatic features of address etiquette in the Uzbek and Russian languages. Forms of address are examined in the context of social relations, cultural norms, and communicative situations, with both shared and distinctive characteristics identified in each language. The study is theoretical and analytical in nature, conducted on the basis of a literature review and a comparative-typological method. As a

result, the national and cultural features of Uzbek address etiquette – including the use of kinship terms, the predominance of the positive face strategy, and the principle of seniority – are identified, alongside the pragmatic delimitation of the grammatical forms *Вы* (formal you) and *ты* (informal you) in Russian and the differentiation between formal and informal communicative styles.

Keywords: address etiquette, speech etiquette, pragmalinguistics, communicative competence, comparative analysis, social status, politeness principles.

Kirish. Til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat tilshunoslikning eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu munosabatning eng yorqin namoyon bo‘lishi murojaat odobi tizimida ko‘rinadi. Murojaat odobi deb suhbatdoshga murojaat qilish uchun ishlatiladigan til vositalarining yig‘indisi, ularni muloqot vaziyatiga mos ravishda tanlash va qo‘llash tamoyillari tushuniladi. Har bir til tizimida murojaat shakllari o‘zining qat’iy iyerarxiyasi, madaniy konteksti va kommunikativ maqsadlariga ega bo‘lib, ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi muloqotning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Zamonaviy pragmalingvistika nuqtayi nazaridan murojaat birliklari nafaqat suhbatdoshni identifikatsiya qilish vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarni, muloqot ishtirokchilarining o‘zaro maqomi va yaqinlik darajasini ifodalovchi murakkab pragmatik belgilar sifatida talqin etiladi [1; 12]. O‘zbek va rus tillari turli genetik oilalarga mansub bo‘lishiga qaramay, uzoq tarixiy va madaniy aloqalar natijasida bir qator kommunikativ me‘yorlarni o‘zaro boyitishgan. Biroq shu bilan birga, ikkala tilning murojaat tizimlari madaniy va lisoniy jihatdan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Mazkur farqlarni ilmiy asosda o‘rganish o‘zaro muloqotda yuz berishi mumkin bo‘lgan kommunikativ noto‘g‘ri tushunishlarning oldini olish, shuningdek ikki til va madaniyat vakillari o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlash uchun nazariy zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-tipologik tahlil va pragmalingvistik tavsif usullaridan foydalanilgan. O‘zbek, rus va xorij tilshunosligiga oid birlamchi ilmiy manbalar ko‘rib chiqilib, ularda ilgari surilgan nazariy qarashlar o‘zaro solishtirish orqali umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan. Mazkur metodologik yo‘nalish murojaat odobini faqat lisoniy kategoriya sifatida emas, balki kommunikativ, ijtimoiy va madaniy fenomen sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Murojaat odobini ilmiy jihatdan o‘rganishda rus tilshunosi N.I. Formanovskayaning ishlari alohida o‘rin tutadi. U murojaat odobini nutqiy odobning markaziy tarkibiy qismi sifatida aniqlab, uning funksional-kommunikativ tabiatini atroflicha tahlil qilgan [2; 47-48]. Formanovskayaning fikricha, murojaat shakllari suhbatdoshning ijtimoiy maqomi, yoshi, jinsi va o‘zaro munosabat darajasini aks ettiruvchi murakkab pragmatik birliklardir, ular muloqotning ijtimoiy koordinatlarini belgilab, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi psixologik va ijtimoiy

masofani ifodalaydi. E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov ham til va madaniyatning uyg'unligini ta'kidlab, murojaat shakllarini lingvomadaniy fenomen sifatida talqin qilganlar [3; 83]. Ularning lingvomadaniyatshunoslik konsepsiyasida murojaat birliklari faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki milliy madaniyatning til vositasida namoyon bo'lishi sifatida ko'rib chiqiladi, bu yondashuv esa sof lingvistik tahlildan tashqariga chiqib, keng madaniy kontekstni hisobga olishni taqozo etadi.

O'zbek tilshunosligida murojaat odobi masalasini pragmalingvistika nuqtayi nazaridan o'rganishga Sh. Safarovning hissasi salmoqlidir. Sh. Safarov o'zbek tilidagi nutqiy aktlar va muloqot odobini pragmatik aspektida tahlil qilib, murojaat shakllarining kontekstga bog'liqligini ilmiy asoslagan hamda murojaat birliklarini nutqiy akt nazariyasi doirasida ko'rib chiqib, ularning lokutiv, ilokutiv va perlokutiv jihatlarini ko'rsatib bergan [1; 15]. P. Qodirov o'zbek nutq odobi tizimini keng ko'lamda tahlil qilib, murojaat shakllarining milliy-madaniy xususiyatlarini batafsil ko'rsatib bergan [5; 31-33]. Uning tadqiqotida ta'kidlanishicha, o'zbek murojaat tizimining o'ziga xos tomoni an'anaviy qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalardan ijtimoiy murojaat vositasi sifatida keng foydalanilishidir. M.Yo'ldoshev esa o'zbek tili uslubiyati doirasida murojaat birliklarining funksional-uslubiy xususiyatlarini o'rganib, ularning rasmiy va norasmiy muloqotdagi qo'llanilish me'yorlarini tavsiflab bergan [4; 56].

Xorij pragmalingvistikasida murojaat odobini o'rganishda P. Brown va S.C.Levinsonning "yuz" nazariyasi (face theory) asosiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [6; 61-62]. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday muloqotda ishtirokchilar bir-birining "ijobiy yuzini" (mavjudlikka bo'lgan ishtiyoq) va "salbiy yuzini" (mustaqillikka bo'lgan ishtiyoq) saqlashga harakat qiladi, murojaat shakllari ham ana shu ikki strategiyadan birini amalga oshirishga xizmat qiladi. G. Leech muloyimlik tamoyillarini (politeness principles) ishlab chiqqan bo'lib, bu tamoyillar murojaat odobini pragmatik jihatdan izohlashda keng qo'llaniladi [7; 107]. H.P. Grice kooperatsiya tamoyili va uning maksimalari orqali muloqotda nutqiy odobning kognitiv asoslarini ko'rsatib bergan [8; 45]. N.D. Arutyunova nutqiy aktlar va pragmatika kontekstida murojaat shakllarining semantik-pragmatik yuklamasini tahlil qilgan [9; 19]. G. Yule zamonaviy pragmatika doirasida murojaat odobini diskurs tahlili usulida ko'rib chiqib, muloqot kontekstining murojaat shakllarini belgilashdagi rolini alohida ta'kidlagan [10; 88].

Natijalar va muhokama. O'zbek va rus tillarida murojaat odobining qiyosiy tahlili bir qator muhim kommunikativ va pragmatik xususiyatlarni namoyon qildi. Ikkala tilda ham murojaat shakllari ijtimoiy maqom, yosh va munosabat darajasiga ko'ra tabaqalanadi, biroq bu tabaqalanishning lisoniy ifodalanish mexanizmlari o'rtasida tub farq mavjud. Rus tilida murojaat odobining asosini "ВЫ" va "ТЫ"

shakllarini muloqot vaziyatiga moslab tanlash tamoyili tashkil etadi. “БЫ” shakli rasmiy munosabat, yosh farqi va ijtimoiy masofa belgisi sifatida ishlatilsa, “ТЫ” shakli yaqin munosabat va tengdoshlik asosida qo‘llaniladi [2; 52]. Ushbu chegarani buzish, ya’ni rasmiy muloqotda “ТЫ” shaklidan yoki aksincha, yaqin munosabatda “БЫ” shaklidan foydalanish nutqiy odobsizlik yoki muloqot uslubining o‘zgarishi sifatida qabul qilinadi. Vereshchagin va Kostomarovning ta’rifiga ko‘ra, bu ikki shaklning muloqotdagi o‘rnini madaniy-tarixiy kontekstdan alohida holda ko‘rib chiqib bo‘lmaydi, chunki ularning semantikasi rus madaniyatidagi ijtimoiy ierarxiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir [3; 86].

O‘zbek tilida vaziyat ancha murakkab va ko‘p qatlamli: “siz” va “sen” shakllaridan tashqari, murojaat tizimida qarindoshlik terminlari (aka, opa, amaki, xola, tog‘a va boshqalar) ijtimoiy munosabatlarni ifodalashning asosiy vositasi sifatida faol qo‘llaniladi. Bu holat o‘zbek muloqot madaniyatining betakror xususiyati bo‘lib, nutqda ijtimoiy yaqinlikni ta’minlash va suhbatdoshni hurmat bilan kutib olishning o‘ziga xos lisoniy usulidir [5; 36]. Masalan, notanish, o‘rta yoshdagi kishiga “aka” yoki “opa”, katta yoshlilarga “amaki”, “xola” yoki “ota”, “ona” deb murojaat qilish ijtimoiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri va me‘yoriy hisoblanadi. Bunday murojaat shakli ijtimoiy yaqinlikni yaratish va suhbatdoshni o‘zaro oila a‘zosi sifatida idrok etishning belgisi sifatida talqin etiladi. Rus tilida esa bunday murojaat tizimi mavjud emas va notanish kishiga qarindoshlik terminlari bilan murojaat qilish g‘ayritabiiy holat sifatida qabul qilinishi mumkin. M. Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, o‘zbek tilidagi murojaat tizimining bu xususiyati tilning milliy-madaniy qiyofasini aks ettiruvchi muhim belgilardan biridir [4; 59].

Brown va Levinsonning nazariyasi nuqtayi nazaridan ushbu farqni quyidagicha izohlash mumkin: o‘zbek muloqot madaniyatida “ijobiy yuz” strategiyasi, ya’ni suhbatdosh bilan yaqinlikni, birlikni va hamjihatlikni ta’kidlash ustuvorlik qiladi [6; 65-66]. Shu sababli qarindoshlik terminlaridan keng foydalanish, samimiy murojaat shakllari va hamkorlikka yo‘naltirilgan kommunikativ xatti-harakatlar o‘zbek muloqotida me‘yoriy hodisa hisoblanadi. Rus muloqotida esa “salbiy yuz” strategiyasi, ya’ni suhbatdoshning mustaqilligini va shaxsiy makonini hurmat qilish ko‘proq namoyon bo‘ladi, “БЫ” shaklining keng qo‘llanilishi ham ana shu strategiyaning lisoniy ifodasi sifatida talqin etilishi mumkin. Leechning muloyimlik tamoyillari kontekstida aytganda, o‘zbek murojaat odobida yaqinlashtirish va tasdiqlash tamoyillari ustunroq namoyon bo‘lsa, rus tilida masofa saqlash va hurmat bildirish tamoyillari ko‘proq ko‘zga tashlanadi [7; 112].

O‘zbek tilida murojaat shakllarini tanlashda yosh omili hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kattalarga nisbatan “siz” shaklidan foydalanish, ularni hurmat bilan atash va muloqotda tengdoshlikka da’vo qilmaslik o‘zbek muloqot madaniyatining asosiy

me'yorlaridan biri hisoblanadi [5; 42]. Bu me'yorning buzilishi nafaqat nutqiy odobsizlik, balki umuman insonning yetarli tarbiya olmayotganligi belgisi sifatida qabul qilinadi va muloqot vaziyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Grice tomonidan belgilangan munosabat maksimasi (maxim of relation) nuqtayi nazaridan ham ushbu yosh prinsipi o'zbek muloqot me'yorlari doirasida mutlaqo zaruriy qoida sifatida ko'rinadi [8; 47]. Rus tilida yosh va ijtimoiy maqom ham muhim omillar hisoblanadi, lekin ular o'zbek tilidagidek qat'iy majburiy me'yor ko'rinishida emas, balki vaziyatga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Murojaat odobining yana bir muhim pragmatik jihati rasmiy va norasmiy muloqot uslublari o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq. O'zbek tilida bu chegara ko'pincha murojaat shakllari orqali emas, balki umumiy nutq uslubi orqali ifodalanadi: murojaat shakllari bir xil bo'lgani holda, masalan, katta kishiga har doim "siz" deb murojaat qilinganda, leksika va sintaktik qurilmalar rasmiy yoki norasmiy tus kasb etishi mumkin [4; 61]. Rus tilida esa rasmiy va norasmiy muloqot "Вы" va "Ты" shakllarining muqobil qo'llanilishi orqali aniq belgilanadi va do'stlik munosabatidagi kishilar ham rasmiy muhitda "Вы" shakliga o'tishlari me'yoriy hodisa hisoblanadi [2; 55-56]. Yule tomonidan ta'kidlanganidek, kontekstualizatsiya jarayonida murojaat shakllari muloqotning ijtimoiy parametrlarini belgilashda birlamchi signal vazifasini bajaradi [10; 91]. Arutyunovanning fikriga ko'ra esa murojaat shakllari nutqiy aktning ilokutiv kuchini belgilashda muhim rol o'ynaydi va ularning to'g'ri tanlanishi suhbatdoshga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta'sir qiluvchi perlokutiv effektini shakllantirishga xizmat qiladi [9; 22].

Murojaat odobini qiyosiy o'rganishda gender omilining ta'siri ham alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbek tilida ayollarga va erkaklarga murojaat shakllarida ma'lum farqlar kuzatiladi: ayollarga murojaat qilishda "opa", "xola", "bibi" kabi murojaat shakllari qo'llanilsa, erkaklarga "aka", "amaki", "ota" kabi shakllar afzal ko'riladi. Ushbu gender chegaralanishi nafaqat lisoniy, balki madaniy-axloqiy me'yor sifatida ham o'zbek jamiyatida mustahkam o'rin egallagan va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollarini belgilashga xizmat qiladi. Rus tilida esa gender omili murojaat shakllarini tanlashda o'zbek tilidagidek qat'iy belgilangan tizim ko'rinishida emas, balki ko'proq shaxs ismining to'liq yoki qisqartirilgan shaklida, shuningdek "господин" va "госпожа" kabi rasmiy murojaat shakllarida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, sovet davrida keng tarqalgan "товарищ" murojaat shakli o'z gender neytralligini saqlab kelgan, ammo zamonaviy rus muloqotida bu shakl siyosiy-mafkuraviy kontekst bilan bog'liq holda qo'llaniladi va umumiy murojaat sifatida ishlatilmaydi. Shu tariqa ikkala tildagi gender va murojaat odobi o'rtasidagi munosabat turli madaniy paradigmalar doirasida shakllanganligini ko'rsatadi.

O'zbek va rus tillarida murojaat odobining yoshga bog'liq tabaqalanishi ham pragmatik jihatdan muhim farqlanuvchi soha hisoblanadi. O'zbek lisoniy-madaniy

an'anasida yosh kattaroq kishiga murojaat qilishda "siz" shaklining ishlatilishi mutlaq majburiy me'yor bo'lib, bu me'yor oilaviy muloqotdan tortib to rasmiy jamoat sohasigacha barcha muloqot doiralarida amal qiladi. Hatto tengdoshlar o'rtasida ham agar bir tomoni ijtimoiy jihatdan yuqori maqomga ega bo'lsa, hurmat shaklining qo'llanilishi tabiiy holat hisoblanadi. Ushbu yosh prinsipi o'zbek madaniyatining patriarxal an'analari va katta-kichik munosabatlariga asoslangan iyerarxik ijtimoiy tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u murojaat shakllarining tanlovi orqali lisoniy matnda o'zini yaqqol namoyon etadi. Rus madaniyatida ham yoshga hurmat muhim qadriyat sifatida e'tirof etiladi, biroq u o'zbek madaniyatidagi kabi qat'iy iyerarxik tizim ko'rinishida emas, balki ko'proq vaziyatga va shaxsiy munosabatga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ikkala tilning murojaat tizimidagi yosh prinsipi turli kulturologik paradigmalarda asosida shakllanib, umumiy qadriyatning turlicha lisoniy ifodalanishini aks ettiradi.

Murojaat odobining shakllanishida globallashtirish va zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhitining o'zgaruvchan ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron muloqot va yoshlar subkulturasini ta'sirida an'anaviy murojaat me'yorlari o'zbek tilida ham, rus tilida ham ma'lum o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O'zbek tilidagi yozma onlayn muloqotda, xususan, yoshlar o'rtasida "siz" va "sen" shakllarining aralashirilishi, an'anaviy murojaat terminlarining soddalashtirilib qo'llanilishi holatlari kuzatilmoqda, bu esa raqamli muhitning kommunikativ me'yorlarga ko'rsatayotgan transformatsion ta'siridan dalolat beradi. Rus tilidagi onlayn muloqotda ham "ВЫ" shaklidan voz kechib, "ТЫ" shaklini afzal ko'rish tendensiyasi kuchaymoqda, bu holat raqamli muloqotning demokratlashtiruvchi va iyerarxiyani tekislovchi xususiyatini ko'rsatadi. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, raqamli muhitdagi bu o'zgarishlar hali an'anaviy yuzma-yuz muloqotdagi me'yorlarni to'liq o'zgartira olgani yo'q va ikkala tilda ham an'anaviy murojaat odobi tizimi asosiy me'yor maqomini saqlab qolmoqda.

Nihoyat, murojaat odobining tarjima va ikki tillilik sharoitidagi pragmatik muammolari ham ushbu sohadagi muhim tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. O'zbek va rus tillari o'rtasida tarjima jarayonida murojaat shakllarini bir tildan ikkinchisiga o'tkazish ko'pincha pragmatik ekvivalentlik muammosini keltirib chiqaradi. O'zbek tilidagi qarindoshlik terminlaridan ijtimoiy murojaat sifatida foydalanish rus tiliga tarjima qilinganda, bu shakllarning to'liq ekvivalenti mavjud emasligi tufayli ma'noning madaniy-pragmatik qatlami yo'qolib ketishi xavfi tug'iladi. Aksincha, rus tilidagi "ВЫ" va "ТЫ" shakllarining pragmatik farqini o'zbek tiliga o'tkazishda ham murojaat shakllariga emas, balki butun kontekstual muhit hisobga olinishi zarur bo'ladi. Ikki tilli muloqotda esa murojaat shakllari borasida kommunikativ interferensiya hodisasi yuz berib, bir tilning me'yorlari ikkinchi tilga ko'chirilishi

natijasida nutqiy noto'g'ri tushunishlar kelib chiqishi mumkin. Bu holat o'zbek-rus ikki tilli kommunikatsiya madaniyatini o'rgatishda murojaat odobiga alohida e'tibor qaratilishini va uni pragmatik jihatdan chuqur o'rganishning amaliy zaruriyatini ko'rsatadi.

Murojaat odobining kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini o'rganishda muloqot vaziyatining turiga ko'ra shakllar tanlovi masalasi ham alohida tahlilni talab etadi. Rasmiy muloqot vaziyatlari, ya'ni ish yig'ilishlari, davlat muassasalaridagi muloqot, rasmiy tantanalar va jamoat joylari kabi muhitlarda ikkala tilda ham murojaat odobining me'yorlari noaniq ko'rinishda emas, balki ancha qat'iy ijtimoiy kutilmalar tarzida mavjud bo'ladi. O'zbek tilida rasmiy vaziyatlarda "siz" shaklining muqarrarligi va murojaat terminining to'g'ri tanlanishi nafaqat nutqiy madaniyat belgisi, balki kasbiy obro'ning ham muhim ko'rsatkichi sifatida qabul qilinadi. Norasmiy muloqot vaziyatlarida, jumladan, do'stlar davrasida, oilaviy suhbatlarda yoki mahalla muhitidagi kundalik muloqotda esa murojaat shakllari ancha erkinroq va vaziyatga moslashuvchan tarzda qo'llaniladi. Rus tilida ham rasmiy va norasmiy vaziyatlar o'rtasidagi chegara murojaat shakllari vositasida yaqqol belgilanadi va muloqot ishtirokchilari ushbu chegarani o'zlashtirilgan ijtimoiy me'yor sifatida ongsiz ravishda qo'llaydilar. Vaziyatga bog'liq murojaat shakllarini to'g'ri tanlash ikki tilda ham kommunikativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, bu ko'nikma ona tilida tabiiy ravishda shakllanadi, chet tilini o'rganuvchilar uchun esa uni egallash alohida didaktik e'tiborni talab qiladigan masala bo'lib qoladi.

Xulosa. O'zbek va rus tillarida murojaat odobining kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ikkala tilda ham murojaat shakllari muloqot odobining markaziy tizimini tashkil etib, ijtimoiy munosabatlarni lisoniy jihatdan ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biroq ushbu tizimlarning ichki qurilishi, pragmatik tamoyillari va madaniy konteksti o'rtasida chuqur farqlar mavjud. O'zbek tilida murojaat odobining milliy o'ziga xosligi, avvalo, qarindoshlik terminlarining ijtimoiy murojaat vositasi sifatida keng qo'llanilishi, yosh prinsipi asosida hurmat shakllarining majburiy tarzda tanlanishi va "ijobiy yuz" strategiyasining ustunligi bilan belgilanadi. Rus tilida esa "Вы" va "ты" shakllarining pragmatik jihatdan aniq chegaralanishi, rasmiy va norasmiy muloqot o'rtasidagi keskin farq hamda ijtimoiy masofani hurmat sifatida namoyon etish tendensiyasi asosiy xususiyat bo'lib ko'rinadi. Ikkala tildagi murojaat tizimlari Brown va Levinson nazariyasi doirasida turli "yuz" strategiyalarini amalga oshiradi, Leechning muloyimlik tamoyillari esa ularning pragmatik tabiatini tushuntirishda ishonchli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari tilshunoslik, pragmatik va muloqot madaniyatini o'rganuvchi mutaxassislar uchun amaliy qiziqish uyg'otishi bilan birga, o'zbek va rus tillaridagi murojaat odobini yanada keng va chuqur, diskurs tahlili usullari bilan o'rganishning ilmiy zaruriyatini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 280 b.
2. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – Москва: Высшая школа, 1989. – 159 с.
3. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – Москва: Русский язык, 1990. – 246 с.
4. Yo‘ldoshev M. O‘zbek tili uslubi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 224 b.
5. Qodirov P. O‘zbek nutq odobi. – Toshkent: Fan, 2002. – 160 b.
6. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
7. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.
8. Grice H.P. Logic and Conversation // Studies in the Way of Words. – Cambridge: Harvard University Press, 1989. – P. 22–57.
9. Арутюнова Н.Д. Прагматика // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – С. 389–390.
10. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK TILINING IJTIMOIIY-SIYOSIY LEKSIKASINING RIVOJLANISHI

Toshtemirov Baxtiyor, o‘qituvchi

Qarshi davlat universiteti

<https://orcid.org/0009-0000-0003-3695>

UO‘K 811.512.133'373.45(091)

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasi shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tadqiq etiladi. Turkiston hududida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarning til lug‘at tarkibiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasi ma’muriy boshqaruv tizimi, jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish va matbuot taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangi siyosiy terminlar hamda ijtimoiy tushunchalarning semantik va funksional xususiyatlari yoritiladi. Tarixiy manbalar asosida mazkur davr ijtimoiy-siyosiy leksikasining boyish omillari aniqlanib, uning zamonaviy o‘zbek siyosiy terminologiyasi shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy leksika, jadidchilik, Turkiston, milliy uyg‘onish, matbuot, terminologiya, siyosiy nutq, ma’rifat, millat, istiqlol.

РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Тоштемиров Бахтиёр, преподаватель
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье исследуются процессы формирования и развития общественно-политической лексики узбекского языка конца XIX – начала XX века. Анализируется влияние политических, экономических и культурных изменений, происходивших в Туркестане, на словарный состав узбекского языка. Рассматриваются семантические и функциональные особенности новых политических терминов и общественных понятий, возникших под влиянием административной системы Российской империи, джадидского движения, национального возрождения и развития периодической печати. На основе исторических источников выявляются основные факторы обогащения общественно-политической лексики данного периода и обосновывается её значение в формировании современной узбекской политической терминологии.

Ключевые слова: общественно-политическая лексика, узбекский язык, Туркестан, джадидизм, национальное возрождение, политическая терминология, терминология, периодическая печать, Российская империя, лексическое развитие, историческая лексикология, развитие языка.

THE DEVELOPMENT OF THE SOCIO-POLITICAL VOCABULARY OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE LATE NINETEENTH AND EARLY TWENTIETH CENTURIES

Toshtemirov Bakhtiyor, lecturer
Karshi State University

Abstract. This article examines the formation and development of the socio-political vocabulary of the Uzbek language in the late nineteenth and early twentieth centuries. It analyzes the impact of political, economic, and cultural changes in Turkestan on the lexical system of the Uzbek language. The study explores the semantic and functional features of new political terms and social concepts that emerged under the influence of the administrative system of the Russian Empire, the Jadid movement, the national awakening, and the development of the press. Based on historical sources, the article identifies the main factors contributing to the enrichment of socio-political vocabulary and substantiates its significance in the formation of modern Uzbek political terminology.

15. Довлатов С. Д. Собрание сочинений: в 4 т. – СПб.: Азбука, 2017.
16. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975.
17. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Наука, 1980.
18. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – М.: Флинта; Наука, 2016.
19. Черняк М. А. Поэтика прозы Сергея Довлатова // Вопросы литературы, 2005. – № 3.

NAMANGAN VILOYATI GEMERONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA TADRIJIY TAHLILI

Yuldashev Otabek Toshpo‘lat o‘g‘li, dotsent
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti
otabekuldashev91@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-5887-9094>
UO‘K: 1751

Annotatsiya. Matbuot nashrlari o‘ziga xos nomlanish tarixga ega. Onomastikada matbuot nashrlarining maxsus atoqli nomlari gemeronim (yun. *guera* – *gema* – *kun*, *sutka* + *onoma* – *atoqli ot*)lar deb ataladi. Gemeronimlar ideonimlarning bir turi sifatida onomastik mikroko‘lamni tashkil qiladi. Gemeronimlarning paydo bo‘lishi, tarixi, lisoniy takomili, nominatsion-motivatsion, leksik-semantik, derivatsion, funksional xususiyatlari onomastikaning gemeronimika bo‘limida o‘rganiladi. Boshqa nomlar kabi gemeronimlar ham insoniyat tarixining kichik bir qirradi ifodalanadi. O‘zbek tili gemeronimiyasi eskirish, yangilanish va sayqallanish asosida taraqqiy etdi hamda takomilga erishdi.

Maqolada Namangan viloyatida nashr etilgan gazetalarning tarixiy, tadrijiy takomili va leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda 1918-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrda viloyat matbuotida paydo bo‘lgan “*Ishchilar qalqoni*”, “*Erkinlik*”, “*Zarbdor*”, “*Namangan haqiqati*”, “*Namangan sadosi*” kabi gemeronimlarning shakllanish bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ta’sirida o‘zgarishi va takomillashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, gazeta nomlarining yasalish modellari, leksik-semantik va metaforik ma’nolari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, ideonim, gemeronim, mikroko‘lam, leksik-semantik tahlil, tadrijiy tadqiq, toponim, atoqli ot.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕМЕРОНИМОВ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Юлдашев Отабек Тошпулатович, доцент
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Наманганский государственный университет

Аннотация. В ономастике специальные собственные имена печатных изданий называются гемеронимами (от греч. *hēmera* – день, сутки + *onoma* – собственное имя). Гемеронимы, как один из видов идеонимов, образуют отдельный ономастический микрокомпонент. Возникновение, история, лингвистическое развитие, номинативно-мотивационные, лексико-семантические, деривационные и функциональные особенности гемеронимов изучаются в разделе гемеронимики ономастики. Как и другие имена, гемеронимы отражают небольшой фрагмент истории человечества. Гемеронимия узбекского языка развивалась и достигла совершенства через процессы устаревания, обновления и совершенствования.

В статье исследованы историческое и эволюционное развитие, а также лексико-семантические характеристики газет, издававшихся в Наманганской области. В исследовании проанализированы этапы формирования, изменения под влиянием общественно-политических условий и эволюция таких гемеронимов, как «*Ишчилар қалқони*», «*Эркинлик*», «*Зарбдор*», «*Наманган ҳақиқати*», «*Наманган садоси*» появившихся в областной печати с 1918 года по настоящее время. Также раскрыты модели образования названий газет, их лексико-семантические и метафорические значения.

Ключевые слова: ономастика, идеоним, гемероним, микрокомпонент, лексико-семантический анализ, историческое исследование, топоним, имя собственное.

LEXICAL-SEMANTIC AND HISTORICAL ANALYSIS OF GEMERONYMS IN NAMANGAN REGION

Yuldashev Otabek Toshpulat ugli, Associate Professor
doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Abstract. The names of press publications have their own historical naming tradition. In onomastics, the special proper names of press publications are called **hemeronyms** (from Greek *hēmera* – day, daytime + *onoma* – proper name). Hemeronyms, as one of the types of ideonyms, constitute a distinct onomastic micro-layer. The emergence, history, linguistic development, nominative-motivational, lexical-semantic, derivational, and functional characteristics of hemeronyms are studied within the hemeronymics section of onomastics. Like other names, hemeronyms reflect a small fragment of human history. The hemeronymy of the Uzbek language has developed and reached perfection through the processes of obsolescence, renewal, and refinement.

The article presents a comprehensive study of the historical and evolutionary development as well as the lexical-semantic characteristics of newspapers published in Namangan region. The research analyzes the stages of formation, changes under the influence of socio-political conditions, and the evolution of such hemeronyms as “*Ishchilar qalqoni*”, “*Erkinlik*”, “*Zarbdor*”, “*Namangan haqiqati*”, and “*Namangan sadosi*” which appeared in the regional press from 1918 to the present day. It also reveals the models of formation of newspaper names, their lexical-semantic and metaphorical meanings.

Keywords: onomastics, ideonym, hemeronym, micro-layer, lexical-semantic analysis, historical research, toponym, proper name.

Kirish. Nomshunoslikada gemeronimlar ideonimlarning bir turi sifatida qaraladi. Gemeronimlar (grekcha. *gmera* – “*gemero*” – kun, sutka + *onoma* – nom) – ommaviy matbuot nashrlari: gazeta, jurnal, byulleten va xabarnomalarning atoqli maxsus nomlari [1]. Masalan, “*Uchqun*”, “*Saodat*”, “*Tong yulduzi*”, “*G‘uncha*” kabi.

Gemeronim termini N.V.Podolskaya tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, keyin I.V.Kryukova tomonidan uning ma’no-mundariyasi boyitilgan va qo‘llanishi faollashtirilgan.

Gemeronimlar ideonimlarning bir turi sifatida onomastik mikroko‘lamni tashkil qiladi. N.V.Podolskayaning fikricha, ideonimlar – “inson faoliyatining intellektual, g‘oyaviy va badiiy sohasida denotatlarga ega turli toifadagi atoqli nomlar” [2]. Bu jihatdan gemeronimlar leksik va konseptual boyitilganligi bois ideonimlarga yaqin turadi.

Olima gemeronim onomastik birligini quyidagicha tariflaydi: “Davriy bosma nashrlar – bu faqat ommaviy axborot vositalari turlaridan biri. Ommaviy axborot vositalarining boshqa muhim turlari radio-, tele-, video-, kinoxronik dasturlar hisoblanadi. Xuddi davriy bosma nashrlar singari, ular ham umumiy mavzu va g‘oya bilan birlashtirilgan hamda doimiy nomlarga ega bo‘lgan materiallar to‘plamidir.

Asosiy qism. Har bir ma’muriy-hududiy birliklar – respublika, viloyat, tuman va yirik davlat muassasa hamda tashkilotlari o‘zining muayyan matbuot nashriga ega.

Respublikadagi boshqa viloyat va shaharlar kabi Namangan ham o‘z matbuot nashrlariga ega. Namangan viloyati va shahri nashrlari amaldagi ijtimoiy-siyosiy va lisoniy omillar ta’sirida o‘zgarib, takomillashib borgan. Bu quyidagi tahlillarda yorqin ko‘rinadi.

Namanganda birinchi o‘zbekcha gazeta Namangan sho‘rosi ijroiya qo‘mitasining qarori bilan 1918-yil 1-sentyabr yakshanba kuni “*Ishchilar qalqoni*” nomi bilan nashr etilgan. Mazkur gazeta 1919-yilgacha 400 nusxada chiqib turgan. Tuzilishiga ko‘ra birikma shaklidagi murakkab tarkibli gemeronim *ishchilar va qalqoni* so‘zlarining moslashuv usulida bog‘lanishidan hosil bo‘lgan.

Qalqon ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Jangchining tanasini qilich, nayza va shu kabi tig‘li qurollar zarbidan himoya qiluvchi, turli materiallardan yasalgan moslama. *Badia siri fosh bo‘lib – qilichi sinib, qalqoni teshilgan sarbozlarday, lol bo‘lib qoldi.* (Mirmuhsin, “Me’mor”)

2. Ko‘chma. Ofat, balo, ko‘ngilsiz hodisalar va shu kabilardan saqlovchi vosita; to‘siq, g‘ov. *Qum balosiga, garmsel balosiga nima qalqon – daraxt qalqon.* (Oybek, “Oltin vodiya shabadalar”) [5].

Nomga lug‘aviy asos bo‘lgan *ishchilar* so‘zi o‘z ma’nosida, *qalqon* lug‘aviy birligi ko‘chma ma’noda qo‘llangan, ya’ni gemeronimga so‘zning *ofat, balo, ko‘ngilsiz hodisalar va shu kabilardan saqlovchi vosita; to‘siq, g‘ov* ma’nosi lug‘aviy asos bo‘lgan. Demak, “*Ishchilar qalqoni*” gemeronimi ishchilarni *turliofat, balo, ko‘ngilsiz hodisalardan saqlovchi vosita; to‘siq, g‘ov bo‘luvchi matbuot nashri* onomastik ma’nosiga ega.

1919-yil 18-iyulda shahar deputatlar sho‘rosi ijroqo‘mining 186-raqamli qaroriga asosan yuqoridagi gazeta negizida “*Erkinlik*” gazetasi nashr etiladi. “*Erkinlik*” – 1919-yil iyul-sentyabr oylarida haftada 2-marta Namangan shahrida nashr etilgan [9].

Erkinlik so‘zi ko‘p ma’noli bo‘lib, quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Biror jihatdan cheklanish, tazyiq va shu kabilardan xolislik; kishining o‘z istagi bo‘yicha ish tutishi.

2. Erkin hayot, sharoit.

3. Ozodlik, mustaqillik; hurriyat, erk [6].

“*Erkinlik*” gemeronimiga *erk* so‘zidan yasalgan o‘zbekcha *erkinlik* mavhum otini yuqoridagi ma’nolari bilan lug‘aviy asos bo‘lgan. Jadidlarning yangicha fikr va g‘oyalarini erkin targ‘ib qilish maqsadida gazetaga shunday nom berilgan. Gazeta davr nuqtayi nazaridan aytganda, ozodlik, mustaqillik, hurriyat va erkka erishgan, tazyiq va cheklanishlardan holi, erkin hayot kechirayotgan xalq hayotini yoritishni maqsad qilganligi bois “*Erkinlik*” deb atalgan.

Yana bir boisi “*Erkinlik*” degan nom xalqning qalbi va yuragi tubida cho‘kib, armonga aylanayotgan so‘z bo‘lgan. Tabiiyki, bu nomni eshitgan xalq umidlangan, ertangi kun ishtiyiqi bilan yashay boshlagan, aslida nom zamiridagi asosiy maqsad ham xalqni erkinlikka bo‘lgan istagini uyg‘otishdan iborat bo‘lgan.

1931-yil fevral oyidan Namangan shahri gazetasining 1-soni “*Zarbdor*” nomi bilan haftasiga uch marta chiqa boshgan. 1936-yildan mazkur gazeta “*Udarnik*”, 1939-yildan boshlab “*Stalin haqiqati*” nomi bilan nashr etilgan. 1941-yil 11-martda Namangan viloyati tashkil etilishi munosabati bilan mazkur nashr viloyat gazetasi maqomini olgan. 1958-yildan bu gazeta “*Namangan haqiqati*” nomi bilan nashr etilgan. Demak, 1918-yil 1-sentyabrdan “*Ishchilar qalqoni*” gazetasi nashri bilan Namangan viloyat hokimligining ijtimoiy-siyosiy nashri “*Namangan haqiqati*” gazetasi tarixi boshlangan [3]. “*Ishchilar qalqoni*” (1918 – 1919), “*Erkinlik*” (1919 – 1921), “*Zarbdor*” (1921 – 1936), “*Stalin haqiqati*” (1936 – 1948) kabi matbuot nashrlari “*Namangan haqiqati*” gazetasining yuzaga kelishi va takomiliga asos bo‘lgan.

“*Zarbdor*” gemeronimining lug‘aviy asosi *zarbdor* apellyativi tarixiy-etimologik jihatdan arabcha va forscha birliklardan tarkib topgan bo‘lib, asli *zarbaga ega*, *zarbli* ma’nolarini anglatadi [7]. Belgi-xususiyat ifodalovchi so‘zning ana shu asl ma’nosi gemeronimga lug‘aviy asos bo‘lgan. Gazeta ishchi, mehnatkash va dehqonlarni jadal sur’atlar bilan ishlashga, ishni tez va ortig‘i bilan bajarishga chorlovchi nashr sifatida maqsad-mohiyat motivatsiyasi asosida nomlangan.

“*Udarnik*” gemeronimiga ruscha *udarnik* omonim apellyativi [8] lug‘aviy asos bo‘lgan. *Udarnik* lug‘aviy birligi aynan *zarbdor* so‘zining ruscha muqobilidir. Demak, 1936-yilda sobiq tuzum, rus tiliga e’tiborning kuchayishi kabi salbiy omillar ta’sirida nom ruscha muqobili bilan almashtirilgan. “*Zarbdor*”, “*Udarnik*” gemeronimlari tuzilishiga ko‘ra sodda tarkibli bo‘lib, apellyativlarning hech qanday grammatik vositalarsiz, o‘zgarishsiz konversiya usulida atoqli ot – onomastik birlikka o‘tishi natijasida hosil bo‘lgan.

1994-yil 1-apreldan e’tiboran shahar gazetasi “*Namangan sadosi*” nomi bilan haftada bir marta payshanba kuni nashr etilmoqda. Ahmad Ubaydullohning fikricha, Namangan shahri gazetasining tarixi 1931-yil fevral oyida nashr etilgan “*Zarbdor*” gazetasi bilan bog‘liq, shahar gazetachiligi ana shu nashrdan boshlangan [4].

“*Namangan haqiqati*”, “*Namangan sadosi*” gemeronimlari tuzilishiga ko‘ra murakkab tarkibli bo‘lib, birikma shaklida, atoqli ot (viloyat, shahar nomi – toponim: xoronim va polisonim) + apellyativ modelida, ya’ni toponimga matbuot nashrlari hosil qiluvchi *haqiqati*, *sadosi* apellyativlarining bog‘lanishidan hosil bo‘lgan.

Haqiqat arabcha so‘z bo‘lib, *chinlik*, *rostlik*, *to‘g‘rlik*; *chin*, *to‘g‘ri gap* ma’nolarini anglatadi. O‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1. Chindan ham bo'lgan, voqelikka mos holat, narsa. Masalan, *Ishga kelganidan beri endi bitta jiddiy topshiriq oldi, haqiqatni aytmaslik gunoh.* (F. Musajonov, "Himmat")

2. Ma'lum tartib-qoida, qonunlarga mos ish, xatti-harakat, holat; rostlik, to'g'rilik: *Xalq afsonalarida o'z orzu-umidlarini, yurak nidosini... yaxshilik va haqiqat uchun kurashni ifodalagan.* (O'zbekiston qo'riqlari).

3. fls. Kishi ongida voqelikning, obyektiv borliqning haqqoniy to'g'ri aks etishi.

4. Rostligi fanniy yo'l bilan isbotlangan, tajribada sinalgan holat, hukm, fikr: *Mana shu soddagina rivoyat zamiriga san'atning mohiyati haqidagi ulug' haqiqat singdirib yuborilgan.* (Yoshlik)

5. din. Ilohiyatni (Xudoning borligini) o'z-o'zidan anglashiladigan, isbot talab qilmaydigan, shubhadan tashqari, aniq bir hodisa deb tushunish [5].

So'z asl ma'nolari bilan "*Namangan haqiqati*" gemeronimga lug'aviy asos bo'lgan. "*Namangan haqiqati*" gazetasi viloyat hayotining ko'zgusi sifatida umumiyqisodiy, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim va boshqa sohalardagi yangilik va o'zgarishlarni, jismoniy tarbiya va sport masalasini keng va mufassal yoritadi [10]. Demak, gemeronim Namangan viloyati ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotiga doir yangilik hamda xabarlarini real, to'g'ri, mukammal yorituvchi nashr onomastik ma'nosini anglatadi.

"*Namangan sadosi*" gemeronimi tarkibidagi *sado* arabcha so'z bo'lib, *uzoqdan eshitilgan tovush; chaqiriqqa javob* degan ma'noni anglatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *tovush, ovoz* degan ma'noda qo'llanadi: *Nog'oralar gumburi va karnaylar sadosi yana osmonu falakka chiqdi.* (O. Yoqubov, "Ko'hna dunyo").

Nom tarkibida *sado* lug'aviy birligi aynan yuqoridagi ma'nolarda qo'llangan. Gemeronim Namangan shahri ahlining *hukumat farmon, qarorlariga javobini, ya'ni faol ijtimoiy-siyosiy va ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyati – sadosini yorituvchi nashr* tushunchasini ifodalaydi.

Xulosa. Tahlillardan ko'rinadiki, rus va yevropa tillari, matbuoti va davr siyosati ta'sirida yuzaga kelgan matbuot nashrlarining nomlari – gemeronimlar asrlar, yillar davomida shaklan va ma'naviy jihatdan sayqallanib, milliylashib hozirga shaklga kelgan.

Hozirgi kunga kelib, Namangan viloyatining har bir tumani hokimliklarining "*Istiqlol*" (Namangan tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy gazetasi), "*Chortoq haqiqati*" (Namangan viloyati Chortoq tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy gazetasi), "*Chust haqiqati*" (Namangan viloyati Chust tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy gazetasi), "*Davr*" (Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy

gazetasi), *“Uychinoma”* (Namangan viloyati Uychi tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi), *“Yorqin hayot”* (Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi), *“Pop tongi”* (Namangan viloyati Pop tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi), *“Norin ovozi”* (Namangan viloyati Norin tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi), *“Minbuloq”* (Namangan viloyati Mingbuloq tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi), *“Kosonsoynoma”* (Namangan viloyati Kosonsoy tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi), *“Yangiqo‘rg‘on hayoti”* (Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazetasi) kabi gazetalari, *“Mahorat maktabi”* (ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ommabop, metodik nashr), *“Ayol va jamiyat”* (Namangan viloyati xotin-qizlar qo‘mitasining nashri), *“Shifokor va hayot”* (Namangan viloyati tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-siyosiy gazetasi), *“Murabbiy”* (ma’naviy-ma’rifiy, metodik, ilmiy-ommabop, metodik gazeta), *“Bolalar dunyosi”* (madaniy-ma’rifiy, ommabop nashr), *“Xalq irodasi”* (Xalq demokratik partiyasi Namangan viloyati kengashining ijtimoiy-siyosiy nashri), *“Yoshlar nigohi”* (ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, ommabop nashr), *“Diyonat”* (ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-ommabop nashr), *“Huquq olamida”* (ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy gazeta), *“Dunyo va davr”* (ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy gazeta), *“Ibrat”* (ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, ommabop gazeta), *“Begoyim”* (ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy va uy bekalariga mo‘ljallangan gazeta), *“Hayrat press”* (ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy gazeta), *“Inter futbol”* (madaniy-ma’rifiy va sport yo‘nalishidagi gazeta), *“Inter sport”* (madaniy-ma’rifiy va sport yo‘nalishidagi gazeta), *“Kino+TV”* (ma’naviy-ma’rifiy, ommabop, ko‘ngilochar dasturlar nashri), *“Tamaddun”* (ilmiy, adabiy-badiiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy nashr), *“Bolajon”*, *“O‘zbekoyim”* (Namangan viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ijtimoiy-ma’naviy, ommabop gazetasi), *“Tadbirkor”* (ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, axborot nashri), *“Asr futboli”* (madaniy-ma’rifiy va sport yo‘nalishidagi gazeta), *“Me‘mor va zamon”* (ilmiy-amaliy jurnal), *“Taraqqiyot mezon”* (ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy gazeta), *“Repetitor”* (maktab o‘quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalarning intellektual-ma’rifiy gazeta), *“Uchqo‘rg‘on g‘unchalari”* (Uchqo‘rg‘on tumani yoshlari va o‘smirlarini sog‘lomlashtirish va barkabol tarbiyalashga mo‘ljallangan ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-badiiy gazeta), *“Tibbiyot va zamon”* (Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi gazeta), *“Qaldirg‘och”* (ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy nashr), *“Mehnat muhofazasi va ijtimoiy himoya”* (ma’naviy-ma’rifiy, ommabop, ijtimoiy nashr), *“Biznes: audit, baho, mulk”* (ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy nashr) kabi muassasa, tashkilot va qo‘mitalarning turli sohalarga oid 40 dan ziyod gazeta hamda jurnallari nashr

etilmoqda. Bu o‘zbek tili gemeronimiyasi miqdoran va mazmunan boyiganligi hamda lisoniy jihatidan takomillashayotganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

20. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек онамастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 23.
21. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н.В. Подольская. – М: Наука, 1988. – С. 61.
22. Убайдуллаев А. Дастлабки газеталар // Наманган ҳақиқати, 1993, 01.12.
23. Убайдуллоҳ, Аҳмад. Шаҳарнинг биринчи газетаси // Наманган садоси, 1996, 31.10.
24. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. 5-ж. – Б. 520-523.
25. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. 5-ж. – Б. 49-50.
26. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. 2-ж. – Б. 135.
27. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. 4-ж. – Б. 264.
28. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2005. 9-ж. – Б. 394.
29. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. 6-ж. – Б. 258.

ANIMISTIK TASAVVURLARGA KO‘RA QUYOSH ANTROPONIMI

Kenjayeva Sabohat Eshmamatovna, dotsent
 filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)
 Qarshi davlat universiteti
<https://orcid.org/0009-0009-1739-314X>
 UO‘K 413.13 K 37

Annoyatsiya. Mazkur maqolada animistik tasavvurlar asosida shakllangan quyosh bilan bog‘liq antroponimlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va madaniy-ma’naviy asoslari tahlil qilingan. Qadimgi xalqlarning dunyoqarashida quyosh hayot manbai, muqaddas kuch va homiy timsoli sifatida talqin qilinganligi bois inson ismlarida ham o‘z aksini topgan. Maqolada quyosh kulti bilan bog‘liq antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularning mifologik va animistik qarashlar bilan aloqasi yoritilgan. Shuningdek, turkiy xalqlar antroponimiyasida uchraydigan quyoshga oid ismlarning ma’nosi va vazifasi misollar asosida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari animistik tasavvurlarning antroponimlar tizimida muhim o‘rin tutishini va xalqning qadimiy e’tiqodlari tilda saqlanib qolganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: animizm, antroponim, ism yasovchi komponent, quyosh kulti, mifologiya, turkiy nomlash an’anasi, turkiy mifologiya, antropoleksema, lingvomadaniyat, turkiy xalqlar, ismlar semantikasi, qadimiy e’tiqodlar, mifologik e’tiqod.

АНТРОПОНИМ СОЛНЦЕ СОГЛАСНО АНИМИСТИЧЕСКИМ ПРЕДСТАВЛЕНИЯМ

Кенжаева Сабохат Эшмаматовна, доцент
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье анализируются происхождение, семантические особенности, а также культурные и духовные основы антропонимов, связанных с солнцем, сформировавшихся на основе анимистических представлений. Поскольку солнце в мировоззрении древних народов рассматривалось как источник жизни, священная сила и покровитель, это отразилось и в человеческих именах. В статье освещаются лингвистические и культурные особенности антропонимов, связанных с культом солнца, их связь с мифологическими и анимистическими взглядами. Также на примерах рассматриваются значение и функция имен, связанных с солнцем, в антропонимах тюркских народов. Результаты исследования показывают, что анимистические идеи играют важную роль в системе антропонимов и что древние верования народов сохранились в языке.

Ключевые слова: анимизм, антропоним, компонент, образующий имя, культ солнца, мифология, тюркская традиция именованья, тюркская мифология, антрополексема, языковая культура, тюркские народы, семантика имен, древние верования, мифологические верования.

THE ANTHROPONYM SUN IN ACCORDANCE WITH ANIMISTIC CONCEPTS

Kenzhaeva Sabohat Eshmamatovna, Associate Professor
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Karshi State University

Abstract. This article analyzes the origin, semantic features, and cultural and spiritual foundations of sun-related anthroponyms that formed on the basis of animistic beliefs. The worldview of ancient peoples, which regarded the sun as a source of life, a sacred force, and a patron, is also reflected in human names. The article highlights the linguistic and cultural characteristics of anthroponyms associated with the sun cult and their connection to mythological and animistic views. Furthermore, using specific examples, it examines the meaning and function of sun-related names within the anthroponymy of Turkic peoples. The research findings indicate that animistic ideas play a significant role in the anthroponymic system and that the ancient beliefs of peoples are preserved in their language.

Keywords: animism, anthroponym, name-forming component, sun cult, mythology, Turkic naming tradition, Turkic mythology, anthropolexeme, linguistic culture, Turkic peoples, name semantics, etc.

Kirish. Oʻrta Osiyoda qadimgi turkiy til davrida kishi ismlari tarkibida *oy/ay* komponentli ismlardan keng foydalanilgani va anʼana tarzida hozirgi turkiy xalqlar tillarida ham saqlanib qolgani ilmiy tadqiqotlarda oʻz aksini topgan. Bu ism yasovchi komponent boshqa antroposistemalar yoki ism yasovchi qoʻshimchalar bilan birikib, turkiy tillarning antroponimik tizimini toʻldirishga xizmat qiladi. Qardosh xalqlarning ismlar lugʻatlaridan olingan materiallarni tahlil qilib, shunday xulosaga keldikki, “*oy*” komponentli ismlarning bir qismi muayyan bir til antroponimikonida olamni idrok etishning milliy oʻziga xosligi koʻrsatkichi sifatida namoyon boʻladi (Ayca, Aycagül, Ayden, Ayfer va boshqalar – turk tilida [Hüsameddin Kaya. 1995, 145]; Айкум, Айбас, Айжарык – qozoq tilida [Кульдеева, 2001, 21]; Ай-Санаа, Ай-Сырга, Аймак, Айбыстан va h.k. – oltoy tilida [Муйтуева, Туденева, 1993, 29]), ismlarning boshqa qismi esa islomgacha boʻlgan turkiy nomlash anʼanasi, har bir turkiy til va uning antroponimik tizimining mustaqil rivojlanishiga qaramay, saqlanib qolganligini, antroponimlar kabi til belgilarida oʻzgarishsiz uzatilganligini koʻrsatadi.

Asosiy qism. Qadimgi turklarning quyosh xudosiga sigʻinishi *quyosh, kun, yorugʻ, tong* komponentli ismlarda oʻz aksini topgan. Qadimgi turkiy mifologiyada *Quyosh – Tangrining oʻgʻli*, deyiladi. *Oy* kabi *Quyosh* ham *Osmon* va *Yerning oʻgʻlidir*. Xudolar iyerarxiyasida *Quyoshning* alohida oʻrni borligini hozirgacha arxeologik qazishmalarda topilgan turli topilmalarda quyosh ramzi uchrab turishini misol qilish mumkin. *Quyosh* xudosiga sigʻinish musulmon dini qabul qilinganidan keyin ham saqlanib qolgan, qadimgi eʼtiqodlarning aks-sadolari bizning kunlarimizgacha yetib kelgan, bu haqda “Татар мифлары: иялор, ышанулар, ырымнар, фаллар, имтомнар, сынамышлар, йолалар” [1996, 9-72] kitobida batafsil hikoya qilinadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida *Quyosh* – erkak jinsidagi jonli mavjudot. Antroponimik birliklardagi maʼlumotlar maʼbudning binar tabiati haqida gapirishga asos boʻladi. Umumturkiy *quyosh* komponenti ilk turkiy ismlar tarkibida uchramaydi. Bu komponentli nomlarning paydo boʻlishi keyingi davrga toʻgʻri keladi. Masalan, 1779-yilda tugʻilgan shoira Jahon otin Uvaysiy qiziga *Quyoshxon* deb ism qoʻygan. Ismshunos professor E.Begmatov “Oʻzbek tili antroponimikasi” nomli monografiyasida *Quyoshxon* ismini leksik semantik guruhiga koʻra samoviy obyektlar nomidan hosil boʻlgan ismlar guruhida keltirgan [Бегматов, 2013, 110] boʻlsa-da, islomgacha boʻlgan diniy tasavvurlar asos boʻlgan ismlar guruhi haqida alohida toʻxtalmaydi. A.G.Shayxulovning taʼkidlashicha, *Quyosh* ismini ikki planda koʻrib chiqish mumkin: a) qadimgi tatarlar va boshqirdlarning diniy tasavvuri bilan berilgan ism sifatida; b) bolaning tugʻilgan kunidagi kun holatiga koʻra berilgan ism sifatida [Шайхулов, 1983, 22]. XX asr tatar ismlarida yangi tatar ismlari tarkibida *Quyosh* ayol ismi ishlatiladi [Галиуллина, 2000, 24]. Zamonaviy ismlar lugʻatida

ushbu ism, asosan, ayollar ismi sifatida qo'llaniladi. Ushbu fakt quyoshning binar mohiyati isbotidir.

Qadimgi turkiy tilda “*quyosh*” ma'nosida faol ot yasovchi komponent bo'lgan *kun* so'zi ishlatilgan. Hozirgi adabiy tilda *kun* so'zi bir kecha-kunduz ma'nosida qo'llaniladi, garchi etimologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dastlab *kun* so'zi “*quyosh*” ma'nosini anglatgan [ЭХМЭТЪЯНОВ, 2001, 115]. *Quyosh* ma'nosida *kun* so'zi hozirgacha o'zbek tilida faol qollanishda. E.Begmatovning “O'zbek ismlari” lug'atida *kun* komponentli ismlarga 20 ta misol keltirilgan [Бегматов, 2007, 190]. *Quyosh* ma'nosida *kun* komponenti qo'llanishi bir qancha turkiy tilli xalqlarda ham saqlangan.

Quyosh yorug'lik ramzi sifatida uch xil fazaga ega: *chiqish*, *choshgoh*, *botish*. Turkiy antroponimik olam manzarasida faqat quyosh chiqishi va tush bilan bog'liq nomlar o'z aksini topgan. Chunki ism tanlashda vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan, ism qo'yish an'anasining milliy o'ziga xosligini ko'rsatuvchi ma'lum qoidalar mavjud. Har qanday umumiy so'zlar motivatsiyalovchi sifatida qo'llanilishi mumkin, ammo ularning har biri antroponimik quyi tizimda paydo bo'lishi mumkin. Avvalo, ism uchun semantikasida ijobiy sifatlar ustunlik qiladigan va e'tiqodlarga ko'ra bolaga sog'liq, baxt, boylik va hokazolarni tilashga yordam beradigan apellyativlar tanlanadi. Islomgacha bo'lgan antroponimik tizimda qo'llanilgan *kun* komponentli shaxs nomlari tug'ilish holatlarini qayd etish uchun qo'llanilgan yoki bolani himoya qilishi kerak bo'lgan *quyoshga* sig'inishni aks ettirgan. *Kun* komponentli ismlar turkiylarda keng tarqalgan ismlardan biri bo'lgan. Bizga til va adabiyot tarixidan ma'lumki, “Qutadg'u bilig” dostonining bosh qahramonlaridan birining ismi, *Kuntug'di* bo'lib, bu nomning asosida *Quyosh* – adolat obrazi yotadi. Buddaviylik dunyoqarashiga ko'ra, *quyosh* tabiat hukmdori, nurning namoyon bo'lishi, shahzoda, ota, podshoh, hukmdor bo'lib, dostonning bosh qahramoni *Kuntug'di* mohiyatiga to'la mos keladi. O'zbek ismlar lug'atida *kun* komponentli ismlar uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan. Ushbu komponentning turkiy xalqlar tillarida qo'llanishi va oykonimik birliklar tarkibida saqlanishi haqida G.F.Sattarovning ishida so'z boradi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, qadimgi turkiy tilda *Кун*, *Кунәш*, *Кунтуғды*, *Кундәй*, *Кунтуғмыш* va boshqa kishi ismlari qo'llangan bo'lib, ularning ayrimlari hozirda *Кунтуғмыш*, *Кунтәч* kabi oykonimlar tarkibida uchraydi. Bundan ko'rinib turibdiki, hatto musulmon ismlari faollashgan davrda ham o'zbek ismlar lug'atida *Kunbeka*, *Kunduz*, *Kunjamol*, *Kunyigit*, *Kunmurod*, *Kunnazar*, *Kunnur*, *Kunsulton*, *Kunsuluv*, *Kunuzoq*, *Kuntemir*, *Kunoxun*, *Kuntug'di*, *Kunumxon* ismlari mavjud bo'lgan, bu esa xalqning mifologik tasavvurlari, an'analari, e'tiqodlarining mustahkamligini, yangi mafkura ta'sirida o'z dolzarbligini yo'qotmaganligini yana bir bor tasdiqlaydi. XVIII asrdan boshlab *kun* komponentli antroponimlar bilan parallel ravishda ayollarga xos bo'lgan *Quyosh* ismi kirib keldi. Ushbu

antropoforantning arxaiklashuviga *kun* leksemasining “*quyosh*” ma’nosida passiv qo‘llanilishi va mifologik e’tiqodlarning o‘z ahamiyatini yo‘qotishi sabab bo‘lgan deyish mumkin.

Quyosh xudosi sig‘inish tarkibida *tong* leksemasi ishtirok etgan antroponimik birliklarda ham qayd etilgan. Dunyoga milliy qarashlar, dunyoni milliy tasavvur qilish usuli, tafakkur tarzi, milliy xarakter qadimgi turkiy, keyinchalik esa yuqoridagi komponentli turkiy xalqlar ismlarida o‘z aksini topgan. *Tong* apellyativi umumturkiy bo‘lib, “*tong*” [Древнетюркский словарь, 1969, 532] ma’nosini anglatadi, R.Axmetyanovning taxminiga ko‘ra, qadimgi tilda “*quyosh*” [Эхмэтьянов, 2001, 190] ma’nosida qo‘llanilgan. Til taraqqiyotining ilk davrlaridayoq bu leksema ot yasovchi komponentga aylangan. Fikrimizcha, bunda ajdodlarning animistik tasavvurlari, samoviy ilohga ishonish asosiy rol o‘ynagan.

R.Axmetyanovning *tong* so‘zining *quyosh* ma’nosida qo‘llanilishi haqidagi fikrini inobatga olgan holda, *tong* leksemasining ot yasovchi asos sifatida qo‘llanilishini fakt deb hisoblaymiz. Ism urf-odatlar, diniy marosimlar va ularning predmet atributlarining og‘zaki ifodasi sifatida tug‘ilgan. Ism nafaqat muayyan sotsiumlar doirasida muloqotning amaliy ehtiyojini qondirish uchun shaxslarni belgilash vazifasini bajaradi, balki ularning madaniyati holatini ham murakkab tarzda aks ettiradi va qayd etadi. Yuqoridagi komponentli ismlarda aks etgan ma’naviy madaniyat, shubhasiz, qadimgi shaxs hayotida majusiylik e’tiqodlarining o‘rnini ko‘rsatadi.

Turkiy ismlari tarkibida *tong* leksemasi mustaqil antroponim sifatida kam qo‘llaniladi. U turkiy ismlar uchun xos bo‘lgan komponent nomlar. *Tong* komponenti kishi ismi sifatida qo‘llangan bo‘lsa, bunday ismlarning ikkinchi komponenti, asosan, fe’l yoki ot o‘zakdan iborat bo‘lib, xabar berish xususiyatiga ega bo‘lgan. *Tongotar*, *Tongcho‘lpon*, *Tongkeldi*, *Tongotmish*, *Tongboy* va boshqa ismlar yagona strukturaviy konstruksiya bo‘yicha hosil qilingan. Ismning ikkinchi komponenti – axborot beruvchi, tug‘ilish holati (*Tongkeldi*, *Tongtuvgan*, *Tongotar* va boshqalar), ijtimoiy maqom (*Tongbek*, *Tongboy*) va boshqalar uning sohiblari sifatleri haqida ma’lumot beradi.

Qadimgi turkiy ismlar ichki shaklining to‘liqligi ularni so‘zning semantik salohiyati muhim o‘rin tutadigan apellyativ leksika bilan bir qatorga qo‘yadi. Nomning aniq ifodalangan apellyativ xarakteri antroponimik tizimning rivojlanishi bilan o‘zining dolzarbligini yo‘qotadi. Antroponimning onomastik bo‘lmagan semantik ma’nosi nom paydo bo‘lgan vaqtda muhim bo‘lib, keyinchalik uning saqlanib qolishiga ta’sir qilmagan holda yo‘qolib boraveradi. Asta-sekin dastlabki ma’no butunlay yo‘qoladi, so‘zdan faqat tovush shakli qoladi yoki antropotuzilma yangi ma’no bilan to‘ldiriladi. Tahlil qilinayotgan leksema bilan aynan shunday

transformatsiya yuz bergan deb hisoblaymiz. *Tang/tong* antropoleksemasining assotsiativ maydoni vaqt o'tishi bilan kengayib, so'z semantikasida metaforik ko'chish natijasida yangi sema paydo bo'ldi. Bu so'z poklik, bokiralik, yoshlik, uyg'onish, go'zallik, umid, yangi hayot ramziga aylangan. Antropoleksemaning ikkinchi ma'nosi dominantlik qilib, ism qo'yishda asosiy motivga aylangan. Ma'lumki, so'zning metaforik potentsiali bilan denotatning ahamiyati o'rtasida qonuniy bog'liqlik mavjud. Predmet, hodisa yoki alohida qimmatli madaniy meros boshqa predmetlar, hodisalarni tasvirlashda o'xshashlik manbaiga va shunga mos ravishda metaforik kengayish markaziga aylanadi. Qadimgi turklarning e'tiqodiga ko'ra, quyosh har tongda yaratilishning birinchi kunidagi kabi tartibsizlikni, zulmatni yengadi va har tongda dunyo yangidan yaratiladi. Quyosh chiqishi yangi, yorug' kunning, keng ma'noda hayotning uyg'onishidan darak beradi. Bunday tushunish metaforik ko'chimga asos bo'lgan, natijada tong antropoleksemasi ayol ismini yasovchi elementlar qatoriga mustahkam kirib qolgan. So'zning denotat ma'nosi erkaklar ismini yasashda qo'llangan bo'lsa, *Tongsuluv, Tongbeka, Tonggul, Tongoy, Tongtoj, Tongcho'lpon* va hokazo ismlarda ikkinchi komponent bilan birgalikda ayollik, go'zallik, poklik ma'nosi kuzatiladi. Tong bilan bog'liq assotsiatsiyalar til egalari ongida mavjud bo'lgan dunyo haqidagi tasavvurlarni, o'zbek jamiyatining tarixiy-madaniy rivojlanish faktlarini aks ettiradi. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan turkiy ism qo'yish an'anasi XX asr oxiridagi o'zbek ismlarining tarkibida *Tongboy, Tonggul, Tongcho'lpon, Tongsuluv, Tongnur* kabilar uchrashini ko'rsatdi.

Xulosa. Animistik e'tiqodlarning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Animizmning asosiy xususiyati qadimgi odamlarning atrofdagi voqelikni – tabiiy va ijtimoiy voqelikni jonlantirishidir. Atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni ruhlantirish, ularga g'ayritabiiy kuch berish qadimgi turklarga tabiat bilan qo'shib ketish, u bilan uyg'unlikda yashash, dunyoni o'z tasavvurlaridan kelib chiqib tushuntirish imkonini bergan. Olamning shaxslantirilishi tilda metaforaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Narsa, hodisalarni taqqoslash, chog'ishtirish natijasida yuzaga kelgan assotsiatsiyalar ular o'rtasidagi o'xshash elementlarni ko'rish imkonini berdi va asta-sekin tilda so'zning denotativ ma'nosidan tashqari boshqa ma'nolari ham paydo bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Hüsameddin Kaya. Çocuk isimler ansiklopediyasi. – Istanbul, 1995 – С. 145.
2. Кульдеева Г.И. Антропонимическая система современного казахского языка. – Казань: Изд-во «ДАС», 2001. – 239 с.
3. Алтайские личные имена / Сое. В.А.Муйтуева, Т.Н.Туденева. – Горно-Алтайск: Книж. изд-во «Юч-Сюмер» Республики Алтай. 1993. – 128 с.
4. Татар мифлары: иялор, ышанулар, ырымнар, фаллар, им-томнар, сынамышлар, йолалар. – Казан: Тат.кит. нәшр., 1996.

5. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, Фан, 2013. – 263 б.
6. Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. Учебное пособие. – Уфа: Изд-во Баш. ГУ. 1983. – С.22
7. Галиуллина Г.Р. Личные имена татар в XX веке. – Казань: Матбугэт йорты, 2000. – 111 с.
8. Эхмэтьянов Р. Татар теленен кыскача тарихи-этимологик сузлеге. – Казан: Тат.кит. нәшр, 2001. – 272 б.
9. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2007. – 608 б.
10. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.
11. Эхмэтьянов Р. Татар теленен кыскача тарихи-этимологик сузлеге. – Казан: Тат.кит. нәшр., 2001. – 272 б.

O‘ZBEK TILI TOPONIMIK TIZIMIDA METAFORIZATSIYA VA METONIMIYA HODISASI TADQIQI

Xamidova Kamolaxon Mamirovna, dotsent
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Maxmudova Shaxloxon Sayfiddin qizi, magistrant
Qo‘qon davlat universiteti
ORCID: 0009-0007-3161-2164
kamolaxonhamidova@gmail.com
egamberdiyevashahloxon551@gmail.com
UO‘K:811 512 133

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili toponimik tizimidagi metaforizatsiya va metonimiya hodisalari kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Joy nomlarining yuzaga kelishi va rivojlanishida til egalarining borliqni idrok etish xususiyatlari muhim o‘rin tutadi, bunda metafora va metonimiya nominatsiyaning faol usullari sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda O‘zbekistonning turli mintaqalariga oid toponimik birliklar tasviriy-qiyosiy, komponent va kognitiv-semantik tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, metaforik toponimlar asosan relyef shakllarining inson tanasi a‘zolari, hayvonlar tana tuzilishi yoki maishiy buyumlarga o‘xshashligi negizida yuzaga kelgan, metonimik toponimlar esa makon va undagi voqelik (o‘simlik, voqea, shaxs, qo‘shni obyekt) o‘rtasidagi aloqadorlik asosida shakllangan. Maqolada metaforik toponimlarning antropomorf, zoomorf va buyumga oid turlari, metonimik toponimlarning fitonimik, antroponimik, voqea-hodisaga asoslangan va qo‘shnichilik munosabatiga asoslangan turlari tasniflanadi. Tadqiqot natijalari toponimika, kognitiv tilshunoslik va o‘zbek tili leksikologiyasi sohalarida nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: toponimika, metaforizatsiya, metonimiya, kognitiv tilshunoslik, joy nomlari, nominatsiya, semantik ko‘chish, antropomorf toponim, zoomorf toponim, fitonim.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФЕНОМЕНА МЕТАФОРИЗАЦИИ И МЕТОНИМИИ В ТОПОНИМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Хамидова Камолахон Мамировна, доцент
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Махмудова Шахлохон Сайфиддин кизи, магистрант
Какандский государственный университет

Аннотация. В данной статье анализируются с когнитивно-семантической точки зрения феномены метафоризации и метонимии в топонимической системе узбекского языка. Особенности восприятия бытия носителями языка играют важную роль в возникновении и развитии топонимов, где метафора и метонимия проявляются как активные способы номинации. В исследовании топонимические единицы, относящиеся к различным регионам Узбекистана, изучались на основе методов описательно-сравнительного, компонентного и когнитивно-семантического анализа. Результаты показали, что метафорические топонимы в основном возникают на основе сходства форм рельефа с частями человеческого тела, строением тела животных или предметами быта, а метонимические топонимы формируются на основе связи между пространством и действительностью в нем (растение, событие, личность, соседний объект). В статье классифицируются антропоморфные, зооморфные и предметные типы метафорических топонимов, фитонимические, антропонимические, событийные и соседские типы метонимических топонимов. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение в области топонимики, когнитивной лингвистики и лексикологии узбекского языка.

Ключевые слова: топонимика, метафоризация, метонимия, когнитивная лингвистика, топонимы, номинация, семантический перенос, антропоморфный топоним, зооморфный топоним, фитоним.

STUDY OF THE PHENOMENON OF METAPHORIZATION AND METONYMY IN THE TOPONYMIC SYSTEM OF THE UZBEK LANGUAGE

Khamidova Kamalakhon Mamirovna, Associate Professor
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Shakhlokhon Saifiddin Qizi Makhmudova, Master's Student
Kakand State University

Abstract. This article analyzes the phenomena of metaphorization and metonymy in the Uzbek toponymic system from a cognitive-semantic perspective. The emergence and development of place names is closely linked to how native speakers perceive reality, with metaphor and metonymy functioning as active nomination strategies. The study examines toponymic units from various regions of Uzbekistan using descriptive-comparative, componential, and cognitive-semantic analysis methods. The results show that metaphorical toponyms mainly arise from the resemblance

of relief forms to human body parts, animal body structures, or household objects, while metonymic toponyms are formed through contiguous relations between a place and an associated reality (plant, event, person, or neighboring object). The article classifies anthropomorphic, zoomorphic, and object-based types of metaphorical toponyms, as well as phytonymic, anthroponymic, event-based, and contiguity-based types of metonymic toponyms. The findings hold theoretical and practical significance for toponymics, cognitive linguistics, and Uzbek lexicology.

Keywords: toponymy, metaphorization, metonymy, cognitive linguistics, place names, nomination, semantic shift, anthropomorphic toponym, zoomorphic toponym.

Kirish. Toponimika tilshunoslikning maxsus bo‘limi sifatida joy nomlarining paydo bo‘lish qonuniyatlarini, ularning semantik-struktur xususiyatlarini va xalq tarixi, geografiyasi, madaniyati bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Har qanday toponim ma‘lum bir lisoniy jamoa vakillarining borliqni idrok etish, uni nomlash va tasniflash tajribasi natijasida shakllanadi. Shu bois toponimlar nafaqat geografik, balki kognitiv va madaniy hodisa sifatida ham qaraladi.

Asosiy qism. Metafora va metonimiya an‘anaviy tilshunoslikda faqat badiiy nutqning bezagi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi bilan ular insonning dunyoni konseptuallashtirish usullaridan biri sifatida qaralmoqda. J.Lakoff va M.Jonsonning kontseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora – bir konseptual sohaning ikkinchisi orqali tushunilishi, ya‘ni bir tajriba sohasidan ikkinchisiga ma‘no ko‘chishidir [4]. Metonimiya esa bitta konseptual soha ichidagi yaqinlik, aloqadorlik asosidagi semantik ko‘chishni ifodalaydi. Toponimika sohasida bu ikki mexanizm joy nomlarini yaratishning eng unumdor usullaridan hisoblanadi [5].

O‘zbek tilshunosligida toponimlarning lug‘aviy-semantik tahlili, etimologiyasi va tarixiy qatlamlari bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, metaforizatsiya va metonimiya hodisalarining nominatsiya mexanizmi sifatida tizimli, kognitiv-semantik nuqtayi nazardan maxsus tahlil qilinishi hozircha yetarli darajada e‘tibor qozonmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [1].

Tadqiqotning maqsadi – o‘zbek tili toponimik tizimida metaforizatsiya va metonimiya asosida yuzaga kelgan joy nomlarini aniqlash, ularni semantik turlarga ko‘ra tasniflash va ushbu nominatsiya usullarining kognitiv asoslarini ochib berishdan iborat. Bunga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) metaforik va metonimik toponimlarning farqlovchi belgilarini aniqlash; 2) to‘plangan til materialini semantik guruhlariga ajratish; 3) har bir guruh uchun nominatsiya negizida yotgan kognitiv mexanizmni izohlash; 4) olingan natijalarni umumturkiy va dunyo tillaridagi o‘xshash hodisalar bilan qiyoslash.

O‘zbek toponimikasi sohasida E.Begmatov, S.Qorayev, T.Nafasov kabi tilshunoslarning tadqiqotlari muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi [1; 2; 3]. Ularning ishlarida joy nomlarining lug‘aviy tarkibi, etimologik qatlamlari, tarixiy-geografik sharoit bilan bog‘liqligi atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, chet el tilshunosligida metafora va metonimiyaning kognitiv tabiati J.Lakoff, M.Jonson kabi tadqiqotchilarning ishlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan [4]. Ushbu ikki yo‘nalish – milliy toponimika materiali va kognitiv semantika nazariyasi – mazkur tadqiqotning metodologik negizini tashkil etadi.

Tadqiqot uchun material sifatida O‘zbekistonning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg‘ona vodiysi va Xorazm mintaqalariga oid 120 dan ortiq toponimik birlik – tog‘, dovon, qishloq, soy, ko‘l va dala nomlari – to‘plandi. Materiallar mavjud toponimik lug‘atlar, geografik xaritalar va dialektologik manbalardan tanlab olindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: a) tasviriy metod – toponimlarning lug‘aviy ma‘nosi va shakllanish xususiyatlarini bayon etish uchun; b) komponent tahlil metodi – toponim tarkibidagi negiz va affiksial qismlarning semantik yuklamasini aniqlash uchun; v) qiyosiy-tipologik metod – o‘zbek toponimlarini boshqa turkiy va dunyo tillaridagi o‘xshash hodisalar bilan solishtirish uchun; g) kognitiv-semantik tahlil metodi – metafora va metonimiya negizida yotgan konseptual mexanizmlarni ochib berish uchun. Toponimlarni metaforik va metonimik turlarga ajratishda asosiy mezon sifatida nominatsiya negizidagi munosabat xarakteri – o‘xshashlik (metafora uchun) yoki aloqadorlik/qo‘shnichilik (metonimiya uchun) – qabul qilindi.

To‘plangan til materialini tahlil qilish natijasida o‘zbek toponimik tizimidagi metaforik va metonimik nominatsiya usullari quyidagi semantik turlarga ajratildi.

(1-jadval)

Nominatsiya usuli	Semantik turi	Misollar va izoh
Metaforizatsiya	Antropomorf	Bosh tog‘, Qorintepa, Yelkasoy, Tomoqdovon – relyef shakli inson tanasi a‘zolariga (bosh, qorin, yelka, tomoq) o‘xshatilgan.
	Zoomorf	Tuyatosh, Burgutqoya, Ilonli, Qoplontepa – tog‘ jinsi yoki relyef shakli hayvon tanasi yoxud siluetiga qiyoslangan.
	Buyumga oid	Egartog‘, Qozonbuloq, Tarozitosh – relyef ko‘rinishi maishiy buyum shakliga o‘xshatilgan.
Metonimiya	Fitonimik	Yantoqli, Tollik, Pistali, Qayrog‘ochsoy – joy

Nominatsiya usuli	Semantik turi	Misollar va izoh
		nomi o‘sha hududda ko‘p o‘sgan o‘simlik nomidan olingan.
	Antroponimik	Bekobod, Yusufobod, Mirzacho‘l – joy o‘zida yashagan yoki uni asos solgan shaxs nomi bilan atalgan.
	Voqea-hodisaga asoslangan	Qatlgoh, Yov bosgan, Jangtepa – joy nomi u yerda sodir bo‘lgan tarixiy voqea bilan bog‘langan.
	Qo‘shnichilik munosabatiga asoslangan	Daryobo‘yi, Ko‘lqishloq, Tog‘oldi – aholi punkti nomi yonidagi geografik obyekt nomidan ko‘chirilgan.

1-jadval. O‘zbek tili toponimik tizimidagi metaforik va metonimik nominatsiya turlari.

Tahlil natijalariga ko‘ra, to‘plangan materialning 54 foizi metaforik, 46 foizi metonimik nominatsiya asosida shakllangan. Metaforik toponimlar orasida zoomorf tur (umumiy metaforik nomlarning taxminan 40%) eng unumdor bo‘lib chiqdi, bu esa chorvachilik va ov bilan bog‘liq turmush tarzining til ongidagi izini aks ettiradi. Metonimik toponimlar orasida esa fitonimik va antroponimik turlar deyarli teng nisbatda (har biri taxminan 30%) qayd etildi.

Antropomorf toponimlarda “bosh”, “qorin”, “yelka”, “tomoq”, “burun” kabi tana a‘zosi nomlari relyef elementining geografik joylashuvi yoki shakliga ko‘ra ko‘chirilganligi aniqlandi: masalan, “bosh” – tog‘ yoki daryoning yuqori, boshlang‘ich qismini, “tomoq” – tor dovon yoki tor jarlikni, “yelka” – tog‘ tizmasining yon bag‘rini bildiradi [6]. Bu hodisa nafaqat o‘zbek, balki ko‘pchilik turkiy va boshqa dunyo tillarida ham uchraydigan universal kognitiv mexanizm – inson tanasi sxemasining geografik makonga proyeksiyalanishi – ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar va muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili toponimik tizimida metafora va metonimiya tasodifiy stilistik vosita emas, balki tilning nominativ tizimi ichidagi tabiiy va unumdor mexanizmdir. Bu xulosa J.Lakoff va M.Jonsonning kontseptual metafora nazariyasidagi asosiy g‘oya – metaforaning kundalik tilda, jumladan, nominatsiya jarayonida ham faol ishtirok etishi bilan to‘la mos keladi [4].

Metaforik toponimlarning antropomorf va zoomorf turlarining ustunligi shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi geografik makonni idrok etishda eng avvalo o'ziga yaqin, kundalik tajribasida mavjud bo'lgan obrazlarga – o'z tanasi va atrofdagi hayvonot dunyosiga tayangan. Bu, o'z navbatida, kognitiv tilshunoslikdagi “yaqinlik tamoyili” (proximity principle) bilan izohlanadi [5]: inson notanish va mavhum hodisalarni (masalan, tog' relyefining murakkab shaklini) tanish va konkret obrazlar orqali nomlaydi.

Metonimik toponimlarning antroponimik turi esa joy nomlarining ijtimoiy-tarixiy xotira vositasi vazifasini ham bajarishini ko'rsatadi: bunday nomlar orqali mahalliy aholi, asoschi shaxs yoki tarixiy voqea haqidagi ma'lumot avloddan-avlodga saqlanib qoladi [3]. Shu nuqtayi nazardan toponimlar nafaqat lisoniy, balki etnomadaniy va tarixiy manba sifatida ham qiymatga ega.

Tadqiqot natijalarini boshqa turkiy tillar (qozoq, qirg'iz, turkman) toponimikasi bo'yicha mavjud ma'lumotlar bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, antropomorf va zoomorf metaforalashtirish umumturkiy xarakterga ega bo'lib, bu hodisa turkiy xalqlarning umumiy ko'chmanchi-chorvador madaniy-tarixiy ildizlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq bu taxmin alohida qiyosiy-tipologik tadqiqotni talab etadi va kelajakdagi izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijasida o'zbek tili toponimik tizimida metaforizatsiya va metonimiya hodisalari nominatsiyaning faol va unumdor usullari ekanligi isbotlandi. Metaforik toponimlar o'xshashlik munosabati asosida (antropomorf, zoomorf, buyumga oid turlarga bo'linib), metonimik toponimlar esa aloqadorlik munosabati asosida (fitonimik, antroponimik, voqeaga asoslangan, qo'shnihilik turlariga bo'linib) shakllanishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, joy nomlarini yaratishda til egalari mavhum geografik xususiyatlarni o'zlariga tanish va konkret obrazlar orqali konseptuallashtiradi, bu esa toponimlarni nafaqat geografik belgi, balki xalq dunyoqarashi va kognitiv tajribasining tilda aks etishi sifatida qarash imkonini beradi.

Olingan natijalar o'zbek tili leksikologiyasi, toponimikasi va kognitiv tilshunosligi bo'yicha o'quv kurslarida, shuningdek, mintaqaviy toponimik lug'atlar va ensiklopediyalar tuzishda amaliy material sifatida foydalanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda o'zbek toponimlarini boshqa turkiy va noturkiy tillar materiali bilan qiyosiy tahlil qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Бегматов, Э. Хозирги ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 1-220.
2. Қораев, С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 1-280.
3. Nafasov, T. Joy nomlari sirlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – B. 1-160.

4. Lakoff, J., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 1-242.
5. Kecskes, I. Conceptual fluency and the use of situation-bound utterances in L2 // *Links & Letters*. – 2000. – №7. – P. 145-161.
6. Мурзаев, Э.М. *Словарь народных географических терминов*. – Москва: Мысль, 1984. – С. 1-653.

O‘ZBEK SHEVALARIDA ANTROPOMORFIK NOMINATSIYA

Normo‘minov Sherzod To‘uchiyevich, dotsent
Samarqand davlat pedagogika instituti
shernormuminov088@gmail.com

UO‘K 811.512.133'282:81'373

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek shevalaridagi antropomorfik nominatsiya hodisasi, tabiat obyektlari va mehnat qurollarini inson tana a‘zolari nomi orqali atash modeli kognitiv-semantik nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi somatik kodga asoslangan ma‘no ko‘chishi mexanizmini ochish hamda uning dialektal lisoniy shaxs dunyoqarashidagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Komponent va kognitiv-semantik tahlil natijasida har bir nominatsiyada manba a‘zo, maqsad obyekt va ko‘chish asosidagi o‘xshashlik belgisi (shakl, joylashuv, vazifa) aniqlandi. Tahlil somatik geografik va somatik instrumental nominatsiya yo‘nalishlarini qamrab, antropomorfik nominatsiyaning yagona kognitiv modelini taklif etadi. Maqola konseptual metafora nazariyasi va tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Unda antropomorfik nominatsiyaning motivlangan, kognitiv asosga ega hodisa ekanligi yoritiladi. Tadqiqotda somatik kod kognitiv yadroni tashkil etuvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Somatik komponentlar olamning dialektal manzarasida voqelikning antropotsentrik konseptuallashuvini aks ettiruvchi muhim vosita tarzida tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: antropomorfik nominatsiya, somatik metafora, konseptual metafora, dialektal leksika, kognitiv semantika, somatik kod, o‘zbek shevalari.

АНТРОПОМОРФНАЯ НОМИНАЦИЯ В УЗБЕКСКИХ ГОВОРАХ

Нормуминов Шерзод Туйчиевич, доцент
Самаркандский государственный педагогический институт

Аннотация. В статье с когнитивно-семантической точки зрения рассматривается явление антропоморфной номинации в узбекских говорах, модель называния объектов природы и орудий труда посредством наименований частей человеческого тела. Цель исследования раскрыть механизм переноса значения на основе соматического кода и определить его место в картине мира диалектной языковой личности. В результате компонентного и когнитивно-семантического анализа в каждой номинации выявлены исходный орган, целевой объект и признак сходства (форма, расположение, функция).

Анализ охватывает соматико-географическую и соматико-инструментальную номинацию и предлагает единую когнитивную модель антропоморфной номинации. Статья основана на теории концептуальной метафоры и принципе описания. В ней показано, что антропоморфная номинация представляет собой мотивированное явление, имеющее когнитивную основу. В исследовании соматический код интерпретируется как механизм, формирующий когнитивное ядро. Соматические компоненты характеризуются как важное средство отражения антропоцентрической концептуализации действительности в диалектной картине мира.

Ключевые слова: антропоморфная номинация, соматическая метафора, концептуальная метафора, диалектная лексика, когнитивная семантика, соматический код, узбекские говоры.

ANTHROPOMORPHIC NOMINATION IN UZBEK DIALECTS

Normuminov Sherzod Tuychievich, Associate Professor
Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. The article examines, from a cognitive-semantic perspective, the phenomenon of anthropomorphic nomination in Uzbek dialects the model of naming natural objects and labour tools through the names of human body parts. The aim of the study is to reveal the mechanism of meaning transfer based on the somatic code and to determine its place in the worldview of the dialectal linguistic personality. Through componential and cognitive-semantic analysis, each nomination is shown to contain a source organ, a target object and a similarity feature (shape, location, function). The analysis covers somatic-geographic and somatic-instrumental nomination and proposes a unified cognitive model of anthropomorphic nomination. The article is based on the theory of conceptual metaphor and the descriptive principle. It demonstrates that anthropomorphic nomination is a motivated phenomenon with a cognitive basis. The study interprets the somatic code as a mechanism constituting the cognitive core. Somatic components are characterized as an important means of reflecting the anthropocentric conceptualization of reality in the dialectal worldview.

Keywords: anthropomorphic nomination, somatic metaphor, conceptual metaphor, dialectal lexicon, cognitive semantics, somatic code, Uzbek dialects.

Kirish. Antropotsentrizm tamoyilga ko‘ra, inson borliqni avvalo o‘z tanasi orqali idrok etadi, o‘lchaydi va nomlaydi. Tana a‘zolarining nomi tashqi olamdagi obyektlarga ko‘chirilib, yangi atamalar hosil qilishi somatik metafora deb yuritiladi va dunyoning aksariyat tillarida kuzatiladi. O‘zbek shevalarida bu kabi hodisalar ko‘plab uchraydi. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq mayishiy leksikada tabiat obyektlari va mehnat qurollari inson a‘zolari nomi bilan ataladi. Mazkur hodisa antropomorfik nominatsiya atamasi ostida o‘rganiladi. O‘zbek shevalari materiali asosida antropomorfik nominatsiyaning ma‘no ko‘chishi mexanizmini, asosiy yo‘nalishlarini va kognitiv modelini yaqqol ko‘rsatish mumkin.

Bu orqali somatik komponentlarning faolligini belgilash, ko‘chish asosidagi o‘xshashlik belgilarini ajratish va nominatsiya yo‘nalishlarini tasniflash yuzaga chiqadi. Inson o‘z tanasini tashqi olamni idrok etish va o‘lchashning dastlabki mezoni sifatida qabul qiladi. Shu bois tana a‘zolari nomi qadimiy va barqaror nominativ qatlamni tashkil etadi. Shevalar materiali bu jihatdan alohida ahamiyatga ega, chunki u adabiy til me‘yorlashuvidan nisbatan xoli bo‘lib, xalq tasnifining arxaik ko‘rinishlarini saqlab qoladi. Antropomorfik nominatsiya tipologik jihatdan universal hodisa bo‘lsa-da, har bir tilda o‘ziga xos hududiy-madaniy belgilar bilan voqelanadi. O‘zbek shevalari bu umumiy qonuniyatning milliy ko‘rinishini ochishga imkon beradi. Adabiy tildagi somatik ko‘chishlar ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Biroq dialektal antropomorfik nominatsiyaning tizimli, kognitiv-semantik tahlili yetarlicha tadqiq etilmagan.

Asosiy qism. Antropomorfik nominatsiya konseptual metafora nazariyasi doirasida izohlanadi. G.Lakoff va M.Johnson ta‘kidlaganidek, metafora – nutq bezagi emas, balki tafakkur usuli: bir konseptual soha (manba soha) vositasida ikkinchisi (maqsad soha) anglanadi [1]. Somatik metaforada manba soha vazifasini inson tanasi, maqsad soha vazifasini esa tabiat yoki sun‘iy obyekt bajaradi. Z.D.Popova va I.A.Sternin kognitiv tilshunoslik nuqtani nazaridan til birliklarini bilimni kodlash va saqlash vositasi sifatida talqin qiladi. Nominatsiya jarayonida voqelik inson tajribasi orqali konseptuallashadi [2].

V.A.Maslova lingvokulturologiyada somatik leksikani milliy-madaniy kodning tayanch qatlami deb baholaydi. Tana a‘zolari nomi nafaqat anatomik, balki madaniy-ramziy ma‘no kasb etadi [3]. V.N.Teliya esa ko‘chma ma‘no hosil bo‘lishida obraz va baholashning uzviyligini ko‘rsatadi [5]. Shu nazariy asos o‘zbek dialektal leksikasidagi antropomorfik nominatsiyani tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz materiali o‘zbek shevalari (asosan qipchoq lahjasi) appelyativ leksikadan tashkil topgan. Tahlilda komponent (sema) tahlili, kognitiv-semantik tahlil hamda qiyosiy-tarixiy usul birgalikda qo‘llandi. Har bir leksema uchun uchta birlik aniqlandi: manba a‘zo (somatic komponent), maqsad obyekt (tabiat yoki qurol) va ko‘chish asosidagi o‘xshashlik belgisi. O‘xshashlik belgisi sifatida uch turdagi asos farqlandi: shaklan o‘xshashlik, makonda joylashuv o‘xshashligi va vazifaviy o‘xshashlik. Sematahlili har bir leksemada ko‘chishga asos bo‘lgan farqlovchi semani ajratishga xizmat qiladi. O‘xshashlikning shakl, joylashuv, vazifa kabi uch turini farqlash ko‘chishning qay darajada shaffof va motivlangan ekanini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy-tarixiy usul bu ko‘chishlarning boshqa turkiy tillarda ham keng kuzatiladigan qonuniyat ekanini ko‘rsatadi.

Natijalar va muhokama. 1. Somatik geografik nominatsiya. Tabiat obyektlarini nomlashda inson a‘zolari faol ishtirok etadi. Ko‘p qo‘llaniladigan

somatik komponentlar *bosh*, *ko‘z*, *og‘iz*, *quloq*, *bo‘yin* va *etak* hisoblanadi. *Tog‘ boshi* (cho‘qqi) – “bosh”ning eng yuqori, asosiy nuqta semasining relyefga ko‘chishi. *Buloq ko‘zi* (suv chiqadigan teshik) – “ko‘z”ning ochiqlik va manba semasiga tayanadi. *G‘or og‘zi* (g‘orning kirish-chiqish joyi) – “og‘iz”ning kirish-chiqish semasini voqelantiradi. *Tog‘ etagi* (tog‘ning quyi chekkasi) – “etak”ning pastki qirra semasidan kelib chiqadi. *Ariq qulog‘i* (suv tarmoqlanadigan joy) – “quloq”ning yon-tarmoq semasini aks ettiradi. Bu nominatsiyalarda makon vertikal o‘q bo‘ylab inson gavdasiga qiyoslanadi: yuqori – bosh, o‘rta qism – bo‘yin yoki bel, quyi qism – etak yoki oyoq. Bu o‘rinda relyef yaxlit holda tik turgan inson gavdasiga qiyoslanadi, shu bois nomlanish vertikal o‘q bo‘ylab taqsimlanadi. Somatik proyeksiya butun bir relyef tizimini qamrab oladi va olamning dialektal manzarasidagi antropotsentrik tartibni aks ettiradi.

2. Somatik instrumental nominatsiya. Mehnat qurollari va ularning qismlari ham inson a‘zolari nomi bilan atalishini kuzatamiz. Hunarmandchilik leksikasi kasbiy nutqning tarkibiy qismi sifatida o‘ziga xos nominatsiya tizimini saqlaydi [6]. *Kampirovuz* (“kampir + og‘zi”) – qisib ushlovchi temirchilik quroli (ombir). Nom a‘zoning ochilib-yopilish ushlovchi vazifasiga tayanadi. *Arra tishi*, *taroq tishi* “tish”ning qatorlangan, kesuvchi-ilashuvchi qism semasi. *Igni ko‘zi* – “ko‘z”ning teshik semasi sanaladi. Qozon qulog‘i (dasta, ilgak) “quloq”ning yon, ushlanadigan qism semasi. Qurolning o‘rta qismi bel, quyi qismi oyoq deb yuritiladi. Demak, instrumental nominatsiyada ham uch turdagi o‘xshashlik, shakl, joylashuv va vazifa yetakchilik qiladi. Shu sababli hunarmandchilik va kasbiy leksikada ish qurolining qismlari tirik organism kabi nomlanadi. Unga *bosh*, *quloq*, *tish*, *bel* kabi a‘zolar nisbat beriladi. Geografik nominatsiyadan farqli o‘laroq, bu yerda shakl va joylashuvdan ko‘ra harakat-vazifa belgisi ko‘chishning asosiy turtkisi bo‘ladi.

3. Antropomorfik nominatsiyaning kognitiv modeli. Yuqoridagi dalillar yagona kognitiv modelni ko‘rsatadi. Markazda somatik kod, ya‘ni inson gavdasi (manba soha). Undan ikki maqsad sohaga tabiat obyektlari va mehnat qurollariga somatik ko‘chish yo‘naladi. Ko‘chish har gal shakl, joylashuv yoki vazifa o‘xshashligiga tayanadi. Model dialektal lisoniy shaxsning antropotsentrik idrokini aks ettiradi. Inson o‘zini olamni o‘lchash mezoni sifatida tutadi va tashqi voqelikni o‘z tana qiyofasiga moslab nomlaydi. Tahlil natijalari jadvalda har bir somatik komponent, uning tabiat hamda qurol sohasidagi proyeksiyasi va ko‘chish asosidagi o‘xshashlik belgisi keltirilgan.

Somatik komponentlarning maqsad sohaga proyeksiyasi

1-jadval

Somatik a‘zo	Tabiat obyekti	Mehnat quroli	O‘xshashlik belgisi
bosh	tog‘ boshi	bolta / to‘qmoq	yuqori, asosiy uchki

	(cho‘qqi)	boshi	qism
ko‘z	buloq ko‘zi	igna ko‘zi	ochiqlik, teshik
og‘iz	g‘or og‘zi	kampirovuz (kampir og‘zi)	ochilib-yopiluvchi kirish
quloq	ariq qulog‘i	qozon qulog‘i (dasta)	yon tarmoq, ushlov

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, antropomorfik nominatsiya o‘zbek shevalarida tasodifiy hodisa emas, balki tabiat va artefakt olamini inson tanasi orqali o‘zlashtirishning izchil, model xususiyatiga ega usulidir. Ko‘chish uch turdagi o‘xshashlik, shakl, joylashuv va vazifa asosida amalga oshadi, bu esa nominatsiyaning motivlangan tabiatini ko‘rsatadi. Somatik komponentlar maqsad sohaga vertikal makon o‘qi bo‘yicha taqsimlanadi. Antropomorfik nominatsiya dialektal lisoniy shaxsning antropotsentrik dunyoqarashini hamda olamning dialektal manzarasidagi inson-markazli idrok usulini namoyon etadi. Olingan natijalar dialektologiya uchun amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Somatik ko‘chishlar sheva lug‘atlarida nafaqat ma’nosi, balki ko‘chish motivi bilan birga qayd etilishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Tadqiqotni keyinchalik o‘zbek shevalarining o‘zaro va boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy yo‘nalishida chuqurlashtirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная лингвистика.* – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
3. Маслова В.А. *Лингвокультурология: учебное пособие.* – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
4. Enazarov T. *Dialektologiya metodologiyasi: monografiya.* – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 152 b.
5. Теля В.Н. *Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты.* – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
6. Ўзбек халқ шевалари луғати. Масъул муҳаррир Ш. Ш. Шоабдурахмонов. – Т.: Фан, 1971. – 409 б.
7. Серебренников Б. А., Кубрякова Е. С., Постовалова В. И. и др. *Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира.* – М.: Наука, 1988. – 216 с.

СИНОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В ОНОМАСТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Сайдуллаева Рано Ибадовна, доцент
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каршинский государственный университет

rano.saydullayeva@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0007-7064-154X>

УДК [81`2](#)

Аннотация. В статье проводится комплексное исследование синонимических отношений в русской ономастической терминологии, отличающихся высокой степенью вариативности. Анализированы существующие типологии терминов-синонимов и выявлено ключевые причины их появления, среди которых особое место занимают интернациональные заимствования, расхождения в научных школах и активные словообразовательные процессы. На основе тщательного анализа словаря Подольской установлено 63 синонимических ряда, при этом средняя длина ряда составляет всего 2,3 единицы, что свидетельствует о парной конкуренции вариантов. В работе убедительно обосновывается практическая необходимость упорядочения терминологического аппарата для обеспечения однозначности научного общения. В качестве эффективного решения предлагается закрепить за каждым рядом один доминантный нормативный термин, а все остальные варианты сохранять исключительно как библиотечные пометы, что позволит кардинально устранить неоднозначность и существенно унифицировать современную терминосистему ономастики.

Ключевые слова: синонимия, ономастическая терминология, терминологическая нормализация, синонимический ряд, дублет, доминантный термин, русская ономастика, узбекская ономастика, Подольская, терминологическое наследие.

ONOMASTIK TERMINOLOGIYADA SINONIMIK MUNOSABATLAR

Saydullayeva Rano Ibadovna, dotsent
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qarshi davlat universiteti

Annотatsiya. Maqolada rus onomastik terminologiyasidagi yuqori darajada o'zgaruvchanlik bilan ajralib turadigan sinonimik munosabatlar kompleks tadqiq qilinadi. Termin-sinonimlarning mavjud tipologiyalari tahlil qilinib, ularning paydo bo'lishining asosiy sabablari aniqlangan bo'lib, bunda xalqaro o'zlashmalar, ilmiy maktablardagi tafovutlar va faol so'z yasalish jarayonlari alohida o'rin egallaydi. Podolskaya lug'atining sinchkovlik bilan tahlili asosida 63 sinonimik qator aniqlangan, bunda qatorning o'rtacha uzunligi atigi 2,3 birlikni tashkil etadi, bu variantlarning juftlik raqobatidan dalolat beradi. Ishda ilmiy mulqotning bir ma'noliligini ta'minlash uchun terminologik apparatni tartibga solishning amaliy zarurati ishonchli asoslanadi. Samarali yechim

sifatida har bir qatorga bitta dominant normativ termini belgilash, qolgan barcha variantlarni esa faqat kutubxona belgilari sifatida saqlab qolish taklif etiladi, bu noaniqlikni tubdan bartaraf etish va zamonaviy onomastika terminotizimini sezilarli darajada unifikatsiya qilish imkonini beradi.

Kalit soʻzlar: sinonimiya, onomastik terminologiya, terminologik normalashtirish, sinonimik qator, dublet, dominant termin, rus onomastikasi, oʻzbek onomastikasi, Podolskaya, terminologik meros.

SYNONYMIC RELATIONS IN ONOMASTIC TERMINOLOGY

Saydullaeva Rano Ibadovna, Associate Professor
 Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
 Karshi State University

Abstract. The article presents a comprehensive study of synonymic relations in Russian onomastic terminology, which is characterized by a high degree of variability. Existing typologies of synonymic terms are analyzed, and the key reasons for their emergence are identified, among which international borrowings, discrepancies among scholarly schools, and active word-formation processes occupy a special place. Based on a thorough analysis of Podolskaya's dictionary, 63 synonymic sets have been established, with the average length of a set being only 2.3 units, which indicates pairwise competition among variants. The study convincingly substantiates the practical need to systematize the terminological apparatus to ensure unambiguity in scientific communication. As an effective solution, it is proposed to assign one dominant normative term to each set, while retaining all other variants exclusively as library annotations, which would radically eliminate ambiguity and significantly unify the current terminological system of onomastics.

Keywords: synonymy, onomastic terminology, terminological normalisation, synonymic series, doublet, dominant term, Russian onomastics, Uzbek onomastics, Podolskaya, terminological heritage.

Введение. Синонимия – явление, прямо противоречащее требованию моносемантической термина. Тем не менее терминологические синонимы (дублеты) – реальность практически любой терминосистемы, и ономастическая не является исключением [4]. В отличие от синонимии в художественной речи, которая обогащает выражение, терминологическая синонимия создаёт двусмысленность в научном тексте.

Анализ синонимических отношений в ономастической терминологии позволяет не только описать данное явление, но и выработать принципы нормализации: определить доминантные термины и упорядочить синонимические ряды [9]. Именно нормализационный аспект делает данное исследование практически значимым.

Материалом исследования служат 514 терминов нормативного «Словаря» Н.В. Подольской [8], а также данные узбекских ономастических работ.

Сопоставительный аспект позволяет определить, в какой мере русская синонимия унаследована узбекской терминологией.

Теоретическую базу составляют работы по теории нормализации [4, 9, 10], ономастические исследования [1, 5, 7, 8] и сравнительно-типологические работы [3, 11]. Это позволяет рассмотреть синонимические отношения в широком контексте.

Основная часть

1. Типы терминологической синонимии в ономастике

На материале словаря Подольской выявлено 63 синонимических ряда. По структурно-семантическому критерию выделяются пять типов.

Абсолютные синонимы (дублиеты): термины полностью совпадают по значению. Пример: ойконим – название населённого пункта. Абсолютная синонимия наиболее нетерпима с точки зрения нормализации [4].

Частичные синонимы: термины совпадают в ядре значения, но различаются коннотацией или объёмом. Пример: прозвище – эпikleза – кличка. Первый нейтрален, второй специальный, третий несёт сниженную коннотацию [8].

Деривационные варианты: термины образованы от одной основы по разным моделям. Пример: *топонимика* – *топонимия* – *топонимология*. Нормативный словарь разграничивает первые два: *-ика* – дисциплина, *-ия* – совокупность объектов [8].

Интернационально-национальные параллели: международный термин и его национальный аналог. Пример: *антропоним* – *имя человека*. В научных текстах конкурируют оба варианта [2].

Хронологические синонимы: устаревшие и современные обозначения одного понятия. Пример: «*имясловие*» (*ранняя традиция*) – «*ономастика*» (*современный термин*). Они важны для понимания исторических текстов [5].

2. Причины синонимии в ономастической терминологии

Первая причина – хронологическое расслоение: ранние описательные термины сосуществуют с поздними краткими интернационализмами, поскольку ни одна из форм не была официально упразднена [5].

Вторая причина – параллельное развитие научных школ. Западная и советская школы давали разные наименования одним понятиям: прагматоним / хрематоним, годоним / урбаноним [9]. Наследие В. Бланара [11] и советской традиции [9] до сих пор порождает дублиеты.

Третья причина – деривационная вариативность: суффиксы *-ика*, *-ия*, *-ология* конкурируют при образовании названий дисциплин. Нормализация этой группы осуществлена Подольской [8], однако в ненормативном употреблении конкуренция сохраняется.

Четвёртая причина – функциональная дифференциация: нейтральный «антропоним» используется в научных текстах, «личное имя» в учебной литературе [6]. Эти синонимы сохраняются намеренно.

Пятая причина – межъязыковые контакты: при заимствовании термина нередко создаётся параллельная единица, конкурирующая с транслитерацией. Так складываются пары: *antroponim / odam ismi*, *toponim / joy nomi* [1].

3. Принципы нормализации синонимических рядов

Нормализация предполагает выбор единого доминантного термина. Критерии предпочтения [4]: 1) системность – термин, органичнее встраивающийся в терминосистему; 2) краткость; 3) международность; 4) традиционность – учёт реального словоупотребления в научном сообществе.

Важно, что нормализация не требует полного устранения всех синонимов: некоторые должны быть сохранены в словаре с пометой «допустимо» или «устаревшее». Это позволяет обеспечить понимание исторических текстов [9].

Таблица 1. Нормализация синонимических рядов ономастической терминологии

Синонимический ряд	Доминантный термин	Библиотечные термины	Тип
топонимика / топонимия / топонимология	топонимика	топонимия, топонимология	Деривационный
ойконим / название населенных пунктов	ойконим	название населённого пункта	Интернац.-нац.
антропоним / имя человека	антропоним	имя человека, личное имя	Интернац.-нац.
прагматоним / хрематоним	хрематоним	прагматоним	Межшкольный
прозвище / эпikleза / кличка	прозвище	эпikleза, кличка	Частичный
годоним / урбаноним	годоним (улица)	урбаноним (шире)	Межшкольный

4. Синонимия в узбекской ономастической терминологии

В узбекской ономастической терминологии синонимические отношения обусловлены несколькими факторами. Наряду с унаследованными из русского синонимическими рядами, возникают новые: конкуренция транслитерированных терминов и самобытных создаёт интернационально-национальные параллели [1]. Например, термин «топоним», заимствованный через русский язык из греческого, часто используется параллельно с узбекским описательным оборотом «joy nomi» (название места) или более конкретным «geografik nom» (географическое название). В научной литературе можно встретить как «гидроним», так и «suv obyektleri nomlari» (названия водных объектов), что создает основу для синонимического ряда на уровне терминосистемы.

Узбекская терминология испытывает влияние арабо-персидской традиции: такие термины, как «nasab», «kunya», «laqab», «taxallus», функционируют параллельно с международными эквивалентами или русскими кальками [1]. Нормализация требует определения статуса каждого такого термина. Так, термин «nasab» (родословная, происхождение) может использоваться как синоним к более широкому международному термину «патроним» (имя по отцу), однако узбекский термин имеет более глубокий культурно-исторический контекст, отражая традицию знания генеалогии, в то время как патроним в русской традиции является лишь формальным компонентом (отчеством). Другой пример, «laqab» (прозвище, почетное имя), которое может рассматриваться как синоним «псевдонима» (вымышленного имени), но в арабо-персидской и тюркской традициях оно часто несло хвалебную или описательную функцию, отличаясь от западного понимания псевдонима как литературной маски.

Отдельную группу составляют синонимы, возникшие в результате реформы узбекского алфавита (1990-е гг.): некоторые термины получили параллельные написания в кириллице и латинице [3]. Например, термин «onomastika» в латинице и «ономастика» в кириллице являются графическими синонимами, обозначающими одно и то же понятие. Аналогично, пары «antroponim» - «антропоним» или «toponim» - «топоним» создают ситуацию терминологического дублетизма на уровне письменной фиксации. Нормализационная работа должна охватывать и этот аспект, чтобы в итоговых терминологических словарях были четко зафиксированы предпочтительные формы написания, особенно для официальных документов и научных изданий.

Результаты. В русской ономастической терминосистеме выявлено 63 синонимических ряда (12,3%), что превышает показатели высокоформализованных терминосистем. Наиболее многочисленны

деривационные варианты (27 рядов, 42,9%) и интернационально-национальные параллели (21 ряд, 33,3%).

Среднее количество членов синонимического ряда составляет 2,3 единицы; максимальный ряд включает 4 члена (топонимика / топонимия / топонимология / топоноведение). Это свидетельствует о том, что синонимия не достигает критического уровня.

Для 63 синонимических рядов предложены доминантные термины по четырём критериям. В 41 случае (65,1%) выбор однозначен; в 22 случаях (34,9%) необходимо дополнительное профессиональное обсуждение.

Высокий уровень синонимии объясняется длительным параллельным развитием советской, западноевропейской и национальных научных школ. Нормализация синонимических рядов – первоочередная задача при составлении нормативного узбекского словаря.

Вопрос о доминантном термине в узбекском словаре не всегда имеет однозначный ответ. Там, где русские синонимы разграничены по смыслу, это разграничение следует сохранить. Там, где синонимы абсолютны, предпочтение интернациональному термину.

Существенным теоретическим вопросом является вопрос о функциональной нагрузке синонимии: не является ли часть синонимических рядов закономерным отражением функциональной дифференциации текстов? С этой точки зрения некоторые ряды следует не устранять, а описывать через систему помет.

Выводы. Синонимия в ономастической терминологии – это системное явление, охватывающее 12,3% единиц. Основные типы: дублиеты, деривационные варианты, интернационально-национальные параллели, хронологические синонимы. Нормализация требует выбора доминантного термина по критериям системности, краткости, международной и традиционности.

При создании узбекского нормативного словаря необходимо преодолеть унаследованную синонимию. Результаты настоящего исследования перечень 63 синонимических рядов с рекомендуемыми доминантными терминами составляют конкретный инструмент для этой работы.

Перспективным направлением является изучение динамики синонимии: какие ряды стабилизируются, какие нарастают. Это позволит сосредоточить нормализационные усилия на наиболее нестабильных участках терминосистемы.

Литература

1. Бегматов Э. А. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1991. – 184 б.
2. Гринев-Гриневиц С. В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
3. Каримова Р. Сравнительная ономастическая терминология. – Ташкент, 2024.
4. Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: АН СССР, 1961. – 158 с.
5. Никонов В. А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 179 с.
6. Реформатский А. А. Введение в языковедение. – М.: Просвещение, 1967. – 544 с.
7. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.
8. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. 2-е изд. – М.: Наука, 1988. – 192 с.
9. Суперанская А. В., Подольская Н. В., Васильева Н. В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – 246 с.
10. Татаринов В. А. Общее терминоведение. – М.: Московский лицей, 1996. – 311 с.
11. Blanár V. Proper Name in the Light of Theoretical Onomastics. – Bratislava, 1996. – 243 p.
12. Van Langendonck W. Theory and Typology of Proper Names. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – 378 p.

QASHQADADARYO GIDRONIMLARINING DIALEKTAL XUSUSIYATLARI

Nafasova Vazira To‘rayevna, dotsent
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qarshi davlat universiteti
ORCID 0009-0003-2020-7316
UO‘K 413.11=943.75(045)

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatidagi suv havzalari – gidronimlar tarkibidagi shevaga xos so‘zlar tahlilga tortilgan. Jamiyatda yuz beradigan o‘zgarish, yangilanishlar, avvalo, nutqda, leksikada o‘z aksini topishi, nomlash natijasida yuzaga kelgan so‘zlar hudud jihatidan bir-biridan farq qilishi yoritilgan. Xalq nutqida uchraydigan shevaga xos so‘zlar barchani qiziqtirishi tabiiyligi ta’kidlangan. Gidronimlar tarkibidagi *hachcha*, *g‘o‘lva*, *yona*, *Fotma*, *tolli*, *chuchchi*, *chuchuk*, *chuchchim*, *olcha*, *olvoli*, *oqma*, *iyri*, *terskay*, *etak*, *adoq*, *mo‘rcha*, *jili*, *yax*, *shullik* kabi shevaga xos suzlarning ma’nolari izohlangan. SHEvaga xos so‘zlarning izohli lug‘atdagi, dialektal lug‘atdagi ma’nolari o‘zaro qiyoslangan. Dialektal so‘zlarning hududlarda qanday variantlarda ishlatilishi misollar orqali asoslangan.

Kalit so‘zlar: onomastika, toponim, toponimiya, toponimika, gidronim, gidronimiya, gidronimika, sheva, lahja.

ДИАЛЕКТОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГИДРОНИМОВ КАШКАДАРЬИ

Нафасова Вазира Тураевна, доцент
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каршинский государственный университет

Аннотация. В статье анализируются диалектоспецифические слова в гидронимах водоемов Кашкадарьинской области. Изменения и нововведения, происходящие в обществе, отражаются в речи и лексике, а слова, возникшие в результате именованья, различаются по территориальному признаку. Подчеркивается, что диалектоспецифические слова, встречающиеся в народной речи, представляют интерес для всех. Объясняются значения диалектоспецифических слов в гидронимах таких как *hachcha*, *g'o'lva*, *yona*, *Fotma*, *tolli*, *chuchchi*, *chuchuk*, *chuchchim*, *olcha*, *olvoli*, *oqma*, *iyri*, *terskay*, *etak*, *adoq*, *mo'rcha*, *jili*, *yax*, *shullik*. Проводится сравнение значений диалектоспецифических слов в толковом и диалектном словарях. Варианты использования диалектоспецифических слов в регионах обосновываются примерами.

Ключевые слова: ономастика, топоним, топонимия, топонимика, гидроним, гидронимия, гидронимика, диалект, говор.

DIALECTOLOGICAL FEATURES OF KASHKADARYA HYDRONYMS

Vazira Turaevna Nafasova, Associate Professor
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)
Karshi State University

Abstract. The article analyzes dialect-specific words in the hydronyms of reservoirs in the Kashkadarya region. Changes and innovations occurring in society are reflected in speech and vocabulary, and words that have arisen as a result of naming vary according to territorial features. It is emphasized that dialect-specific words found in folk speech are of interest to everyone. The meanings of dialect-specific words in hydronyms such as *hachcha*, *g'o'lva*, *yona*, *Fotma*, *tolli*, *chuchchi*, *chuchuk*, *chuchchim*, *olcha*, *olvoli*, *oqma*, *iyri*, *terskay*, *etak*, *adoq*, *mo'rcha*, *jili*, *yax*, *shullik* are explained. The meanings of dialect-specific words in explanatory and dialect dictionaries are compared. The use of dialect-specific words in different regions is substantiated with examples.

Keywords: onomastics, toponym, toponymy, toponymics, hydronym, hydronymy, hydronymics, dialect, local dialect (subdialect).

Kirish. Gidronimlar toponimlarning bir turi hisoblanib, xalqning o'tmishi, yashash tarzi, madaniy hayoti, madaniyati, ma'naviyati haqida axborot, ma'lumot beruvchi onomastik birliklardir. "Gidronim (yunoncha hudor – suv, onoma – atoqli

ot) suv bilan bog‘liq har qanday (tabiiy va notabiiy) obyektlarning atoqli oti, toponim turi”dir [1: 25]. Ma’lum bir tilda mavjud gidronimlar majmuyi gidronimiya deyiladi. Toponimikaning suv obyektlariga aloqador atoqli otlarni o‘rganuvchi bo‘limi gidronimikadir [1: 25]. Gidronimika tildagi gidronimlarni lisoniy tamoyillar, onomastik qonuniyatlar asosida o‘rganadigan toponimika bo‘limidir. Suv havzalari nomlari nomshunoslikda boshqa tur atoqli otlarga nisbatan eng qadimiy nomlar hisoblanadi.

Asosiy qism. Jamiyatda yuz beradigan o‘zgarish, yangilanishlar, avvalo, nutqda, leksikada o‘z aksini topadi. Insonlar nimaiki yaratgan, kashf qilgan bo‘lsa, uni nomlashga, boshqa tushunchalardan farqlashga harakat qilganlar. Nomlash natijasida yuzaga kelgan so‘zlar hudud jihatidan bir-biridan farq qilishi mumkin. Natijada bir tushunchani ifodalovchi bir qancha so‘zlar paydo bo‘lgan. “Xalq nutqi – azal-azaldan adabiy tilni boyituvchi manba. Xalq so‘zlashuv nutqi – jonli muloqot jarayoni. Nutqiy jarayon hamisha tirik, hayotiy, amaliy va davomli faoliyat” hisoblanadi [8: 4]. Xalq nutqida uchraydigan shevaga xos so‘zlar barchani qiziqtirishi tabiiy.

Quyida Qashqadaryo viloyati gidronimlari tarkibida uchraydigan dialektal so‘zlarni tahlilga tortishga harakat qildik.

Hachhabuloq Dehqonobod, *Hachchasoy* Yakkabog‘ tumanlaridagi buloq va soy nomi. Qamashi tumani Oqrabot qishlog‘i va boshqa qishloqlar aholisi nutqida tirgak vazifasini bajarish uchun mo‘ljallangan uchi ayri tayoq – *hachcha*. T.Nafasovning keltirishicha, *hachcha* daraxt shoxidagi mevalarni suyab, ko‘tarib turadigan tirgak cho‘p; uch qismi ikkiga ayrilgan shox, xoda; ikki gazaning bo‘lingan joyi [8: 459]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *hachcha* so‘zining shevaga xos so‘z sifatida “Ayri (yog‘och), tirgak, tirgovuch” ma‘nosi keltiriladi [2:376]. *Hachcha* so‘zi qipchoq shevasida faol ishlatiladi. Tog‘li hududlarda *Hachhabuloq*, *Hachchasoy* gidronimlari uchraydi. Buloq, soy suvlari ikkiga bo‘lingan yoki shunday joydagi suv havzasi *Hachhabuloq*, *Hachchasoy*.

G‘o‘lvaariq Chiroqchi tumanida ariq nomi. Qadimda sopoldan ishlangan, hozir temir-betondan qilingan quvurlarning xalq shevalaridagi nomi – *g‘o‘lva*. *G‘o‘lva* so‘zining *g‘o‘lba*, *g‘ulba*, *g‘urba*, *g‘o‘rba* bariantlari ham bor. Qamashi tumanining Oqrabot qishlog‘i aholisi quvur, trubani *g‘o‘lva* deb yuritishadi. *G‘o‘lva*, *g‘o‘lba*, *g‘ulba*, *g‘urba*, *g‘o‘rba* so‘zlarining *g‘o‘la* varianti Qashqadaryo viloyati qipchoq lahjasida ishlatiladi. Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilar kalta, semiz odamni *g‘o‘la* odam yoki *g‘o‘lapitishli* odam shaklida aytishadi. T.Nafasovning izohicha, jar yoki o‘yiq joydan suvni ariq orqali o‘tkazish imkoniyati bo‘lmagan joyda quvur o‘rnatilib o‘tkazilgan suv yo‘li – *G‘o‘lvaariq* [3: 268].

Yonabuloq Dehqonobod, Qamashi, Chiroqchi tumanlaridagi buloq. *Yona* – jarlik, tepalik, qirlik joylarning enish qismi. Qipchoq shevasida *jona* shaklida talaffuz

etiladi. *Yonabuloq/Jonabuloq* yon joydagi, qir-adirlarning yonbag'irlaridan suv sizib, qaynab chiqqan yoki qazilgan buloq. Dehqonobod, Qamashi tumanlarida *Jonabuloq* nomli bir nechta buloqlar ham bor.

Fotmabuloq Kitob tumanidagi buloq nomi. Fotima – antroponim. Fotima ismli ayol tomonidan qazilgan yoki Fotima ismli ayolning uyi yonidagi buloq – Fotimabuloq. Aholi nutqida bu nom *Fotmabuloq* shaklida talaffuz qilinadi.

Tollibuloq, Tolliariq Koson, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog', Shahrizabz tumanlaridagi ariq va buloq nomi. *Tollisoy* Shahrizabz, Chiroqchi, Dehqonobod, Yakkabog' tumanlaridagi soy nomi. *Tollibuloq, Tolliariq, Tollisoy* gidronimlarining yaralishiga asos bo'lgan so'z – *tolli* leksemasi. Bu so'zning adabiy tildagi shakli *totli*. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *totli* so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

TOTLI 1 Ta'mi, mazasi yaxshi; mazali, lazatli, shirin. Totli ovqat. Moling zotli bo'lsa, yemishing totli bo'lar. Maqol. Shavla juda totli tuyuldi – oshpazni maqtadilar. Oybek, Quyosh qoraymas. Suyak solingan suyuq ovqatlar qancha uzoq va miltiratib qaynatilsa, ta'mi shuncha totli bo'ladi. K.Mahmudov, O'zbek tansiq taomlari.

2 ko'chma Lazzat bag'ishlovchi, shirin, nash'ali. Totli xayollar. Totli onlar. Begimxonning ko'z oldida xarita emas, Erali jonlandi. Qanday totli edi ularning turmushi. I.Rahim, Chin muhabbat. Dili potirlab, miyasida biri biridan totli o'ylar charx uradi. S.Siyoyev, Yorug'lik.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *tolli* so'ziga izoh berilmagan.

Tolli so'zi Qashqadaryo viloyatining qipchoq lahjasida so'zlashadigan aholi nutqiga xos kalima. Shu hudud aholisi shirin, mazali so'ziga sinonim sifatida *tolli/totli* so'zini ishlatadi: *suv tolli ekan*. Qashqadaryoning ayrim hududlarida *tolli* so'zi o'rnida *tollik* so'zi ham ishlatiladi. Shahrizabz tumanida *Tolliksoy* nomli soy ham bor.

Chuchchibuloq Dehqonobod, Shahrizabz, Chiroqchi, Kasbi, Qamashi, Koson tumanlaridagi buloq nomi. *Chuchchiquduq* Dehqonobod, Qamashi tumanlaridagi quduq nomi.

Chuchchi so'zi "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari" lug'atida quyidagicha izohlangan:

Chuchchi I 1 (Davtosh) Shirinlik darajasi ko'zda tutilgan darajaga yetar-yetmas. 2 Achchiqlik darajasi yo'qolib, mazali holga kelgani, achchiqning teskarisi. Chuchchi II (Qarshi) Taqchil, topilmas. *Urush davrida non chuchchi edi* [8: 359].

Ko'rish mumkinki, *chuchchi* so'zi gidronimlar tarkibida kelib buloq, quduq suvining sho'r emas, ichishga yaroqli ekanligini anglatadi. *Chuchchibuloq, Chuchchiquduq* gidronimlari bo'lgan hududda, albatta, *Sho'rquduq, Sho'rbuloq* nomli suv havzalalari ham bo'lgan. Bir suv manbasining boshqasiga taqqoslanishi

natijasida ushbu gidronimlar yaralgan. *Chuchchi* soʻzining adabiy tildagi shakli – *chuchuk*.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da *chuchuk* soʻzi shunday izohlangan:

Chuchuk 1 Achchiq emas, nordon emas; shirin. Chuchuk olma. Chuchuk anor. Chuchuk qalampir asosiy darmondorilarning manbayi boʻlib ... ayniqsa, S darmondoriga juda boydir. K.Mahmudov, Oʻzbek taniq taomlari. Butun chuchuk suv taʼminotining katta qismi muzliklarda muzlab qolgan. Bu shuni anglatadiki, mavjud toza suv miqdori bilan taqqoslanganda juda ozdir. Shuning uchun chuchuk suv resurslaridan oqilona foydalanish juda muhimdir. Gazetadan. Limonli sharbatlar, chuchuk choylar ... oʻzining ijobiy natijasini koʻrsatmasdan qoʻymaydi. Gazetadan.

Chuchuk suv Taʼmi yaxshi, ichimli suv (daryo, buloq va sh.k. suvi haqida). Chuchuk suvni sogʻinish tuygʻusi hali menga tanish emas, lekin shu daqiqadan uni men seza boshladim. A.Muxtor, Davr mening taqdirimda.

2 *koʻchma* Kishiga ozor bermaydigan; yoqimli, koʻngilli, shirin. Bir achchiqning bir chuchugi bor. Maqol. Bir ogʻiz chuchuk soʻz odamning koʻnglini qanchalar koʻtaradi! Gazetadan. Meni Yulduz pari deydi, Tilim bordir boldan chuchuk. “Nurali”.

3 *koʻchma* Ayrim tovushlarni (mas., “r”ni) toʻla ayta olmaydigan. Tili chuchuk bola. Nasimjon Fayzullayev, – dedi chuchuk til bilan sekretar va gilam chetiga omonatgina oʻltirib, soʻzini davom ettirdi. Oybek, O. v. shabadalar. [4: 841].

Shuningdek, Shahrisabz tumanida *Chuchchimbuloqkoʻl* gidronimi va joy nomi ham mavjud. *Chuchchi*, *chuchuk*, *chuchchim* soʻzlari bir soʻzning variantlaridir.

Olchabuloq Chiroqchi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabogʻ tumanlaridagi buloq nomi.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da *olcha* soʻziga shunday izoh berilgan. Olcha [olu+-cha: kichik olxoʻri] 1 Raʼnoguldoshlar oilasiga mansub danakli meva daraxti. 2 Shu daraxtning yumaloq nordon mevasi [5: 482]. Kitob, Shahrisabz, Yakkabogʻ tumanining ayrim hududlarida *olcha* soʻzi oʻrnida *olvoli* leksemasi ishlatiladi. Shahrisabz tumanida *Olvalidara* gidronimi ham mavjud.

Oqmabuloq Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod tumanlaridagi buloq nomi. Yilning toʻrt faslida ham suvi kamaymaydigan, qurib qolmaydigan buloq – *Oqmabuloq*. T.Nafasov ham Chiroqchi tumani aholisi nutqida ustidan suyuqlik chiqib turadigan, tezda bitmaydigan yara (kasallik) hamda Dehqonobod tumanlari aholisi nutqida hamisha oqib turadigan, oqar jilgʻa, irmoqqa nisbatan *oqma* leksemasini qoʻllashlarini taʼkidlaydi [8: 217].

Iyribuloq Chiroqchi tumanidagi buloq nomi. *Iyriariqsuv* Yakkabogʻ tumanidagi ariq nomi. Viloyatda *Iyriariq* nomli ariqlar bir nechta. Shahrisabz tumanida *Iyrixoxariq* gidronimi ham bor. Iyrisuv Qamashi tumanida irmoq, jilgʻa nomi. Yakkabogʻ, Chiroqchi, Qamashi tumanlarida *Iyrikoʻl* gidronimlari ham

mavjud. Egri soʻzining shevadagi varianti – *iyri*. Ariq shakli toʻgʻri emas, egri-bugri boʻlganligi sababli *Iyriariq*, *Iyrishoxariq* deb nomlangan. *Iyribuloq*, *Iyrisuvda* esa buloq, irmoq, jilgʻa suvining oqim yoʻnalishi egri-bugri, qiyshiqliqi nazarda tutilgan.

Terskaybuloq Yakkabogʻ, Shahrisabz tumanlaridagi buloq nomi. Izohli lugʻatda *terskay* soʻzi quyoshga teskari, quyosh tushmaydigan, shimolga qaragan (togʻ, balandlik yonbagʻri, chuqurlik va sh.k. haqida) tarzida izohlangan [6: 228]. T.Nafasov Dehqonobod tumani aholisi shimol tomon va balandlikning quyosh nuri tushmaydigan tomoniga nisbatan *terskay* soʻzini qoʻllashlarini keltiradi [8: 282]. Togʻ va tizma togʻlarning, jar va vodiylarning quyoshga teskari, shimolga qaragan, soya yon bagʻri, quyosh nuri kam tushadigan joy – *terskay* [7:126]. *Terskaybuloq* – togʻ, balandlikning quyosh nuri tushmaydigan joyidagi buloq. Chiroqchi tumanining Taragʻay, Quruqsoy qishlogʻidagi barlos urugʻi vakillari *terskay* soʻzini qoʻllaydilar. Davtosh qishlogʻi aholisi *terskay* soʻzi oʻrnida *soyarav* soʻzini ishlatadilar. Qamashi tumani Oqrabot qishlogʻi aholisi esa *soyabet* leksemasini qoʻllaydilar. Demak, *terskay* – togʻli hududda yashaydigan aholi nutqiga xos soʻz. Quyosh tushadigan tomon esa kungay deb yuritiladi.

Etakbuloq Yakkabogʻ Dehqonobod, Shahrisabz, Chiroqchi, Kitob, Qamashi tumanlaridagi buloq nomi. *Etak* soʻzi toponimiyada quyi, adoq maʼnolarini anglatadi [3: 223]. Qishloqning quyi qismidagi yoki boshqa buloqlarga nisbatan quyida joylashganligiga koʻra *Etakbuloq* deb nomlangan.

Adoqbuloq Chiroqchi, Shahrisabz, Dehqonobod, Qamashi, Kitob tumanlaridagi buloq nomi. Chiroqchi, Dehqonobod, Qamashi, Kitob, Shahrisabz tumanlari aholisi nutqida *adoq* soʻzi quyi, etak, past, oxir maʼnolarida qoʻllanadi: *qishloq adogʻida yashayman*. *Ishingni adogʻiga yetkazib qoʻy*. Manbalarda adoq va etak soʻzlarining genezisi bir ekanligi taʼkidlanadi [3: 223]. Qamashi tumani Oqrabot qishlogʻi aholisi *adoq* soʻzi oʻrnida *odog*, *odogʻi* soʻzlarini qoʻllaydi.

Moʻrchaariq Yakkabogʻ tumanidagi ariq nomi. Qarluq lahjasida soʻzlashuvchi aholi chumolini *moʻrcha* deb ataydi. Qipchoq lahjasida soʻzlashuvchilar nutqida *chumoli*, *qumursqa* soʻzlari faol. Qamashi tumani Oqrabot qishlogʻi aholisi chumolining kattasini ot qumursqa, tez yuguradigani – oʻgʻri qumursqa, kichik chumoliga nisbatan mayda qumursqa leksemalarini ishlatadilar. *Moʻrchaariq* hajmi, boʻyi jihatdan boshqa ariqlarga nisbatan kichik ariq.

Jilibuloq Dehqonobod, Chiroqchi, Shahrisabz tumanlaridagi buloq nomi. Iliq soʻzining shevadagi varianti – *jili*. *Iliqbuloq* – *Jilibuloq*.

Yaxbuloq Yakkabogʻ tumanidagi buloq nomi. *Yax* Qarshi shahri va tevarak-atrof hududida shevasida muz, sovuq [8: 389]. *Yaxbuloq* – suvining sovuqligi meʼyoridan oshiq boʻlgan buloq.

Shulliksoy Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob tumanlaridagi soy nomi. Viloyatning tog‘li hududlari aholisi nutqida *shulluk* – zuluk. “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari”da *shulluk* zuluk so‘zining shevadagi varianti ekani izohlangan [8: 375]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *shulluk* so‘zi qayd etilmagan.

Xulosa. Gidronimlar tarkibidagi dialektal so‘zlar xalqning madaniyati, turmush tarzi, xo‘jalik hayoti haqida boy ma‘lumot beruvchi manba hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Э. Бегматов, Н. Улуков. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 6 jildli. 2-jild. – 1036 b.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1988. – 288 б.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 6 jildli. 6-jild. – 864 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 6 jildli. 3-jild. – 844 b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 6 jildli. 5-jild. – 720 b.
7. Қораев С., Фуломов П., Раҳимбеков Р. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент, 1979.
8. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент, 2011.

QASHQADARYO XALQ DOSTONLARIDAGI ASTRONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Abatov Doston Ro‘zimurod o‘g‘li, dotsent
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
dostonabatov1997@gmail.com
ORCID: 0009-0004-2553-6984
UO‘K 811.512.133'373.2:81'44

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Nurali va Semurg”, “Jorxon maston”, “Kelinoy yoki Norguloy”, “Yusufbek” hamda “Turkman dahosi yoki Maxtumquli” kabi Qashqadaryo xalq dostonlarida uchraydigan astronomlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida xalq dostonlari matnlari, onomastika va lingvokulturologiyaga oid ilmiy manbalar hamda mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda tadqiqot obyekti sifatida tanlangan dostonlar matnididan olingan Quyosh, Hulkar, Oy, Yulduz, Hut, Hamal, Yetti qaroqchi kabi astronomlarning milliy madaniyat, xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar va qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan. Shuningdek, dostonlarda qo‘llangan astronomlarning semantik xususiyatlari, badiiy-estetik vazifasi hamda milliy-madaniy axborotni ifodalashdagi o‘rni asoslangan.

Kalit so‘zlar: onomastika, lingvokulturologiya, xalq dostoni, astronim, onomastik birliklar, etnomadaniyat, milliy qadriyatlar, lingvomadaniy tahlil.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АСТРОНИМОВ В НАРОДНЫХ ЭПОСАХ КАШКАДАРЬИ

Абатов Достон Рuzимурод угли, доцент
 Центр педагогического мастерства Кашкадарьинской области
 доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности астрономов, встречающихся в таких кашкадарьинских народных эпосах (дастанах), как «Нурали и Семург», «Жорхун мастон», «Келиной или Норгулой», «Юсуфбек» и «Туркменский гений, или Махтумкули». В процессе исследования на основе текстов народных дастанов, научных источников по ономастике и лингвокультурологии, а также существующих изысканий по данной теме освещены аспекты взаимосвязи таких астрономов, как Солнце (Куёш), Хулкар, Луна (Ой), Звезда (Юлдуз), Рыбы (Хут), Овен (Хамал), Большая Медведица (Етти карокчи), извлеченных из текстов выбранных эпосов, с национальной культурой, исторической памятью, обычаями и ценностями народа. Также обоснованы семантические свойства, художественно-эстетическая функция и роль употребленных в дастанах астрономов в выражении национально-культурной информации.

Ключевые слова: ономастика, лингвокультурология, народный эпос, астроном, ономастические единицы, этнокультура, национальные ценности, лингвокультурный анализ.

ASTRONOMIC NAMES IN QASHQADARYO FOLK EPICS: LINGUOCULTUROLOGICAL CHARACTERISTICS

Abatov Doston Ruzimurod ugli, Associate Professor
 Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
 Center for Pedagogical Excellence of Qashqadaryo Region

Abstract. This article analyzes the linguoculturological characteristics of astronyms found in such Qashqadaryo folk epics as "Nurali and Semurgh", "Jorkhun Maston", "Kelinoy or Norguloy", "Yusufbek" and "Turkmen Genius or Makhtumkuli". Drawing upon the texts of folk epics, scientific sources on onomastics and linguoculturology, as well as relevant research on the topic, the article highlights the connection of astronyms like the Sun, Pleiades (Hulkar), the Moon, Stars, Pisces (Hut), Aries (Hamal), and the Big Dipper (Yetti Qaroqchi), extracted from the analyzed epic texts, with national culture, historical memory, customs, and values of the people. Furthermore, the semantic features, artistic-aesthetic functions of the astronyms used in the epics, and their role in conveying national-cultural information are substantiated.

Keywords: onomastics, linguoculturology, folk epic, astrononym, onomastic units, ethnoculture, national values, linguocultural analysis.

Kirish. So‘nggi yillarda millatning dunyoqarashi, tafakkuri, asriy urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, turmush tarzi, tili, diniy tasavvuri, ma’naviyati, bir so‘z bilan aytganda, madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan xalq madaniy merosining xira tortmas ko‘zgusi hisoblangan folklor namunalari, xususan, xalq dostonlari tilini tadqiq qilish muhim yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda.

O‘zbek tilshunosligida onomastik birliklarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari tadqiqi ma’lum darajada amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar Qashqadaryo xalq dostonlari misolida astronomlarning lingvokulturologik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Bu esa o‘z navbatida mavzuning muhim va dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Xalq dostonlaridagi onomastik birliklar tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyot, tarix kabi bir qator fanlar uchun tadqiqot obyekti hisoblanadi, shuning uchun ham xalq dostonlaridagi onomastik birliklarga bo‘lgan qiziqish ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, Dj.Mill, B.Rassel, O.Yespersen, Y.Kurilovich, P.A.Florenskiy, A.F.Losev, A.A.Reformatskiy, V.V.Vinogradov singari olimlar onomastika sohasida e‘tiborga molik ishlarni amalga oshirganlar [1, 3].

G.A.Xaburgayev, T.D.Suslova, Y.A.Karpenko, O.I.Fonyakova, N.I.Zubov, V.I.Suprun, L.V.Shulunova, R.G.Yagafarov, V.V.Anisimov, A.A.Novichikov kabi olimlarning ishlarida folklor va badiiy asarlar matnidagi onomastik birliklarning tekshirish obyekti bo‘lganligini kuzatish mumkin [2, 5].

O‘zbek tilshunosligida xalq dostonlari matnidagi onomastik birliklar tahliliga bag‘ishlangan samarali ishlar yetakchi o‘rinni egallab bormoqda. Xususan, S.Tursunov, Z.Xolmonova, I.Xudoynazarov, B.To‘ychiboyev, D.Andaniyazova, Q.Olloyorov, Y.Hojiyev, D.Ashurov, B.Yunusova tadqiqotlarida folklor asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik, grammatik, semantik-struktur, konseptual va leksikografik hamda lingvokulturologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan [2, 5].

Astronomlarning lingvokulturologik tahlil uchun manba bo‘la olishini hisobga olgan holda biz o‘z tadqiqotimizda asosiy e‘tiborni “Nurali va Semurg‘”, “Jorxon maston”, “Kelinoy yoki Norguloy”, “Yusufbek” hamda “Turkman dahosi yoki Maxtumquli” kabi Qashqadaryo xalq dostonlaridagi astronomlarning lingvokulturologik tahliliga qaratamiz.

Natijalar va muhokama. Har qanday badiiy matn tarkibidagi onomastik birliklar o‘zi mansub xalqning milliy madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Antroponim, toponim kabi onomastik birliklar bugungi kunga qadar tilshunoslikda keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, Qashqadaryo xalq dostonlari matnidagi boshqa tur

onomastik birliklar, xususan, zoonimlar, astronimlar, mifonimlar, poronimlar, teonimlar, pragmatonim va boshqalar lingvokultrologik jihatdan tizimli o‘rganilmagan. Vaholanki, aynan shu kabi birliklar xalqimizning qadimgi diniy (shomonlik, islomiy) va mifologik dunyoqarashini eng aniq aks ettiruvchi lisoniy vositalar hisoblanadi. Mazkur maqola “Nurali va Semurg”, “Jorxun maston”, “Kelinoy yoki Norguloy”, “Yusufbek” hamda “Turkman dahosi yoki Maxtumquli” kabi Qashqadaryo xalq dostonlaridagi astronimlarning lingvokultrologik xususiyatlarini aniqlash va ularning milliy-madaniy kod sifatidagi tabiatini yoritishga bag‘ishlangan.

Qashqadaryo xalq dostonlari matnida *Quyosh, Hulkar, Oy, Yulduz, Hut, Hamal, Yetti qaroqchi* kabi astronimlar qo‘llangan. Astronim termini “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da (yun. *aster – astr – yulduz + onoma – atoqli ot*) – alohida olingan samoviy jismlar, obyektlar (yulduzlar, sayyoralar, kometalar, asteroidlar va b.) nomi. Atoqli ot turi sifatida izohlangan [3, 214].

Xalq dostonlari matnida qo‘llangan astronimlar shunchaki osmon jismlarini nomlovchi birliklar emas, balki xalqning olamni anglash usuli, mifologik tafakkuri, estetik qarashlari va ko‘p asrlik hayotiy tajribasi muhrlangan chuqur lisoniy-madaniy kodlar (belgilar) tizimi ham hisoblanadi.

Qashqadaryo xalq dostonlari matnida namoyon bo‘ladigan astronimlarning asosiy lingvomadaniy xususiyatlarini quyidagi tizimli omillar orqali dalillash mumkin: “Jorxun maston”, “Nurali va Semurg”, “Oyparcha” dostonlarida *Savr* astronimi qo‘llangan. *Savr* astronimi lingvistik lug‘atda quyidagicha izohlanadi:

Savr [a. buqa, ho‘kiz] **1** (S – katta) astr. O‘n ikki burjning biri, Hamal va Javzo burjlari o‘rtasida joylashgan.

2. Shamsiya yil hisobida ikkinchi oyning arabcha nomi (22-aprel – 21-may davriga to‘g‘ri keladi). *Savr kirdi, ekinlarga davr kirdi*. Maqol. *Momaqaldiraq gulduragi, savr oyining beqaror yomg‘irlari yurakka to‘lqinlik beradi*. “Saodat”. *Savr edi. Havo g‘amzada*. “Yoshlik” [5, 417]. Ushbu izohdan bilishimiz mumkinki, qadimdanoq turkiy xalqlar yulduzlardagi o‘zgarishlarga qarab ekin ekish, yo‘lga chiqish, hosilni yig‘ishtirish singari mashg‘ulotlarini rejalashtirgan, ya‘ni yulduzlarga kelajakdan darak beruvchi vosita sifatida qarashgan. Qashqadaryo xalq dostonlari matnida ham *Savr* yulduzining ko‘kda namoyon bo‘lishi yomg‘irli mavsumning boshlanishidan darak ekanligi qayd etilgan.

*Savr kirsas bulut barin tog‘olar,
Shu bulutdan kuchli yomg‘ir yog‘ilar.*

Qodir baxshi Rahimovning “Jorxun maston” dostonida esa Go‘ro‘g‘li va Avazxonning Gapsarshoh qo‘shinlarining boshiga qirg‘in solishi jarayonida dushman askarlari qonining tog‘dan oqishi Savrda yog‘gan selga o‘xshatilishi misolida bu

astronimning badiiy tashbehni vujudga keltirishida asos bo‘lib xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

*Ne bir sherlar hayqirib,
Bir-birini chaqirib,
Savrdagi selday bo‘b,
Qonlar oqdi sharqirab* [4].

“Nurali va Semurg” dostonida *Hamal*, *Hut* singari astronomlar qo‘llangan. *Hamal* va *Hut* astronomlarining lingvistik lug‘atdagi izohi quyidagicha:

Hamal [a. – qo‘y; qo‘zichoq] **1** (H – katta) *astr.* O‘n ikki burjning biri: Hut va Savr burjlari orasida joylashgan (q. burj). *Bahor kirdi. Dehqon hisobi bilan hut chiqib, hamal kirdi.* Gazetadan.

2. Shamsiya yil hisobida yilning birinchi oyi: 22-martdan 21-aprelgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. *Hamal kirdi – amal kirdi.* Maqol. *Sheriklari bilan hamal oyining boshlarida – martning oxirida turkman sahrosiga jo‘nadi.* S.Ayniy, Esdaliklar [6, 497].

Hut [a. – katta, nahang baliq; kit] **1.** (H – katta) *astr.* O‘n ikki burjning biri, Dalv va Hamal burjlari o‘rtasida joylashgan (q. burj).

2. Shamsiya yil hisobida o‘n ikkinchi oyning arabcha nomi (22-fevral – 21-mart davriga to‘g‘ri keladi). *Hut oyi. Hut chiqib, hamal kirdi* [6, 566].

*Hutdan keyin Hamalda,
Qor olib kelar shamoldi,
Qimmat demang bolalar –
Arzon oldim ro‘moldi* [7, 107].

O‘zbek xalqining hayotiy tajribasida aynan Savr oyida tabiatda kuchli yog‘ingarchilik, sellar va jala quyishi odatiy iqlimiy hodisa sanalgan. Baxshi ushbu hududiy-klimatik kodni doston matniga olib kirish orqali jang maydonidagi qon daryolarini bahorgi shiddatli selga o‘xshatadi va badiiy tashbehning emotsional-ekspressiv ta‘sir kuchini yanada oshiradi. Bu esa doston tilida astronomik va vaqt koordinatalarining shunchaki vaqtni ko‘rsatmay, jang pallasining shiddatini ifodalovchi sof milliy-madaniy va lisoniy-estetik etalon vazifasini o‘tashidan dalolat beradi. Muxtasar aytganda, Qashqadaryo xalq dostonlarida qo‘llangan astronomlar shunchaki osmon sferasining leksik tarkibi bo‘lmay, millat tafakkurining kosmik manzarasi muhrlangan fundamental lisoniy konseptlar hisoblanadi.

Qashqadaryo xalq dostonlari matni ustida ishlash jarayonida *quyosh, oy, yulduz* kabi astronomlarning o‘xshatish etaloni vazifasida kelganiga ham guvoh bo‘ldik. “Turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek tilining tamomila o‘ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an‘analarining betakror ko‘zgusi, bejirim va ta‘sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar o‘rtasidagi obrazlar vorisiyligini ta‘minlashga xizmat qiladigan g‘oyat muhim vosita sifatida juda katta

etnopsixologik, lingvokulturologik va lingvopoetik qimmatga ega” [8, 16] ekanligini quyidagi misollar ham tasdiqlaydi.

Quyoshday

1. Porlamoq. Benihoya go‘zalligi, jozibasi, mehri bilan ajralib turmoq. Asosan, odam haqida [8, 301].

*Yusufbek esa kunda to‘lishib, chiroy ochib, go‘yo **quyoshday** porlab yura berdi, kunlar esa o‘taberdi, Yusufbek ham hash-pash deguncha yetti yoshga yetdi (Yusufbek).*

2. Kulmoq, tabassum qilmoq, chehrasi ochilmoq; charaqlamoq, yorishmoq.

*Shunda ikki pari o‘zbek-turkman udumini qilib, o‘zlari ham o‘n to‘rt kunlik oyday to‘lib, **quyoshday** charaqlab kulib, bekning ko‘nglini ko‘tardi (Yusufbek).*

Qashqadaryo xalq dostonlari matnida oy astronomi quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun ham ishlatilgan:

Oy tuvganday, oyday (misoli)

1. Yorug‘lashmoq, yarqiramoq.

*Tog‘larning boshi orqovul, // Gazallarida qirg‘ovul, // **Oy tuvganday** yarqillar, // Kelinoy turgan ko‘p ovul (“Kelinoy yoki Norguloy”). Jo‘nadi bedov hirkillab, // Abzali **oyday** yarqillab, // Ot haydaydi qirq yigit, // Uzangilari sharqillab (Jorxun maston).*

2. To‘lmoq, yanada go‘zallashmoq [8, 151].

*Qoshlaring qiyg‘ochdir yoy tortilganday, // Ko‘z bilan qarasang o‘q otilganday. // Uyga kirsang yarim bo‘lar to‘lgan oy, // Men aylansam **oyday** bo‘lgan yuzingdan (“Kelinoy yoki Norguloy”). Mehr to‘la ko‘zidan, // Men aylansam o‘zidan, // O‘pib o‘lsam armon yo‘q, // **Oyday** bo‘lgan yuzidan (Jorxun maston).*

3. Boshqalardan ajralib turmoq; go‘zal, nozik.

*O‘g‘il bo‘lsa uning yo‘li boshqadir, // Qiz zurriyot **oy misoli** qashqadir, // Shuning uchun ozod aylang, sultonim, // Qarab tursam suv badanim qaqqshaydir (Turkman dahosi yoki Maxtumquli).*

4. Nurli, porloq, oppoq.

*Ma‘murxon beshikni ochib qarasa, yuzlari **oyday** bo‘lib, qoshlari yoyday bo‘lib, erkalangan toyday bo‘lib, odamning hidini sezib, tilini cho‘zib, irjayib kulib bir o‘g‘il bola yotar edi (Nurali va Semurg‘)*

O‘n to‘rt kunlik oyday

Juda ham chiroyli, behad go‘zal. Asosan, ayol, uning yuzi haqida [8, 152].

*Shunda ikki pari o‘zbek-turkman udumini qilib, o‘zlari ham **o‘n to‘rt kunlik oyday** to‘lib, quyoshday charaqlab kulib, bekning ko‘nglini ko‘tardi (Yusufbek).*

Oy nuriday

1. Mashhur bo‘lmoq, ma‘rifat taratmoq, dong taratmoq.

Lekin hozir Maxtumquli Go'klang yurtiga oy nuriday nur sochib, toboro nuri yoyilib bormoqda (Turkman dahosi yoki Maxtumquli).

2. Jilolanmoq, porlamoq, yarqiramoq.

Yoshi buloq suviday, // Ikki ko'zdan oqadi, // Kokili oy nuriday, // Yig'ida irg'aladi (Jorxun maston).

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, *oy* astronimi o'zbek xalqi madaniyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlari, milliy tarbiya va odobi haqida qimmatli ma'lumotlarni tashish vazifasini bajarmoqda.

Qashqadaryo xalq dostonlari matnida *yulduzday, yulduzlar* misol o'xshatishi ham uchraydi:

Yulduzlar misol

Ko'p, chek-chegarasiz, sanoqsiz, hisobsiz; bitmas-tuganmas.

Hali Bonudan umidim katta, orzularim esa yulduzlar misol ko'p (Turkman dahosi yoki Maxtumquli).

Doston qahramonining orzularining *yulduzlar misol* ko'p ekanligi, birinchidan, ulug' niyatlari borligini, ikkinchidan, juda ko'p ekanligini, uchinchidan, yulduzlar yorug', ravshan bo'lganidek xalqqa manfaat beradigan pok ekanligini ifodalshga xizmat qilgan.

Xulosa. Qashqadaryo xalq dostonlarida uchraydigan astronomlarning aksariyati xalqning tabiat, borliq, mifologiya va diniy qarashlari bilan bevosita bog'liq. Bu esa mazkur birliklarni lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganish ularning ichki mazmunini to'liqroq ochib berish imkonini yaratishini tasdiqlaydi. Onomastik birliklarning lingvomadaniy tahlili orqali xalqning milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlari til vositasida qanday ifodalanishi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Сызранова Г.Ю. Ономастика. Учебное пособие. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – С. 3.
2. Abatov D. Qashqadaryo xalq dostonlari onomastikasi (Qora baxshi Umirov, Umir shoir Safarov, Qodir baxshi Rahimov dostonlari misolida): filol. fan. bo'yicha. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2024. – 140 b.
3. Abatov D.R., Nurchayeva M. Qashqadaryo xalq dostonlari matnida qo'llangan onomastik birliklar tadqiqi // O'zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2022. – B. 214.
4. Qodir baxshi Rahimov. "Jorxun maston". // WWW Ziyo.uz.com kutubxonasi. – 112 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 3-жилд. – Тошкент: "ЎзМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 417.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 5-жилд. – Тошкент: "ЎзМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 497.

7. Qora baxshi Umirov. Nurali va Semurg'. – Qarshi, 2016. –176 b.
8. Маҳмудов Н, Д. Худойберганава. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
9. Qodir baxshi Rahimov. “Kelinoy yoki Norguloy”. Qarshi davlat universiteti nashriyoti. 2011. – 101 b.
10. Qahhor baxshi Rahimov. Turkman dahosi yoki Maxtumquli. – Qarshi, 2022. – 254 b.
11. Qahhor baxshi Rahimov. Yusufbek. – Qarshi, 2025. – 123 b.
12. Abatov D.R. Qashqadaryo xalq dostonlaridagi an'anaviy turg'un o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari // QarDu xabarlar. – Qarshi, 2025. № 1 (1). – B. 101 – 105.
13. Abatov D.R. Qashqadaryo xalq dostonlaridagi an'anaviy o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2025. – № 2/4. – B. 7–11.

BADIIY ASARLARDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI VA ULARNING TARIXIY HAMDA SEMANTIK TAHLILI

Ravshanova Gulruhbegim Qahramonovna, professor v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)

gulruxbegim38@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-5589-8623>

G'aybullayeva Ruxshona, талаба
UO'K 413.13:8-2:94(045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikologiyaning maxsus bo'limlaridan biri bo'lgan onomastika va uning muhim tarkibiy qismi antroponimika, toponimika oid birliklar badiiy asarlar misolida tahlil qilinadi. Maqolada toponimika va etnonimikaning o'zaro bo'g'liqligi, toponimlarning o'rganilishi, milliy tarixiy xotirani tiklashdagi roli haqida fikr yuritiladi. Onomastik birliklar sifatida shaxs va joy nomlari, etnonimlar, laqablar, taxalluslar va boshqa atoqli otlar matnda faqat nomlash vazifasini bajarmay, balki asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochish, obraz xarakterini yoritishda muhim poetik unsur sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada onomastik birliklarning uslubiy, ramziy, tarixiy vazifalari o'rganilib, ularning obraz yaratishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi va badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: onomastika, geografik nom, toponim, etnonim, rang, urug, nom, geografik obyekt, atoqli ot, joy tarixi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ, ИХ ИСТОРИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Равшанова Гулрухбегим Кахрамоновна, и.о.профессора
доктор филологических наук (DSc)
Гайбуллаева Рухшона, студент

Аннотация. В данной статье анализируется ономастика, один из разделов лексикологии, и её важная составляющая – антропонимия, топонимические единицы, на примере художественных произведений. Рассматривается взаимосвязь топонимии и этнонимии, изучаются топонимы и их роль в восстановлении национальной исторической памяти. В качестве ономастических единиц личные имена, топонимы, этнонимы, прозвища, псевдонимы и другие имена собственные не только выполняют функцию именования в тексте, но и выступают важным поэтическим элементом, раскрывающим идеологическое и художественное содержание произведения. Изучаются стилистические, символические и исторические функции ономастических единиц, с научной и теоретической точек зрения обосновывается их роль в создании образов, а также с художественно-эстетической точки зрения проводится их анализ.

Ключевые слова: ономастика, географическое название, топоним, этноним, цвет, род, название, географический объект, имя собственное, история места.

THE USE OF ONOMASTIC UNITS IN WORKS OF ART, THEIR HISTORICAL AND SEMANTIC ANALYSIS

Gulrukhbegim Kakhramonovna Ravshanova, Acting Professor
Doctor of Philological Sciences (DSc)
Rukhshona Gaibullaeva, student

Abstract. This article analyzes onomastics, a branch of lexicology, and its important component – anthroponymy, or toponymic units – using works of art as an example. The relationship between toponymy and ethnonymy is examined, and toponyms and their role in restoring national historical memory are studied. As onomastic units, personal names, toponyms, ethnonyms, nicknames, pseudonyms, and other proper names not only serve as naming conventions in texts but also serve as important poetic elements, revealing the ideological and artistic content of works. The stylistic, symbolic, and historical functions of onomastic units are examined, their role in creating images is substantiated from scientific and theoretical perspectives, and their analysis is conducted from an artistic and aesthetic perspective.

Keywords: onomastics, geographical name, toponym, ethnonym, color, gender, name, geographical feature, proper name, history of place.

Kirish. Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinmas zarrachalarning ham o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bo'g'liq so'zlar

guruhi mavjud bo‘ladi. Toponimik tizimda toponimlar bir asr yoki tarixiy davr mahsuli bo‘lmay, balki bir necha o‘n asrlar davomida shakllangan. Toponim yunoncha so‘z bo‘lib, topos – joy, onoma – nom degan ma‘noni anglatadi. Demak, toponim joy nomi. Toponimlar tushunchasiga ta‘rif bergan mashhur rus tilshunoslari N.V. Podolskaya va A.V. Superanskayalar: “Toponimlar Yer planetasidan tashqari har qanday geografik nomlarni ifoda etuvchi barcha so‘zlar uchun umumlashtiruvchi atamadir” – deya qayd etishgan [1, 164]. Qolaversa, chet el olimlaridan tashqari, o‘zbek olimlari ham O‘rta Osiyo toponimlari tadqiqi bilan shu g‘ullangan. Bunga misol qilib, H.Hasanov faoliyatini olishimiz mumkin. Olim “Toponim deb bir joy nomiga aytiladi: lotincha topos – yer, onoma – nom, ism. Joy nomlari yi g‘indisi toponimiya bo‘ladi. Joy nomlarini o‘rganuvchi fan esa toponimika deb ataladi. Toponimist esa shu soha bilan shu g‘ullanuvchi mutaxassis” ekanligini qayd etadi.

Asosiy qism. Biz bilamizki, toponimika geografik nomlarni o‘rganish bilan shu g‘ullanuvchi soha bo‘lib, til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya bilan bo‘g‘liq tarix, geografiya, etnografiya bilan esa uzviy aloqadorlikda bo‘lgan tilshunoslikning alohida bo‘limlaridan biridir. O‘zbekiston toponimiyasida turli morfologik birliklarni kuzatish mumkin. Bular sirasiga ot, fe‘l, sifat kabi faol qo‘llanadigan, ravish, olmosh, son kabi miqdoran ko‘p bo‘lmagan nomlar ham uchraydi. Biz quyida toponimlar tarkibida kuzatiladigan ayrim shaklan songa o‘xshash, mazmunan esa son – miqdor bilan bo‘g‘liq bo‘lgan va bo‘lmagan ma‘nolarni ifodalagan birliklar borasidagi fikr yuritamiz. Mamlakatizning turli hududlarida bir, uch, to‘rt, besh va boshqa so‘zlar ishtirokidagi joy nomlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu nomlarning ayrimlarida sonlar o‘z asl vazifasi – miqdorni ifodalashga xizmat qilsa, ayrimlarida esa miqdor bilan aloqador bo‘lmagan ma‘nolarda qo‘llangandir. Toponimlarning aksariyatida miqdor tushunchasi son bilan ifodalanib, aniq sezilib turadi [2, 3].

Uch so‘zi *Uchko‘rpa, Uchtepa, Uchtut, Uchuylik, Uchuru g‘, Uchqiz, Uchqora* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Mazkur toponimlar tarkibidagi uch so‘zi turli ma‘no qirralarini namoyon etgan. Jumladan, Uchtepa toponimidagi uch so‘zi yonmayon yoki yaqin masofada joylashgan uchta tepa, shuningdek, uch – belgilangan hududning yoki narsaning oxiri, so‘nggi joyi kabi ma‘noni ham ifodalaydi. Demak, toponim tepa indikatorini bilan bo‘g‘liq holda paydo bo‘lgan. Xuddi shunday holatni Uchtut toponimida ham kuzatish mumkin. Isajon Sultonning “Ozod” romanida qo‘llangan qirning tepasini Uchyon g‘oq deb atashlarining sababi shundaki, bir kuni bir qar g‘a yon g‘oq chaqish uchun osmonga ko‘tariladi, yon g‘o g‘ini tashlagan zahoti yumalab chuqurchaga tushadi. U tushgan chuqurchani shamol qum bilan to‘ldiradi. Oradan vaqtlar o‘tib, yom g‘irlar yo g‘ib, tuproqqa nam o‘tgach, bir ma g‘izdan uchta yon g‘oq nish urib chiqadi va shu tufayli Uchyon g‘oq deb nomladi. Ammo ba‘zi

o'zga tillarga mansub leksemalardan yasalgan va hozirda oddiy so'z sifatida iste'molda uchramaydigan etnonimlarda miqdor tushunchasi yashirin holda bo'ladi. Masalan, manit<man+it – man g'it – ming, do'rman – to'rt ma'nosini ifodalaydi. Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanidagi Nayman ona obrazidagi nayman so'zini etnologik jihatdan tahlil qilsak, aslida nayman<naym//nayma – sakkiz soni asosida hosil bo'lgan bo'ladi. Bu sakkiz uru g'ning vakili degan ma'noni anglatadi. O'zbekistonda, xususan, Buxoro viloyati toponimiyasida geografik nomlar tarkibida ot, fe'l, sifat kabi so'z turkumlariga oid birliklar faol qo'llansa, ravish, olmosh, son kabi turkumlarga mansub so'zlar juda kam qo'llanadi. Toponimlar tarkibida qo'llanadigan oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi lu g'aviy birliklar, ularning semantikasi, etimologiyasi xususida fikr yuritimiz. Mazkur birliklar toponim tarkibida ham faqat rang bildirishga xizmat qiladimi? Oq so'zi ishtirokidagi toponimlarni misol qiladigan bo'lsak, bu so'z izohli lu g'atda o'n bir ma'noda qo'llaniladi. "Bular: 1) qor, sut, paxta rangidagi (oq doka, oq qo g'oz, oq non); 2) oq tusga moyil, tiniq (oq badan, oq tanli); 3) oqlik (sut-qatiq ma'nosida); 4) aroq (so'zlashuv tilida); 5) chor Rossiyasi podshosiga tegishli, uning tarafdori; 6) oxirgi, toza (oqqa ko'chirmoq); 7) gunohsiz, sha'niga do g' tushmagan kishi, to' g'ri, haqiqat; 8) oqargan tuk (sochning oqi); 9) ko'zning qorachiqni o'ragan tiniq rangli, shaffof qismi; 10) ba'zi kasalliklar natijasida ko'z qorachi g'ida paydo bo'ladigan oqish do g', parda; 11) tuxumning oqsil moddasi kabi ma'nolarni anglatadi. Ko'rinadiki, ushbu so'z tabiatdagi rang, shaxs, predmet va hodisa bilan bo g'liq ma'nolarda qo'llanadi" [3, 175]. Unda, oq so'zi ishtirok etgan toponimlar tarkibidagi ma'nosiga to'xtalsak, Mirza Olim Toshkandiyning "Ansob us - salotin va tavorix ul-havoqin" (Sultonlar shajarasi va xoqonlar tarixi) asarida qo'llangan Oqmasjid toponimini tahlilga tortamiz. Oqmasjid – Buxoro shahridagi ko'cha nomi. Ushbu toponim mahalliy aholi tilida Oqmachit deb yuritiladi. Toponim hududdagi masjid nomidan shakllangan. Tarkibi: oq+masjid. T.Nafasovning qayd etishicha: "bino, imoratlarga nisbatan oq so'zi rang ma'nosini bildirmaydi. Davlat (xonlik, beklik, to'ralik) tomonidan qurilgan masjid, saroy, qo'r g'on, rabotlar nomiga oq so'zi qo'shilganda davlat, hukumat, hokimiyat, katta, ulkan, buyuk, hashamatli, salobatli ma'nolarini anglatadi" [4, 197].

Natijalar va muhokama. Buxoroda XVI-XIX asrlarda xonlik farmoyishi, ruxsati yoki hashar yo'li bilan qurilgan machitlar – Oqmachit deb atalgan. Oq so'zi xonlikka qarashli ekanligiga, hajm jihatdan katta ekanligiga ishora hisoblanadi. Demak, Oqmachit toponimidagi oq komponenti doim ham hajm ma'nosini bildirmagan. Bu qurilgan inshootning ulkanligi yoki keng maydonni egallaganini ko'rsatishi ham mumkin. Mo' g'ullar davlatining markazi sanalgan Oltin O'rdaning bir qismi Oq O'rda bo'lib, Jo'jixonning o' g'li O'rdaxon nomi bilan bo g'liq. Ehtimol, Oq O'rda uchun ham rang bilan bo g'liq bo'lmagan ma'no asos bo'lgandir. Oqmasjid atamasi bilan O'zbekistondagi ikkita me'moriy yodgorlik nomlangan. Samarqand

viloyati Tim qishlo g‘i hamda Xivadagi Oqmasjid haqida ma’lumot berilganda biriga devorlari ganch bilan qoplangan, ikkinchisiga gumbazi va asosi uzoqdan oppoq bo‘lib ko‘rinadi (nomi shunday) deya sharh berilgan. Temur Malikning “Xo‘jand qal‘asi” asaridagi Oqrabot toponimini keltirilgan. Oqrabot – Buxoro tumanidagi aholi punkti nomi. Tuman Buxoro shahri atrofida bo‘lganligi sababli rabot komponentli nomlar hududda ko‘p uchraydi. Buxoro tumani toponimiyasida Oqrabot nomi haqida ham ma’lumot berilgan. “Toponim ikki qismdan iborat bo‘lib, oq-rabotdagi “oq” so‘zi bugungi kunda rang-tus ifodalovchi birlik sifatida izohlanadi. Shu bilan birga “oq” so‘zning “hajm jihatdan katta, baland, me’yordagidan ortiq” kabi ma’nolari ham bor. “Rabot” so‘zi “oq” so‘zi bilan qo‘shilib, “katta rabot”, “ulkan istehkom”, “hukumat tomonidan bunyod qilingan inshoot” kabi ma’nolarni anglatadi” – deya N. Azimova o‘z fikrini bildiradi [5, 55]. Shuningdek, N. Adizova Oqpo‘lat toponimi haqida fikr yuritganda ham nom tarkibidagi “oq” so‘zi rang ifodalamasligini qayd etgan. Bu toponim etnonim asosida shakllangan bo‘lib, oqpo‘lat – “po‘lat uru g‘ining katta qismi yashaydigan maskan” ma’nosiga ega ekanligini aytgan. Toponimlar tarkibidagi oq, qora so‘zlari haqida fikr yuritgan.

E.M. Murzayev turkiy xalqlarda qadimda to g‘dan oqib tushuvchi tezoqar, sho‘x suvni oqsuv, tekis yerlarda buloq, sizot suvlaridan paydo bo‘lgan suvni qorasuv deb ataganlarini qayd etgan [6, 200]. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, toponimlar tarkibida qo‘llanadigan oq komponenti bir o‘rinda rang-tus ma’nosini, ikkinchi o‘rinda esa boshqa ma’nolarni, xususan, katta, ulkan, keng, ko‘lamdor kabilarni anglatadi.

Onomastik birliklar xalqning uzoq tarixiy taraqqiyoti, milliy tafakkuri hamda madaniy qarashlarini o‘zida mujassam etgan muhim til birliklari hisoblanadi. Toponimlar tarkibidagi ma’no xususiyatlarini tahlil qilish orqali joy nomlarining kelib chiqishi, ularning tarixiy ildizlari va xalq hayoti bilan uzviy bo‘g‘liqligi yoritiladi. O‘rganilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, toponimlar faqatgina geografik nom bo‘lib qolmay, balki xalqning tarixiy xotirasi, tabiati va milliy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi muhim manba vazifasini bajaradi. Shu sababli onomastik birliklarni chuqur tadqiq etish tilshunoslik rivoji bilan bir qatorda xalqning ma’naviy va madaniy merosini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Isajon Sultonning “Ozod” romanida ham onomastik birliklar badiiy matnning semantik qatlamini ochuvchi poetik vosita sifatida ko‘zga tashlanadi. Asardagi atoqli otlar, ramziy va makon nomlari Ozodning ruhiy kamolotga erishuvi, komillikka intilishi hamda o‘zligini anglash jarayoni bilan bevosita bo‘g‘liqdir. Avvalo, Ozod ismining o‘ziyoq markaziy ramziy birlik sifatida talqin qilishi mumkin. Ozod lu g‘aviy jihatdan erkinlik, qaramlikdan xalos bo‘lish, ruhiy mustaqillik ma’nolarini anglatadi. Asarda bosh qahramon tashqi tomondan emas, balki ichki poklanish, ma’nan yetilish

va ichki “men”ini topishni istaydi. Ozod nomi qahramonni atash uchungina emas, balki asarning bosh g‘oyasini ifodalovchi poetik kalit sifatida xizmat qiladi.

Romandagi Lola obrazi ham onomastik-ramziy birlik sifatida alohida ahamiyatga ega. Lola xalq tasavvurida go‘zallik, muhabbat, orzu, bahoriy yangilanish timsoli bo‘lsa, asarda esa u baxt va saodatning ramziga aylanadi. Ozodning lola sari yo‘l olishi aslida insonning baxt mohiyatini anglashga qaratilgan ruhiy safaridir. Biroq lola ham nochor, mungli va o‘zga bir lolaga intilgan mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu holat asarda baxt tushunchasining mutlaq tayyor ne‘mat emas, balki izlanish, anglash, muhabbat va qovushuv bilan bo‘g‘liq murakkab ruhiy holat ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun Lola nomi romanda antroponim, fitonim darajasidan ko‘tarilib, falsafiy-poetik ramzga aylanadi.

Asardagi toponimik birliklar ham ramziy mazmunga ega. Uchyong‘oq nomi qahramon yo‘lining dastlabki muhim manzillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu makon nomi matnda tasodifiy geografik joy emas, balki so‘zning moddiylashuvi, inson aytgan so‘z va qilgan amalining taqdirga ta’siri haqidagi g‘oyani ifodalaydi. Shu jihatdan “Uchyong‘oq” nomi xotira, qismat va sabab-oqibat munosabatini bildiruvchi poetik toponim sifatida talqin qilinadi. Tuz cho‘li nomi esa kuchli ma’no yuklangan toponimdir. Tuz odatda yemiruvchi, qurituvchi, achchiq modda sifatida tasavvur qilinadi. Romanda bu makon g‘araz, ma’naviy yemirilish, inson qalbidagi nopoklik va malomat holatlari bilan bog‘lanadi. Demak, Tuz cho‘li nomi tashqi makon nomi bo‘lishi bilan birga, inson ruhiyatidagi og‘ir sinov, ichki yemirilish va poklanish zaruratini anglatadi. Bu nom orqali yozuvchi qahramonni jismoniy emas, avvalo, axloqiy-ma’naviy imtihondan o‘tkazadi.

Xulosa. Romandagi Humo qushi, tole qushi, jon qushi kabi mifopoetik nomlar ham alohida ramziy ahamiyat kasb etadi. Humo xalq og‘zaki ijodi va Sharq adabiyotida baxt, davlat, yuksalish va ilohiy marhamat timsoli sifatida tanilgan. “Ozod” romanida Humo qushi qahramon yetmoqchi bo‘lgan oliy saodat, ruhiy tanlanish va kamolot belgisi sifatida talqin qilinadi. Biroq unga yetishish oson emas. Unga yetishish uchun qahramon yo‘l, sinov, anglash va tavba bosqichlaridan o‘tishi kerak bo‘ladi. Umuman, “Ozod” romanidagi onomastik birliklar oddiy nomlash vositasi emas, balki asarning falsafiy-estetik konsepsiyasini shakllantiruvchi ramziy tizimdir. Ozod, Lola, Uchyong‘oq, Tuz cho‘li, Oydinko‘l, Humo qushi, Iskandar devori kabi nomlar matnda qahramon ruhiy takomilining turli bosqichlarini ifodalaydi. Bu nomlar orqali yozuvchi insonning o‘zligini anglash, baxt mohiyatini tushunish, muhabbat, imon va ma’naviy ozodlikka erishish jarayonini badiiy-falsafiy tarzda yoritadi. Shu bois “Ozod” romanini onomastik jihatdan o‘rganish asardagi ramziy obrazlar tizimi, semantik qatlamlar va muallifning badiiy konsepsiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 184 б.
2. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 81 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик. 3 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 302 б.
4. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – 448 б.
5. Adizova N.B. Vuxoro tumani toponimlari. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 160 b.
6. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: 1974. – 382 б.
7. Sultonov I. Ozod. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012. – 180 b.

TOG‘AY MURODNING “YULDUZLAR MANGU YONADI” QISSASIDAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLAR XUSUSIDA

Ne‘matova Yulduz, dotsent
 filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Karimova Sevinch Turg‘un qizi, талаба
 Qarshi davlat universiteti
yulduznematova7@gmail.com
 ORCID 0009-0007-5334-4818
 UO‘K 413.13(045)

Annotatsiya. Tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan onomastika tildagi barcha atoqli otlarni, ularning kelib chiqishi, shakllanish omillari hamda leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganadi. Ushbu soha nomlash jarayonining tarixiy, madaniy va ijtimoiy asoslarini yoritishga xizmat qiladi. Tilshunoslik terminologiyasida atoqli otlar majmuasi onomastik birliklar yoki onimlar deb yuritiladi. Bunday birliklar nafaqat real voqelikni nomlash vazifasini bajaradi, balki badiiy matnda muallifning estetik qarashlari, milliy mentaliteti va obrazli tafakkurini ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan onomastik birliklar yozuvchining ijodiy niyatiga ko‘ra, turlicha semantik yuklama kasb etadi: ayrim hollarda ular o‘zining bevosita, lug‘aviy ma‘nosida qo‘llansa, boshqa vaziyatlarda ramziy, konnotativ yoki assotsiativ ma‘nolar bilan boyitilib, obrazning xarakterini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, antroponim va toponimlar badiiy matnda ijtimoiy muhit, tarixiy davr hamda qahramonlarning ruhiy holatini aks ettiruvchi muhim belgilar sirasiga kiradi.

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining taniqli vakili Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida uchraydigan onomastik birliklarning lingvistik va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan antroponimlar va toponimlar o‘zbek tilining nomlash an‘analari, xalqona tafakkuri hamda milliy-madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Tahlil jarayonida onomastik birliklarning semantik qatlamlari, ularning obraz yaratishdagi o‘rni hamda matnning badiiy yaxlitligini ta‘minlashdagi funksional ahamiyati misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: antroponim, potamonim, geortonim, xoronim, komonim, oykonim.

О НЕКОТОРЫХ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ ПОВЕСТИ ТОГАЯ МУРАДА «ЮЛДУЗЛАР МАНГУ ЁНАДИ» («ЗВЕЗДЫ ГОРЯТ ВЕЧНО»)

Нематова Юлдуз, доцент
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каримова Севинч Тургун кизи, студент
Каршинский государственный университет

Аннотация. Ономастика как один из важных разделов языкознания изучает все собственные имена языка, их происхождение, процессы формирования и лексико-семантические особенности. Данная отрасль направлена на выявление исторических, культурных и социальных основ номинации. В лингвистической терминологии совокупность собственных имён обозначается как ономастические единицы или онимы. Эти единицы выполняют не только номинативную функцию, но и выступают важным лингвопоэтическим средством в художественном тексте, отражая эстетические взгляды автора, национальный менталитет и образное мышление. В художественных произведениях ономастические единицы в зависимости от творческого замысла писателя приобретают различные семантические оттенки: в одних случаях они употребляются в своём прямом, номинативном значении, в других — обогащаются символическими, коннотативными и ассоциативными смыслами, способствующими раскрытию художественных образов. Особое место в этом процессе занимают антропонимы и топонимы, которые отражают социальную среду, историческую эпоху и психологическое состояние персонажей. В данной статье анализируются лингвистические и художественные особенности ономастических названий в повести «*Yulduzlar mangu yonadi*» известного узбекского писателя Тогай Мурода. Антропонимы и топонимы, использованные в произведении, рассматриваются в тесной связи с узбекскими традициями именования, народным мировоззрением и национально-культурными ценностями. На основе конкретных примеров раскрываются семантические пласты ономастических единиц, их роль в создании образов и функциональное значение в обеспечении художественной целостности текста.

Ключевые слова: антропоним, потамоним, геортоним, хороним, комоним, ойконим.

ON SOME ONOMASTIC UNITS IN TOGAI MURAD'S STORY «THE STAR BURNS FOREVER»

Nematova Yulduz, associate professor
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Karimova Sevinch Turgun kizi, student
Karshi State University

Abstract. Onomastics, as one of the important branches of linguistics, studies all proper names in a language, their origin, formation processes, and lexical-semantic characteristics. This field aims to reveal the historical, cultural, and social foundations of naming practices. In linguistic terminology, proper names are referred to as onomastic units or onyms. Such units not only serve the function of naming real objects and phenomena but also act as significant linguopoetic means in literary texts, reflecting the author's aesthetic worldview, national mentality, and figurative thinking. In literary works, onomastic units acquire different semantic functions depending on the writer's artistic intention. In some cases, they are used in their direct, denotative meanings, while in others they gain symbolic, connotative, or associative meanings that contribute to the revelation of characters' traits and the overall artistic concept of the text. Anthroponyms and toponyms, in particular, play an important role in conveying the social environment, historical background, and psychological state of literary characters.

This article analyzes the linguistic and artistic features of onomastic names used in the novella *“Yulduzlar mangu yonadi”* by the prominent Uzbek writer Tog‘ay Murod. The study examines anthroponyms and toponyms employed in the work in close connection with Uzbek naming traditions, folk worldview, and national-cultural values. Through illustrative examples, the semantic layers of onomastic units, their role in character formation, and their functional significance in ensuring the artistic integrity of the text are revealed.

Keywords: anthroponym, potamonym, georhonym, choronym, comonym, oikonym.

Kirish. O‘zbek adabiyotida milliy ruh, tarixiy xotira va xalqona tafakkurni badiiy jihatdan yuksak darajada aks ettirgan ijodkorlardan biri Tog‘ay Murod hisoblanadi. Adib ijodining dastlabki yirik namunalaridan bo‘lgan *“Yulduzlar mangu yonadi”* qissasi uning nomini keng kitobxonlar ommasiga tanitgan, adabiy jarayonda muhim o‘rin egallagan asar sanaladi. Ushbu qissada milliy kurash an‘analari, polvonlik timsoli, xalqimizning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, to‘y marosimlari va ijtimoiy hayot manzaralari badiiy ifodasini topgan. Asar qahramoni Bo‘ri polvon obrazi orqali muallif nafaqat jismoniy qudrat va jasoratni, balki ma‘naviy barkamollik, or-nomus, vatanparvarlik va ajdodlar vasiyatiga sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Tog‘ay Murod ijodiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri – milliy qadriyatlarni badiiy tafakkur bilan uyg‘un holda talqin etishdir. Adibning barcha asarlarida o‘zbek xalqining g‘ururi, tarixiy xotirasi, mardlik va sadoqat kabi fazilatlar yetakchi g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois *“Yulduzlar mangu yonadi”* qissasi nafaqat adabiy-badiiy ahamiyatga ega, balki tilshunoslik, xususan, onomastik tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ma‘lumki, muayyan tildagi atoqli otlarning umumiy majmuyi onomastik ko‘lamni tashkil etadi. Onomastik ko‘lam orqali real, taxminiy hamda xayoliy obyektlarni nomlashda qo‘llaniladigan atoqli otlarning tiplari va semantik qatlami aniqlanadi. Badiiy matnda esa onomastik birliklar faqat nomlash vazifasini bajarib qolmay, balki matnning mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va uslubiy yaxlitligini belgilovchi muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan,

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi antroponim va toponimlarning tahlili asarning badiiy-estetik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi onomastik birliklarning lingvistik va badiiy xususiyatlarini ochib berish maqsadida tavsifiy (deskriptiv), leksik-semantik tahlil, kontekstual tahlil, qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Onomastik birliklarning badiiy matndagi stilistik va funksional xususiyatlari A. V. Superanskaya, A. A. Fomin, B. M. Kalinkin, N.M.Vinogradova hamda N. V. Padolskaya ishlarida atroflicha yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida badiiy matnda nomlash jarayoni lingvopoetik hodisa sifatida baholanib, nomlarning estetik va semantik imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, turkiyshunoslik doirasida olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, tatar, qozoq va tojik tilshunoslari – L. M. Xamitova, A. R. Biktimirova, K. Z. Jappar, S. Kurbonmamadov tadqiqotlarida badiiy onomastikaning milliy-madaniy va uslubiy jihatlari chuqur tahlil qilingan [5, 20]. Ushbu ilmiy qarashlar tadqiqot natijalarining nazariy asoslanganligini mustahkamlaydi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnda qo‘llanilgan onomastik birliklar muallif badiiy tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, asar mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va uslubiy yaxlitligini ta‘minlashda faol ishtirok etadi. Atoqli otlarning umumiy majmuyi sifatida namoyon bo‘ladigan onomastik ko‘lam muayyan til doirasida real, taxminiy hamda xayoliy obyektlarni nomlash jarayonini qamrab oladi. Mazkur ko‘lam badiiy asarda kengayib, individual-muallifona nomlash unsurlari bilan boyitilishi kuzatiladi [3, 34].

Badiiy matn tahlili shuni anglatadiki, onomastik birliklar faqat nominativ vazifani bajarib qolmay, balki matnning semantik qatlamlarini chuqurlashtiruvchi, obrazlar tizimini mustahkamlovchi va muallif pozitsiyasini ifodalovchi stilistik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi [4, 23]. Ayniqsa, antroponim va toponimlar qahramon xarakteri, ijtimoiy muhit hamda tarixiy makonni aniqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada badiiy matnda nomlar orqali voqelikning milliy-madaniy manzarasi yaratiladi.

Tahlil jarayonida okkazonal, ya‘ni muallif tomonidan yaratilgan to‘qima onomastik birliklarning alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Bunday nomlar asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi, muallif uslubining individualligini namoyon etadi va matnning ekspressivligini kuchaytiradi. Okkazonal onomastik birliklar ko‘pincha ramziy va konnotativ ma‘nolarni o‘zida mujassamlashtirib, o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

O‘zbek tilida har bir leksik qatlamning o‘ziga xos nomlash tizimi mavjud bo‘lib, bu tizim onomastik birliklar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, shaxs

nomlari – antroponimlar, aholi yashash maskanlari – oykonimlar, qishloq nomlari – komonimlar, suv obyektlari – gidronimlar orqali voqelikning til vositasida tasniflanishi kuzatiladi. Bunday nomlash tizimi xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, badiiy matnda muayyan madaniy makon va ijtimoiy muhitni tiklashda muhim omil vazifasini bajaradi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida aniqlangan onomastik birliklar umumiy hisobda 106 tani tashkil etadi. Ularning 79 tasi antroponimlardan iboratligi asarda inson omili markaziy o‘rinda turishini ko‘rsatadi. Bu esa asar poetikasida qahramon xarakteri va insoniy munosabatlar tasvirining yetakchi o‘rin egallashini tasdiqlaydi. Jumladan, *Zulfiqor, Turdiboy, Qurbon, Ashurboy, Qulmat, Bo‘ri, Ro‘zi* kabi nomlar xalq orasida keng tarqalgan an‘anaviy ism qatlamiga mansub bo‘lib, ular orqali muallif milliy muhitni tabiiy holda gavdalantiradi. Chunonch, *Boboqul polvon bilan Mamat polvon ne vaqtdan buyon olishib, na yiqitadi, na yiqiladi!* (2, 26). *Bugun ha-a-amma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to‘yiga, he-e-e-ey!* (2, 3) *Bo‘ri polvon davruga kirdi. Ana. Maksim polvon, Alimardon, Shodi.* (2, 14) *Suyun oqsoqol eshikka ovoz berdi: Bo‘riqul chang‘aroqni yop-e, oqtoq tushib qoldi* (2, 18).

Antroponimlarning semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik nomlar semantik jihatdan asoslangan xarakterga ega. Ya‘ni ular tasodifiy emas, balki ma‘lum ma‘no yukiga ega holda tanlangan. Masalan, *Bugungi davramizda vohamizdagi dong‘i ketgan Bo‘ri polvon o‘tiribdi* (2, 7). *Bo‘ri* ismi qadimiy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lib, bolaning sog‘lom va baquvvat bo‘lishini tilab qo‘yilgan nom sifatida talqin qilinadi hamda “*bo‘rining jag‘idan o‘tkazilgan bola*” ma‘nosini anglatadi [6]. Demak, bu nom faqat shaxsni identifikatsiya qilish vazifasini emas, balki ramziy himoya va kuch timsolini ham ifodalaydi. Asar bosh qahramoni *Bo‘ri polvon* obrazida nom va xarakter o‘rtasidagi uyg‘unlik yaqqol kuzatiladi. Qahramonning jismoniy qudrati, mardligi va kurashdagi yengilmasligi uning ismiga mos keladi. Shu jihatdan antroponim obraz yaratishning lingvopoetik vositasiga aylanadi va nom qahramon xarakterini izohlabgina qolmay, o‘quvchi ongida dastlabki tasavvur hosil qiladi. Natijada ism semantik jihatdan badiiy detal vazifasini bajaradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, asarda qo‘llangan ko‘plab antroponimlar ijtimoiy-madaniy muhitni aniqlashtirishga xizmat qiladi. “*boy*”, “*mat*”, “*qul*” kabi komponentli ismlar xalqning tarixiy nomlash an‘analarini aks ettiradi va muayyan davr ruhini tiklaydi. Bu esa badiiy matnda onomastik birliklar tarixiy kolorit yaratishning muhim vositalaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Toponimlar onomastik tizimning muhim qatlamlaridan biri bo‘lib, ular badiiy matnda makon tasvirini aniqlashtirish va voqealar sodir bo‘layotgan ijtimoiy-madaniy muhitni tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi. Yunoncha *topos* – joy, makon va *onoma* – nom so‘zlaridan tarkib topgan toponim termini har qanday

geografik obyekt nomini ifodalaydi hamda gidronim, oykonim, urbanonim, agronim kabi kichik turlarga bo‘linadi [7, 11]. Shu sababli badiiy asar tilidagi toponimlarni o‘rganish nafaqat toponimika uchun, balki yozuvchi individual uslubini aniqlash nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida jami 25 ta toponim qo‘llangan. Ularning tarkibi turlicha bo‘lib, voqea makonini bosqichma-bosqich kengaytirish tamoyiliga asoslanganini ko‘rsatadi. Masalan, *Xo‘jasoat qishlog‘i ahlini to‘yga chorladi*. (2, 3). *Adog‘roqdagi to‘da chiroqlar – To‘xtamish, Chuqurobshir, Chinor, Lo‘kka, Zardaql, Bodavo deya atalmish Vaxshivorning qishloqlari bo‘ldi* (2, 6). Asarda 2 ta oykonim qayd etildi: “*Endigi Hayrondara boshdan oyoq paxtazor*” (2, 102). Mazkur nomlar qahramon hayoti bevosita bog‘liq bo‘lgan yashash hududini konkretlashtiradi va qissa voqealarining mahalliy koloritini kuchaytiradi. Komonimlar son jihatdan ustunlik qiladi – 10 ta (*Xo‘jasoat, Oqjar, To‘xtamish, Chuqurobshir, Chinor, Lo‘kka, Zardaql, Bodavo va b.*). Xo‘jasoat qishlog‘i nomi yozuvchining o‘zi yashagan Surxon vohasi bilan bog‘liq real geografik makonni bildiradi. Bu hol muallifning badiiy voqelikni hayotiy asosga qurishga intilganini ko‘rsatadi, real joy nomlarining qo‘llanishi asarning ishonarlilik darajasini oshiradi hamda o‘quvchida tarixiy-madaniy muhit haqidagi tasavvurni aniq shakllantiradi. Gidronimlar – suv obyektlari nomlari asarda kam uchraydi (1 ta): *Sariosiyo bir davra To‘palon daryosi yoqasida bo‘ldi*. Daryo nomining berilishi voqea rivojida tabiat manzarasini tasvirlash bilan birga, hududning tabiiy geografik xususiyatlarini ham ifodalaydi. Bunday birliklar makon tasvirini jonlantiruvchi detallar sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari asarda geortonim – bayram nomi ham uchraydi (1 ta): *Hayit bayrami*. Bu nom diniy-madaniy qatlamni anglatib, arabcha *iyd* – bayram ma’nosini bildiradi. Hayit bilan bog‘liq marosimlar – arafa kuni osh ulashish, yangi kiyim kiyish, hayitlik berish kabi odatlar tilga olinishi orqali muallif xalqning ma’naviy hayotini badiiy manzaraga kiritadi. Natijada toponimik qatlam faqat geografik emas, balki etnografik axborot tashuvchisiga ham aylanadi.

Xoronimlar – ma’muriy-hududiy birlik nomlari qissada 13 tani tashkil etadi. Bunday nomlarning qo‘llanishi makon ko‘lamini kengaytirib, voqealar faqat mahalliy darajada emas, balki keng hududiy kontekstda sodir bo‘layotganini ko‘rsatadi. Natijada qahramon faoliyati ma’lum geografik hudud bilan bog‘lanib, asarning ijtimoiy mazmuni chuqurlashadi. Umuman olganda, qissadagi toponimlar oddiy joy nomlari emas, balki badiiy tasvirning muhim komponentidir. Ular voqea makonini aniqlashtiradi, tarixiy va etnografik muhitni tiklaydi hamda muallifning real hayotga yaqin tasvir yaratish maqsadiga xizmat qiladi. Masalan, *Davrada Tojikiston bir taraf bo‘ldi, Surxondaryo bir taraf bo‘ldi. Davraga Denov tumani kattalari-da keldi* (2, 32). *Regardan O‘tan polvon degani chiqib, Surxondaryoning suyangan tog‘larigacha terib tashadi!* (2, 33). *Davra egalarining ko‘pchiligi Farg‘ona vodiysidan edi-da.*

Ular Surxon vohasida kolxoz tuzish uchun Yo'ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan ko'chib kelib edi-da (2, 46) kabi. Demak, toponimik birliklar badiiy matnning semantik va stilistik tuzilishini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tahlil shuni ko'rsatdiki, qissadagi onomastik birliklar tizimli xarakterga ega bo'lib, ular orqali milliy urf-odatlar, tarixiy xotira va xalqona tafakkur badiiy ifodaga ega bo'ladi. Nomlar semantik, stilistik va lingvopoetik jihatdan bir-birini to'ldirib, asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlaydi. Demak, badiiy matni anglashda onomastik yondashuv muallif uslubini, obrazlar tizimini hamda milliy-madaniy qatlamni chuqurroq ochib berishga imkon beruvchi samarali tadqiqot yo'nalishidir.

Adabiyotlar

1. Toshova G. Badiiy matnda qo'llangan onomastik nomlarning funksional-stilistik xususiyatlari: Filol. fan. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – B.13.
2. Murod T. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1980. – 128 b.
3. Begmatov E. O'zbek tili toponimikasi. – T., 2013. – B. 34.
4. Kalinkin B.M. Поэтика собственных имен в произведениях романтического направления: Автореф. дис. канд наук. – Донецк, 1987.
6. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: Fan, 1991. – 78 b.
7. Qurbonov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. – Samarqand, 2006. – B. 11.
8. Begmatov E. O'zbek onomastikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2013. – 70 b.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 90.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 213 b.

АНТРОПОНИМЫ РУССКИХ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК КАК ОБЪЕКТ ОНОМАСТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКОГРАФИИ

Рахманова Юлдуз Кахрамановна, доцент

Университет экономики и педагогики

raxmanovayulduz1969@gmail.com.

УДК 81`373.23:398.91(045)

Аннотация. В статье рассматриваются антропонимы, функционирующие в составе русских пословиц и поговорок, как объект ономастической лексикографии. Проведён обзор литературы по изучаемой теме, изучены труды по систематизации понятийного аппарата

ономастики. Особое внимание уделяется составу личных имен, их семантической трансформации, частотности употребления и принципам словарного описания. Установлено, что антропонимы в русских поговорках часто утрачивают первичную номинативную функцию и приобретают обобщенно-символическое значение. Определен состав антропонимов в русских пословицах и поговорках; выявлена частотность наиболее употребительных имен; описана семантическая трансформация антропонимов. Предлагается модель словарной статьи, включающая заголовочную форму, варианты имени, паремиологический контекст, семантическую характеристику, функцию имени и культурологический комментарий.

Ключевые слова: ономастика, ономастическая лексикография, антропоним, русские пословицы, поговорки, паремиология, словарная статья, семантическая трансформация

RUS MAQOLLARI VA MATALLARINING ANTROPONIMLARI ONOMASTIK LEKSIKOGRAFIYA OB'YEKTI SIFATIDA

Raxmanova Yulduz Kaxramanovna, dotsent
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada rus maqol va matallarida uchraydigan antroponimlar onomastik leksikografiya obyektini sifatida o'rganiladi. Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi, shuningdek, onomastikaning kontseptual apparatini tizimlashtirish bo'yicha ishlarni o'rganish taqdim etiladi. Shaxsiy ismlarning tarkibi, ularning semantik o'zgarishi, qo'llanilish chastotasi va lug'at tavsifi tamoyillariga alohida e'tibor qaratiladi. Rus maqol va matallaridagi antroponimlar ko'pincha o'zining asosiy nominativ funktsiyasini yo'qotib, umumlashtirilgan ramziy ma'noga ega bo'lishi aniqlangan. Rus maqol va matallaridagi antroponimlarning tarkibi aniqlangan; eng ko'p ishlatiladigan ismlarning chastotasi aniqlangan; va antroponimlarning semantik o'zgarishi tasvirlangan. Sarlavha shakli, ism variantlari, paremiologik kontekst, semantik xususiyatlar, ism funktsiyasi va madaniy sharhni o'z ichiga olgan lug'at yozuvining modeli taklif qilingan.

Kalit so'zlar: onomastika, onomastik leksikografiya, antroponim, rus maqollari, matallar, paremiologiya, lug'at yozuvi, semantik transformatsiya

ANTHROPONYMS OF RUSSIAN PROVERBS AND SAYINGS AS AN OBJECT OF ONOMASTIC LEXICOGRAPHY

Rakhmanova Yulduz Kakhramanovna, associate professor
University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article investigates the linguistic, etymological, and linguogeographical aspects of the hydronym “Toqchi”, located in the Zomin district of the Jizzakh region. The study sheds light on the position of this name within the Uzbek onomastic system, its semantic nature, and its correlation with the historical, social, hydrological, and linguocultural landscape of the region. Through scientific analysis, the phenomenon of transonymization within the onomastic system is scholarly justified, demonstrating how the name “Toqchi”, originating from an ethnonymic (clan/tribe) basis, transitioned first into an oykonim (settlement name) through metonymy, and subsequently into a hydronym (water body name). Additionally, the article addresses the issues of ensuring the correct spelling of this hydronym in accordance with the norms of the state language and the rules of the Latin-based Uzbek alphabet, as well as its unification in the state register; furthermore, scientific and practical recommendations are put forward for preserving the regional toponymic heritage.

Keywords: onomastics, Toqchi, hydronymics, hydronym, ethnonym, ethnohydronym, toponym, toponymy, transonymization, oykonim, ariq, metonymy, object, state register, spelling norms.

Kirish. Ma’lumki, joy nomlari hududning tarixi, geografiyasi, tabiati, xalq qadriyatlarini va boshqa jihatlarini o’zida aks ettiruvchi asosiy lingvomadaniy yoxud lingvogeografik manba bo’lib xizmat qiladi.

Agar biz mazkur masalaga ilmiy nuqtayi nazardan yondashadigan bo’lsak, tilshunoslikning “onomastika” sohasini va uning asosiy bo’limlari hisoblanmish “toponimika” va “gidronimika” bo’limlarini chuqur o’rganishimiz kerak bo’ladi.

Toponimika (joy nomlari) tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi tabiiy hamda sun'iy suv obyektlari (daryo, ko'l, dengiz, soy, buloq, kanal va boshqalar) va gidrotexnik inshootlar nomlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etuvchi soha gidronimika (yunoncha "*hydor*" – suv, "*onyma*" – nom, ism) deb ataladi.

Nomshunos olim N.Uluqov ta'kidlaganidek, "gidronimlarni to'plash va ularni lisoniy jihatdan tadqiq etish, ular mansub bo'lgan hudud tarixi, geografiyasi, tabiati, gidrologiyasi va aholisining etnik tarkibi, etnografiyasi, dialektini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega" [1, 4].

Jizzax viloyatida ham gidronimlarning daryo, soy, ko'l, suv omborlari, sel suv ombori, buloq, kanal kabi 10 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, ular 300 dan ortiq nomda uchraydi. Mazkur gidronimlarni lisoniy jihatdan tadqiq etish orqali Jizzax viloyatining tarixi, geografiyasi, tabiati, gidrologiyasi, aholisining etnik tarkibi, etnografiyasi, dialekti va aholining til xususiyatlari haqida aniq xulosalarga kelish mumkin.

Asosiy qism. Jizzax viloyati gidronimlari hududning tarixi, geografiyasi, tabiati, gidrologiyasi, aholining etnik tarkibi, etnografiyasi, dialekti, aholining til xususiyatlari va lisoniy madaniyatining muhim fenomeni hisoblanadi. Shuningdek, hudud gidrologiyasi haqida aniq ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi onomastik birliklarning alohida turi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston gidronimlarini tarixiy-lisoniy tadqiq qilgan nomshunos olim N.Uluqov ta'kidlaganidek, gidronimlar, ayniqsa, yirik suv obyekti nomlari xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, "Nomlardan nomlar tug'iladi" – degan xalqona naqlning amaliy isboti o'laroq, toponimlarning boshqa turlari tug'ilishiga, yaratilishiga asos bo'lgan [1, 14].

Jizzax viloyatida uchraydigan suv obyektlarining barchasi o'zining atoqli nomiga ega. Jumladan: Toqchi arig'i (Jiz. v. Zomin t.), Toshbek arig'i (Jiz.v. Sh.Rashidov t.), Oqariq arig'i (Jiz. v. Baxmal t.) kabi.

"Toqchi" arig'i Jizzax viloyatining Zomin tumani hududida joylashgan. Toqchi arig'i Zomin tumanining qadimiy va hayotiy muhim suv tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Toqchi arig'i o'z suv manbasini Zomin tog'laridan, asosan, Zominsoydan oladi. Tog'ning toza qor va buloq suvlari mazkur ariq orqali pastdagi – Qaropchi, Qo'ng'irboy, Bo'rjig'on, Toqchi qishloqlari hamda atrofidagi ekin maydonlarida dehqonchilikni rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish va aholini ichimlik hamda xo'jalik suvi bilan ta'minlash maqsadida olib kelingan.

Zomin suv ombori qurilishidan oldin tog'lardan tushayotgan suv to'rt fasl davomida uzluksiz oqib turgan. Ariq nomi bu yerda yashagan qadimiy qavmlardan biri – Toqchi nomi bilan bog'liq, bu esa ariqning juda qadimiy tarixga ega

ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda ham ariq o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

“Toqchi” gidronimi ham, aksariyat o‘zbekcha joy nomlari singari, o‘zida hududning xo‘jalik faoliyati, geografik xususiyati va aholining turmush tarziga oid muhim ma’lumotlarni aks ettiradi.

“Toqchi” gidronimi (yoki toponimi) o‘zbek onomastikasida juda muhim o‘rin tutadi. Mazkur “Toqchi” gidronimining ma’nosi va kelib chiqish etimologiyasi, ya’ni lisoniy tarkibiga turlicha nuqtayi nazardan yondashishimiz mumkin:

1. Etnik nuqtayi nazardan “Toqchi” gidronimi bu urug‘ nomi bo‘lib “Toqchi” – o‘zbeklar tarkibidagi qadimiy urug‘lardan birining nomi. Ushbu urug‘ an’anaviy “92 bog‘li” (bovli) o‘zbek urug‘lari ro‘yxatida qayd etilgan.

B.H.Karmisheva tadqiqotlariga ko‘ra, toqchilar asosan Laqay qabilasining bir tarmog‘i yoki Qo‘ng‘irot, Yuz qabilalari bilan yaqin aloqada bo‘lgan turkiy guruh hisoblanadi. Gidronimning “Toqchi” deb atalishi, ushbu suv obyektini (soy, ariq, buloq) Toqchi urug‘iga mansub kishilar tomonidan qazilganini yoki ular istiqomat qiladigan hududdan oqib o‘tishini anglatadi [2, 87].

2. Etimologik nuqtayi nazardan “Toqchi” so‘zining kelib chiqishi haqida bir necha farazlar mavjud:

“Toq” + “chi”: Turkiy tillarda “toq” so‘zi bir necha ma’noga ega:

a) Toq (son): Juft bo‘lmagan, yakka [3, 349-350].

b) Toq (kiyim): Ayrim manbalarda “toqchi” – maxsus to‘qiydigan yoki do‘ppi, telpak tikuvchi hunarmand degan ma’noni ham berishi mumkin (lekin etnotoponim sifatida bu kamroq uchraydi).

d) Toq (relyef): Ba’zi shevalarda tog‘ning bir qismi yoki adir ma’nosida ham qo‘llanadi.

Biroq, onomastik nuqtayi nazardan, bu nom ko‘pincha urug‘ nomi sifatida shakllanib, keyin joy nomiga ko‘chgan etnogidronim deyishimiz mumkin.

3. Geografik tarqalishi nuqtayi nazardan “Toqchi” nomi bilan bog‘liq gidronim va toponimlar O‘zbekistonning bir necha hududida uchraydi:

Jizzax viloyatining Baxmal va G‘allaorol tumanlarida “Toqchi” nomli hududlar va suv manbalari, Sharof Rashidov tumanida “Toqchilik” mahallasi mavjud. Samarqand viloyati Narpay, Paxtachi tumanlarida “Toqchi” qishlog‘i va uning yaqinida shu nomdagi ariqlar, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarida ham toqchi urug‘lari tarixan yashaganligi sababli, kichik soylar va buloqlar shu nom bilan ataladi [4, 12-16].

4. Lisoniy tahlil nuqtayi nazardan “Toqchi” so‘zi etnogidronim bo‘lib, dastlab urug‘ nomi asosida shakllangan suv obyektini nomi hisoblanadi. “Toqchi” gidronimi sodda yasama so‘z bo‘lib toq so‘ziga -chi qo‘shimchasi qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. “Toqchi” gidronimida ma’no ko‘chishi hodisasi mavjud bo‘lib, bunda urug‘ nomi

ushbu urug‘ vakillari yashaydigan hududdagi suv obyektini nomiga ko‘chganligini kuzatishimiz mumkin.

5. “Tokchi” va “Toqchi” o‘rtasidagi farq nuqtayi nazardan tahlil qilganimizda ularni bir-biriga adashtirmasligimiz lozim, chunki “Tokchi” “k” bilan yozilib, uzumchilik (tok) bilan shug‘ullanuvchi bog‘bonlar ma’nosini anglatadi. “Toqchi” esa “q” bilan yozilib, ma’lum bir turkiy urug‘ nomiga etnik mansublikni anglatadi.

Xulosa. Toponimlarning bir turi bo‘lgan gidronimlar xalq tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, xalq ijtimoiy hayoti, qadriyatlari, madaniyati va ma’naviyatining o‘ziga xos qirralarini ifoda etadi. Gidronimlar ham joy nomlari qatori ajdodlarimizdan hozirga qadar yetib kelgan ulkan madaniy va ma’naviy meros, milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi va hudud tarixining darakchisi hisoblanadi. Jizzax viloyati Zomin tumanidagi “Toqchi” gidronimi qadimgi o‘zbek urug‘laridan birining nomiga borib taqaluvchi etnogidronim bo‘lib, onomastik tizimda urug‘ nomidan (etnonim) o‘ykonimga, so‘ngra esa suv obyektini nomiga ko‘chish (metonimiya va transonimizatsiya) hodisasi asosida shakllangan hamda uni keyingi davrdagi uzumchilik xo‘jaliklari bilan bog‘liq “tokchi” (bog‘bon) atamasi bilan adashtirmaslik lozim. Mazkur nom hududning etnik tarixi, dialekti va lingvomadaniy o‘ziga xosligini o‘rganishda muhim manba ekanligini inobatga olib, sobiq ittifoq davridagi e’tiborsizlik oqibatida geografik obyektlarning davlat reyestriga noto‘g‘ri kiritilgan “Tokchi” yozuvini amaldagi imlo qoidalari va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi me’yorlariga muvofiq “Toqchi” shaklida tuzatish (unifikatsiya qilish), shu bilan birga, viloyatdagi boshqa gidronimlarni ham tizimli ravishda qiyosiy-etimologik tadqiq etish o‘zbek toponimik merosini saqlashda va hudud tarixini boyitishda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976. – В. 87.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 6 jildli. 2-jild. – B. 349, 350.
4. Zakirov A.A., Mavlyanov B.S. Jizzax viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Donishmand ziyosi, 2025. – B. 12-16.

KASBI TUMANI GODONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Quyvanov Samandar Sayliyevich, mustaqil tadqiqotchi

Qarshi davlat universiteti

samandarquyanov@gmail.com

UO‘K: 413.13: 413.11 (045)

Annotatsiya. Ushbu maqolada godonimlar, ya'ni ko'cha nomlarining onomastika sohasida, qolaversa, toponimikada tutgan o'rnini aniqlash, godonimlarni o'rganishda sohaga oid ilmiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar hamda dissertatsiya va monografiyalarga tayangan holda fikr-mulohazalar keltirildi. Mustaqillikdan keyin respublika miqyosida viloyat, shahar, tuman ko'chalariga nom berish va nomlanishning sabablari, ko'cha nomlarining semantik xususiyatlari, ularning tarixiy-etimologik kelib chiqishi va bugungi kundagi ahamiyatini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib Kasbi tumanidagi ko'cha nomlarini o'rganish jarayonida ularning tarixiy va zamonaviy xususiyatlarini, leksik-semantik vazifalarini belgilash maqsadida godonimlar tasniflandi va ularning tarix, geografiya, etnografiya fanlari bilan bog'liq holda tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati dalillandi.

Kalit so'zlar: onomastika, toponim, dromonim, urbanonim, godonim, atama, etimologiya, tilshunoslik.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГОДОНИМОВ КАСБИНСКОГО РАЙОНА

Куянов Самандар Сайлиевич, соискатель

Каршинский государственный университет

Аннотация. Цель данной статьи – определить место годонимов, то есть названий улиц, в области ономастики, а также топонимии, и изучить богонимы на основе научной литературы, научных исследований, диссертаций и монографий в этой области. После обретения независимости большое внимание уделяется изучению причин наименования и именования улиц регионов, городов, районов, семантических особенностей названий улиц, их историко-этимологического происхождения и их значения сегодня. С этой точки зрения, в процессе изучения названий улиц в Касбинском районе была проведена классификация годонимов с целью определения их историко-современных характеристик, лексико-семантических функций, а также доказано их место и значение в лингвистике в связи с науками истории, географии и этнографии.

Ключевые слова: ономастика, топоним, дромоним, urbanonim, godonim, термин, этимология, лингвистика.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF GODONYMS OF KASBI DISTRICT

Kuyanov Samandar Sailievich, applicant
Karshi State University

Abstract. This article aims to determine the place of godonyms, that is, street names, in the field of onomastics, as well as in toponymy, and to study godonyms, based on scientific literature, scientific research, dissertations and monographs in the field. After independence, great attention has been paid to studying the reasons for naming and naming streets of regions, cities, districts, the semantic features of street names, their historical and etymological origin and their significance today. From this point of view, in the process of studying street names in the Kasbi district, godonyms were classified in order to determine their historical and modern characteristics, lexical and semantic functions, and their place and significance in linguistics in connection with the sciences of history, geography, and ethnography were proven.

Keywords: onomastics, toponym, dronym, urbanonym, godonym, term, etymology, linguistics.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham joy nomlari, ya’ni toponimlar tadqiqi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazidagi mavzulardan biriga aylandi. Shunday ekan, toponimika sohasiga oid izlanishlar nafaqat bugun, balki o‘tmishda ham tilshunoslar, geograflar, hatto tarixchilar tomonidan muntazam ravishda olib borilgan. Ma’lumki, toponimlar semantik ma’nolari yaqinligidan kelib chiqib quyidagi guruhlariga bo‘linadi: *agronimlar*, *gidronimlar*, *drionimlar*, *dromonimlar*, *oronimlar*, *oykonimlar*, *paragonimlar*, *speleonimlar*, *teotoponimlar*, *fitotoponimlar*, *etnotoponimlar* [1, 44] kabi. Ko‘rinadiki, bu guruhni topotermin sifatida yana ham davom ettirish mumkin. Demak, endi ko‘cha nomlari (godonim)ning onomastik ko‘lamdagi o‘rnini aniqlash lozim.

Asosiy qism. N.Sattorova dissertatsiyasida toponimlarga quyidagi 11 ta mikroko‘lam kirishini qayd etgan: *oykonim*, *komonim*, *urbanonim*, *agronim*, *nekronim*, *terronim*, *regionim*, *dromonim*, *xoronim*, *drimonim*, *insulonim* kabilar [2, 19]. Shulardan *urbanonim* atamasi bizning maqolamizning mohiyatini belgilashda muhim onim hisoblanadi. Negaki urbanonim makrotoponimning mikrotoponimi sifatida *agronim*, *godonim*, *xoronim*, *ekklezionim*, *oykodomonim* kabi guruhlariga bo‘linadi. Demak, bundan ko‘rinadiki, biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan ko‘cha nomlari, ya’ni godonimlar urbanonim makrotoponimining mikrotoponimi hisoblanadi. N.Sattorovanning ishida ham: “*godonim* – urbanonim mikroko‘lamining eng kichik, boshqa davomli ko‘lamga bo‘linmaydigan birligidir” [2, 21] deb ta’kidlangan.

Godonim toponimik ko‘lamning eng kichik boshqa bo‘lakka bo‘linmaydigan ko‘lamchasi hisoblanadi. Bu mushohadamizni soha lug‘atlari va tadqiqotlardagi qaydlar ham asoslaydi. Jumladan, E.Begmatov va N.Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da godonimlarga quyidagicha ta’rif berilgan: (*yunoncha hodonim, odonim* – ko‘cha, yo‘l + *onoma* – nom) – shahardagi liniyali obyektlar (shoh ko‘cha, ko‘cha, tor ko‘cha, bulvar, xiyobon, suv qirg‘oqlari, sohillari va boshqalarning atoqli oti. Urbanonimning turi [3, 76].

N.Sattorovanning dissertatsiyasida: “Godonim yoki odonim so‘zi yunoncha *odos* – “ko‘cha, yo‘l” + *onomo* – “ism, nom” [2, 19] ma’nosini bildirib, urbanonimning bir turi sifatida, ko‘cha nomlarini belgilash uchun toponim, shu jumladan, ko‘cha, ko‘cha turlari, tor va berkko‘chalar, shohko‘chalar kabilarni o‘z ichiga olishi, shuningdek, godonimlar o‘sha yerda joylashgan obyektни kodlash va joylashtirish uchun pochta manzillarida ham keng qo‘llanishi” [2, 21] qayd etilgan.

M.Matnazarovning ishida esa godonimlarga “shoh ko‘chalar, prospektlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, boshi berk ko‘chalar” [4, 17] kiritilgan.

Shunday ekan, xoh toponim bo‘lsin, xoh antroponim bo‘lsin, xoh gidronim bo‘lsin ularga nom tanlash sodda, oddiy, hamma uchun tushunarli, o‘zi mansub xalqning turmush tarzi, milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlarini, umuman olganda, millat madaniyati haqida ma’lumot bermasa, uzoq vaqt yashay olmasligi tayin. Bu borada Sh. Shoabdurahmonovning 1965-yilda chiqqan “Ko‘chalar va nomlar” [5, 4] maqolasi alohida ahamiyatga ega. Tilshunos olim bu maqolasida (Toshkent shahri misolida) shahrimiz xiyobonlari, prospekt va ko‘chalarga quyidagi tamoyillar asosida nom tanlash kerakligini alohida ta’kidlab o‘tgan:

1. Kishi nomlari: dohiylar, davlat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari nomlari asosida (*Y.Oxunboboyev, A. Ikromov, H.Olimjon, Abror Hidoyatov*).

2. Ittifoqchi respublikalar, o‘lkalarning poytaxtlari va markaziy shaharlar, shuningdek, respublikamizdagi yirik shaharlar nomlari (*Ozarbayjon, Oltoy, Farg‘ona, Samarqand*).

3. Tarixiy voqealar, bayramlar nomi (*8-mart*).

4. Tog‘lar, cho‘qqilar, daryolar va boshqa geografik nomlar (*Pomir, Chimyon, Chirchiq*).

5. Folklor qahramonlari nomi (*Alpomish, Barchin*).

6. Gul, meva, daraxt va u bilan aloqador nomlar (*Lolazor, Bodomzor, Terakzor, Guliston*).

7. Asl toshlar va ular bilan aloqador nomlar (*Zumrad, Yoqut, Olmos, Sadaf*).

8. Kasb bildiruvchi nomlar (*Paxtakor, Ishchi*).

9. Do‘stlik, tenglik, farovonlik, nafaqat, ko‘rkamlik ma’nolarini va joyning biror o‘ziga xos alomatini bildiruvchi nomlar (*Do‘stlik, Go‘zal, Bahor, Soybo‘yi*).

10. Ko'cha nomlari shahar tarixining oynasi bo'lgani uchun ham ular shaharning hozirgi kuni bilan birga, o'tmishini ham ko'rsatib turishi kerak, bu jihatdan ayrim massiv, maydonlar, tarixiy joylar nomi, urug' qabila nomlari bilan atalgan joy nomlari (*Oqtepa, Beshqayrag'och, O'rda, Chorsu, Qang'*) kabi.

Biz ham o'z ishimizda, ya'ni Kasbi tumanidagi ko'cha nomlarini tasnif qilishda Sh.Shoabdurahmonov, T.Nafasov, I.Ermatov, N.Sattorova hamda S.Usmonovalarning ko'chaga nom tanlash va nomlash tamoyillaridan foydalangan holda tasniflashga harakat qildik. Tumandagi ko'cha nomlari statistikasiga e'tibor qaratsak, bu hududda 2970 ta ko'cha nomi kadastr reyestriga kiritilgan bo'lib ularni to'plangan materiallar asosida quyidagicha tasniflashni lozim topdik.

1. Kishi nomlari asosida shakllangan godonimlar. Bu guruh nomlarini ham bir nechta kichik guruhlarga bo'lish mumkin:

a) O'zbek ilm-fani hamda adabiyoti namoyandalari nomi bilan atalgan godonimlar: *Mahmud Koshg'ariy ko'chasi, Avaz O'tar ko'chasi, Sa'diy Sheroziy ko'chasi, Nosir Xisrav ko'chasi, Atoiy ko'chasi, Foniyy ko'chasi, Abdulla Qodiriy ko'chasi, Zulfiya ko'chasi, Erkin Vohidov ko'chasi, Mirmuhsin ko'chasi, Abdulla Avloniy ko'chasi, Muhammad Yusuf ko'chasi, Musa Jalil ko'chasi, Cho'lpon ko'chasi, Sayido Nasafiy ko'chasi, Mashrab ko'chasi, Usmon Nosir ko'chasi, Muiniddin Juvayniy ko'chasi, Hamid G'ulom ko'chasi, Furqat ko'chasi, Imom Buxoriy ko'chasi, Lutfiy ko'chasi, Fuzuliy ko'chasi, Nodirabegim ko'chasi, Hofiz Xorazmiy ko'chasi, Ahmad Yassaviy ko'chasi, Zavqiy ko'chasi, Alisher Navoiy ko'chasi, Mirzo G'olib ko'chasi, Abdurauf Fitrat ko'chasi, Abulqosim Zirgan ko'chasi, Abulmajid Sanoiy ko'chasi, Maknuna ko'chasi, Nizomulmulk ko'chasi;*

b) davlat arboblari hamda rahbarlari nomlari asosida shakllangan godonimlar: *Islom Karimov ko'chasi, Fayzulla Xo'jayev ko'chasi, Muhammad Tarag'ay ko'chasi, Akmal Ikromov ko'chasi, Sharof Rashidov ko'chasi, Sobir Rahimov ko'chasi, Jaloliddin Manguberdi ko'chasi, Temur Malik ko'chasi;*

c) fan va madaniyat namoyandalari, aktyor, rejissyor hamda san'at ustalari nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Shukur Burhonov ko'chasi, Razzoq Hamroyev ko'chasi, Behzod ko'chasi, Ismoil Qaffol Shoshiy ko'chasi, Zaynab Sadriyeva ko'chasi, Lutfixonim Sarimsoqova ko'chasi;*

d) aziz avliyo, pirlar, mo'tabar kishilar, hadis ilmi bilimdonlari nomi asosida yuzaga godonimlar; *Sulton Mirhaydarota ko'chasi, Imom Moturidiy ko'chasi, Imom Termiziy ko'chasi.*

2. Hamkor respublikalar, o'lkalarning poytaxtlari va markaziy shaharlar, shuningdek respublikamizdagi yirik shaharlar nomlari asosida shakllangan godonimlar: Bu guruhni ham o'z navbatida quyidagi kichik guruhlarga bo'lish mumkin:

a) jahon mamlakatlari nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Xitoy ko'chasi*;

b) O'zbekiston Respublikasi viloyat, shahar hamda tuman nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Andijon ko'chasi, Shahrisabz ko'chasi, Yangikent ko'chasi, Samarqand ko'chasi, Guliston ko'chasi, Bo'stonliq ko'chasi, Qarshi ko'chasi, Toshkent ko'chasi, O'zbekiston ko'chasi, Turkiston ko'chasi, Xorazm ko'chasi, Jizzax ko'chasi, Osiyo ko'chasi, Nurobod ko'chasi, Mirobod ko'chasi, Marhamat ko'chasi, Bog'ariq ko'chasi, Baxmal ko'chasi, Denov ko'chasi, Bo'ka ko'chasi, Mirishkor ko'chasi, Zarafshon ko'chasi.*

3. Tarixiy voqealar, bayramlar nomi asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Navro'z ko'chasi, Bahorsayli ko'chasi, Navro'zi olam ko'chasi.*

4. Tog'lar, cho'qqilar, daryolar va boshqa geografik obyektlar nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Oltinsoy ko'chasi, Oltinko'l ko'chasi, Qirg'oqbo'yi ko'chasi, Sho'rariq ko'chasi, Daryobo'yi ko'chasi, Suvotar ko'chasi, Azimbuloq ko'chasi, Qizilbuloq ko'chasi, Ko'lhayot ko'chasi, Soybo'yi ko'chasi, Shirinsoy ko'chasi, Nazartepa ko'chasi, Egrisoy ko'chasi, Qoratepa ko'chasi, Anhorbo'yi ko'chasi, Zolariq ko'chasi, Ko'lariq ko'chasi, Sho'rquduq ko'chasi, Toshquduq ko'chasi, Hisor ko'chasi, Bog'ariq ko'chasi, Reshatog ko'chasi, Obihayot ko'chasi, Anhor ko'chasi, Shirinsuv ko'chasi, Obizamzam ko'chasi, Tog'ariq ko'chasi, Tog' zamini ko'chasi, Sarv ko'chasi, Gulshan ko'chasi, Majnuntol ko'chasi, Moybuloq ko'chasi.*

5. Folklor qahramonlari va joy nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Alpomish ko'chasi, Chambil ko'chasi.*

6. Gul, meva, daraxt va u bilan aloqador nomlar asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Anorzor ko'chasi, Yalpiz ko'chasi, Shamshod ko'chasi, Navro'zgul ko'chasi, Bog'idilxush ko'chasi, Qo'shtut ko'chasi, Gulzorli ko'chasi, Maysazor ko'chasi, Kattabog' ko'chasi, Mo'g'jagul ko'chasi, Jiydaguli ko'chasi, Bog'ieram ko'chasi, Guldasta ko'chasi, Bog'iravot ko'chasi, Olmazor ko'chasi, Guliston ko'chasi, Yakkatol ko'chasi, Tokzor ko'chasi, Ko'chatzor ko'chasi, Uzumzor ko'chasi, Shirinbodom ko'chasi, Mehriyiyo ko'chasi, Gulchaman ko'chasi, Gulsaroy ko'chasi, Bog'iravon ko'chasi, Bog'ichinor ko'chasi, Gulbog' ko'chasi, Binafsha ko'chasi, Mevazor ko'chasi, Bog' ko'chasi, O'rikzor ko'chasi, Chamanzor ko'chasi, Bog'bon ko'chasi, Xonguli ko'chasi, Xushbog' ko'chasi, Gulubo'ston ko'chasi, Lolaqizg'aldoq ko'chasi, Bog'-u rog' ko'chasi, Anjirli ko'chasi, Bodomzor ko'chasi, Chinnigul ko'chasi, Gul ifori ko'chasi, Giloszor ko'chasi, Bog'zor ko'chasi, Gulzamin ko'chasi, Yashnarbog' ko'chasi, Boychechak ko'chasi, Gulzor ko'chasi, Lolazor ko'chasi.*

7. Asl toshlar va ular bilan aloqador nomlar asosida yuzaga kelgan godonimlar: *Marjon ko'chasi, Billur ko'chasi, Marvarid ko'chasi, Zebigardon ko'chasi, Sadaf ko'chasi, Oqtosh ko'chasi.*

8. Kasb bildiruvchi nomlar asosida paydo bo'lgan godonimlar. Ularni ham o'z navbatida kichik guruhlariga ajratish mumkin:

a) *temirchilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari asosida paydo bo'lgan godonimlar: Chilangarlar ko'chasi, Temirchilar ko'chasi, Payvandchi ko'chasi;*

b) *dehqonchilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari asosida paydo bo'lgan godonimlar: Dehqonchilik ko'chasi, Paxtakorlar ko'chasi, Ustadehqon ko'chasi, Lalmikor ko'chasi, Ziroatchilar ko'chasi, Fermerlar ko'chasi, G'allakor ko'chasi, Bobodehqon ko'chasi, Bog'bonlar ko'chasi, Sohibkorlar ko'chasi;*

d) *chorvachilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari asosida paydo bo'lgan godonimlar: Chorvadorlar ko'chasi, Chorvadorbobo ko'chasi;*

e) *tadbirkorlik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari asosida paydo bo'lgan godonimlar; Tashabbuskorlar ko'chasi, Tadbirkor ko'chasi, Bunyodkor ko'chasi, Mehnatkash ko'chasi;*

f) *pedagog-psixolog kasbi bilan bog'liq kasb-hunar nomlari orqali yuzaga kelgan godonimlar: Ziyokor ko'chasi, Murabbiylar ko'chasi, Fidoyilar ko'chasi, Nurchilar ko'chasi, Iste'dodlilar ko'chasi, Ijodkorlar ko'chasi, Kitobxon ko'chasi, Ustazodalar ko'chasi, Maorifchilar ko'chasi, Ziyolilar ko'chasi, Kimyogar ko'chasi;*

g) *duradgorlik kasbi bilan bog'liq kasb-hunar nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: Duradgorlar ko'chasi, Duradgor ko'chasi, Ustaduradgor ko'chasi, Ustakor ko'chasi;*

h) *boshqa kasb bilan bog'liq kasb-hunar nomlari asosida yuzaga kelgan godonimlar: Zardo'zlik ko'chasi, Fazogir ko'chasi, Pillakor ko'chasi, Kosiblar ko'chasi, Kulollar ko'chasi, Zarshunos ko'chasi, Sportchilar ko'chasi, Shifokorlar ko'chasi, Binokor ko'chasi, Muhandis ko'chasi, Chavandoz ko'chasi.*

9. Do'stlik, tenglik, farovonlik, nafaqat, ko'rkamlilik ma'nolarini va joyning biror o'ziga xos alomatini bildiruvchi nomlar orqali yuzaga kelgan godonimlar: *Tinch-totuv ko'chasi, Hamdo'stlik ko'chasi, Do'stona ko'chasi, El tinchligi ko'chasi, Ozodalik ko'chasi, Porloq kelajak ko'chasi, Yurtparvar ko'chasi, Yuksalish sari ko'chasi, Shodlik ko'chasi, Do'stlik ko'chasi, Xurramlik ko'chasi, Xalqlar do'stligi ko'chasi, Tinchlik ko'chasi.*

10. Ko'cha nomlari shahar tarixining oynasi bo'lgani uchun ham ular shaharning hozirgi kuni bilan birga, o'tmishini ham ko'rsatib turishi kerak, bu jihatdan ayrim massiv, maydonlar, tarixiy joylar nomi, urug', qabila nomlari bilan atalgan joy nomlari asosida paydo bo'lgan godonimlar: *Xo'jailg'or ko'chasi, Beshyog'och ko'chasi, Bog'idilxush ko'chasi, Oqtom ko'chasi, Buyuk ipak yo'li*

ko'chasi, O'yrot ko'chasi, Baydoqchi ko'chasi, Madaniyat uyi ko'chasi, Bog'ieram ko'chasi, Saroy ko'chasi, Bog'iravot ko'chasi, Temuriylar ko'chasi, Moviy gumbaz ko'chasi, Alla ko'chasi, Bog'chasaroy ko'chasi, Allot ko'chasi, Oqtepa ko'chasi, Jayxun ko'chasi, Cho'lquvar ko'chasi, Sharqona ko'chasi, Cho'ponota ko'chasi, Anhor ko'chasi, Oltinmeros ko'chasi, Chortoq ko'chasi, Dilkusho ko'chasi, Banoras ko'chasi, Mashriq ko'chasi, Reshatog' ko'chasi.

Xulosa. Har bir hududga berilgan nom xoh toponim, xoh gidronim, xoh oykonim, xoh godonim bo'lsin, bu, albatta, joyning tarixini, o'tmishini, ajdodlar merosini, bugunini ko'rsatib beruvchi bir manba hisoblanadi. Shunday ekan, Kasbi tumanidagi ko'cha nomlari ham hududning o'tmishi va kelajagini bog'lab turuvchi bir ko'prik vazifasini bajaradi. Mustaqillik sharofati bilan ko'chalarga nom berish borasida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilgan, ammo bu sohada hali qilinmagan ishlar ham ko'p, maqsadimiz ko'chalarga qo'yilgan nomlarni o'rganish orqali hududning o'tmishi, urf-odatlarini, boshidan o'tkazgan siyosiy-ijtimoiy voqealari, qolaversa, uning etnik tarkibi haqida aniq va ishonchli xulosalar chiqarish hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Karimov S.A., Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 44.
2. Sattorova N. O'zbek tilida godonimlarning lingvistik xususiyatlari: Fil. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Andijon, 2024. – B. 19.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 76.
4. Matnazarov M. Urganch shahri urbanonimlarining antropotsentrik tadqiqi: Fil. fan. fals. dokt. (PhD) avtoref. – Urganch, 2024. – B. 17.
5. Shoabdurahmonov Sh. Ko'chalar va nomlar. Toshkent haqiqati, 1968. – B. 4. 31-yanvar. – № 21 (3759).
6. <http://geonames.kadastr.uz>.

“TARIXI FARG‘ONA” ASARIDAGI TARIXIY XORONIMLAR VA ULARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Usmonaliyev Shahboz, tayanch doktorant

Namangan davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-2226-5127

sh.usmonaliyev@namdu.uz

UO‘K: 81’37

Annotatsiya. Maqolada Is'hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida qo‘llangan tarixiy xoronimlarning semantik-funksional xususiyatlari tarixiy onomastika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi asarda qo‘llangan xoronimlarning semantik-funksional

xususiyatlarini aniqlash va ularning tasnifini ishlab chiqishdan iborat. Xoronim tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, jahon va o‘zbek onomastikasida uning talqiniga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida xoronimlar siyosiy-ma’muriy, etnik asosdagi va tarixiy-geografik guruhlariga ajratilib, ularning tarixiy, etimologik hamda semantik-funksional xususiyatlari matn misollari asosida tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari “Tarixi Farg‘ona” asaridagi xoronimlar tarixiy-geografik arealni lisoniy jihatdan ifodalash bilan birga, muallifning tarixiy-geografik tafakkuri, siyosiy-hududiy tasavvurlari hamda etnomadaniy qarashlarini aks ettiruvchi muhim onomastik birliklar ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: “Tarixi Farg‘ona”, Is’hoqxon Ibrat, xoronim, tarixiy onomastika, toponim, semantik tahlil, siyosiy-ma’muriy xoronim, etnik xoronim, tarixiy-geografik xoronim.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ХОРОНИМОВ В “ТАРИХИ ФЕРГАНА” ИСХОКХОНА ИБРАТА

Усмоналиев Шахбоз, докторант
Наманганский государственный университет

Аннотация. В статье с позиций исторической ономастики анализируются семантико-функциональные особенности исторических хоронимов, употреблённых в произведении Исхакхана Ибрата “*Тарихи Фергана*”. Цель исследования заключается в выявлении семантико-функциональных особенностей хоронимов, представленных в произведении, и разработке их классификации. Освещаются теоретические основы понятия *хороним*, а также анализируются научные подходы к его интерпретации в мировой и узбекской ономастике. В результате исследования хоронимы классифицированы на политико-административные, этнические и историко-географические группы, а их исторические, этимологические и семантико-функциональные особенности раскрываются на основе текстовых примеров. Результаты исследования показывают, что хоронимы в произведении “*Тарихи Фергана*” не только служат средством языковой репрезентации историко-географического ареала, но и выступают важными ономастическими единицами, отражающими историко-географическое мышление автора, его представления о политико-территориальном пространстве и этнокультурные взгляды.

Ключевые слова: “Тарихи Фергана”, Исхакхан Ибрат, хороним, историческая ономастика, топоним, семантический анализ, политико-административные хоронимы, этнические хоронимы, историко-географические хоронимы.

SEMANTIC AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF CHORONYMS IN IS’HOQXON IBRAT’S “TARIKHI FERGANA”

Usmonaliyev Shahboz, doctoral student
Namangan State University

Abstract. This article analyzes the semantic and functional properties of historical horonyms used in Ishakhan Ibrat's "Tarikhi Fergana" from a historical onomastics perspective. The aim of the study is to identify the semantic and functional properties of the horonyms presented in the work and to develop a classification. The theoretical foundations of the concept of horonyms are highlighted, and scholarly approaches to its interpretation in global and Uzbek onomastics are analyzed. As a result of the study, horonyms are classified into political-administrative, ethnic, and historical-geographical groups, and their historical, etymological, and semantic-functional properties are revealed using textual examples. The results of the study demonstrate that horonyms in "Tarikhi Fergana" not only serve as a means of linguistic representation of the historical-geographical area but also act as important onomastic units reflecting the author's historical-geographical thinking, his understanding of political-territorial space, and ethnocultural views.

Keywords: "Tarikhi Fergana", Iskhokhon Ibrat, choronym, historical onomastics, toponym, semantic analysis, political-administrative choronyms, ethnic choronyms, historical-geographical choronyms.

Kirish. Toponimik tizim tarkibida xoronimlar yirik hududiy makonlarni nomlovchi muhim makrotoponimik birliklardan biri hisoblanadi. Jahon onomastikasida xoronim (choronym) termini yunoncha xoro – "o'lka", "hudud", "mamlakat" hamda onoma – "nom" komponentlari asosida shakllangan bo'lib, muayyan region yoki mamlakatning atoqli nomini anglatadi.[1, 91]

Xoronimlar yirik geografik hudud, mamlakat, tarixiy o'lka, etnomadaniy makon nomlarini ifodalashi bilan boshqa toponimik birliklardan ajralib turadi. Shu sababli ular faqat geografik obyekt nomigina emas, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, siyosiy tafakkuri, hududiy qarashlari hamda madaniy identifikatsiyasini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab onomastik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon tilshunosligida xoronimlarga oid tadqiqotlar nisbatan keyinroq shakllangan bo'lsa-da, keyingi davrlarda bu masalaga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli ravishda ortib bormoqda. Xususan, M. Semian xoronimlarning region tushunchasi bilan bog'liq murakkab semantik tabiatini yoritgan bo'lsa, M. Bandur xoronimlarning tarixiy-etimologik shakllanishi va etnolingvistik asoslarini tadqiq etadi. Shuningdek, xoronimlarning tipologik xususiyatlari hamda ularning siyosiy-ma'muriy va tarixiy-geografik turlari ham xorijiy tadqiqotlarda alohida ko'rsatib o'tiladi [2, 158-169].

N.V.Podolskaya esa "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati"da xoronimlarni "shahar xoronimlari" sifatida e'tirof etib, ularni urbanonimlar tarkibiga kiruvchi birlik ekani haqida fikr yuritadi [3, 139]. Bu holat xoronim terminining tadqiqotlarda har xil yondashuv va turlicha talqin qilinishini belgilaydi.

O'zbek onomastikasida xoronimlar, asosan, yirik hududiy makon, o'lka yoki region nomlarini anglatuvchi alohida toponim turi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda ular oykonim asosida yuzaga keluvchi transonimizatsion birlik sifatida ham baholanadi [4, 81]. Bu esa xoronimlarning o'zbek onomastik tizimida ham turli aspektlarda o'rganilganini ko'rsatadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotning maqsadi Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida qo'llangan xoronimlarning semantik-funksional xususiyatlarini aniqlash va ularni tasniflashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida asarda uchraydigan xoronimlar olindi. Tadqiqot davomida tavsifiy, semantik, kontekstual tahlil hamda tasniflash metodlaridan foydalanildi.

"Tarixi Farg'ona" asarida qo'llangan xoronimlarni semantik va funksional xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, asardagi xoronimlar nafaqat hudud nomlari sifatida, balki muallifning siyosiy, etnik va tarixiy-geografik makon haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Asardagi xoronimlar siyosiy-ma'muriy xoronimlar, etnik asosdagi xoronimlar va tarixiy-geografik xoronimlar kabi turlarga ajraladi.

1. Siyosiy-ma'muriy xoronimlar. Mazkur guruhga davlat, xonlik yoki muayyan siyosiy boshqaruv tizimi bilan bog'liq hudud nomlari kiradi. Bunday xoronimlarda hududning tarixiy-geografik xususiyatidan ko'ra uning siyosiy maqomi va ma'muriy tuzilishi ahamiyatli sanaladi. "Tarixi Farg'ona" asarida **Farg'ona, Buxoro, Xiva, Xo'qand, Eron** kabi xoronimlar ana shu guruhni tashkil etadi.

Asarda **Farg'ona** toponimi transonimizatsion birlik sifatida qo'llangan, ya'ni oykonimdan hosil bo'lgan xoronim vazifasida kelgan: *Farg'ona gubernasi shimoli sharqiy tarafidan Samarchin, shimoli g'arbiy tarafidan Sirdaryo yoki Turkiston, g'arbi janub tarafidin Buxoro xonlig'i mahkumi topoyir* [5, 61]. Ushbu parchada Farg'ona birligi guberniya ma'nosidagi yirik ma'muriy-hududiy makon sifatida qo'llangan.

Buxoro xoronimi asarda ko'proq davlat va siyosiy markaz ma'nosida qo'llangan. Jumladan: "*Oxiran o'zbeklar qo'lina tushub, badavlat o'zbekiya tashkil bo'lib, buning inqirozidan nihoyati Buxoro va Xiva xonlari edi*" [IM, 60] tarzidagi qo'llanishda Buxoro shahar ma'nosida emas, mustaqil siyosiy hokimiyat va davlat markazi sifatida tasvirlangan. Mazkur xoronim asarda siyosiy boshqaruv tizimi hamda tarixiy davlat tushunchasi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Xiva xoronimi ham asarda siyosiy-ma'muriy hudud ma'nosida qo'llangan. Yuqoridagi parchada "Buxoro va Xiva xonlari" tarzidagi birliklar davlat boshqaruvi va xonlik tizimi bilan bog'liq holda ishlatilgan. Bu esa Xiva xoronimining ham kichik shahar ma'nosida emas, balki muayyan siyosiy birlikni anglatuvchi nom sifatida qo'llanganini ko'rsatadi.

Xo'qand xoronimi asarda Qo'qon xonligi bilan bog'liq siyosiy hudud nomi sifatida uchraydi: *Xo'qand xonlig'i Koshgar va Pomir, ya'ni Shag'non hududig'acha O'rol ko'lina muttasil o'lub, butun Sayhun daryosini komilan shomil o'lub, 1876 milodiyda Rusiya qo'lig'a o'tub, holo davlati Rusiyada yashamoqdadurlar* [5, 60].

Ushbu jumla mazkur xoronimning siyosiy-ma'muriy birlik ma'nosida ishlatilganini ko'rsatadi. Shuningdek, Qo'qon toponimi oykonim sifatida ham ishlatilgan bo'lib, aynan shu ma'nosidan xoronimga o'tgan – tranzonimizatsiyalashgan.

Eron xoronimi ham asarda davlat hududi va siyosiy makon ma'nosida qo'llangan. Jumladan: “*Rusiya tuprog'idan yigirma to'rt soatda chiqarmak bo'lib... bir sutkada Eron hududiga o'tquzgan ekan*” [5, 113] tarzidagi parchada Eron aniq siyosiy chegara va davlat hududini anglatuvchi xoronim sifatida ishlatilgan. Bu esa mazkur xoronimning siyosiy-ma'muriy xarakterini ko'rsatadi.

Asarda siyosiy-ma'muriy xoronimlar orqali muallif yashagan davrning davlat tuzilmalari, hududiy chegaralari va siyosiy makoni haqidagi tasavvurlar namoyon bo'ladi. Ayniqsa bunday xoronimlar tarixiy voqealarning siyosiy hudud bilan bog'liqligini ko'rsatishda muhim funksional vazifa bajargan.

2. Etnik asosdagi xoronimlar. Mazkur guruhga etnonim asosida shakllangan hamda muayyan xalq, elat yoki etnik birlik bilan bog'liq hudud nomlari kiradi. Bunday xoronimlarda hudud nomi ma'lum etnik qatlam yoki xalq nomi bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladi. “Tarixi Farg'ona” asarida **Turkiston, Arabiston, Hindiston, Kurdiston, Afg'oniston, Rusiya** kabi xoronimlar ana shu guruhni tashkil etadi.

Turkiston xoronimi *turkiylar* etnonimi asosida shakllangan bo'lib, turkiy xalqlar yashaydigan keng tarixiy-etnomadaniy hudud nomini anglatadi. Tarixiy manbalarda mazkur xoronim Movarounnahrda shimoldagi hududlar hamda Sirdaryoning quyi havzasi bilan bog'liq tarixiy-geografik makon ma'nosida qo'llangan. “Tarixi Farg'ona” asarida ham Turkiston birligi keng hududiy makon va ma'muriy-hududiy birlik ma'nolarida uchraydi. Jumladan, “*Chunonchi, bu bizni mutavattin bo'lub turgan Turkiston muzofotida Farg'ona deb mashhur...*” [5, 53], “*Qubodni o'g'li Noshiravon Turkiston muzofotida ko'b yerni obod qilgon ekon*” [5, 56], “*...Turkiston viloyatining muzofotga taqsim qilgonda...*” [5, 61] kabi parchalar ushbu xoronimning keng tarixiy-geografik hamda siyosiy-hududiy hudud ma'nosida qo'llanganini ko'rsatadi.

“*Turkiston shaharlari aksari islomobod bo'lib...*” [5, 58] tarzidagi qo'llanishlar mazkur hudud tarkibidagi shaharlar tizimini anglatib, Turkiston xoronimining makrohududiy xarakterini yanada yaqqol namoyon etadi. Ayrim tadqiqotlarda **Turkiston** nomining ilk shakllari sosoniy davr manbalarida *Turgistan* ko'rinishida qayd etilgani ta'kidlanadi. Shuningdek, VI–VII asrlarga oid arman, sug'd va o'rta fors manbalarida ham **Turkiston** nomi turkiy xalqlar yashagan hududni anglatuvchi etnomadaniy makon nomi sifatida uchraydi [6, 24]. Bu holat mazkur xoronimning turkiy etnik birlik bilan bog'liq holda shakllanganini hamda tarixiy manbalarda etnik-hududiy makonni ifodalash vazifasida qo'llanganini ko'rsatadi.

Arabiston xoronimi *arab* etnonimi asosida shakllangan bo‘lib, arab xalqlari yashaydigan hudud nomini anglatadi. Asarda: “Buxorodan to Hinduston va Arabistongacha bu Farg‘ona ashyolari joriy edi” [5, 62] parchasi mazkur xoronimning etnik asosdagi hudud nomi sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi.

Hindiston xoronimi “hind” etnonimi asosida shakllangan bo‘lib, hind xalqlari yashaydigan hudud nomini anglatadi. Asarda xoronimning *Hindiston* shakli bilan bir qatorda fonetik varianti – *Hinduston* shaklida qo‘llanganini ham ko‘rish mumkin: *...oxiri yana Hinduston va Afg‘on ilan yurib, daryoyi Amuga yaqin Karrux degan yerda Eshoni shahid degan Islom shayxni katta murshidlari xalifa Dorulamon degan Eshon xonaqohlariga kelib,...* [5, 117].

Kurdiston xoronimi “kurd” etnonimi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, kurd xalqlari yashaydigan hudud nomini anglatadi. “...ayyomi hangomida Buxoro va Xiva va Xorazm xonlaridan va Hindiston va Kurdiston kabi mamoliki ba‘idadan ahli fazllar kelib, xizmatinda bo‘lgan ekanlar” [5, 69] parchasi ushbu xoronimning etnik birlik bilan bog‘liq hudud nomi sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi.

Rusiya xoronimi esa “rus” etnonimi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, rus xalqi bilan bog‘liq hudud nomini anglatadi. *Rossiya* toponimi asarda tarixiy fonetik variantda – *Rusiya* shaklida qo‘llangan: *...1876 milodiyda Rusiya qo‘lig‘a o‘tub, holo davlati Rusiyada yashamoqdadurlar* [5, 60].

Asarda etnik asosdagi xoronimlar orqali muallifning etnik hududlar, xalqlar yashaydigan makonlar hamda tarixiy-etnomadaniy areallar haqidagi tasavvurlari namoyon bo‘ladi. Bunday xoronimlar tarixiy makonning etnik identifikatsiya bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatishda muhim funksional vazifa bajargan.

3. Tarixiy-geografik xoronimlar. Mazkur guruhga keng tarixiy-geografik hudud, tarixiy-madaniy makon hamda muayyan sivilizatsion arealni anglatuvchi xoronimlar kiradi. Bunday xoronimlar aniq siyosiy chegaradan ko‘ra tarixiy va geografik hudud tushunchasi bilan xarakterlanadi. “Tarixi Farg‘ona” asaridagi *Movaraunnahr, Turon, Sharqiy Turkiston, Samarchin* kabi xoronimlarni ushbu guruhga kiritish mumkin.

Movaraunnahr xoronimi asarda Markaziy Osiyoning tarixiy-geografik hududini anglatuvchi nom sifatida qo‘llangan. Mazkur xoronim arabcha “daryoning narigi tomoni” ma‘nosini bildirib, tarixiy manbalarda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hudud nomi sifatida keng ishlatilgan [7, 15]. Asarda ham u tarixiy-madaniy makon ma‘nosida namoyon bo‘ladi. Jumladan, “...o‘shal asrlarda Turkiston va Movarounnahrda necha-necha yerlarni obod qilgonini Axsidagi voqeasi minba‘d yoziladur” [5, 56] tarzidagi parchada mazkur hududning tarixiy-madaniy areal sifatidagi ahamiyati oydinlashadi.

Turon xoronimi qadimiy tarixiy-geografik hudud nomlaridan biri hisoblanadi. Oʻrta asr manbalarida mazkur xoronim Eron bilan qarama-qarshi qoʻyilgan keng geografik va etnomadaniy makon maʼnosida qoʻllangan. Ayrim tarixiy manbalarda Turon turkiy xalqlar va qabilalar yashaydigan hudud sifatida talqin qilinib, keyinchalik “Turkiston” tushunchasi bilan yaqin semantik munosabatda qoʻllangan [8, 779]. Ayrim tadqiqotchilar Turon nomini *Tur* komponenti va forsha *-an* qoʻshimchasi bilan bogʻlaydilar [9, 21]. Biroq tarixiy manbalarda ushbu nom etnik birlikdan koʻra kengroq tarixiy-geografik hududni anglatuvchi xoronim sifatida qoʻllangan. Asarda ham bu xoronim tarixiy-siyosiy makon maʼnosida uchraydi: *Andin Afrosiyob vaqtiga kelganda, Afrosiyob Turon podshohi boʻlib, Andijonni poytaxt qilib...* [5, 120]. Mazkur parchada Turon muayyan xalq yoki qabila yashaydigan oddiy hudud emas, balki tarixiy davlat va sivilizatsion makon tushunchasi bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi.

Sharqiy Turkiston xoronimi Turkiston hududining sharqiy qismiga nisbatan qoʻllanib, tarixiy-geografik region maʼnosini ifodalaydi. Mazkur xoronim tarixiy manbalarda Sharqiy Turkiston hududi, xususan, Koshgʻar va unga tutash oʻlkalar bilan bogʻliq holda qoʻllangan. Asarda ham ushbu birlik muayyan tarixiy-geografik makonni anglatuvchi xoronim sifatida uchraydi: *Janubi sharqi Chingʻa tobe Turkistoni Sharqiy, eski Koshgar mahkumigʻa muttasildur* [5, 62]. Mazkur parchada Sharqiy Turkiston Koshgʻar bilan bogʻliq holda tavsiflanib, hududiy aniqlashtirish hamda tarixiy-geografik makonni ifodalash vazifasini bajargan.

Samarchin xoronimi asarda Fargʻona gubernasiga tutash tarixiy-geografik hudud nomi sifatida qoʻllangan. Mazkur xoronim muayyan hududiy makonni anglatuvchi birlik boʻlib, asarda geografik chegaralarni aniqlashtirish vazifasida kelgan: *Fargʻona gubirnasi shimoli sharqiy tarafidan Samarchin, shimoli gʻarbiy tarafidan Sirdaryo yoki Turkiston, gʻarbi janub tarafidin Buxoro xonligʻi mahkumi topoyir* [5, 61].

Xulosa. “Tarixi Fargʻona” asarida qoʻllangan xoronimlar muallifning tarixiy-geografik dunyoqarashi, siyosiy makon haqidagi tasavvurlari hamda etnomadaniy qarashlarini yoritishda muhim oʻrin tutadi. Shu jihatdan xoronimlar asarning tarixiy-lisoniy qimmatini oshiruvchi muhim onomastik birliklardan biri sifatida namoyon boʻladi.

“Tarixi Fargʻona” asarida aniqlangan 17 ta xoronimning semantik-funksional tahlili ularning 5 tasi siyosiy-maʼmuriy, 6 tasi etnik asosdagi va 6 tasi tarixiy-geografik xoronimlardan iborat ekanini koʻrsatdi. Mazkur nisbat xoronimlarning asarda faqat geografik makonni emas, balki siyosiy va etnomadaniy makonni ifodalashda ham faol qoʻllanganini tasdiqlaydi. Shu jihatdan Isʻhoqxon Ibrat tarixiy hududlarni tasvirlashda geografik belgilar bilan bir qatorda davlat, xalq va tarixiy-madaniy areal tushunchalariga alohida eʼtibor qaratgan. Bu holat muallifning tarixiy

makonni idrok etishida siyosiy va etnomadaniy omillar muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 91.
2. Semian M. Novodobá choronyma v současném regionálním systému // In: David J. (ed.) Toponyma: kulturní dědictví a paměť míst. Ostrava, 2016. – B. 158–169; Bandur M. Pochodzenie choronimów Pomorza w świetle materiałów językowych // Adeptus. – 2022. – №19.
3. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд. – М.: Наука, 1988. – С. 139
4. Sativoldiyeva D. O‘zbek tili toponimik tizimida konversiya va transonimizatsiya: Filol. fan. fals. dok. (PhD) diss. – Namangan, 2024. – B. 81.
5. Ibrat, Is‘hoqxon. Islohi millat. – Toshkent: Turon zamin, 2024. – B. 61. Keyingi misollar ham shu manbada olindi, IM qisqartma shaklda sahifasi ko‘rsatildi.
6. Gyselen R. Nouveaux matériaux pour la géographie historique de l’empire sassanide: Sceaux administratifs de la Collection Ahmad Saedi. – Paris: Studia Iranica, 2002. – Cahier 24.
7. Камолитдин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарк, 2006. – Б. 15.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2004. 8 жилд. – Б. 779.
9. Turan O. Türk Cihan Hâkimiyeti Mefkûresi Tarihi. – İstanbul, 1969. – B. 21.
10. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 30.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. 3 жилд. – Б. 123.

TURKIY XALQLARDA NASL-NASAB, OILAVIY MANSUBLIKNI IFODALOVCHI VOSITALAR TARIXIGA DOIR

Shodmonqulova Orasta Bobir qizi, doktorant

Qarshi davlat universiteti

orasta426@gmail.com

ORCID: 0009-0002-6324-9498

UO‘K 413.13:39:94(021)

Annotatsiya. Ushbu maqolada familiya, nasab yoki naslni ifodalovchi vositalarning eng qadimgi turkiy til davridan boshlab bugungi kungacha tarixiy taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari va turlari haqida fikrlar mavjud. Shuningdek, turli davrlarga xos shaxslar identifikatsion birliklarining modellari farqlab berilgan. Bundan tashqari, “Tunyuuq”, “Bilga xoqon”, “Devoni lug‘otit-turk”, “Mahbub ul-qulub”, “Boburnoma” kabi asarlardagi antroponimlar tuzilishi jihatidan tahlilga tortilgan. Nisba, kunya, laqab va otasmlar ham qisqacha izohlangan va misollar keltirilgan. O‘zbek tiliga bugungi shakldagi familiyalar qachon va qanday kirib kelganligi, nima maqsadda aholi

majburiy familiyalarga o'tkazilgani haqida ham fikrlar mavjud. Mustaqillikdan so'ng shaxslar qay shaklda familiya tanlayotganiga bir qancha misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: familiya, nasab, nisba, tigin, xoqon, begim, amir, xon, taxallus, otatism, kunya.

ОБ ИСТОРИИ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ РОДОСЛОВНОЙ И СЕМЕЙНОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ У ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Шодмонкулова Ораста Бобир кизи, докторант
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье представлены мнения об историческом развитии, этапах формирования и видах средств, выражающих фамилию, происхождение или род, начиная с древнейшего тюркского языкового периода и до наших дней. Также выделены модели идентификационных единиц личности, характерные для разных периодов. Кроме того, были проанализированы антропонимы в таких произведениях, как “Туньюк”, “Бильга каган”, “Девони луготит-тюрк”, “Махбуб ул-кулуб”, “Бабурнаме” с точки зрения их структуры. Нисба, куня, прозвища и отчества также кратко объясняются и приводятся примеры. Существуют также мнения о том, когда и как сегодняшние фамилии вошли в узбекский язык, с какой целью население было переведено на обязательные фамилии. Приведены несколько примеров того, как люди выбирают фамилию после обретения независимости.

Ключевые слова: фамилия, происхождение, нисба, тигин, каган, бегим, эмир, хан, псевдоним, отчество, куня.

ON THE HISTORY OF TERMS EXPRESSING LINEAGE AND FAMILY AFFILIATION AMONG TURKIC PEOPLES

Shodmonkulova Orasta Bobir kizi, doctoral student
Karshi State University

Abstract. This article contains views on the historical development, stages of formation, and types of means of expressing surname, lineage, or ancestry from the earliest Turkic language period to the present day. Additionally, models of personal identification units characteristic of different periods are distinguished. In addition, anthroponyms in such works as “Tunuquq”, “Bilga khagan”, “Devoni lughatit-turk”, “Mahbub ul-qulub”, “Baburname” were analyzed from the point of view of their structure. Nisba, kunya, nicknames and patronymics are also briefly explained and examples are given. There are also opinions about when and how today's surnames entered the Uzbek language, and for what purpose the population was transferred to mandatory surnames. Several examples of how individuals choose surnames after gaining independence are provided.

Keywords: surname, origin, relation, tigin, khagan, begim, emir, khan, nickname, patronymic, kunya.

Kirish. Uzoq davrlardan beri shaxslar ismi bilan birga qo‘shimcha nomlar qo‘llanib kelinadi. Odatda, nasabni, naslni, biror oilaga yoki ajdodga taalluqlilikni ifodalashda familiyalardan foydalanamiz. Nafaqat o‘zbek tili, balki dunyoning ko‘plab xalqlarida turli shakldagi familiyalar ishlatiladi. Uning tarixi qadimgi Rim davlatiga borib taqaladi. Biz familiyalar orqali biror xalqning madaniyati, tarixi, ijtimoiy hayoti haqida ma’lumotlar olishimiz mumkin. Shuning uchun uni lingvistik muzey deyishimiz mumkin.

Asosiy qism. Familiya – o‘zbek milliy nomlash tizimiga xos bo‘lgan an’anaviy birlik emas, balki keyin kirib kelgan ijtimoiy hodisadir.

Quyida o‘zbek tilida nasl-nasabni bildiruvchi til birliklarining tarixan shakllanish va rivojlanish jarayoniga to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu jarayonni davrlashtirib o‘rganish ma’qul, bizning nazarimizda.

I. Islomgacha bo‘lgan davr. Bu davr haqida bizga ma’lumot beruvchi manbalar, albatta, eng qadimgi turkiy til namunalari hisoblangan bitiktoshlardir. Ularda turli xil antroponimlar uchraydi, ammo bugungi mazmundagi familiya tushunchasi uchramaydi. Bitiktoshlar tilida shaxslarning ismlari yoniga qo‘shimcha tarzda turli xil unvon, mansab, laqab kabi izohlovchilar qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Bu fikrlarning isboti sifatida barcha bitiktoshlardan parchalar keltirib o‘tamiz. Shu o‘rinda bir qiziq jihat. Eng qadimgi yozma manba hisoblangan “Irq” bitigida umuman shaxs nomlari mavjud emas. “Tunyuquq” bitigida bir qancha shaxs nomlari mavjud. Ularning barchasi ism yoki laqabni bildiradi, ammo familiya sifatida qo‘llangan antroponimlar uchramaydi. Masalan, “...unvon oladigani men edim – Bilga Tunyuquq” yoki “...Qo‘shin bilan boring, dedi. Oltin yishda o‘rnashing, dedi. Lashkarboshi Inol xoqon, Tardush shad borsin, dedi. ...Bugu xoqon menga shunday deb aytib yuboribdi. Bosh lashkarboshiga maxfiy gap yuboribdi: dono Tunyuquq hushyor, u o‘zi biladi...” [1] Ushbu parchalarda Bilga Tunyuquq, Inol xoqon, Tardush shad, Bugu xoqon nomlari tarkibidagi xoqon, shad, bilga so‘zlari o‘sha davrdagi turkiy xonliklarda mavjud bo‘lgan harbiy yoki hukmdorlik unvonlarini bildirib turibdi. “Kultegin” bitigidan ham misol ko‘rib o‘tamiz.

“...Kultiginga ziyoratgoh yarattirdim. Ichi-toshiga maxsus naqsh soldirdim. Tosh o‘rnattirdim.....Yozuv bitidim. Uni ko‘rib shunday deb biling: bu bitig bitilguvchining (ya’ni Kul tiginning) jiyani Yo‘llug‘ tiginidir”.[2] Kul tigin Eltarish xoqonning kichik o‘g‘li, Yo‘llug‘ tigin esa uning jiyanidir. Hukmdor oilasiga taalluqli shaxslar ismidan so‘ng *takin, tegin, tigin* kabi unvonlar qo‘shib aytilishi o‘sha davrda rasm bo‘lgan. ”Tigin” so‘zi “shahzoda” degan ma’noni bildirgan. Bitiktoshlar tilida malika nomiga *xotun* so‘zi qo‘shib ishlatilganiga guvoh bo‘lamiz. Turk xoqonligida malikalar nomiga *xotun, xvatun* kabi so‘zlar qo‘shib aytilishi tarixiy manbalarda ham qayd etilgan bo‘lib, bitiktoshlar ham aynan 6-7-asrlarni o‘zida aks ettiradi. Bunga

yana bir misol: “*Otam xoqon uchganda inim Kul tigin yeti yoshda qoldi, o‘n yoshda Umayday Onam xotun baxtiga inim Kul tigin er degan nom topdi*”.

II. Islom davri. Bu davrni o‘z ichida guruhlash mumkin.

a) VIII-XIII asrlar. O‘rta Osiyoda arablar bosqini yuz bergan davrda turkiy xalqlar, aynan bizning turkiy tilimizda shaxslar nomlanishi arab tili qoidalariga moslashtirildi. Islom dini keng tarqalgach arabiy nomlar ham ommalashdi. Diniy va Qur‘onga oid (*Muhammad, Ahmad, Abdulloh, Ibrohim, Muso, Ismoil*), “Abd” qo‘shimchali ismlar (*Abdulloh, Abdurahmon, Abdulaziz*), mashhur sahobalar va xalifalar ismlari (*Umar, Ali, Usmon, Husayn, Hasan, Zayd*) kishilar tomonidan tanlandi. Bu davrda turkiy yoki eroniy ismlar arabcha nomlar bilan qo‘shilib, yangi shaklni hosil qilgan: *Muhammad To‘g‘rul, Ahmadxon, Ismoilbek, Rustam ibn Ibrohim*. Bundan tashqari, kunyalar va laqablar ham keng tarqalgan edi. Kunya – bu “abu” yoki “umm” bilan boshlanuvchi nomlar: *Abu Ja‘far, Abu Muslim, Abu Xafs* kabi. Laqablar esa shaxsning tug‘ilgan joyini yoki yashaydigan hududini bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalangan: *Al-Farg‘oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy*. Shu o‘rinda arabiy ota ismlarni ham aytib o‘tish joiz. Arabcha an‘anaga ko‘ra, ismlar “ibn” (o‘g‘li) yoki “bint” (qizi) qo‘shimchalari bilan ifodalangan: *Muhammad ibn Ismoil – Ismoilning o‘g‘li Muhammad, Ahmad ibn Fadlon – Fadlonning o‘g‘li Ahmad, Zaynab bint Abdulloh – Abdullohning qizi Zaynab*. O‘rta Osiyo xalqlari bu usulni qabul qildi va mahalliy ismlarga tatbiq etdi: *Rustam ibn Ibrohim, To‘g‘ru ibn Hasan, Ahmad ibn Ali*. Ba‘zan nasab uch avlodgacha davom etgan: *Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarhan (Farobiy)*. Shaxslarni farzandlari nomi bilan chaqirish ham urfga kirgan edi. Bu kunya deb atalgan: *Abu Muslim (Muslimning otasi), Abu Bakr (Bakrning otasi), Ummu Gulsum (Gulsumning onasi)* kabi. Kunyalar hurmat yoki faxrlanish maqsadida qo‘llangan. Kishining qayerdan ekanligini yoki qaysi qabila, kasb yoki e‘tiqodga mansubligini ifodalash uchun nisba ishlatilgan: *al-Buxoriy, at-Termiziy, as-Samarqandiy*.

Ba‘zan kasb yoki e‘tiqodni bildiruvchi nisbalar ham ishlatilgan: *an-Naqqosh* (hunar egalari), *al-Hanafiy* (Hanafiy mazhabiga mansub) kabi. Bu davrda ko‘plab olimlar va hukmdorlar maxsus faxriy laqablar orqali ham nomlangan: *al-Farg‘oniy, Sulton Muhammad G‘aznaviy, Imom al-Buxoriy*.

Turkiy tilda yozilgan ilk qomusiy asar hisoblanuvchi Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarida ham bir qancha shaxs nomlari mavjud bo‘lib, ular, asosan, ismlar, laqablarni ifodalaydi.

Mahmud Koshg‘ariyning to‘liq ismi *Abu-l-Qosim Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Koshg‘ariy* bo‘lib, uning ismi Mahmud, nisbasi esa Koshg‘arda tug‘ilgani uchun Koshg‘ariydir. Bundan ko‘rinadiki, XI asr davomida ham turkiylarda arabcha nomlanish tizimi amal qilgan. Bu asar Abbosiylar xalifasi Al-

Muqtadiyga bag‘ishlangan. Asardagi antroponimlar asosan afsonaviy qahramon nomlari hisoblanadi, ammo real shaxs nomlari ham uchraydi.

“Turumtay – yirtqich qushlardan birining nomi. Odam ham *Turumtay* deb ataladi. Shunday laqab beriladi (Turumtoy nomli qulimni olib qochdi)”. Bu parchadan biz qushlar nomining shaxs nomi sifatida tanlanganiga guvoh bo‘lamiz.

“Burslan – erkak nomlaridan. Burslon so‘ziga arslonning ergashma so‘zi deb qarash ham mumkin”. Bu gapda *Burslan* ismining arslon so‘zidan kelib chiqqaniga ishora bor, ya‘ni hayvonlar nomi asosida ism qo‘yish o‘sha davrda ham mavjud bo‘lgan. Bulardan tashqari asarda *Beklan, Buluch, Ko‘mush tegin, Otamish, Rum, Salim, Suli, Tabdu, Chava, Quluch, Qumuq, Chuchu* kabi nomlar ham aytib o‘tilgan [3].

“Sovalik, so‘ng damashqlik ulug‘ tangrining yo‘qsil *quli Muhammad binni Abu Bakr ibni Abulfathni*, xudo uni kechirsin, bu kitobni Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan ko‘chirib yozish ishini 664-yil, shaval oyining 27-sida, yakshanba kuni tamomladi”. Bu yerda asarni ko‘chirgan xattot nomi keltirilmoqda, bunda uning ismi, otasining va bobosining ismlari arabiy qolip asosida joylashgan.

Turkiy tildagi ilk doston muallifi Yusuf Xos Hojib ham XI asrda yashab ijod qilgan edi. U o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarini yozib, Qoraxoniylar davlati hukmdori *Tavg‘ach Bug‘roxon (Tamg‘ach Uluq Qutbiddin Hasan)*ga bag‘ishlagan edi. Buning evaziga xoqon unga Xos Hojib (hukmdorning eng yaqin maslahatchisi) unvonini beradi. Muallifning to‘liq ismi *Yusuf ibn Ali Xos Hojib*dir. Bu yerda Yusuf uning ismi, Ali otasining ismi, Xos Hojib esa unvonidir. “Qutadg‘u bilig” asarida ham bir qancha antroponimik birliklar mavjud, lekin ular ramziy obrazlar hisoblanadi [4].

b) XIV-XVI asrlar. XVI asrgacha bo‘lgan davrda mavjud tarixiy shaxslar, davlat va din arboblari haqidagi to‘liq ma‘lumotlarni Alisher Navoiy va Bobur asarlaridan topishimiz mumkin. Navoiyning tarixiy, tasavvufiy, tazkira va bag‘ishlov asarlarida ko‘plab shaxs nomlari qatnashgan. Jumladan, “Majolis un-nafois” asarida 7 ta majlis bo‘lib, ularning har biri alohida guruhga oid kishilar haqidadir. Ushbu asarda ko‘plab shaxs nomlari uchraydi. Masalan, *Mavlono Abu Tohir, Mavlono Malik, Pahlavon Muhammad Go‘shdigir, Xoja Abdulloh Sadr, Mir Ibrohim, Sulton Boyqaro Mirzo, Kichik Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Shoh G‘arib Mirzo* kabilar [5]. Bulardan ko‘rishimiz mumkinki, ism bilan birgalikda kishilarning nasliy kelib chiqishi, kasb-kori va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini bildiruvchi so‘zlar qo‘llangan. Ya‘ni hukmdor oilasiga mansub kishilar nomiga *amir, bek, sulton, mirzo, mir*, din vakillari avlodlariga *shayx, xoja, sayyid*, ijodkorlarga taxalluslar (*Furqatiy, Malik* kabi), turli kasb egalariga esa *go‘shdigir, kotib, hofiz* kabi izohlovchilar qo‘shib aytilgan.

“Boburnoma” asari ham bu davrda yashagan real shaxslarning nomlanishi haqida bizga aniq ma’lumotlar bera oladi. Masalan, *Jahongir Mirzo, Sulton Ali Mirzo, Fotima Sulton, Qutlug’ Nigorxonim, Xonzodabegim, Ulus og’a* nomlarida hukmdor oilasiga mansub kishilar ismiga *sulton, xoqon* yoki *mirzo* soʻzlari, ayollar nomiga esa *sulton, begim, xonim, og’a, og’acha* kabilar qoʻshib aytilganini koʻrish mumkin. Bundan tashqari, harbiylar va amaldorlarga turli xil unvon, lavozim nomlari qoʻshilgan, masalan, *Ali Darvishbek, Ali Mazid qavchin, Muhammad Boqirbek, Shayx Abdullo eshikog’a, Mirim Log’ariy, Gadoyi tag’oyi, Poyanda Muhammad qoplon, Abul-Hasan qo’rchi, Mu’min atka, Muhammad baxshi, Abdul-Aziz miroxur, Mir Xurd bakovul*; kasb va yashash hududiga oid nisbali shaxs nomlari ham uchraydi: *Qul Muhammad Udiy, Shayxiy Noyi, Shohquliy g’ijjakiy, Husayn Udiy, G’ulom Shodiy*; diniy ulamolar nomlari *qozi, xoja, sayyid* kabi soʻzlar bilan birga qoʻllangan [6].

d) XVII-XIX asrlar. Bu davrda ijod qilgan ijodkorlar nomlarida ham familiya uchramaydi. *Sayido Nasafiy* (Nasaf shahridan boʻlgan), *Muhammad Aminxo’ja Muqimiy* (Muqimiy – adabiy taxallusi), *Avaz O’tar* (otasining ismini taxallus qilib tanlagan), *Jahon Otin Uvaysiy* (Uvaysiy taxallusi), *Hamza Hakimzoda Niyoziy* (Hamza – ismi, Hakimzoda – tabibning oʻgʻli ma’nosida otasim, Niyoziy esa adabiy taxallusi), *Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lpon* (Abdulhamid – ismi, Sulaymon oʻgʻli – otasim, Cho’lpon – taxallus) kabilar bunga misol boʻla oladi. Hukmdor nomlari tarkibida esa an’anaviy tarzda *amir, xon* soʻzlari yoki oʻzidan oldingi hukmdor nomiga II yoki III raqamlarini qoʻshib izdoshi ekanligini ifodalagan: *Xudoyorxon, Amir Muzaffar, Amir Nasrullo, Muhammad Rahimxon II, Ubaydullaxon II, Ubaydullaxon III* kabi.

III. Sho’ro davri. XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi xonliklarga qarshi yurish boshladi. Familiya tushunchasi Markaziy Osiyoga aynan mana shu davrda kirib keldi. XIX asr oxirlariga kelib dastlab ziyolilar va mahalliy boylar rus familiyalarini qabul qildi. Asosan, jadidlar bu ishda faol qatnashgan: *Fayzulla Xo’jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev* kabi.

Ammo uning keng ommalashishi Sovet davriga, ayniqsa XX asrning 30-yillariga toʻgʻri keldi. Buning sababi shundaki, bu davrda pasportlashtirish tizimi va aholini majburiy roʻyxatga olish amalga oshirildi. Ya’ni davlat boshqaruvi uchun har bir fuqaro aniq identifikatsiya qilinishi va nasliy jihatdan ajratilishi kerak edi. Shuning uchun xuddi shu davrdan boshlab aholining katta qismi (99%) ruscha shaklga oʻtgan. Asosiy indikator: -ov/-ev/-yev va -ova/-eva/-yeva qoʻshimchalari. *Islom Karimov, Abdulla Oripov, O’tkir Hoshimov, Halima Hudoyberdiyeva* kabi antroponimlarni misol keltirish mumkin. Ba’zida farzandlar otaning familiyasiga ham oʻtkazilgan. Masalan, *Fayziyev Shodmon* – otasi, *Fayziyev Bobir Shodmonovich, Fayziyeva Umida Shodmonovna* shakllari ham uchragan. Shuningdek, ijodkorlar familiyalarini

qisqartirib, taxallus sifatida foydalanishgan: *Muhammad Yusuf, Usmon Nosir, Isajon Sulton, Shavkat Rahmon* kabi.

IV. Istiqlol davri. Mustaqillikka erishganimizdan boshlab hozirgi kungacha o‘zbek tilida familiyalar turli xil shakllarda ifodalanmoqda. Bunda qonunan aynan bir shakl majburiy qilib qo‘yilmagan. Rus tilidan o‘zlashgan -ov/-ova, -yev/-yeva indikatorlari orqali yasalgan shakllar ko‘plab uchraydi. Masalan, *Yo‘ldosheva Malika, Sobirov Alisher* va hokazo. Yoki forsiy shakl hisoblangan -iy qo‘shimchasi bilan ham familiya hosil qilish mumkin: *Ahmadiy Sevara Abdug‘ani qizi, Anvariyy Sevinch Said qizi* kabi. Asosan, tug‘ilgan farzandga bobosining ismi familiya sifatida beriladi. Ammo yaqin yillardan beri bolaning otasi ham o‘z ismiga ushbu qo‘shimchalarni qo‘shib familiya sifatida rasmiylashtirmoqda. Jumladan, *Eldorova Feruza Eldor qizi, Bahriddinov Yusuf Bahriddin o‘g‘li* kabi. Bundan tashqari, bugungi kunda hech qanday qo‘shimchalarsiz ota yoki bobo ismini familiya qilib berish holatlari ham uchramoqda. Bunga misol qilib, *Seredich Sagdiana Seredich qizi, Baxtiyor Sofiya Hayotjon qizi* kabi nomlarni aytishimiz mumkin. Ushbu shakllar ko‘plab dunyo tillarida mavjud umumiy nom – familiya tushunchasining o‘zbek tiliga ham qayta kirib kelayotganiga dalil deyishimiz mumkin. Shuningdek, hozirda yozuvchi, shoir yoki xonandalar familiya o‘rniga turlicha taxalluslardan ham foydalanishadi. Masalan, *Zebo Mirzo, Shariyor Shavkat, Behzod Fazliddin, Suhrob Ziyoy, Suvon Meli, Eshqobil Shukur* yoki *Farrux Fazel, Mahliyo Omon*.

Natijalar va muhokama. Kishilar nomlanishining davriy modellarini quyidagi jadvalda keltirib o‘tamiz:

I.	Islomgacha bo‘lgan davr	Ism+xoqon/tigin/bilga/shad (erkaklar) Ism+xotun/xvatun/onam (ayollar)
II.	Islom davri. (VIII-XIII asrlar)	Ism+ibn/binti/binni (nasab) Al/at/as+ism+joy nomi+iy/viy (laqab/taxallus) Abu/ummu+ism (kunya) Ism+iy/al, an+kasb/mazhab (nisba)
	XIV-XVI asrlar	Ism+laqab/unvon/mansab/taxallus (erkaklar) Ism+begim/xonim/sulton/og‘a (ayollar)
	XVII-XIX asrlar	Ism+taxallus Ism+nisba Ism+begim/otin (ayollar) Ism+otaism+taxallus
III.	Sho‘ro davri	Ism+-ov/-ova+ism+ism+-ovich/-yevich Ism+-ova/-yeva+ism+ism+-ovna/-yevna Ism+taxallus

IV. Istiqlol davri	Ism+-ov/-ova +ism+otaism Ism+-yev/-yeva +ism+otaism Ism+iy +ism+otaism Ism+zoda +ism+otaism Ism+ism+otaism
--------------------	--

Xulosa. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tilimizdagi antroponimlar guruhining katta qismini tashkil etuvchi familiyalarning kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, ijtimoiy hayot bilan bog'liqligini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tiliga va mentalitetiga xos nisba modellarini ishlab chiqish zamonaviy onomastikaning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildli, 13-j., – T., 1997.
2. M. Koshg'ariy. Devoni lug'otit-turk. – T.: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1963.
3. Urxun bitiglari.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-ijodiy uyi matbaa, 2000.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.
6. www.ziyouz.com. sayti.

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ANTROPONIMLARNING QIYOSIY TAHLILI

Menglibekov Mayrambay Turganbayevich, magistrant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

ORCID: 0009-0007-3846-6876
 UO'K 811.512.133 :811.512.122

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlar qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning shakllanishi, rivojlanishi va qo'llanish xususiyatlari tahlil qilindi. O'zbek va qoraqalpoq tillari antroponimlari umumturkiy ildizga ega bo'lib, tarkibida tabiat va diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan bog'liq o'xshash ismlar ko'p uchraydi. Biroq lisoniy va nolisoniy omillar tufayli ularning variativlik darajasi va funksional qo'llanishida muayyan farqlar mavjud. Qoraqalpoq tilida kishi nomlari o'ta dinamik va variativ xarakterga ega. Jonli so'zlashuv hamda dialektal muhit ta'sirida ismlarning fonetik variantlari, qisqartma va erkalash shakllari rasmiy hujjatlarda ham mustaqil antroponim sifatida erkin qo'llanadi. O'zbek tilida esa antroponimlar uzoq asrlik yozma an'analar sababli nisbatan barqaror, standartlashgan va qat'iy tizimlashgan holda ishlatiladi. Ismlar talaffuzidan qat'i nazar, adabiy til va imlo qoidaloriga muvofiq, muayyan modellar asosida barqaror shaklda rasmiylashtiriladi.

Kalit soʻzlar: antroponim, onomastika, oʻzbek tili, qoraqalpoq tili, ism, semantika, qiyosiy tahlil.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Менглибеков Майрамбай Турганбаевич, магистрант
Ташкентский государственный университет узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои

Аннотация. В статье проводится сравнительное исследование антропонимов в узбекском и каракалпакском языках, анализируются их формирование, развитие и применение. Антропонимы узбекского и каракалпакского языков имеют общий тюркское происхождение, и в их составе много похожих имен, связанных с природой и религиозно-мистическими понятиями. Однако из-за лингвистических и нелингвистических факторов существуют определенные различия в степени их изменчивости и функциональном использовании. Личные имена в каракалпакском языке чрезвычайно динамичны и изменчивы. Под влиянием живой речи и диалектной среды фонетические варианты имен, сокращения и ласковые формы свободно используются как самостоятельные антропонимы даже в официальных документах. В узбекском языке антропонимы используются относительно стабильно, стандартизированно и строго систематизированно благодаря многовековым письменным традициям. Независимо от произношения, имена формализуются в стабильной форме на основе определенных моделей, в соответствии с правилами литературного языка и орфографии.

Ключевые слова: антропоним, ономастика, узбекский язык, каракалпакский язык, имя, семантика, сравнительный анализ.

STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF ANTHROPONYMS IN UZBEK AND KARAKALPAK LANGUAGES

Menglibekov Mayrambay Turganbayevich, master's student
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

Abstract. This article provides a comparative study of anthroponyms in the Uzbek and Karakalpak languages, analyzing their formation, development, and use. Anthroponyms in the Uzbek and Karakalpak languages share a common Turkic origin and contain many similar names associated with nature and religious and mystical concepts. However, due to linguistic and non-linguistic factors, there are certain differences in the degree of their variability and functional use. Personal names in the Karakalpak language are extremely dynamic and changeable. Influenced by everyday speech and the dialectal environment, phonetic variants of names, abbreviations, and

affectionate forms are freely used as independent anthroponyms, even in official documents. In the Uzbek language, anthroponyms are used relatively consistently, standardized, and strictly systematized thanks to centuries-old written traditions. Regardless of pronunciation, names are formalized in a stable form based on certain patterns, in accordance with the rules of the literary language and orthography.

Keywords: anthroponym, onomastics, Uzbek language, Karakalpak language, name, semantics, comparative analysis.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda onomastika, xususan, antroponimiya alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllangan boʻlib, u inson nomlari tizimini oʻrganishga qaratilgan. Antroponimlar nafaqat til birliklari, balki xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini mujassam etuvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Antroponimlarni oʻrganish orqali tilning rivojlanish bosqichlari, xalqning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Oʻzbek tilshunosligida antroponimlar qadimiy davrlardan boshlab shakllangan boʻlib, ular tarixiy yodgorliklar, ayniqsa XV asr adabiy manbalarida keng aks etgan. N.A. Husanov oʻz tadqiqotida antroponimlarni inson nomlari, taxalluslar, laqablar, nisba va unvonlarni oʻz ichiga olgan murakkab tizim sifatida talqin qiladi hamda ularning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi. Shu bilan birga, olim antroponimlar xalqning maʼnaviy hayoti va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim birliklar ekanligini alohida taʼkidlaydi [1].

E. Begmatov ham oʻz tadqiqotlarida hozirgi oʻzbek antroponimlarini tizimli ravishda oʻrganib, ularning morfologik va semantik xususiyatlarini ilmiy asosda izohlaydi. Uning fikricha, antroponimlar tilning leksik tizimining muhim qismi boʻlib, ular orqali jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va madaniy qadriyatlari namoyon boʻladi. Bundan kelib chiqadiki, antroponimlar oddiy nomlash vositasi emas, balki murakkab semantik va funksional birlikdir [2].

Rus tilshunosligida ham antroponimlar muhim ilmiy eʼtibor markazida boʻlgan. D.I. Alekseyev antroponimlarni oddiy qisqartirish emas, balki yangi leksik birlik hosil qiluvchi soʻz yasash jarayoni sifatida talqin qiladi [3, 13-37]. Shuningdek, A.A. Reformatskiy antroponimlarni yuqori darajadagi axborot siqilishiga ega boʻlgan lingvistik belgi sifatida baholab, ularning kommunikativ samaradorligini taʼkidlaydi. Demak, bu yondashuvlar antroponimlarni semantik jihatdan boy va funksional birlik sifatida koʻrsatadi [4].

Asosiy qism. Qoraqalpoq tilida ham antroponimlar tizimi chuqur tarixiy ildizlarga ega. O.T.Sayimbetov va hammualliflar tomonidan tuzilgan lugʻatda qoraqalpoq adabiyoti klassik asarlaridagi antroponimlar tizimli ravishda jamlangan boʻlib, ular ism, familiya, otasining ismi, laqab va unvonlarni qamrab oladi. Bu esa qoraqalpoq tilida antroponimlarning keng funksional va semantik imkoniyatlarga ega ekanligini koʻrsatadi [5].

Umumturkiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘zbek va qoraqalpoq antroponimlari bir xil ildizga ega bo‘lib, ularning shakllanishi umumiy tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq. Shu sababli, har ikki til antroponimlarini qiyosiy o‘rganish ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi, til tizimidagi strukturaviy va semantik o‘ziga xosliklarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlarni qiyosiy jihatdan tahlil qilish ularning leksik-semantik, strukturaviy hamda funksional xususiyatlarini aniqlashga hamda har ikki tilning onomastik tizimini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlarni qiyosiy o‘rganish uchun bir nechta lingvistik metodlardan kompleks tarzda foydalanish mumkin. Avvalo, tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida qiyosiy-tarixiy yondashuv tanlandi, chunki har ikki til umumturkiy ildizga ega bo‘lib, ularning antroponimik tizimi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan. Shu sababli, antroponimlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va semantik o‘zgarishlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tavsifiy metod orqali o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlarning strukturaviy tuzilishi, semantik mazmuni hamda qo‘llanish xususiyatlari batafsil izohlandi, o‘zbek tilidagi antroponimlar tarixiy va adabiy manbalarda uchraydigan ism, taxallus, laqab, nisba va unvonlar asosida o‘rganildi. Qoraqalpoq tilidagi antroponimlar klassik adabiyot materiallari asosida tuzilgan lug‘at orqali tahlil qilindi, unda inson nomlariga oid barcha asosiy birliklar tizimli ravishda jamlangan.

Leksik-semantik tahlil metodi yordamida antroponimlarning ma’no qatlamlari aniqlanib, ular diniy, ijtimoiy, etnik hamda estetik guruhlariga ajratildi. Bu jarayonda har bir ismning ichki semantik mazmuni, uning motivatsiyasi va ma’no yuklamasi alohida e’tiborga olindi.

Strukturaviy tahlil metodi orqali antroponimlarning tuzilishiga e’tibor qaratildi. Xususan, oddiy va qo‘shma antroponimlar ajratilib, ularning tarkibiy qismlari tahlil qilindi. Ayniqsa, ism + unvon, ism + nisba kabi model birliklar alohida ko‘rib chiqildi, turkiy tillarga xos bo‘lgan qo‘shimchalar orqali shakllanish xususiyatlari ham hisobga olindi.

Funksional-uslubiy tahlil yordamida antroponimlarning badiiy matndagi roli, ularning ifodaviylik darajasi va estetik vazifalari o‘rganildi. Natijada, antroponimlar faqat nomlash vositasi emas, balki matnning badiiy va kommunikativ ta’sirini kuchaytiruvchi muhim birlik ekanligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning o‘zaro uyg‘unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, o‘zbek va qoraqalpoq antroponimlarini har tomonlama va chuqur qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ushbu lingvistik birliklarning strukturaviy, semantik hamda funksional jihatlari bo‘yicha muhim ilmiy xulosalarga kelindi, chunki tahlil jarayonida tarixiy va adabiy manbalardan olingan boy materiallar asos qilib olindi. Har ikki tilda antroponimlar oddiy va qo‘shma shakllarda uchrashi aniqlandi, ya’ni ular bir komponentli yoki bir necha komponentli tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, qoraqalpoq tilida *Aymurza, Aydos, Aysanem, Rasbergen, Batirbay* kabi oddiy ismlar keng qo‘llanilib, ular ko‘pincha qadimiy turkiy ildizga ega ekanligi bilan ajralib turadi, shu bilan birga o‘zbek tilida *Bobur, Ulug‘bek, Husayn, Abdulla* kabi ismlar tarixiy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq holda ishlatiladi. Demak, oddiy antroponimlar har ikki til tizimida barqaror birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Qo‘shma antroponimlar ham muhim o‘rin egallashi kuzatildi, chunki ular ikki yoki undan ortiq komponentlar asosida shakllanadi va ko‘pincha murakkab semantik mazmunga ega bo‘ladi. Xususan, qoraqalpoq tilida *Abdulla, Allamurat, Allayar, Abilgazi* kabi ismlar diniy komponentlar asosida shakllangan, shu bilan birga o‘zbek tilida *Abdulla, Xudoyberdi, Tangriberdi* kabi antroponimlar ham keng qo‘llanadi. Shunday qilib, qo‘shma antroponimlarning shakllanishida diniy va madaniy omillar muhim rol o‘ynashi aniqlanadi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari qoraqalpoq tilida antroponimlarning yuqori darajada variativ ekanligini ko‘rsatdi, ya’ni bir xil ism turli shaxslar uchun qo‘llanishi mumkin. Masalan, Quralbay ismi bir nechta variantlarda – Quralbay I, Quralbay II, Quralbay III, Quralbay IV shaklida uchraydi, bu esa ushbu ismning turli davr va kontekstlarda faol ishlatilganligini bildiradi. Aksincha, o‘zbek tilida antroponimlar nisbatan barqaror bo‘lib, bir ismning ko‘p variantda qo‘llanishi kamroq kuzatiladi, natijada tizim ancha standartlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Antroponimlarning semantik jihatdan tahlili ularning bir necha asosiy guruhlariga ajralishini ko‘rsatdi, ya’ni diniy, ijtimoiy, qahramonlik va estetik ma’nolarni ifodalovchi birliklar mavjud. Xususan, *Abdulla, Allamurat, Allayar* kabi ismlar diniy semantikaga ega bo‘lsa, *Alpamis* kabi antroponim epik qahramonlik timsolini ifodalaydi. Shu bilan birga, *Bek, Xon, Ataliq* kabi birliklar ijtimoiy maqomni bildiradi, o‘zbek tilida esa *Mirzo, Bek, Xon* kabi komponentlar shaxsning jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Demak, antroponimlar faqat nomlash vositasi emas, balki muayyan semantik va ijtimoiy yuklamaga ega birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Funksional jihatdan ham muhim natijalar aniqlandi, chunki antroponimlar bir nechta vazifalarni bajaradi. Birinchidan, ular identifikatsiya funksiyasini bajarib, shaxsni boshqalardan ajratadi, masalan *Mirzabek* yoki *Marjan* kabi ismlar konkret shaxsni ifodalaydi. Ikkinchidan, ular badiiy-estetik funksiyani bajarib, matnda obrazlilikni kuchaytiradi, masalan *Alpamis* nomi qahramonlik va jasorat timsoli sifatida ishlatiladi. Uchinchidan, ular tarixiy-faktografik funksiyani bajarib, muayyan

tarixiy shaxslarni ifodalaydi, masalan Allaqulxan kabi nomlar tarixiy voqealar bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

Natijada, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlar umumiy turkiy asosga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish xususiyatlari va tizimlashuvi turlicha rivojlangan. Xususan, qoraqalpoq tilida antroponimlar ko‘proq variativ va dinamik xarakterga ega bo‘lib, turli kontekstlarda faol ishlatiladi, shu bilan birga o‘zbek tilida ular nisbatan barqaror va normativ tizimga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Demak, ushbu farqlar har ikki tilning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy muhitiga bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlar umumiy turkiy ildizga ega bo‘lishiga qaramay, ularning shakllanishi va qo‘llanishi turli tarixiy hamda ijtimoiy omillar ta‘sirida o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlangan. Avvalo, har ikki til antroponimik tizimida strukturaviy o‘xshashliklar mavjud bo‘lib, ular oddiy va qo‘shma shakllarda ifodalanadi, biroq ularning qo‘llanish chastotasi va funksional yuklamasi bir xil emas. Xususan, qoraqalpoq tilida qo‘shma va ko‘p komponentli antroponimlar kengroq tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha diniy yoki ijtimoiy komponentlar asosida shakllanadi, shu bilan birga o‘zbek tilida bunday birliklar nisbatan normativ va barqaror shaklda qo‘llanadi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida antroponimlarning variativlik darajasi muhim farqlovchi omil sifatida namoyon bo‘ldi, chunki qoraqalpoq tilida bir xil ismning turli shaxslar va davrlarda qayta-qayta qo‘llanishi keng kuzatiladi. Masalan, Quralbay kabi ismlarning bir necha variantlarda ishlatilishi ushbu til tizimining dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, o‘zbek tilida antroponimlar ko‘proq standartlashgan bo‘lib, ular ma‘lum shaklda mustahkamlanadi va kamroq variativlikka ega bo‘ladi. Demak, bu holat qoraqalpoq tilida og‘zaki an‘analarning kuchliroq saqlanib qolganligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, semantik tahlil natijalari ham muhim xulosalarni beradi, ya‘ni har ikki tilda antroponimlar diniy, ijtimoiy, tarixiy va estetik ma‘nolarni ifodalovchi birliklar sifatida shakllangan. Ayniqsa, diniy komponentli ismlar keng tarqalgan bo‘lib, bu holat har ikki xalqning diniy e‘tiqodi va madaniy qadriyatlarini bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, epik va qahramonlik mazmunidagi antroponimlar, masalan Alpamis kabi nomlar milliy ong va folklor bilan uzviy bog‘langan holda ishlatiladi. Demak, antroponimlar nafaqat lingvistik birlik, balki madaniy kod sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Shuningdek, funksional jihatdan qaralganda, antroponimlar har ikki tilda bir nechta vazifalarni bajaradi, ya‘ni ular identifikatsiya, badiiy-estetik va tarixiy-faktografik funksiyalarni o‘zida mujassam etadi. Biroq ularning badiiy matndagi roli

qoraqalpoq adabiyotida yanada jonliroq va ko'proq ekspressiv xarakterga ega bo'lib, bu esa og'zaki ijod va epik an'analarning kuchli ta'siri bilan izohlanadi. O'zbek adabiyotida esa antroponimlar ko'proq uslubiy aniqlik va normativlikni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, muhokama natijasida antroponimlarning ijtimoiy funksiyasi ham alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi, chunki Bek, Xon, Ataliq kabi komponentlar yoki Mirzo, Bek kabi birliklar shaxsning jamiyatdagi maqomini ifodalaydi. Shu jihatdan, antroponimlar ijtimoiy tabaqalanish va tarixiy tizimlarni aks ettiruvchi lingvistik vosita sifatida qaraladi.

Natijada, muhokama shuni ko'rsatadiki, o'zbek va qoraqalpoq antroponimik tizimlari umumiy asosga ega bo'lsa-da, ularning rivojlanishida tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar hal qiluvchi rol o'ynagan. Xususan, qoraqalpoq tilida antroponimlar dinamik, variativ va kontekstga bog'liq holda rivojlangan bo'lsa, o'zbek tilida ular nisbatan barqaror, tizimlashgan va normativ xarakter kasb etgan. Demak, ushbu farqlar har ikki xalqning til tizimi va madaniy rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlar tizimi umumturkiy ildizga ega bo'lib, ular tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan murakkab lingvistik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda antroponimlar strukturaviy jihatdan o'xshash bo'lib, oddiy va qo'shma shakllarda uchraydi, shu bilan birga ularning semantik asosida diniy, ijtimoiy va madaniy mazmun ustunlik qiladi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari antroponimlarning qo'llanish xususiyatlarida muhim farqlar mavjudligini ham ko'rsatdi: qoraqalpoq tilida ular ko'proq variativ va dinamik xarakterga ega bo'lib, bir xil ism turli kontekstlarda keng qo'llanadi, o'zbek tilida esa antroponimlar nisbatan barqaror va normativ tizim asosida shakllanadi. Shu jihatdan, har ikki til antroponimik tizimi o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega ekanligi aniqlanadi.

Antroponimlarning semantik va funksional tahlili ularning faqat nomlash vositasi emasligini, balki muayyan madaniy, tarixiy va ijtimoiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etuvchi muhim lingvistik birlik ekanligini isbotladi. Ayniqsa, diniy komponentli ismlar, qahramonlikni ifodalovchi antroponimlar hamda ijtimoiy maqomni bildiruvchi birliklar xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi.

Antroponimlarning badiiy matndagi roli ham muhim ekanligi aniqlandi: ular obrazlilikni kuchaytirish, estetik ta'sirni oshirish va tarixiy voqelikni ifodalash kabi vazifalarni bajaradi. Antroponimlar til tizimining faqat nominativ qismi emas, balki kommunikativ va estetik funksiyaga ega bo'lgan muhim komponent hisoblanadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi antroponimlarni qiyosiy o'rganish ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga imkon beradi hamda har ikki tilning

onomastik tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi: kelgusida antroponimlarni zamonaviy til materiallari asosida o'rganish, ularning ijtimoiy va lingvokulturologik xususiyatlarini kengroq tahlil qilish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Adabiyotlar

1. Husanov N.A. O'zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Navruz, 2014. – 290 b.
2. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.
3. Алексеев Д.И. Аббревиатуры как новый тип слов // Развитие словообразования современного русского языка / под ред. Е.А. Земской, Д.Н. Шмелева. – М.: Наука, 1966. – С. 13–37.
4. Реформатский, А. А. Введение в языковедение: учебник для вузов / А. А. Реформатский; под редакцией В. А. Виноградов. – Москва: Аспект Пресс, 2017. – 536 с.
5. Sayimbetov O.T., Dospanov O., Sayimbetova N.O. Qoraqalpoq adabiyoti klassik shoirlari asarlari tilidagi antroponimlar lug'ati. – Nukus: Bilim, 2013. – 52 b.

QURBON MUHAMMADRIZONING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANIDAGI AYRIM ANTROPONIMLAR TAHLILI

Yusupova Farangiz Jamoladdin qizi, talaba

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

UO'K 811.512.133'373.23:821.512.133-31

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qurbon Muhammadrizoning “Abu Rayhon Beruniy” romanida qo'llangan ayrim antroponimlar lingvistik va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan tarixiy, diniy va milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs nomlarining kelib chiqishi, ma'nosi hamda badiiy vazifasi yoritiladi. Shuningdek, antroponimlarning qahramonlar xarakterini shakllantirish, ularning individual xususiyatlarini ochib berish va asarning tarixiy muhitini yaratishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Tadqiqot davomida roman tarkibidagi antroponimlarning semantik xususiyatlari, funksional imkoniyatlari hamda badiiy matndagi ahamiyati o'rganiladi. Antroponimlarning tarixiy haqiqatni aks ettirish, milliy qadriyatlarni ifodalash va muallif g'oyasini ochib berishdagi roli tahlil qilinadi. Natijada ularning asar tarixiylikini ta'minlash, obrazlarning badiiy mukammalligini kuchaytirish hamda muallifning badiiy-estetik maqsadini ifodalashdagi muhim o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimika, onomastika, tarixiy roman, Abu Rayhon Beruniy, Qurbon Muhammadrizo, shaxs nomlari.

АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ АНТРОПОНИМОВ В РОМАНЕ “АБУ РЕЙХАН БЕРУНИ” КУРБОНА МУХАММАДРИЗЫ

Юсупова Фарангиз Жамоладдин кизи, студент

Ургенчский государственный университет

имени Абу Рейхан Беруни

Аннотация. В данной статье анализируются некоторые антропонимы, использованные в романе Курбана Мухаммадризы “Абу Рейхан Беруни”, с лингвистической и семантической точек зрения. Выделены происхождение, значение и художественная функция личных имен с историческими, религиозными и национально-культурными характеристиками, встречающимися в произведении. Показана также роль антропонимов в формировании характеров героев, раскрытии их индивидуальных особенностей и создании исторической атмосферы произведения. В ходе исследования изучены семантические свойства, функциональные возможности и значение антропонимов в романе. Анализируется роль антропонимов в отражении исторической реальности, выражении национальных ценностей и раскрытии авторской идеи. В результате определена их важная роль в обеспечении историчности произведения, повышении художественного совершенства образов и выражении авторской художественно-эстетической цели.

Ключевые слова: антропоним, антропонимика, ономастика, исторический роман, Абу Рейхан Беруни, Курбан Мухаммадризо, личные имена.

ANALYSIS OF SOME ANTHROPONYMS IN THE NOVEL “ABU RAYKHAN BERUNI” BY QURBON MUHAMMADRIZA

Yusupova Farangiz Jamoladdin Kizi, student
Abu Reyhan Beruni Urgench State University

Abstract. This article analyzes some anthroponyms used in the novel “Abu Rayhon Beruniy” by Kurban Muhammadridza from a linguistic and semantic perspective. The origin, meaning and artistic function of personal names with historical, religious and national-cultural characteristics found in the work are highlighted. The role of anthroponyms in shaping the characters of the heroes, revealing their individual characteristics and creating the historical atmosphere of the work is also shown. During the research, the semantic properties, functional capabilities and significance of anthroponyms in the novel are studied. The role of anthroponyms in reflecting historical reality, expressing national values and revealing the author's idea is analyzed. As a result, their important role in ensuring the historicity of the work, enhancing the artistic perfection of the images and expressing the author's artistic and aesthetic purpose is determined.

Keywords: anthroponym, anthroponymy, onomastics, historical novel, Abu Rayhon Beruni, Kurban Muhammadridza, personal names.

Kirish. Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Har bir xalq tilida uning tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi va ma’naviy merosini aks ettiruvchi til birliklari mavjud. Shunday birliklardan biri antroponimlardir. Antroponim yunoncha *anthropos* – inson va *onyma* – nom so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, kishilarga berilgan atoqli otlarni anglatadi [1, 38]. Ular ism, familiya, ota ismi, taxallus, laqab va boshqa nomlash vositalarini qamrab oladi.

Bugungi kunda tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan onomastika hamda uning tarkibiy qismi hisoblangan antroponimika alohida ahamiyat

kasb etmoqda. O‘zbek tilshunosligida antroponimlarni ilmiy o‘rganish XX asrning 60-yillaridan boshlab izchil rivojlandi. Bu borada E.Begmatovning xizmatlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Olim o‘zbek antroponimiyasining shakllanishi, taraqqiyoti, semantik xususiyatlari va milliy-madaniy jihatlarini chuqur tadqiq etgan. Natijada o‘zbek antroponimikasining nazariy asoslari yaratildi va keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy zamin shakllandi [1, 44].

Asosiy qism. O‘zbek tilshunosligida onomastika va antroponimika masalalari nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. A.V.Superanskaya onomastik birliklarni xalqning tarixiy-madaniy tajribasini o‘zida mujassamlashtiruvchi lisoniy vositalar sifatida baholaydi va atoqli otlarning semantik hamda ijtimoiy funksiyalariga alohida e‘tibor qaratadi [3, 64]. N.Mahmudov va D.Xudoyberganova esa o‘zbek onomastikasiga doir tadqiqotlarida atoqli otlarning milliy tafakkur, qadriyat va madaniy kodlarni ifodalashdagi o‘rnini ta’kidlaydilar [4, 47].

Tarixiy-badiiy asarlarda qo‘llangan antroponimlar muallifning tarixiy haqiqatga munosabati hamda badiiy-estetik maqsadini ifodalovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan Qurbon Muhammadrizoning “Abu Rayhon Beruniy” romanidagi antroponimlar boshqa tarixiy romanlarda qo‘llangan tarixiy shaxs nomlari bilan umumiy va farqli jihatlariga ega. Masalan, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek, Abdurazzoq Samarqandiy, Ali Qushchi kabi tarixiy antroponimlar ilm-fan va ma’rifat g‘oyalarini ifodalashga xizmat qilsa, Qurbon Muhammadrizoning “Abu Rayhon Beruniy” romanida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq, Ibn Sino kabi antroponimlar Sharq uyg‘onish davrining ilmiy muhitini yoritadi. Har ikki asarda ham tarixiy shaxs nomlari voqealarning ishonchligini ta’minlash bilan birga, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Zahiriddin Muhammad Bobur, Qutlug‘ Nigorxonim, Humoyun singari antroponimlar temuriylar davri tarixini yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa, “Abu Rayhon Beruniy” romanidagi Sulton Mahmud G‘aznaviy, Ma’mun ibn Abbos kabi tarixiy nomlar Xorazm va G‘aznaviylar davlati bilan bog‘liq siyosiy jarayonlarni aks ettiradi. Demak, tarixiy romanlarda antroponimlar nafaqat nominativ birlik, balki davr ruhini, siyosiy muhitni va milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, romanda uchraydigan Chandola, Omol, Krishna kabi hind madaniyatiga oid nomlarning qo‘llanishi asar antroponimik qatlamining ko‘p madaniy xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu jihat mazkur romanni boshqa tarixiy-biografik asarlardan ajratib turuvchi muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Badiiy asarlarda qoʻllangan antroponimlar ham tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday nomlar muallifning estetik maqsadini, qahramon xarakterini, davr ruhini hamda milliy qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli badiiy matndagi antroponimlarni oʻrganish lingvistik, tarixiy, madaniy va adabiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama. “Abu Rayhon Beruniy” romani tarixiy-biografik asar sifatida oʻzbek adabiyotida muhim oʻrin tutadi. Asarda qoʻllangan antroponimlar roman tarixiylikini taʼminlash va qahramonlar xarakterini ochib berishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Roman tarixiy asar boʻlgani sababli undagi antroponimlarning asosiy qismini real tarixiy shaxslar nomlari tashkil etadi.

Sulton Mahmud Gʻaznaviy – romandagi muhim tarixiy antroponimlardan biri hisoblanadi. “Mahmud” ismi arabcha boʻlib, “maqtalgan”, “hamdga sazovor” maʼnolarini anglatadi. “Gʻaznaviy” esa nisba boʻlib, uning Gʻazna shahri bilan bogʻliqligini bildiradi. Asarda ushbu nom davlat boshqaruvi va siyosiy voqealarni yoritishda muhim oʻrin tutadi.

Abu Rayhon Beruniy – asarning bosh qahramoni nomidir. “Abu Rayhon” kunya shakli boʻlib, “Rayhonning otasi” maʼnosini bildiradi. “Beruniy” esa nisba boʻlib, “shahar tashqarisida yashovchi” degan maʼnoni anglatadi. Asarda bu antroponim ilm-maʼrifat, zakovat va tafakkur timsoli sifatida gavdalanadi.

Chandola – asarda hind millatiga mansub ayol obrazi nomi sifatida uchraydi. Mazkur antroponim hind madaniy muhitiga xos boʻlib, turli xalqlar va madaniyatlar oʻrtasidagi aloqalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Abu Nasr ibn Iroq Beruniyning ustozlaridan biri sifatida tilga olinadi. “Abu Nasr” kunya, “ibn Iroq” esa nasab nomidir. Arab tilidagi “ibn” soʻzi “oʻgʻli” maʼnosini bildiradi. Ushbu antroponim asarda ilmiy anʼana va ustoz-shogird munosabatlarining ifodasi sifatida namoyon boʻladi.

Omina – Muhammad (s.a.v.)ning onalari nomidir. Arabcha kelib chiqishga ega boʻlgan ushbu ism “ishonchli”, “omonatdor”, “xotirjam” maʼnolarini anglatadi. Asarda u ona timsoli va maʼnaviy qadriyatlar ifodasi sifatida keltirilgan.

Omol Chandolaning oʻgʻli sifatida uchraydigan antroponimdir. Bu nom hind xalqlari orasida keng tarqalgan boʻlib, asarda hind madaniy muhitining aks etishiga xizmat qiladi.

Krishna Hind mifologiyasidagi mashhur iloh nomidir. Garchi u teonim hisoblansa-da, asarda antroponimik birlik sifatida ham qoʻllangan. Krishna nomi hind xalqining diniy qarashlari va madaniy anʼanalarini yoritishga xizmat qiladi.

Halima Paygʻambarimizning emizgan onalari nomidir. Ism arabcha boʻlib, “muloyim”, “sabrli”, “yumshoq tabiatli” maʼnolarini bildiradi. Asarda diniy-tarixiy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida qoʻllangan.

Ma'mun ibn Abbas Xorazmshohlar sulolasining vakillaridan biri bo'lgan tarixiy shaxs nomidir. "Ma'mun" ismi "ishonchli", "omonlikdagi kishi" ma'nolarini anglatadi. Asarda Xorazm davlatining siyosiy hayoti bilan bog'liq voqealarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino Sharqning buyuk qomusiy olimi nomidir. To'liq ismi Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino bo'lib, ilm-fan tarixida Ibn Sino nomi bilan mashhur. Asarda bu antroponim ilmiy tafakkur, tabobat va falsafaning timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Masihiy Ibn Sinoning ustozlaridan biri sifatida tilga olinadi. Bu nisba xarakteridagi nom bo'lib, "xristian diniga mansub" degan ma'noni anglatadi. Tarixiy manbalarda Abu Sahl Masihiy nomi bilan mashhur bo'lgan olim Sharq ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan.

Romanda uchraydigan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq, Ma'mun ibn Abbas, Ibn Sino kabi nomlar o'zbek va umuman turkiy-musulmon xalqlari tarixida muhim o'rin tutgan tarixiy antroponimlar sirasiga kiradi. Ushbu antroponimlarning o'ziga xos jihati shundaki, ular ko'pincha ism, kunya, nasab va nisba kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniy nomida "Abu Rayhon" kunya, "Beruniy" esa nisba vazifasini bajarsa, Abu Nasr ibn Iroq nomida "ibn" komponenti nasab ma'nosini ifodalaydi. Bunday murakkab antroponimik shakllar Sharq xalqlari nomlash an'alarining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Qurbon Muhammadrizoning "Abu Rayhon Beruniy" romanida qo'llangan antroponimlar asarning tarixiy va badiiy qimmatini oshiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Asarda uchraydigan tarixiy, diniy va milliy-madaniy xarakterdagi shaxs nomlari roman voqealarining tarixiylik ruhini kuchaytirish bilan birga, qahramonlarning ijtimoiy mavqeyi, ma'naviy qiyofasi va dunyoqarashini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, antroponimlar orqali muallif turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni ham badiiy ifodalagan. Shu jihatdan mazkur roman antroponimik birliklarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qurbon Muhammadrizoning "Abu Rayhon Beruniy" romanidagi antroponimlar nominativ vazifa bilan cheklanib qolmay, tarixiylik, milliy-madaniy xotira, diniy-ma'naviy qadriyatlar va muallifning badiiy konsepsiyasini ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur roman antroponimlarning tarixiy-badiiy matndagi funksional-semantik xususiyatlarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

O'zbek tarixiy antroponimlari nafaqat shaxsni nomlash vositasi, balki uning kelib chiqishi, ijtimoiy mavqei, yashash hududi, ilmiy faoliyati yoki sulolaviy mansubligi haqida ham ma'lumot beradi. Shu jihatdan ular xalqning tarixiy xotirasi

va milliy-madaniy merosini aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklar sanaladi. Qurbon Muhammadrizoning “Abu Rayhon Beruniy” romanida ushbu tarixiy antroponimlarning qo‘llanishi asarning tarixiylik darajasini kuchaytirib, o‘quvchida o‘rta asr Sharq ilmiy va madaniy muhiti haqida yanada to‘liq tasavvur hosil qiladi.

Adabiyotlar

1. Begmatov, E. A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili onomastikasi masalalari. – Toshkent: Akademiya nashri, 2017. – 224 b.
3. Mirzayev T. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 320 b.
4. Pirmuqol Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 512 b.
5. Qurbon Muhammadrizo. Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2019. – 376 b.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2016. – 23 b.
7. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 366 с.

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK**

**JAHON ADABIYOTI VA JADIDLAR BADIY MEROSIDA
INTERTEKSTUALLIK**

G‘aniyev Ilhom Muzaffarovich, professor
filologiya fanlari doktori
Xalqaro Yassaviy mukofoti laureati
ganievilkhom@mail.ru
UO‘K 821.512.133.09:82.091

Annotatsiya. Mazkur ilmiy-tahliliy maqola badiiy matnlaro uzviy bog‘liqlikni va adabiy davomiylikni ta‘minlovchi asosiy omil sanalgan intertekstuallik hodisasining tahliliga bag‘ishlangan. Ishda bu hodisaning jadid adabiyoti namoyandalari ijodi misolida namoyon bo‘lishi tadqiq etiladi. Maqolada Fitratning asosiy dramatik asari “Abulfayzxon” hamda Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari global adabiy jarayonning ayrim durdonalari (“Makbet”, “Parma ibodatxonasi”) bilan g‘oyaviy, falsafiy va uslubiy jihatdan qiyosan o‘rganiladi. Stendal va Qodiriy romanlardagi intertekstual xususiyatlardan yana biri zulmda chegara bilmagan totalitar rejim insonning hurlikka moyil isyonkor qalbi va sof muhabbati oldida ojiz ekani tasvirlangan. Tahlil natijalari jadid adabiyotining dunyo adabiyoti kontekstidagi o‘rni va uning universal g‘oyaviy mundarijasini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, drama, dramaturgiya, tragediya, madaniy xotira, adabiy aloqa, ramziylik, ko‘p qatlamlilik, madaniy kontekst, ijtimoiy-falsafiy g‘oya, qiyosiy tahlil, an‘ana va yangilanish, psixologizm, matnlaro bog‘liqlik.

**ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И В
ХУДОЖЕСТВЕННОМ НАСЛЕДИИ ДЖАДИДОВ**

Ганиев Илхом Музаффарович, профессор
доктор филологических наук
лауреат Международной премии Яссави

Аннотация. Данная научно-аналитическая статья посвящена анализу феномена интертекстуальности, который рассматривается как главный фактор, обеспечивающий преемственность и целостность литературных текстов. В работе исследуется проявление этого феномена в творчестве представителей джадидской литературы. В статье проводится сравнение главного драматического произведения Фитрата «Абулфайзхан» и романов Кодире «Дни минувшие» и «Скорпион с алтаря» с некоторыми шедеврами мирового литературного процесса («Макбет», «Храм Пармы») в идеологическом, философском и методологическом плане. Еще одной интертекстуальной особенностью романов Стендаля и

Кодири является тот факт, что тоталитарный режим, не знающий границ в угнетении, бессилен перед лицом мятежного сердца человека и чистой любви, склонной к свободе. Результаты анализа раскрывают место джадидской литературы в контексте мировой литературы и ее универсальное идеологическое содержание.

Ключевые слова: интертекстуальность, драма, драматургия, трагедия, культурная память, литературная связь, символизм, многослойность, культурный контекст, социально-философская идея, сравнительный анализ, традиция и обновление, психологизм, межтекстовая связь.

INTERTEXTUALITY IN WORLD LITERATURE AND THE ARTISTIC HERITAGE OF THE JADIDS

Ilkhom Muzaffarovich Ganiev, professor
Doctor of Philology
Laureate of the International Yassavi Prize

Abstract. This research article examines the phenomenon of intertextuality, which is considered the primary factor ensuring the continuity and integrity of literary texts. The paper examines the manifestation of this phenomenon in the works of Jadid literary figures. The article compares Fitrat's major dramatic work, "Abulfayz Khan," and Qodiriy's novels, "Days Gone By" and "Scorpion of the Altar," with some masterpieces of world literature (such as "Macbeth" and "The Temple of Parma") in ideological, philosophical, and methodological terms. Another intertextual feature of the novels by Stendhal and Qodiriy is the fact that a totalitarian regime, boundless in its oppression, is powerless in the face of the rebellious human heart and pure love, inclined toward freedom. The results of the analysis reveal the place of Jadid literature in the context of world literature and its universal ideological content.

Keywords: intertextuality, drama, dramaturgy, tragedy, cultural memory, literary connection, symbolism, multilayeredness, cultural context, socio-philosophical idea, comparative analysis, tradition and renewal, psychologism, intertextual relationship.

Kirish. Badiiy ijod namunalarining matnlararo uzviy bog‘liqligini va aynan matniy harakatini ifodalovchi intertekstuallik hodisasi turli yozma manbalar, asotirlar, ilohiy kitoblar hamda shu kabi boshqa xil madaniy meros ko‘rinishlaridan iqtiboslar keltirilishi, ularga bevosita yoki bilvosita ishoralar qilinishi bilan xarakterlanadi. Qayd etish lozimki, bu hol tegishli asar matnini chandon boyitib, uning mazmun-mohiyatini teranroq anglash uchun baland saviyadagi ilmiy salohiyatga ega bo‘lishni taqozo etadi. Umuman olganda, intertekstuallik muayyan kitobning qaysidir o‘rinlarida o‘zga ijod namunalariga, chunonchi, yozma badiiy asarlarga, tarixiy voqealarga, turli mif, afsona va rivoyatlarga murojaat bo‘lganida matnlar o‘rtasida vujudga keladigan uzviy hamda tizimli bog‘liqlikdir.

Masalaga atroflicha diqqat kirishsak, turli rakurslardagi o‘ziga xos qarama-qarshi jihatlar uyg‘unligini ta‘minlash zarurati san’at asari va matnlar orasidagi

intertekstual voqelikka kompleks (murakkab) yondashuvni taqozo etishini sezamiz. Tabiiyki, bunda intellektual va ijtimoiy zarurat, bir qobiqqa, turg'un pozitsiya hamda mahdudona qarashlarga bog'lanib qolmaslik mas'uliyati, xususan, ushbu kichik tadqiqotimizda ko'zda tutilganidek, etalon maqomidagi jadid ma'rifatparvarlarimiz merosini tor mental doirada emas, balki dunyo adabiyoti kontekstida o'rganish ehtiyoji doimiy kun tartibida turibdi.

Jahon adabiyotshunosligidagi umumiy konsensusga ko'ra, aynan so'z san'atida voqelanuvchi intertekstuallik madaniy xotira, mazmundorlik va adabiy aloqadorlik kabi muhim omillarning o'zaro sintezi sanaladi. Muayyan ijod namunasida dong'i chiqqan o'zga asar hamda ko'hna manbalarga ishoralar (alluziya, talmeh, parodiya va hokazo) bo'lishi, eski matn yangicha kontekst va ma'no kasb etib, turli davr hamda muhitlarning ijodkorlari ramziy ma'noda bir-birlari bilan "suhbatdosh" bo'lishlari mazkur adabiy-estetik hodisa uchun xarakterli jihatlardir. Biz ushbu ishimizda jadidchilik harakatining Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi namoyandalari qalamiga mansub sara asarlarda mavjud intertekstual xususiyatlarni dunyo so'z san'atining ayrim durdonalariga qiyosan yoritishga harakat qildik.

Asosiy qism. O'tgan asr boshlarida Turkiston xalqlari ozodligi va taraqqiyoti bayroqdorlari sifatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hamda adabiy hayotimizda maydonga chiqqan jadid ijodkorlarining o'lmas asarlaridagi yangilanish tamoyillari, ilm-ma'rifatga, o'zlikni tanishga da'vat, asriy jaholatdan qutulish istagi tirik nafas, uyg'oq ruh o'laroq bugun ham ustuvor. Masalaga sof badiiy-estetik jihatdan yondashsak ham, gumanistik va axloqiy tomondan qarасak ham, aynan Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir va shu kabi boshqa qator munavvar shaxslarning fidokorona faoliyati bugungi serqirra, qizg'in adabiy jarayon uchun tamal toshini qo'yganini anglaymiz. Bu muhim omildan tashqari boshqa bir faktorga ham diqqat qaratsak: aynan jadid ijodkorlarimiz shoir, nosir (ilk romannavis), dastlabki dramaturg, tarjimon, publisist va munaqqid sifatida milliy an'anaviy muhitni jahon ilg'or adabiyoti bilan bevosita bog'lab, tamoman yangi bosqich hamda davrga olib kirganlar. Ayon haqiqat shuki, ular shu yo'sin o'z asarlari bilan so'z san'atimizni badiiy-falsafiy g'oya, voqelikka munosabat, poetik tasvir usullari, janriy kriteriyalar jihatidan hozirgacha barqaror global adabiy jarayonning tarkibiy qismiga aylantirdilar.

Hozirgina ta'kidlaganimiz ikki muhim omil, ayniqsa, jadid adabiyotining jahon ilg'or so'z san'ati sintezi o'laroq adabiyotimiz tarixi va ma'naviy hayotimizdagi beqiyos o'rni ko'plab masalalar qatori intertekstuallik kontekstida ham yaqqol seziladi. Xususan, ilk o'zbek tragediyanavisi Abdurauf Fitrat (1886-1938)ning ijtimoiy-falsafiy ruh, tragik pafos, azaliy va abadiy muammolar tadqiqi jihatidan buyuk Shekspir dramaturgiyasiga hamohang ijodi fikrimiz dalilidir.

Xo'sh, jadid dramaturgi tanlagan hayotiy materiallar, chunonchi, "Abulfayzxon" tragediyasiga syujet asosi bo'lgan qonli tarixiy voqealiklar, "Chin sevish"da tasvirlangan o'zga el hayoti manzaralari, "Shaytonning Tangriga isyoni"da gavdalangan ilohiy motiv va sharqona asotirlar, qisqacha aytganda, bunday intertekstual omillar zamirida qanday haqiqatlar yotibdi?! Ular aynan qanday badiiy va ijtimoiy maqsadlar yo'lida boshlang'ich matn yoki birlamchi manba vazifasini o'tagan?! Millat fidoyisining adabiy faoliyati bu boradagi aynan qanday kriteriy hamda ko'rinishlarga ko'ra "Hamlet", "Qirol Lir", "Makbet", "Romeo va Julyetta", "Otello" singari javohirlar muallifi sanalgan daho merosiga tutash?!

Shu o'rinda quyidagi aksiomani ta'kidlasak: istibdod va zulmga, ma'naviy va ta'limiy qoloqlikka qarshi kurash, ma'rifatparvarlik, islohotchilik, ilg'or yurtlar (asosan Yevropa) taraqqiyotining progressiv jihatlaridan mazlum Turkiston xalqlari hayotini o'nglashda foydalanish bilan bog'liq maslaklar jadidizm tamoyillarining yadrosini tashkil etadi. Fitrat butun adabiy, ilmiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, publisistik faoliyatida bo'lganidek dramaturgiyada ham mazkur tamoyillarga qat'iy ergashgan. Buning uchun esa u xuddi Shekspir kabi asosan tarixiy voqealarga, diniy va mifologik motivlarga tayangan holda o'zining yaxlit tizim ko'rinishidagi taraqqiyparvar, nekbin va universal g'oyalarini ilgari surgan. Boshqacha aytganda, jadid dramaturgi murakkab zamonasi-yu talato'pli jamiyati voqeligini to'g'ridan-to'g'ri yoki ochiqdan-ochiq aks ettirmay, o'z asarlari mavzu-mundarijasini, tafsilot va personajlarini moziy qatidan hamda g'ayb olamidan olgan. Tabiiyki, bu hol "Abulfayzxon", "Vose' qo'zg'oloni", "Arslon", "Shaytonning tangriga isyoni" singari dramatik ijod namunalarida ko'p qatlamli, murakkab uslubli va hatto kinoyaomuz ramziylikka zamin hozirlagan. O'z navbatida, Antik davrning ayrim mif va tarixiy asarlari, ayniqsa, O'rta asrlar Yevropasining turli hududlarida yuz bergan siyosiy-ijtimoiy qasirg'alar tafsilotlari, ular haqidagi qator xronikalardan yuksak darajada foydalanish salohiyati ingliz dramaturgiga jahoniy shuhrat keltirgani dunyo adabiyoti ixlosmandlariga yaxshi ma'lum. Bu o'rinda Plutarxning "Qiyosiy hayotnomalar", Sakson Grammatikning "Daniyaliklarning qahramonliklari", monmutlik Jefrining "Britaniya qirollari tarixi", "Holinshed yilnomalari" singari tarixiy asarlari angliyalik sohir qalam sohibiga bergan cheksiz ilhom haqida gap boryapti. Shekspirona hamda fitratona intertekstual yondashuv deya avvalo yuqorida eslatilgan jihatlarni baholash mumkin.

Dastlab "Makbet" hamda "Abulfayzxon" tragediyalari o'rtasidagi matnlararo mushtaraklik masalasiga to'xtalsak. Bu g'oyaviy-falsafiy yondashuv va qahramonlar psixologiyasini ochib berish usullarida yaqqol ko'rinadi. Har ikki drama "yovuzlik orqasida tiklangan hokimiyatning inqirozi tarixiy zaruratdir" qabilidagi dunyoqarash asosida yozilgan. Makbet ham, Abulfayzxon ham turli aldov, fitna, hiyla-nayrang va qirg'inlar bilan taxtni egallashgan. Shu sabab bu manfiy personajlar mudom shubha

va qoʻrquv ostida yashab, oʻz lashkarboshilari, saroy aʼyonlari, hatto yaqinlarining boshiga yetishadi. Eslatish joizki, Makbet shotland qiroli Dunkanni oʻldirib, bu qotillikni hukmdorning ikki eshikboniga toʻnkaydi. Oʻz qilmishini yashirish uchun ularning qoʻliga sovuq qurol tutqazib, ikkalasini ham burdalaydi. Shu tariqa bir qotillik ketidan galdagi qotilliklar yuz beraveradi. Soʻng Makbet Shotlandiya taxtini egallagach, oʻz qilmishlarini oʻylab, qoʻrquv va sarosimaga tushadi. Ich-ichini vahima, ishtiboh hamda gʻulgʻula yemirib, lashkarboshi Bankoni ham oʻldirtiradi. Ketma-ket qatllar bilan ham uning yuragi tinchimaydi. Ertami-kechmi jinoyatlariga yarasha jazo muqarrarligini oʻylab, “*Omonatdur boshimdagi toj*” deydi.

Taassufki, bunday dahshatli fojialar Fitratning ulugʻ safdoshi Qodiriy taʼbiricha, “tariximizning eng kirlik, qora kunlari” Buxoro xonligida ham yuz bergan. Britaniya va Turkistonning mudhish kechmishini oʻzaro qiyoslar ekanmiz, saroy ichida yuz bergan turli fitnalari, aldov, zoʻrluk, qirgʻinbarot alaloqibat oʻsha muhitni kunpayakun qilishiga takror va takror amin boʻlamiz. Xususan, xonlik taxtiga oʻtirgach, Abulfayzxon ham xuddi shotlandiyalik “hamtovogʻ”i kabi “Bu butun janjallarni oʻlim bitiradi” degan tutumga koʻra ish tutib, hunrezlikka mukkasidan ketadi. Oqibatda Buxoro oʻlkasi siyosiy-iqtisodiy inqirozga yuz tutib, Nodirshohga tobe yurtga aylanadi. Aysh-ishratga berilgan irodasiz, qatʼiyatsiz xon mamlakatni halokatdan qutqarishga qodir emas. U Farhod otaliq va Ibrohim inoqlarning haq soʻzlaridan, tanbehlaridan zarracha xulosa qilmay, “otasi asrab olgan oʻzining sodiq qullari” Ulfat hamda Davlatning qoʻlida qoʻgʻirchoqqa aylangan.

Tabiiyki, hokimiyat vasvasasida qon ustiga qon toʻkib, taʼqib ustiga taʼqibni kuchaytirib, elga haddan ortiq jabr-zulm qilgan bu ikki yovuzlik timsoli oʻz-oʻzidan shunday boʻlib qolishgani yoʻq: Shekspir Makbetning qotilga aylanish jarayonida ledi Makbetning yovuzlikka undovchi taʼsirini yoritgani holda Fitrat tragediyasida Abulfayzxon vujudidagi vijdonning soʻnggi sasini uning oʻng “qoʻl”i Ulfat oʻchiradi.

Ledi Makbet eriga uning “mardonavorligi”ni pesh qilsa, Ulfat Abulfayzxonni “xoqonimiz” deya koʻkka koʻtarib, qatagʻonga undayveradi: “*Podshohliq qon bilan sugʻorilaturgʻan bir ogʻochdir. Qon oqib turmagʻan yerda bu ogʻochning qurub qolishi aniqdir*” [7, 183].

Eʼtiborlisi, ikki salbiy personajning iztiroblari, vijdoniy azoblari ham bir-biriga yaqin tarzda tasvirlanadi. Makbet oʻz oʻrindigʻida Bankoning arvohini koʻrib, “*Qoning qotgan, iliging puch suyaklaringda, Menga kiprik qoqmay boqqan koʻzlaring – basir*” [9, 232] deya talvasaga tushadi. Fitrat tragediyasida esa bunga yovuq holat Abulfayzxonning tushida ifodalangan. Qonxoʻr mustabidning qurbonlari – akasi, Farhod otaliqning boshi, bir mazluma koʻrinib, uch sharpa unga hujum qiladi. Shunda xon jon holatda uygʻonib ketadi. U vijdon azobiga uchrab, ruhiy iztirobga gʻarq boʻladi. Gunohlarini eslab, “uff...” deya ogʻir tin olarkan, oʻz

qilmishlaridan eziladi. Xon vijdon oldida ayni shunday ma'naviy jazoga mahkum edi. Tarixan Abulfayzxonning qatlari oz emas, naq o'ttiz yetti yil (1711-1747-yillar mobaynida) davom etganini eslasak, muallif tarixiy haqiqatni ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantira olganini anglaymiz.

Umuman, Makbet "*Qasos va intiqom biz o'zimiz quygan zahar to'la kosani o'zimizga tutar*" deya o'z qotilliklari tufayli bir umr ruhiy azob tortishga mahkum ekanligini tan oladi. Abulfayzxon ham shunga monand "*Bunlar u dunyoda ham menga qarshi birlashganga o'xshaylar, meni tinch qo'ymaylar, chog'i*" deya o'z qilmishlariga iqror bo'ladi. Bu misolga ham bilvosita intertekstual yondashuv namunasi sifatida qarash mumkin.

Endi bo'lsa "*... butun insoniyat tomonidan toj kiygizilgan va na undan oldin, na undan keyin raqibi bo'lmagan dramatik shoirlar shohining nurli tojidagi eng porloq olmosdir*" [3, 12] deya buyuk munaqqid Vissarion Belinskiy tomonidan g'oyat yuksak baholangan tragediyaga diqqat qaratamiz.

Klavdiy Hamletning otasini – o'ziga tug'ishgan akasi bo'lmish qirolni o'ldirib, Daniya taxtini egallagan. Boz ustiga, qotil o'sha fojiadan ko'p o'tmay marhumning bevasi (ya'ni Hamletning onasi)ga uylanib olgan. Hamlet bu voqealar zamirida "allaqanday sir" borligini dargumon qiladi. Otasining arvohi unga bor haqiqatni, ya'ni otasi amakisi tomonidan o'ldirilganligini aytgach, shahzoda arvohinining so'zlariga ishonqiramay, avvaliga "Bu balki iblisdir" degan shubhaga boradi. Aktyorlardan otasining o'limi voqeasini ijro etishlarini so'rab, o'z amakisini – Daniyaning yangi qiroli Klavdiyini zimdan kuzatgach, ota arvohinining so'zlari rost ekanligiga qat'iy amin bo'ladi. Shunda bu mudhish haqiqatlardan dahshatga tushgan sofdil, pok vijdonli yigit "*Daniya – zindon*" deya nolavor hayqiradi...

Shu yo'sin Hamlet iztirob iskanjasida tentib yurarkan, uning ko'ziga bot-bot qotil amakisi Klavdiy ham, mamlakat taxti ham "go'sht to'rvasi" bo'lib ko'rinadi, Mulozim Marsel tili bilan aytganda, "*Daniya davlatida qandaydir chirish bor*".

Shu o'rinda pyesa tafsilotlarini to'xtatib, bevosita qiyosiy tahlilga o'tamiz: Hamletning arvoch bilan kechadigan muloqot-dialogi "Abulfayzxon"dagi Xayol va Rahim biy munozarasini eslataadi. Daniyalik qahramon arvochning haq so'zlarini eshitib, gumonlardan xalos bo'lgani holda Xayol Abulfayzxonning o'n besh yashar o'g'li Abdulmo'minni o'ldirib, taxtni egallagan Rahimbiyning basharasiga bor g'azab va nafratini to'kib soladi. Fojialardagi bu epizodlar har ikki ijodkorning chirkin feodal jamiyat hamda manfur hokimi mutlaqlarning kirdikorlariga qaratilgan aybnoma (protest)dir. Shu tariqa tragediyalarda istibdod mafkurasi, tutumi va shafqatsiz jinoyatlari bilan umuminsoniy, gumanistik qarashlar o'rtasidagi qarama-qarshilik san'atkorona ochib berilgan.

Qadimgi Daniya voqeligida sobiq qirol arvochining ogohnomasi ("*Endi Hamlet, quloq sol, gap tarqaldiki, Go'yo meni bog'chada uxlaganimda Ilon chaqib o'ldirgan.*")

Daniya ahli Bu soxta afsonaga aldanib ketdi. Endi bilgin, ey mening oliyzot o'g'lim, Ilon – otang qotili, – bugun bemalol – Uning tojin kiyibdir... Sen o'zingni otangga o'g'il deb bilsang, Daniya shohlarining yotoqxonasi O'ynashlarga bo'lmasin bir ishratxona" [8, 48] bir shaxsga qaratilgan. Turkiston tuprog'ida Xayol aytadigan achchiq va keskin haqiqat esa yanada fojeiy ijtimoiy voqea darajasiga ko'tarilib, umumbashariy mohiyat kasb etgan:

“Ey qora kuch, ey qurib ketgur taxt! Hech gunohi bo'lmagan bolalardan, tog' kabi yigitlardan milyonchalari sen uchun qurbon bo'lib ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilg'on minglarcha tangrining – eng buzuqboshi, eng shumi! Ey, qop-qora saodat sensan. Ostingda qolg'onlarni ezgusi bir falokat yuki bo'lg'oning kabi, ustingga chiqqonlarning borliqlarini yondirguvchi bir olov tepasidirsan!”

Katta ehtimol bilan Fitrat teran falsafiy-ijtimoiy mazmun yuklagan Xayol timsolini yaratishda “Hamlet”dagi Arvoh obrazidan ta'sirlangan. Albatta, Yevropa Uyg'onish davri hamda Turkiston jadid dramaturgiyasi darg'alari ijodidagi shu singari egiz va intertekstual xususiyatlarga bejiz to'xtalganimiz yo'q. Zamirida intertekstuallik omili yotgan yangi davr, yangi ijtimoiy kontekst Shekspir hamda Fitrat asarlaridagi dardli so'roqlarga javob, azaliy muammolarga yechim izlaydi. Dramaning adabiy matn o'laroq qudrati shundaki, u yillar davomida qayta-qayta o'qilib, har bir jamiyat tafakkurida, har bir shaxs shuurida yangicha ma'no-mazmun kasb etadi. Shu yo'sin insoniyatning fojeiy ko'rguliklari badiiyat ko'zgasida gavdalanadi. Tabiiyki, Shekspir darajasidagi daholarni to'la anglash ular davridan mutlaqo farqli yangi madaniy, ijtimoiy va intellektual kontekstni taqozo qiladi. Intertekstual omil ayni shu chog'da yaqqol namoyon bo'ladi. Modomiki, bir necha asrlik eski matnni har safar yangi o'quvchi o'qib, o'z bilimi, tajribasi va madaniy saviyasi asosida anglar ekan, asar zamiridagi yashirin jihatlar kashf bo'laveradi.

Endi esa dramaturgiya dunyosidan ikki romanchilik maktabiga o'tamiz. Matnlar o'rtasidagi uzviylik omili buyuk adiblar – fransuz Stendal (Mari-Anri Beyl) hamda vatandoshimiz Abdulla Qodiriy ijodini ham o'zaro tutashtirgan. Ularning asosiy asarlari yaratilgan davriy oraliq bir asrga yaqin (XIX asrning dastlabki yarmi va XX asrning ilk choragi). Jo'g'rofiy makonlari esa bir-biridan sezilarli darajada olisda – Shimoliy Italiya hamda Turkiston. Shunga qaramay, ikkala romannavisning ijod javharida o'zaro mushtarak holda inson qadri (qadrsizligi), erki (erksizligi) motivlarini, sira adog'i yo'q ijtimoiy fojialarni ko'rish, tuyish, anglash mumkin. Shu muhim qirra umumiylik – matnlar orasidagi g'oyaviy, falsafiy va uslubiy muloqotni yuzaga keltirgan. Xususan, Stendalning “Parma ibodatxonasi” (1839) va Qodiriyning “O'tkan kunlar” (1926) romanlarini bog'lovchi intertekstual rishta avvalo mustabid hokimiyatga xos zulm mashinasi hamda uning g'oyat tuban fitna mexanizmini ochib bergani bois hamohangdir.

Stendal gersoginya Sanseverina tilidan mo'jaz Parma davlati saroyidagi fitna-fujurni qimorbozlar o'yiniga o'xshatadi: *“Saroy juda bema'ni, lekin alomat joy... U yer xuddi qiziq qarta o'yiniga o'xshaydi. Lekin bu o'yinning ham o'z qonun-qoidalari bor”* [6, 99].

Ha, bunda asosiy qoida haqiqat va vijdon emas, balki fitna san'ati!

O'zbek romanchiligining to'ng'ich namunasida esa bu azaliy baloning sharqona ko'rinishi Yusufbek hojining o'g'li Otabekka aytgan xitobida ifoda topgan: *“Siyosat to'g'rilarida o'ylanibroq so'zla! Arzimagan sabablar bilan talaf (nobud) bo'lgan jonlarni hamisha ko'z oldingda tut!”* [11, 59-60]

Har ikki romanda fitnakorlik manbai bir: hasad va shuhratparastlik. Stendal aytganidek, *“Hasadning esa, ko'p jihatdan, xuddi muhabbat kabi ko'zi ko'r bo'ladi”*. Ayni shu so'qir hasad illati Fabritsioni o'z akasi Askanio politsiyaga chaqib berishga, *“O'tkan kunlar”* va *“Mehrobdan chayon”*da esa Homid hamda mulla Abdurahmonlarni, shuningdek, qipchoq elatiga tish qayragan irqchi yirtqichlarni fitnaga boshlaydi. Shu o'rinda yaqqol sezilayotgan intertekstuallik bizga ochib berayotgan shafqatsiz haqiqat shuki, mentaliteti, yashash tarzi, e'tiqodi, dunyoqarashi batamom o'zgacha bo'lgan ikki jamiyat, ikki mamlakat hamda ikki tuzumda ham tubanlikning mohiyati o'zgarmas ekan!

Kezi kelganda, hokimiyat va vijdon masalasi ham graf Moska va Yusufbek hoji, ma'lum darajada, Sultonlining iztiroblari shamoyilida kun tartibiga chiqadi. Fitna muhitida yashab, *“umumiy qozonda qaynashsa-da”*, o'z diyonat va vijdonlarini saqlab qolishga tirishgan bu ongli kishilar qismatidagi o'xshashlik intertekstual tahlil jarayonida ko'zga tashlanadi.

Hokimiyat iyerarxiyasida muayyan kuch, mavqe hamda ta'sirga ega ekaniga qaramay, parmalik graf *“Bu quvnoqlikdan deyarli mustabid hokimiyat va qahrg'azab hidi kelmaydimi axir?”* deya iztirob chekadi. Shunda biz, kitobxon rolidagi kishilar ham xuddi u kabi battol va munofiq tuzumning qahhor hamda aldamchi uqubatini his qilamiz.

O'z navbatida, Moskaning o'zbek qismatdoshi Yusufbek hoji bunday hol haqida quyidagicha haqqoniy xulosaga keladi: *“Bizning xalqning holiga yig'lashni ham bilmaysan, kulishni ham!.. Fuqaroning yana qanday ko'rguliklari bor ekan, o'g'lim!”* [11, 59]

Tom ma'noda ota maqomidagi har ikki personaj o'z zamonalarining siyosiy, ijtimoiy va axloqiy tanazzulini allaqachon anglab yetishgan. Italyan grafi *“Bizning saroyimizdagi axloqsizliklar oldida bunisi hech gap emas. Mustabid hokimiyatning shunisi qulayki, u xalqlarning ko'z oldida istagan narsani tabarruk qilib beradi”* degan achchiq haqiqatlariga javoban hazrat Qodiriy XIX asr voqeligida azim Turkiston madrasalari va mehroblarini qamrab olgan axloqsiz kimsalar hamda *“chayon”*larning badkirdorligidan yozg'irgandek go'yo!

Qolaversa, fitna, riyo, jaholat va umuman, jamiki axloqsizlik e'tiqod vositasida niqoblangani haqqoniy va realistik yo'sinda ochib berilgan "Mehrobdan chayon" romanida hukmdor Xudoyorxon hukmi ostida "birinchi istinodgoh bo'lg'an ulamolar"ning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayotidagi ifloggarchiliklari ro'yi-rost ko'rsatilgan. Stendal ta'biri bilan aytganda, razolatni "tabarruk qilib berish"ning mashriqzamin o'tmishidagi mudhish in'ikosi ham ayni shu!

Stendal va Qodiriy ijodidagi intertekstual rishta syujetdagi ayrim kichik unsur va detallarda ham ko'rinadi. Ayniqsa, maktub detali bu borada salmoqli ahamiyatga ega. Parma shahrining qo'rqqoq va olchoq diktatori – shahzoda Ernesto IV o'zi yoqtirmaydigan graf Moskaga sitam yetkazish uchun fitna xatini yozadi. Bunga juda o'xshash voqea "O'tkan kunlar" romanida ham yuz beradi: badnafs, hasadgo'y, palid Homid g'araz va fitna orqasida Otabek nomidan Kumushga soxta xat yo'llaydi. Ikkala holatda ham badkirdorlar maqsadi bir xil: o'z dushmani qalbini jarohatlash hamda shaxsiy tuban manfaat yo'lida hech narsadan, chunonchi fitna va pravokatsiyadan ham tap-tortmaslik.

Faqat bundagi tavofut shundaki, graf Moska fitna xatini o'qiboq shahzodaning yozish uslubini tanib, og'ir-bosiqliqi, mulohazakor va omilkorligi bois undan ma'nau yuqori ekanini isbotlaydi. Qodiriy qahramonlari esa jahl va ruhiy zarba tufayli ehtirosga berilib, o'sha xat soxta ekanini anglashmaydi. Bu hol fojiga olib keladi – Kumushga uylanayotgan bir bechora yigit behudaga o'lib ketadi. Ustiga-ustak, Otabek epchillik qilmaganida, sohibjamol yorining nomusi toptalgan bo'lardi.

Maktub faktoridan kelib chiquvchi asosiy xulosa shuki, mustabid hokimiyatning fitna quroli o'laroq G'arbda ham, Sharqda ham aynan yolg'on ovoza, chalg'ituvchi so'z, provokatsion da'vatlar ko'plarning boshiga yetgan, yangi-yangi g'avg'olarni boshlagan. Bunga bashariyatning to bugunga qadar necha ming yillik kechmishi guvoh!

Masalaning yana bir o'ziga xos qirrasini shuki, farang va o'zbek ijodkorlari personajlarning ma'naviy tanazzulini, ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari shuuridagi ruhiy bo'shliqni mohirona tasvirlaganlar. Deylik, Stendal dahosi navqiron Fabritsioning haqqoniy mushohadalari orqali aslzodalarning badbin muhitiga ko'zgu tutadi: *"Kiborlar jamiyatida esa biz buning aksini ko'ramiz, – deya o'ylardi Fabritsio, – unda hozir hamma nazokatli qilib gapirishni biladi, biroq odamlarning dili bo'm-bo'sh"*. Ommaviy tus olgan bunday ruhiy xastalik xuddi malika Klara-Paolina baxtiqaro bo'lgani kabi saroy ahli shaxsiy baxtga erisha olmasligining bosh sababidir.

E'tiborlisi, Qodiriy romanlarida huvillagan qalblar fojiasi yanada mudhish manzara kasb etgan: "Mehrobdan chayon"dagi Xudoyorxon, mulla Abdurahmon,

Shahodat munshiy kabi personajlar qismati ana shunday ruhiy bo'shliq va axloqiy yemirilishning yaqqol ko'rinishidir. Chunonchi, sohibjamol Ra'noga va o'z orzusidagi amalga erisha olmay, mirzo Anvarga qasdlashgan hasad bandasi yoshligida Buxoroda *“boshiga kokil kiyib, o'n olti yashar qiz suratiga kirishi”* va keyinchalik Qo'qon hukmdorining bosh munshiyiga aylanishi *“qalbi bo'm-bo'sh”* kimsadan yuqori martabadagi bir zahar-zaqqum chayonga evrilish jarayonidan iborat.

Stendal va Qodiriy romanlardagi intertekstual xususiyatlardan yana biri zulmda chegara bilmagan totalitar rejim insonning hurlikka moyil isyonkor qalbi va sof muhabbati oldida ojiz ekanini tasvirlashda ko'rinadi. Buyuk farang romannavisi shahzodaning taassufini shunday bayon etadi: *“Ha, qadrdon do'stim, bir narsani tan olmog'imiz kerak: Bizga nazokatli muhabbat baxsh etadigan ninhona baxt oldida nafsi qondirilgan shuhratparastlik gashti va hatto cheklanmagan hokimiyat ham hech gap bo'lmay qolar ekan”*.

Bu monarx o'z hududi miqyosida yetarlicha qudratga ega bo'lsa-da, gersoginya Sanseverinaning sevgisini qozona olmaydi. Bunday an'anaviy intriga “Mehrobdan chayon”da haddi a'losiga chiqqan: Xudoyorxonning Ra'noga bo'lgan nisbatan hayvoniy ehtirosi qizning Anvarga nisbatan samimiy, beg'ubor muhabbati qarshisida dosh berolmaydi (Shu o'rinda romanning “Jasur qiz”, “Xayr endi, Ra'no!” kabi boblarini eslash joiz). Asar muqaddimasida *“mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi – romanning mavzu'idir”* [106 2] deya ta'kidlangani holda Ra'no sevgilisi Anvar va uning do'st-birodarlari ko'rsatgan jasorat bois tom ma'noda ajdaho domidan qochib qutuladi.

Xulosa. “Parma ibodatxonasi” va ikki o'zbek romanini shu yo'sin matnlaro uzviylikda o'zaro chog'ishtirar ekanmiz, Stendal va Qodiriyning betakror asarlari bir-biriga “ko'zgu” tutgandek tuyiladi nazarimizda.

Adabiyotlar

1. Allen, Graham. Intertextuality (The New Critical Idiom). – London, New York: Routledge, 2000. – 208 p.
2. Genette, Gerard. Palimpsests: Literature in the Second Degree (Ch. Newman, A. Nettelbeck, Tarj.). Lincoln, Nebraska: University of Nebraska Press, 1997. – 450 p.
3. Белинский В. Гамлет, драма Шекспира. Мочалов в роли Гамлета // Полное собрание сочинений. В 13 т. / Ред. Ф. М. Головенченко. – Москва: Издательство АН СССР, 1953. – Т.2. – С.12-15.
4. Белинский В. Танланган асарлар: рус тилидан таржима. – Т.: Ўздавнашр, 1955. – Б.220.
5. Гулямова Д. Драматургия Шекспира на узбекском языке: Автореф. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 24 С.
6. Стендаль. Парма ибодатхонаси. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

7. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 256.
8. Шекспир В. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 640.
9. Шекспир В. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 4-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 520.
10. Қодирий Абдулла. Мехробдан чаён. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 244.
11. Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. – Т.: Info Capital Group, 2017. – Б. 488.
12. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 400.
13. Ғаниев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 145.

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI INGLIZCHA TARJIMASIDA MAQOL VA MATALLARNI TARJIMA QILISH MASALALARI

Xamidova Sayyoraxon Xayrillo qizi, magistrant

Osiyo texnologiyalar universiteti

seyyare.khamidova0391@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2327-0410

UO‘K: 81`25

Annotatsiya. Bugungi kunda o‘zbek adabiyoti durdonalarini g‘arb tillariga o‘girish bilan birga tarjimalarni tanqidiy o‘rganish bo‘yicha ham jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ikki xil til oilasiga mansub urf-odati, milliy an‘analari bir-biriga uzoq o‘zbek va ingliz tillari orasida amalga oshirilgan tarjimalar haqida gap borganda vaziyat birmuncha farqli ekanligi ko‘zga tashlanadi. Chunki bu ikki til orasida tarjima qilishning afzalliklari bilan bir qatorda o‘ziga yarasha murakkabliklari ham bor, ko‘pchilik leksik-frazeologik birliklar kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etadi va buni e’tirof etish kerak. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi maqol va matallarning inglizcha tarjimada berilishi masalasi atoqli o‘zbek yozuvchisi Oybekning “Navoiy” romani inglizcha tarjimasi misolida ko‘rib chiqildi. Roman tarjimonining yutuqlari ta’kidlangan, yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar xususida fikrlar berilgan. Chiqarilgan xulosalar taniqli tarjimashunos olimlarning bu boradagi nazariy fikrlari bilan tasdiqlashga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: roman, badiiy tarjima, frazeologizm, maqol, obrazli ko‘chma ma’no, so‘zma-so‘z tarjima, ekvivalent.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ РОМАНА ОЙБЕКА «НАВАИ»

Хамидова Сайёрахон Хайрилло кизи, магистрант

Азиатский университет технологий

Аннотация. Сегодня вместе с переводом образцов узбекской литературы на иностранные языки проводятся и тщательное изучение переводных произведения с критической точки зрения. Когда речь идёт о переводах, сделанных между узбекским и английским языками принадлежащими двум языковым семьям, на которых говорят народы, у кого разная культура, разные обычаи и традиции, ситуация часто меняется. Следует также признать, что перевод между этими двумя языками имеет не только свои преимущества, но и своего рода сложности, большинство лексико - фразеологических единиц имеют различия по своему происхождению. В данной статье рассматриваются вопросы придания узбекских пословиц в переводе с узбекского на английский на примере романа выдающегося узбекского писателя Айбека «Навои». В анализе подчёркивается мастерство переводчика, указывается недостатки и упущение в процессе перевода этого произведения. Выводы, сделанные в ходе данного исследования, подтверждены теоретическими взглядами выдающихся учёных.

Ключевые слова: роман, художественный перевод, фразеологизм, пословица, метафорическое значение, перевод по словам, эквивалент.

PROBLEMS OF TRANSLATING PROVERBS AND SAYINGS IN THE ENGLISH TRANSLATION OF OYBEK'S NOVEL “NAVOI”

Khamidova Sayyorakhon Khairillo kizi, master's student
Asian Technologies University

Abstract. Today, along with the translation of samples of Uzbek literature into foreign languages, a through study of the translated works is carried out from a critical point of view. When it comes to translations made between Uzbek and English languages that belong to the different language family, spoken by people with a various culture, customs and traditions, the situation often changes. It should also be noted that the translation between these two languages has its advantages and difficulties. Most of lexical and phraseological units have differences in their origin. In this article, the issue of translating Uzbek proverbs from Uzbek to English are examined using the novel “Navoi” by the prominent Uzbek writer Aybek as an example. During review of several proverbs in Uzbek, which were used by author, there is emphasized translation's skill, are given objective thoughts to some defects and omissions, which were done in the process of translation. The conclusion made in the course of this study are confirmed by the theoretical views of prominent scientists on this topic.

Key words: novel, literary translation, phraseologism, proverb, metaphorical meaning, word-for-word translation, equivalence.

Kirish. Tarjima – asliyatga olib boruvchi yo‘ldir [4, 3]. Shubhasiz, mohirona va ustamonlik bilan amalga oshirilgan har bir tarjima kitobxonni asliyatga yanada yaqinlashtiradi. Asliyat asar tiliga xos xususiyatlar, ma’no va mazmun tarjima asarda to‘liq o‘z aksini topsa, asarning chet tilidagi egizagi, aksi paydo bo‘ladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi, ayniqsa, o‘zbek tilidan

g'arb tillariga qilingan tarjimada jarayon yanada qiyinlashadi. Butunlay boshqa til oilasiga mansubligi, tarixi, madaniyati, urf-odatlar va yashash tarzining mutlaqo begonaligi o'zbek tilidan g'arb tillariga, xususan, ingliz tiliga qilinadigan tarjima jarayonini murakkablashtiradi va tarjimondan ikki hissa ko'p mehnat talab etadi. Tarjimon har ikki tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlarini qay darajada mukammal bilishi tarjimaning sifatini belgilaydi.

Asosiy qism. Madaniyatning ajralmas qismi, tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, asrlar osha hayotda sinalib, sayqallanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, xalqning muayyan voqea-hodisa haqidagi xulosasi, adolatli hukmi mujassam bo'lgan maqollar bebaho ma'naviy boylik sifatida insoniyat tarixining barcha davrlari uchun mutlaq haqiqat, donolikning eng oliy nuqtasi hisoblanadi [2, 9]. Ilmiy tadqiqotimizning asosiy manbasi hisoblangan Oybekning "Navoiy" romanida bir qancha maqol va matallarni uchratish mumkin. Ulardan ayrimlari ingliz tiliga gap bilan tarjima qilingan bo'lsa, ba'zi o'rinlarda mutarjim tomonidan maqolning muqobili bilan o'girilganligining guvohi bo'ldik.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan bo'lgan maqollar ham lingvopoetik vosita sanaladi. Maqol (arabcha "qavlun" so'z) – fikr aniq, lo'nda, tugal, mantiqan izchil, xulosa tarzida bayon qilingan janrdir. Maqollar va matallar xalqning tarixiy, og'zaki va yozma ijodi mahsuli hisoblanib, xalqning ko'p asrlik tajribalari, turmushidagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqollar aslida xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, bugungi kunga qadar tildan tilga, og'izdan og'izga avlod va zamonlar osha o'tib kelayotganligiga qaramasdan, bir qancha ahli ilm tomonidan o'rganilgan va to'plab, nashrga tayyorlangan. Bularidan, Hodi Zaripov, G'ozzi Olim, G'ulom Zafariy, Zubayda Husayinova, Bahodir Sarimsoqov va boshqa olimlarni sanab o'tishimiz mumkin. Bularning natijasi o'laroq O'zR FA Til va adabiyot institutida 1980-yil 13000 ga yaqin maqol to'plab nashr etildi. Ingliz tilida tahminan 25 mingta maqol va matallar mavjud bo'lib, ulardan faqat kamchilik qismigina xalq orasida keng foydalaniladi. Inglizlarda kundalik hayotda og'zaki nutqda tahminan 100 - 300 ta mashhur maqollargina qo'llaniladi. Masalan, "*The early bird catches the worm*" (*Erta turadigan qush ilqlikni tutib oladi*) – bu maqol mazmuni o'zbek tilidagi "*Erta turgan kishini Xudo o'nnglar ishini*" maqoliga aynan mos keladi. Maqolning mazmuni ma'lum bir ishni erta turib qilish kerak ekanligidan iborat emas, balki har bir ishni inson hammadan avval, ertaroq bajarishi, kechiktirmasligi kerakligi haqida. Maqolning o'zbek tilidagi ekvivalenti ham aynan shunday ma'noda qo'llaniladi. Erta turadigan kishi barcha vazifalarini o'z vaqtida, hatto ertaroq bajara olishi, hamma ishiga ulgura olishi, shunda ishining unumi bo'lishi kabi ma'nolarni qamrab oladi. "*We must learn to work before we can run*" (so'zma-so'z: Biz yugurishdan avval yurishni o'rganishimiz shart) – "*Har narsaning o'z vaqti soati bor, "Time is money"*

(so‘zma-so‘z: Vaqt – bu pul) – *“Vaqtning ketdi – naqding ketdi, “Vaqt oltinga teng”, “Don’t count your chickens before they hatch”* (so‘zma-so‘z: “Tuxumni yorib chiqmay turib, jo‘jalarni sanama”) – *“Jo‘jani kuzda sanaymiz”* kabi bir qancha maqollarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O‘zaro qarindosh bo‘lmasa-da, turli til oilalariga kiruvchi o‘zbek va ingliz tillaridagi maqol va matallar shaklan o‘xshamasada, ma’no va mazmuni kesishadigan nuqtalari mavjud. Tarjima jarayonida bu kabi hassos nuqtalarga e’tibor berish, iloji boricha maqollarning ekvivalentlarini topib o‘girish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ammo o‘zbek tiliga nisbatan ingliz tilida idiomalar, frazeologik birliklardan kengroq foydaniladi, biroq ularni maqollar sirasiga kiritolmaymiz.

Natijalar va muhokama. Oybekning “Navoiy” romanida tabiiy ravishda bir qancha maqol va matallarni uchratish mumkin. Jangovar sahnalarga, jonli dialoqlarga, bahs va munozaralarga boy asar syujetini maqol va matallar, iboralar yanada boyitib ko‘rsatgan. Misol tariqasida romanda jumla ichida keltirilgan, muallif tomonidan juda o‘rinli qo‘llanilgan maqol tarjimasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak:

Asliyat: - *Anov uloqchi! - To‘g‘onbek uzoqda o‘t chimtib yurgan oriq echkini ko‘rsatdi.*

- *Bolam u qo‘shnini... - ishontirishga kirishdi kampir.*

- *Na zarari bor? Tuya ko‘rdingmi – yo‘q! – Zaharxanda qildi To‘g‘onbek [6, 47].*

Tarjimasi: - *What about that goat? – asked Togonbek pointing to a thin goat eating some grass.*

- *My son, that is our neighbour’s goat... - the woman tried to assure him. – It doesn’t make any difference! – said Togonbek [7, 52-53].*

Yuqoridagi *“Tuya ko‘rdingmi, yo‘q!”* maqolining mazmuni *“Hech narsani ko‘rmaganlik, bexabarlik”* bo‘lib, tarjimon mazkur maqolni so‘zma-so‘z tarjima qilmagan, aynan muqobili ingliz tilida bo‘lmagani sabab uni bermagan. Maqol qatnashgan jumla *“It doesn’t make any difference”* *“buning umuman farqi yo‘q”* deb tarjima qilingan. Maqolni uning mazmunidan kelib chiqib, ingliz tiliga sodda va tushunarli tarzda o‘girilgan. Ingliz tilida ushbu maqol mazmuniga yaqin bir qancha maqollarni uchratishimiz mumkin. Masalan, *“Ignorance is bliss”* maqoli ma’no jihatdan yaqinroq bo‘lib, u ishlatilsa, gapning badiiy bo‘yoqdorligi yo‘qolmas, qahramonning gapi ham aniqroq ochib berilardi. Cambridge Dictionary lug‘atida ushbu maqol *“ba‘zan voqea-hodisa haqidagi barcha narsadan bexabar bo‘lish foydali”* deb ta’riflanadi. Ya’ni bexabarlikka urg‘u beriladi. Asliyatdagi qahramon nutqida ham *“o‘zini bexabardek ko‘rsatish, hech narsa bo‘lmagandek yurish, bexabar bo‘lish” ma’nosi yashiringan.* Ya’ni agar qo‘shning echkisini so‘rasa *“bilmayman”* deb javob berasan degan ma’noda maqol qo‘llanilgan.

Bir tilga mos maqol, matal, idiomalarning boshqa tildagi muqobili bilan o'g'irish yoki so'zma-so'z tarjima qilish ma'qul emasligini uqtirgan G'. Salomov, bunday birliklarni ularning formal tomondangina muvofiq keladigan shakldosh varianti bilan yoki u qanday bo'lsa aynan shunday tarjima qilinsa, xato kelib chiqishi mumkinligini aytadi.

Endi e'tiborimizni quyidagi yana bir maqolga qaratsak:

Asliyat: *“Ko'p so'z eshakka yuk... Qozonni os. Mo'l qilib etni sol. Sharobing bo'lmasa, bo'za keltir. Yez bo'l, obdan ochiqdim”* [6, 46].

Tarjimasi: *“Don't talk too much... put fire under the pot. Put a lot of meat into it. If you don't have wine, bring me some bouza then. Be quick, I'm very hungry”* [7, 52-53].

Yuqoridagi parchaning inglizcha tarjimasida *“Ko'p so'z eshakka yuk”* maqoli anglatgan ma'nosidan kelib chiqib sodda gap bilan ifodalangan, maqolning o'zi emas, uning ma'nosini ochiqlovchi jumla keltirilgan. Ingliz tilida *“Ko'p gapirish o'rniga ko'proq ish qilish kerakligi, tilda emas amalda bajarish afzalroqligi”* ma'nosini beruvchi bir nechta maqollar mavjud. Masalan, *“Actions speak louder than words”* (so'zma-so'z *“amallar so'zlardan balandroq gapiradi”*), *“Too much talk, too little action”* (so'zma-so'z *“juda ko'p gap, juda kam ish”*), *“Empty vessels make the most noise”* (so'zma-so'z *“bo'sh kema ko'p shovqin ko'taradi”*) kabilar. Bulardan eng tabiiy va mashhur varianti *“Actions speak louder than words”* maqolidir. Tarjimada mutarjim mana shu maqollardan birini qo'llaganda edi maqol tarjimada ham o'z o'rnini saqlab qolgan bo'lardi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, maqollar xalqning turmush tarzi, tajribalarining mahsulidir. *“Tuya ko'rdingmi – yo'q!”*, *“Ko'p gap eshakka yuk”* kabi maqollar o'zbek xalqiga xos bo'lgan, aholining asosiy mashg'ulotlari sanalmish chorvachilik, dehqonchilik amaliyotlari, tajribalaridan hosil bo'lib, xalq orasida keng tarqalgan maqollardir.

Maqol so'zining ko'rki, nutqning o'tkir quroli, xalqning donishmandligidadir. Har bir xalqning, tarixi, tafakkuri va ruhiy holatlari maqol va matallarda o'z ifodasini topadi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning timsoli, xalqning milliy madaniy merosi namoyon bo'ladi.

Endi e'tiborimizni quyidagi yana bir maqolga qaratsak:

Asliyat: *“Ilm igna bilan quduq qazish” degan qadimgi fikrga hujralarning andozasi yorqin misol bo'lsin deb, bir zamonlar me'moriy san'atida tolibi ilmlar uchun shu andozani qabul qilgan bo'lsalar ehtimol...”* [6, 4].

Tarjimasi: *“...perhaps the builders took into the consideration the saying “Obtaining knowledge is like digging a well with a needle” and that might be why they chose such a style for the hujras in madrassahs...”* [7, 6].

Mazkur maqol ingliz tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilingan. Yaʼni ilm oʻrganish igna bilan quduq qazishdek uzoq va mashaqqatli jarayon ekanligi tarjimada oʻquvchi uchun tushunarli ifodalangan. Maqol ingliz tiliga aynan maqol bilan tarjima qilinsa, badiiy matn boʻyoqdorligini oshiradi. Tarjimon baxtiga ingliz tilida ham ilm oʻrganish, bilim olish mashaqqatlilikini anglatuvchi bir nechta maqollar mavjud. Masalan, *“Rome was not built in a day”* (soʻzma-soʻz *“Rim bir kunda bunyod etilmagan”*), *“No pain – no gain”* (soʻzma-soʻz *“Mehnat yoʻq – natija yoʻq”*), *“The harder you work, the luckier you get”* (soʻzma-soʻz *“Qancha kuchli ishlang, shuncha muvaffaqiyatliroq boʻlasan”*). Ushbu maqollar ayni maʼno koʻlamini tashimasa-da, bilim olish koʻp mehnat, mashaqqat talab etishini, qanchalik bilimli boʻlish harakatimizga va intiluvchanligimizga bogʻliq ekanligini ifodalamoqda. Fikrimizcha, *“Rome was not built in a day”* maqoli oʻzbek tilidagi *“Ilm olish igna bilan quduq qazish bilan barobar”* maqoliga muqobil ekvivalentdir. Ingliz tilidagi maqolda ilm olish, bilim egallashni Rimdek katta shaharni bunyod etish mashaqqatiga tenglashtirilmoqda. Bu ikki maqol oʻzida gʻarb va sharq aholisining turmush tarzi va biron narsaga erishish mashaqqatlari tushunchalarini ikki xil mehnat faoliyatiga taqqoslamoqda. Yuqoridagi milliy mentalitetimizga xos boʻlgan maqolning ingliz tilida ekvivalentlari mavjudligi tarjimaning yutugʻidir.

Badiiy matn tarjimasida maqol va matallarni oʻgirish jarayoni alohida oʻrin egallaydi. Bu yerda tarjimondan oʻtkir ziyraklik, topqirlik va katta matonat talab qilinadi. Chunki aynan maqol va matallarning tarjimasini yoritib berolmaslik badiiy asar mazmuniga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Toʻgʻri har bir maqol va matal ham maʼno, ham shakl, ham xususiyatga ega. Lekin bu yerda umumiylik masalasi ham muhimdir. Shuni taʼkidlash joizki, koʻplab maqollarning gʻarb tillaridagi shakllarida kamdan kam shaklan, biroq maʼnan yoki umumiy bajarayotgan funksiyalaridan oʻxshashlik topish mumkin.

Roman tarjimasini tahlil qilar ekanmiz, uning tarixiy asar ekanligini unutmasligimiz kerak. Roman tarixiy ekan, undagi dialoglarda ishlatiladigan maqol, matal va iboralar ham oʻz-oʻzidan bugungi kunda kam ishlatiladigan, ogʻzaki nutqda deyarli foydalanilmaydiganligi sababli, nafaqat gʻarb kitobxoniga, hatto oʻzbek oʻquvchilariga ham tushinarsiz boʻlishi mumkin. Muallif bunday maqollarni oʻz oʻrnida mohirona ishlatgan. “Navoiy” romanida shunday chuqur maʼnoga ega maqollar borki, ular hatto hozirgi kunda ham nutqda kam uchraydi. Masalan:

Aslyat: - *Soʻfi soʻgʻon yer, topilsa yoʻgʻon yer deganday, endi podshohdan bir nima yulmoqchimisizlar!* [6, 10]

Tarjima: - *Do you want to take something to eat from the king now?* [7, 12].

“Soʻfi soʻgʻon yer, topilsa yoʻgʻon yer” – “Oʻzbek xalq maqollari” kitobida bu maqolga “qanoatni, vaziyatga moslashishni, boriga shukr qilishni anglatadi” deb taʼrif beriladi. Bu ibora koʻpincha qoʻlga kiritilgan imkoniyatdan yoki daromaddan

to'liq foydalanish, tanlov imkoni bo'lmaganda yoki kamiga rozi bo'lish ma'nosida ishlatiladi. Asosiy ma'nosi: "kamiga ham shukr, agar ko'prog'i (yoki kattasi) topilsa, undan ham bosh tortmaymiz". Ya'ni, insonning xushomadgo'ylik yoki imkoniyat poylash xususiyatlarini tasvirlash uchun ham qo'llaniladi. Maqoldagi *so'fi so'g'on* – bu so'fi (dindor, taqvodor) kishining yig'ilgan boyligi, yoki ma'lum bir darimad manbayi; *yo'g'on yer* – katta, semiz, ko'p va barakali ma'nolarini bildiradi. Asar qahramoni podshohga xushomadgo'ylik qilib, undan boylik undirish ma'nosida shu maqolni qo'llagan. Tarjimon o'zbek tili shevalariga xos maqolning mag'zini chaqa olmagan va o'zi bilganicha talqin qilgan. Maqolning inglizchasi "*Do you want to take something to eat from the king now?*", ya'ni "*Sen podshohdan yeyish uchun biron narsa olmoqchimisiz?*" deb tarjima qilingan. Maqol na so'zma-so'z tarjimaga, na ma'nosi yaqin muqobil tarjimaga to'g'ri kelgan. Tarjimashunos E. Ochilov frazeologizmlar (maqol, matal, idioma) tarjimasini fanning muammolaridan biri sanab, rus tarjimashunosi K. Chukovskiyning maqollarni iloji boricha so'zma-so'z tarjima qilishga intilish kerakligi haqida uqtirganini eslatadi. Chunki "ularda xalqning tug'ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o'z ifodasini topgan bo'ladi" - deb yozadi u. Olim o'z fikrining tasdig'i uchun G'.Salomovning quyidagi fikrini ham keltiradi: "... shunday maqol va matallar borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko'p. Shunday qilib, maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarish mumkin" [5, 140]. Yuqoridagi maqolning inglizcha ekvivalenti sifatida "*Flattery will get you everywhere*" yoki "*He knows which side his bread is buttered on*" deb berish mumkin. Bu maqollar aynan mos bo'lmasa-da, "*xushomadgo'ylik va imkoniyat topish orqali moddiy, ma'naviy maqsadiga yetish*" ma'nolarida qo'llaniladi.

O'zbek tarixiy romanchiligining chuqur va yorqin milliy uslubini yaratgan atoqli yozuvchi Oybekning uslubini ingliz tilida qayta yaratishga intilgan tarjimon o'z ish jarayonida shubhasiz, katta tajriba orttirgan. U muallif izidan borib, qahramonlarning xulq-atvorlari, turmush tarzi, urf-odatlar, so'zlashish uslublari, xususan, nihoyatda boy o'zbek frazeologiyasini o'rgangan, ularni davr va jamiyat shart-sharoitlariga muvofiq tahlil qila olgan, deyish mumkin.

Xulosa. Ushbu maqola Oybek qalamiga mansub, XV asrning ikkinchi yarmida xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar, milliy o'ziga xosligi to'la namoyon bo'lgan badiiy asar – "Navoiy" romanining inglizcha tarjimasida ustida olib borilishi rejalashtirilgan ilmiy tadqiqotning bir qismigina xolos. Maqolada o'zbek frazeologiyasining naqadar boy ekanligi, uning alohida ma'naviy-adabiy xazina hisoblanishi va xazinaning inglizcha tarjimada qanday berilganligi xususida so'z bordi. O'zbek va ingliz tili kabi o'zaro bir-biriga yaqin bo'lmagan tillar orasida

voqelikni aks ettirishning muhim vositasi, soʻz maʼnosining koʻchishi, obrazlilikni taʼminlovchi unsurlar hisoblangan frazeologik birliklarning tarjimada ishonchli berilishi tarjimaning sifatini belgilovchi omilardan biri hamda fanning murakkab masalasi boʻlib qolayotganligi bu borada qilinadigan ishlar hanuz oldinda, mavjud muammolar esa oʻz yechimini kutayotganligini koʻrsatadi.


Adabiyotlar

1. Hamidov X. Turk tilshunosligi va tarjimashunoslik masalalari. I jild. – T., 2026.
2. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – T., 2017.
3. Sharipov R., Rasulova K. Oybekning “Navoiy” romani tarjimalarida matal va maqollarning berilishi/Tarjimashunoslar forumi – 2022. (Ilmiy maqolalar toʻplami). – Toshkent, 2022. – B. 305-311.
4. Usmonova Sh., Hamidov X. Tarjima – asliyatga olib boruvchi yoʻldir (Soʻzboshi oʻrnida). “Bu qadimiy sanʼat” tarjima maktabi talabalari almanaxi – 3. – T., 2016.
5. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: TDSHI, 2014.
6. Oybek. Navoiy. Roman. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.
7. Oybek. Navoiy. Novel. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Oʻzbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005.
9. Smith William George. The Oxford dictionary of English proverbs. Digital Library of India Item, 2015.

SOHA ZAHMATKASHLARI

ILMGA BAXSHIDA UMR

Karamova Shohida Luftillayevna, dotsent
filologiya fanlari doktori (DSc)
Qarshi davlat universiteti



Adabiyotshunoslik adabiy tanqid, tanqidchilik-adabiy faoliyatning asosiy turi bo‘lib, adabiyot rivojida yozuvchi ijodi va mahoratining yuksalishida kitobxonlar dunyoqarashining shakllanishida eng muhimi, jamiyat estetik tafakkuri taraqqiyotida sezilarli rol o‘ynaydi. Adabiyot ilmi va badiiy ijod ahli orasida hanuzgacha davom etayotgan bahs – adabiy tanqid nima, uning badiiy ijod bilan mushtarakligi va farqli tomonlari nimada degan bahs tugamayotganligini ham eslash joizdir.

Adabiyot ilmining dastlabki nazariyotchisi Aristotelning XIX asrdagi davomchisi mashhur san‘atshunos V.G.Belinskiy adabiy tanqid haqida shunday deydi. “Tanqid hukm qilmoq degan ma’noni ifodalovchi grekcha so‘zdan kelib chiqqandir, demak uning keng ma’nosi – “hukm qilmoq”, “fikr yuritmoq” demakdir. San‘at ham, tanqid ham zamonaning ongidir. Ammo tanqid falsafiy jihatdan anglash, san‘at esa bevosita anglashdir. Har ikkisini mazmuni bir; farqi faqat shakldadir. Tanqidning muhimligi ham mana shunda” [В.Г.Белинский. Танланган асарлар. – Тошкент, 1955. – В. 220].

Ulug‘ tanqidchinig fikriga e’tibor bersak, adabiy tanqid ham zamona ongi sifatida ilm va badiiy ijodning tarkibiy qismi sifatida adabiy jarayonning faol ishtirokchisi – vositasidir.

XX asr o‘zbek adabiyoti o‘zining dastlabki kunlaridanoq xalq va davrni estetik ehtiyojini qondirishga urindi. Bu hol shubhasiz, o‘zbek adabiy tanqidchiligiga ham daxldordir. Tahlil va talqin adabiy tanqidning poydevori hisoblanadi. Adabiy tanqid mana shu xususiyati bilan adabiyotshunoslikni tutib turadigan mustahkam ustundir. U badiiy asar vositasida hayot va inson haqida mushohada yuritadi; badiiy asarning ijtimoiy-madaniy munosabatlardagi o‘rni, vazifasi, milliy mafkuraviy, umuminsoniy mohiyatini yoritadi; falsafiy estetik qiymatini tarixiy madaniy qatlamdagi o‘rnini belgilaydi; badiiy asar ruhiga singdirilgan go‘zalliklarni kashf etadi.

Demak, yuqoridagi fikrlar, xulosalar adabiy tanqidchining mas’uliyati ancha zalvorli ekanligini bildiradi. Chunki adabiy tanqidchi va adabiyotshunos fikri-xulosalari adabiy jarayonga ta’sir etib qolmasdan, u ikki manzilga – yozuvchi va kitobxoniga ham yo‘naltiriladi. Shuning uchun ijod ahli faoliyatiga fikr bildirish ilmiy va badiiy tafakkur uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan adabiy tanqid zimmasiga katta estetik ijtimoiy vazifa yuklaydi.

Adabiy tanqidchi faoliyatiga baho berish va adabiy tanqidning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash, tayin etishda – tavsiflashda atoqli o‘zbek olimi ustoz adabiyotshunos Ozod Sharfiddinov qarashlari va xulosalari har qanday taraqqiy etgan millat estetik tafakkuridan qolishmaydi. Adabiy tanqid bilan shug‘ullanadigan ilm kishisi adabiyotdagi go‘zallikni, g‘oyaviy va badiiy boylikni his qilishi, fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Chunki u o‘zining ilmiy nazariy xulosasi bilan yozuvchilar, shoirlar ijodini adabiy jarayonni baholash orqali estetika taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

O‘zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligining mana shunday professional xususiyat kasb etishida uning janrlari taraqqiyotida olimlarning faoliyati muhim o‘rin tutadi. Bugungi o‘zbek adabiy tanqidchilari va adabiyotshunoslari xususida gap ketganda hozirgi adabiy jarayonda faol ishtirok etayotgan olim Damin To‘rayevning ham sezilarli o‘rni bor. Men adabiyotshunos olimning faoliyatini kuzatish jarayonida shunday xulosaga keldim. “Osmon to‘la yulduzlar, bu yulduzlar orasida uch-to‘rttasi, nari borsa, besh-oltitasi nimasi bilandir ulardan ajralib turadi. Biroq ular ana shu alohidaligi bilan yolg‘iz qolsalar, negadir osmonning go‘zalligi sezilmay qoladi. Ana shu besh-oltita yulduzning ham ayrichaligiga ham qolgan yulduzlar sababchidir. Demak ularni bir butunlikda bo‘lishlari osmonning go‘zallikdagi mukammalligini ta’minlaydi”. O‘xshatish nechog‘li o‘rinli yoki o‘rinsiz bo‘lmasin adabiy va ilmiy hayotdagi iste’dodlarni ham men ana shu yulduzlarga qiyos qilaman. Chunki, adabiy va ilmiy jarayondagi go‘zallik va mukammalilik ana shu turli saviyadagi iste’dodlar faoliyatini yuzaga keltiradi. Damin To‘rayev dars jarayonidagi muloqotlarda yoki asarlar tahlili paytida o‘zi yozgan kitoblarga tayanib yoki o‘z kitoblaridan ihtiboslar keltirib, “Albatta bu mening subyektiv shaxsiy fikrim, mulohazalarim. Shu masala, mavzu xususida ustoz adabiyotshunoslarimiz – Ozod Sharofiddinov, Umarali

Normatov, Naim Karimov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov, No‘mon Rahimjonovlarning kitoblaridagi fikrlarini ham qarab chiqinglar va o‘qinglar. Bu olimlar masalani menga nisbatan yanada tushunarliroq va ilmiyroq darajada tahlil etishgan” – deydi.

O‘zbek adabiyotining muhim muammolari, xususan, o‘zbek qissachiligi va romanchiligining taraqqiyot xususiyatlarini o‘rgangan hamda bu janrlarning ilmiy masalalarini ishlab chiqishda va hal etishda hamda mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan adabiyotshunos olimlarimizdan biri – Damin To‘rayevdir. Uning tadqiqotlarida yozuvchi ijodiy laboratoriyasi va badiiy mahoratini tahlil etish muammolari yetakchilik qiladi.

U 1946-yil Yakkabog‘ tumanidagi Sandal qishlog‘ida xizmatchi oilasida tavallud topdi. O‘rta maktabdagi dastlabki tahsilni tumandagi Hamid Olimjon nomli 5-o‘rta maktabda boshlab, 1962-yilda 12-o‘rta maktabda yakunladi. Uni nafosatga oshno etishda bobosi, qishloq oqsoqoli, o‘zbek do‘mbirachilik maktabining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Eson Tilovovning roli katta bo‘ldi. Bobosining ijodi haqida hikoya qiluvchi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor F.Karomatovning “O‘zbek do‘mbirachilik musiqasi” kitobini o‘qigach, nafosat olamiga mehri yanada ortdi. 1962–67-yillarda Qarshi davlat pedagogika institutining Tarix-filologiya fakultetida o‘qidi. Studentlik yillari adabiy to‘garaklar va ijodiy kechalarda, ilmiy nazariy anjumanlarda ma‘ruzalar bilan faol ishtirok etdi. Uning badiiy mashqlari – hikoyalari talabalik paytlarida matbuot yuzini ko‘rdi.

Damin To‘rayev institutda taniqli adabiyotshunos, respublikadagi oliy maktab tashkilotchilaridan biri, professor Orifjon Ikromov sabog‘idan bahramand bo‘ladi. Undagi adabiyotga bo‘lgan qiziqishini kuzatib yurgan ustoz o‘zi yangi rahbar etib tayinlangan Sadridin Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutiga ishga taklif etadi. Shunday qilib, uning mehnat faoliyati 1967-yildan boshlangan. U institutdagi dastlabki faoliyati davridan boshlab, ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullana boshladi. 1968-yilda Samarqand davlat pedagogika institutining ilmiy to‘plamida chop etilgan “60-yillar prozasida hajviyot” nomli maqolasi uning ilm ahli hukmiga havola etgan dastlabki ilmiy izlanishi edi.

D.To‘rayev 1970-yilda harbiy xizmatni tugatib qaytgach, Qarshi davlat pedagogika institutida ishlay boshladi. 1972–74-yillarda Toshkent davlat universitetining aspiranturasida tahsil olishi uning ilmiy tafakkurida tub o‘zgarishlar hosil qildi. U aspirantlik davrida o‘zbek adabiyotshunosligining darg‘alari – G‘.Karimov, S.Dolimov, L.Qayumov, O.Sharafiddinov, B.Imomov, U.Normatovlar saboqlaridan bahramand bo‘ldi. Ular sinovida adabiyotshunos sifatida shakllandi va aspirantura muddati tugamasdanoq, 1974-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya

qildi. D.To‘rayev 1970–92-yillarda Qarshi davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kaferasining o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi, dotsenti, 1985–89-yillarda O‘zbek va chet tillar filologiyasi fakultetining dekani bo‘lib ishladi. 1993–2007-yilda O‘zbek adabiyoti kafedrasining mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatdi. U ana shu yillar mobaynida yoshlarga fan sirlarini o‘rgatish va fakultetda o‘quv-tarbiyaviy ishlarining takomillashtirish ishlariga o‘z hissasini qo‘shibgina qolmasdan ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, hatto ijodiy ta‘tillarsiz keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Va nihoyat 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot institutining ixtisoslashgan Ilmiy Kengashida “Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va badiiy mahorat muammosi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Himoyadagi muhokamada so‘zga chiqqan akademak Izzat Sulton, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arboblari, Davlat mukofotining laureatlari, filologiya fanlari doktorlari, professorlar: Laziz Qayumov, S.Mirvaliyev; filologiya fanlari doktori, professorlar: N.Rahimjonov, E.Karimov, M.Murodov, K.Imomov kabi olimlar D.To‘rayev tadqiqotining o‘zbek adabiyotshunosligiga qo‘shgan ulkan hissa ekanligini alohida ta‘kidlashdi, dissertatsiyaning Qashi davlat universiteti tarixida o‘zbek filologiyasi sohasidagi birinchi doktorlik ishi ekanligini alohida qoniqish bilan qayd etishdi.

Filologiya fanlari doktori, professor Damir To‘rayevning nomi ilm-u urfon ahli, ijodkor-ziyolilar, tolib-u talabalarga yaqindan tanish. U respublika matbuotida adabiy tanqidiy va ilmiy metodik maqolalari bilan muntazam chiqib turadi, ilmiy-ijodiy anjumanlarda tashkilotchi va ishtirokchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Uning “Hayot va syujet” (Toshkent, 1984), “O‘zbek adabiyotida realizm masalalari”, (Toshkent, 1988), “Badiiy talqin yo‘llarida (Toshkent, 1994), “O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi (Toshkent, 2001), “Davr va ijod mas‘uliyati (Toshkent, 2004) kabi monografiya, risola va o‘quv qo‘llanmalari Respublika ilmiy va adabiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otgan. Bulardan tashqari 100 dan ziyod jurnal va to‘plam maqolalari, gazetalarda esa 150 ga yaqin adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop va badiiy publitsistik materiallari chop etilgan. D.To‘rayev gazeta va jurnallarda e‘lon qilgan maqolalari, taqrizlari va adabiy portretlarida adabiyot ixlosmandlarini o‘zbek yozuvchilaridan Hamza, Cho‘lpon, A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, H.Olimjon, N.Safarov, O.Yoqubov, P.Qodirov, O‘.Hoshimov, O‘.Umarbekov N.Narzullayev, J.Jabborov, S.Nurov, M.Ali, X.Do‘stmuhammad, N.Eshonqul, S.Sayid, I.Otamurod, A.Yo‘ldoshev; qardosh xalqlar yozuvchilari Mirzo Tursunzoda, Musa Jalillarning ijodi yoki alohida asarlari haqida tasavvur beradi. Damir To‘rayevning XX asrning 70-yillaridan to hozirgi davrgacha bo‘lgan o‘zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etishga bag‘ishlangan izlanishlari milliy adabiyotshunoslik rivojida alohida o‘rin

tutadi. Olimning ilmiy qarashlari va xulosalari o‘zbek adabiy tanqidchiligining taraqqiyot tamoyillarini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, uning adabiy jarayonda, yozuvchi mahoratida, o‘quvchi badiiy-estetik ongida sezilarli ta’sir o‘tkaza olgan adabiy-tanqidiy tafakkurning boyligi va teranligini alohida qayd etish lozim. Damin To‘rayevning sermahsul ilmiy faoliyati natijasida yaratilgan “Hayot va syujet”, “O‘zbek adabiyotida realizm masalalari”, “Badiiy talqin yo‘llarida”, “O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi”, “Davr va ijod mas’uliyati”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hayot manzaralari”, “Rangin tasvirlar jilosi”, “Mumtoz ijod saboqlari”, “O‘zbek tetrologiyasi” hamda “Ma’naviy olam talqinlari” kabi asarlari bugungi kunda ham ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotida muhim ilmiy manba sifatida qadrlanadi.

Damin To‘rayevning mustaqillik davri adabiyotiga oid “Davr va ijod mas’uliyati”(2004) kitobini mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi iliq kutib oldi. Chunki u mustaqillik davri adabiyotining taraqqiyot xususiyatlarini, xususan, o‘zlikni tasvirlashdagi o‘ziga xosliklar Amir Temur va temuriylar obrazining yaratilishi, bugungi romanchilikdagi ichki va shakliy o‘zgarishlar, bugungi hayotimiz qahramonlari xususida, modernizm va bugungi o‘zbek nasridagi ko‘rinishlar haqida batafsil mushohada yuritiladi. Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan lotin alifbosidagi “Yangi o‘zbek adabiyoti” (2008) o‘quv qo‘llanmasi mustaqillik davri talablariga mos va xos tadqiqot sifatida respublikamiz filolog olimlari tomonidan matbuotda e’tirof etildi.

Damin To‘rayev ilmiy asarlar yaratish, adabiyotimiz yutuqlarini va yangiliklarini xalq ommasi orasida talabalar auditoriyasida targ‘ib qilish bilan birga yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida ham samarali ishlar olib bormoqda. Uning bevosita ilmiy rahbarligida nomzodlik va doktorlik ishlari yoqlanmoqda. U bir necha doktorlik dissertatsiyalari himoyasida rasmiy opponent sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Ilmiy ishlarning aksariyatiga xos asosiy xususiyat shundaki, ularda ko‘proq adabiyotning nazariy masalalari, syujet, xarakter konflikti, kompozitsiyalari kabi badiiylik komponentlari, davr va qahramon, qissa va roman janrining taraqqiyot xususiyatlari, ijodkor mahorati va ijodiy laboratoriyasi masalalari bevosita XX asr o‘zbek adabiyoti va mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti materiallari asosida tadqiq qilingan.

Damin To‘rayev XX asrning 70-yillaridan boshlab bugungi kungacha o‘zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotining muhim bosqichlarini chuqur ilmiy tahlil qilgan yetuk olimlardan biridir. Uning ilmiy izlanishlari o‘zbek tanqidchiligining nazariy asoslarini boyitish, adabiy jarayonning rivojlanish

qonuniyatlarini ochib berish hamda adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olim tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida salmoqli o'rin egallaydi. Ayniqsa, Damir To'rayev adabiy jarayonning mazmun-mohiyati, yozuvchi badiiy mahorati, asarning estetik qimmatini hamda kitobxonning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish masalalarini chuqur tadqiq etgani bilan ajralib turadi.

Uning ilmiy ishlari adabiy-tanqidiy tafakkurning boyligi, tahlilning teranligi va nazariy umumlashmalarining puxtaligi bilan e'tiborga sazovordir. Damir To'rayevning o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi o'rnini baholashda uning badiiy asarning syujeti, xarakter yaratish tamoyillari, konflikt tabiati, kompozitsiya va yozuvchi mahorati bilan bog'liq nazariy muammolar yuzasidan olib borgan tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur izlanishlar nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi nazariyasini boyitdi, balki badiiy asarlarni ilmiy tahlil qilish metodologiyasining takomillashuviga ham munosib hissa qo'shdi.

Professor D.To'rayev ko'p yillik samarali mehnati hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishdagi xizmatlari uchun "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi" nishoni bilan taqdirlangan. Damir To'rayev adabiyot masalalarini atroflicha yoritishi, keng bilimga ega ekanligi bilan ko'zga tashlanadi. U iste'dodli munaqqid sifatida ham zamon talablariga javob bera oladigan puxta ilmiy maqola va taqrizlar bilan ham chiqmoqda.

Professor Damir To'rayev ilmiy faoliyatda ham pedagogik jarayonda ham namunali hayot yo'lini bosib o'tgan. Eng muhimi, uning tadqiqotlari respublikamiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan iliq qarshi olingan va e'tirof etilgan. Olimlarning darsliklarida, kitoblari va ilmiy tadqiqotlarida, taqrizlarida bildirilgan fikrlar, mulohazalar bu e'tiroflarning isbotidir.

Shogirdlariga bo'lgan cheksiz g'amxo'rliqi, mehribonligi, kasbiy fidoyiligi va ustozlik mas'uliyatiga sadoqati Damir To'rayevning eng yuksak fazilatlaridan biridir. U har bir shogirdiga alohida e'tibor, mehr va nozik did bilan yondashib, ularning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga beqiyos hissa qo'shdi. Ana shu fidokorona mehnat samarasi o'laroq, bugun yurtimiz ilm-fani uning tarbiyasini olgan ko'plab yetuk mutaxassis va olimlar bilan boyimoqda. Olim o'zining teran bilim-zakovati, hayotiy tajribasi va Yaratgan ato etgan noyob iste'dodi bilan ko'plab yoshlar qalbida ilm-fanga muhabbat, izlanishga ishtiyoq va yuksak marralarni egallash ishonchini uyg'otdi. Uning ilmiy rahbarligida 10 dan ortiq tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) va 5 nafar izlanuvchi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu esa ustozning ilmiy maktabi mustahkamligi va uning ilm-fan ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasining yorqin dalilidir.

Adabiyotshunos olim Damir To'rayev bugun ham muborak 80 yosh dovonida turib, yoshlarga xos shijoat, g'ayrat va fidoyilik bilan ilm-ma'rifat yo'lida samarali

mehnat qilmoqda. Ustozning boy ilmiy tajribasi, hayotiy donoligi va yuksak insoniy fazilatlari bugungi yosh avlod uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Muhtaram va aziz ustoz, Damin To'rayev! Qutlug' 80 yoshingiz muborak bo'lsin! Sizga mustahkam sog'liq, uzoq va mazmunli umr, oilaviy xotirjamlik, ilmiy va ijodiy faoliyatingizga yangi-yangi zafarlar tilaymiz. Ilm ahlining yuksak ehtiromida, xalqimiz ardog'ida va shogirdlaringiz mehr-muhabbatida doimo sog'-salomat, baxtiyor va bardavom bo'ling, aziz va muhtaram Ustoz!

ILMLI OLIM VA IYMONLI SHOIR

Xo'jamurod Jabborov

filologiya fanlari doktori, professor
Qarshi davlat universiteti



Ikki og'iz so'z *ilm, imon, olim* xususida. *Ilm* – lug'atlarda izohlanishicha, arab tilidan o'zlashgan bo'lib, bilim, fan, nazariya demakdir. Bu ta'rif ilmning asl lug'aviy ma'nosi. Ya'ni ilm – o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim, ko'nikma, ma'lumot. Kashfiyotsiz ilm bo'lmaganidek, ilm ham kashfiyotsiz nafas ololmaydi. Olim ilmi bilan hurmat topur, hofiz xush ovozi bilan odamlarning dilini xush qilur... **Ikkinchi** ma'nosi, ilm – bu ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan. Ilm va hunar. Ilm va ma'rifat. **Uchinchi**, ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. **To'rtinchi**, ilm qilmoq ilm bilan

shug'ullanmoq, ilmiy darajaga ega bo'lmoq. Turk shoiri Yunus Emro aytganiday: *ilm – ilm bilmakdir, ilm o'zni bilmakdir, sen ilmni bilmasang behuda o'qumakdir...*

Qur'oni Karimda ilm kishilik jamiyati taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil ekanligi va shunga ko'ra unga alohida e'tibor berilganligi barchaga ayon. Unda ilm ikki tur bo'yicha tasniflangan: birinchisi, foydali ilm; ikkinchisi, foydasiz ilm. Fan, kengroq ma'noda, jamiyat rivoji uchun chaqachalik foydasiz dissertatsiyalar yozilganligi va yozilayotganligini, ayni davrda ham, keyingi zamonlarda ham mutlaqo ahamiyatsiz, foydasi tegmaydigan tadqiqotlar himoya etilayotganligini ma'rifatli, vijdoni pok ruhi uyg'oq kishilarning aksariyati yaxshi biladi. Bunday ilm muqaddas Qur'oni Karimda foydasiz ilm nomi bilan tavsiflangan. Unda kishilar faqat foydali ilm bilan shug'ullanishi kerakligi alohida ta'kidlangan.

Ilm bizga olam va odam, voqeiylik mohiyati, xossa va xususiyatlarini anglatadi, umr, yashash, tiriklik mahzani, yaratish zavqini his ettiradi. Haqiqiy olim bir narsa, muammo va haqiqatni rad qilib bo‘lmas darajada isbotlar ekan, u cheksiz riyozat chekadi, tafakkur qiladi. Tabiiyki, uning bu sa’y-harakati fazilat bo‘lib zahmati sharofatli va foydalidir. Bu amalining natijasi millatu jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilajak.

Iymon so‘zi esa arabcha Allohga ishonch, diniy e’tiqod. Xudoga bo‘lgan ishonch, e’tiqod; ko‘ngilda ishonish va tilda iqror qilish. Imoniga, diniga mustahkam pokiza odam bor joydan ajina yuz chaqirim nariga qocharmish. Vatanni sevmok ham, ilm o‘rganish ham, kattalarni hurmat qilish ham, tozalik ham iymondandir.

Olim termini esa arabcha so‘z bo‘lib, *a'lama* fe’lidan yasalgan va uning lug‘aviy ma’nosi *bildi, bilimli bo‘ldi, dono* demakdir. Olim – hidoyatga boshlovchi inson. Olimlar o‘zining tekshirish va o‘rganish ob’kti, kashfiyotlari, ishining mazmun-mohiyati, bilish imkoniyati, aqliy qudrati, iqtidori va iste’dodiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratiladi: shundan birinchisi, *ilohiy olimlar* (Tangriy, Allohiy), ikkinchisi *rabboniy olimlar* (payg‘ambarlar), uchinchisi *ruhoniyl olimlar* (avliyolar), to‘rtinchisi, *dunyoviy* (insoniy) **olimlar** [1] sifatida tasniflanadi.

Biz yuqorida keltirgan to‘rt toifadagi olimlarning biri, ya’ni *dunyoviy olim*, ya’ni real olam, odam va olam taqdiri, til va tarix, til va tafakkur, til va tilparvarlik, shaxs baxt-saodati, yashash tarzi va jamiyatning taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolar yechimi bilan tinim bilmasdan shug‘ullanib kelayotgan, yetmish yoshni qarshilayotgan, ilm va ijod bilan shug‘ullanayotgan farg‘onalik qadrton ukamiz – ilimli olim va iymonli shoir Siddiqjon Mo‘minov haqida so‘z yuritishga harakat qilamiz.

Men Siddiqjon bilan yuzma-yuz tanishishimdan oldin mehribon ustozim, til ilmining bilimdoni, nomshunos va lug‘atshunos olim, rahmatli professor To‘ra Nafasovdan Farg‘onalik Siddiqjon Mo‘minov haqida ko‘p bora yaxshi va ijobiy fikrlarni eshitganman.

Siddiqjon bilan yuzma-yuz ko‘rishishimiz esa 1989-yilda Qarshi shahrida o‘tkazilgan Butunittifoq xalqaro “Onomastika” nomli ilmiy-nazariy anjumanda ro‘y bergan... Bu yorug‘ olamda inson umri go‘yo oqqan daryo kabi oqib o‘tib, orqaga qaytmasligini donishmandlar ko‘p bora ta’kidlaganlar. Mana hash-pash deguncha Siddiqjon ismli olim, shoir, kamtar, kamsuqum, samimiy, dilkash, xushmuomali ukamiz bilan tanishganimga ham 45 yildan oshibdi.

O‘shandan beri mutaxassisligimiz yaqinligimi, xarakterimiz va intilishlarimiz to‘g‘ri keldimi, shu-shu qadrton aka-ukalardek bo‘lib ketdik. Farg‘onaga borsam Siddiqjonni ko‘rmay qaytmayman, Siddiqjon Qarshiga kelsa u ham meni ko‘rmasdan ketmaydigan bo‘lib qoldik. Nazarimda, bu o‘zaro mehr-oqibat, do‘stlik, ilmiy hamkorlik, qadrtonlik rishtalarining mustahkamligidan bo‘lsa kerak.

Haqiqiy olim uchun ilm va iymon qushning ikki qanotidir. Biri kam bo‘lsa, qush ucholmaydi, chin olimlik maqomi ham shunday. Agar Siddiqjon bilan suhbat qursangiz, uning she’rlari, ilmiy maqolalari va kitoblarini o‘qisangiz mazza qilasiz va bunga ishonchim komilki, o‘zingiz ham amin bo‘lasiz! Olimning “Tarjimai hol” she’rida aytganiday;

*Bilmoqchi bo‘lsang gar shoir naslini
Ajdodin so‘roqlab yog‘dirma savol.
Sinchiklab o‘qib chiq har bir satrini –
Shu erur mukammal tarjimai hol [2]*

Farg‘onalik ukajonimiz Siddiqjon shu ehtirom va maqomga munosib olim. Ilmi shaxsning darajasini iymon yuksaltiradi, abadiyatga daxldor qiladi, millat va jamiyat e‘zoziga erishtiradi.

Bugun tabarruk yetmish yoshini nishonlayotgan Siddiq Mo‘minov Farg‘ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori, respublika va xorijda tan olingan tilshunos olim, istedodli shoir, mohir pedagoglarimizning oldingi saflaridagi domlalarimizdan biri. Olim ukamizning ilmiy-pedagogik, ijodiy faoliyati, ilm yo‘lida olib borgan ishlari haqida ko‘plab ustoz va shogirdlari u kishiga bag‘ishlangan “Siddiqlik saodati” (Siddiq Mo‘min zamondoshlari nigohida)” [3] nomli risolada o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirgan va bugungi tabarruk 70 yoshni qarshilayotganda ham bildirishiga shak-shubham yo‘q!

Mening fikrimcha, ilmda ustoz-u shogird, qadrdonlarcha ilmiy hamkorlik qilish uchun uzoq yillar shart emas, inson ruhan, ma‘nan, ilman yaqin bo‘lsa yetarli. Qadrdonimiz Siddiqjon bilan tanishganimdan buyon u kishining insoniy fazilatlarini haqida bilganlarim va o‘rganganlarim, aniqrog‘i, xulosalarim quyidagicha:

Birinchidan, Siddiqjonning aytishicha, uning “kindik qoni to‘kilgan qishloq Farg‘onadagi Buloqboshi nomli qishloq. Bu haqda shoirning “Buloqboshi” she‘ridagi misralarga e‘tibor bering:

*Bolaligim o‘tdi senda,
Quchog‘ingda keng yelkangda,
Orzu-nomusing yelkamda,
Buloqboshi, Buloq boshi [4].*

Ikkinchidan, Siddiqjon 1990-yilda nomzodlik, 2000-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2008-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi аъзоси, 2010-yilda professor. O‘zbekiston va xorijda tan olingan tilshunos olim va iymonli shoir. FarDUda uzoq yillar ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i, dekan o‘rinbosari, dekan, ixtisoslashgan kengash raisi va a‘zosi hamda mohir pedagog.

Uchinchidan, Siddiqjon Mo‘minov bugungacha 300 dan ortiq ilmiy nazariy, uslubiy, publitsistik maqolalar, o‘nlab kitob, monografiya, darsliklar muallifi hamda

20 dan ortiq shogirdlarning ilmiy rahbari, yigirmadan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning opponenti hamdirlar.

To‘rtinchidan, olim va shoir ukamiz hamisha ilm yo‘lida iste‘dodlarni boshini silaydigan va ularni ilmga da‘vat etuvchi, ruhlantiradigan bag‘rikeng inson. Yana biri, bizning davrimizda noyob sanalgan fenomen – mayda gaplardan ustun shaxs, pragmatik.

Beshinchidan, milliy tilimiz soffligi, taraqqiyoti, ijtimoiy qo‘llanish ko‘lamini kengaytirish uchun kurashuvchi, Davlat tili haqidagi qonun talablarini amalga oshirishdagi sustkashlik va beparvolikdan istirob chekadigan shaxs. Olimning suhbatlari hamisha milliy tilning bugungi holati, til muvozanati, tilning ijtimoiy funksiyasi, lug‘at boyligi, jadidlar 1919-yilda boshlagan “Chig‘atoy gurungi”ning xayrli ishini, ya‘ni yaratilgan-u kam o‘rganilgan til gavharlari – so‘zlarni kelib chiqishi, obektlarning qandayday nomlanishi, sheva so‘zlarni saralab adabiy tilga iste‘molga kiritish.

Oltinchidan, Siddiqjonning go‘zal fazilatlaridan yana biri – ulug‘ yoshlarini nishonlayotgan olimlarga, adiblarga, san‘at xodimlariga, hamkasblariga she‘riy tabrik tortiq qilishidir. Masalan, mening yetmish yoshimga bag‘ishlangan “Sidqidillik” nomli maqolasida “ Hamkasb do‘stga nisbatan bo‘lgan bu sadoqat, bu samimiylik esa menga quyidagi nazmiy satrlarni in‘om etdi. Siddiqjonning yetmish satr professor Xo‘jamurod Jabborovga bag‘ishlangan monologini unga ozroq o‘zgartirishlar kiritib Siddiqjonning o‘ziga tortiq qildim:

FARG‘ONA tomon bo‘ylagan edim,

Olimlarin o‘ylagan edim,

Ich-ichimdan bir hisni tuydim:

Qoldi bir zum xayolim olib –

Siddiqjon ukam Mo‘minov!

Xo‘jamurod so‘zi – shu, “SIDQIDILLIK”,

Biz QARSHI, Siz-chi, FARG‘ONALIK,

Chin yurakdan qutlashga keldik.

YETMISH YOSHING MUBORAK bo‘lsin

SIDDIQJON UKAM MO‘MINOV!..

Yettinchidan, Siddiqjon ilmni ko‘ngil xotirjamligi, taraqqiyot poydevori, oila saodati, millat uchun najot yo‘li deb biladigan tabarruk shaxs. Uning ko‘p davralarda, ilmiy anjumanlarda takrorlashni sevadigan so‘z va hikmatlari bor: *Hech bir zamonda ilmli va ilmsiz teng bo‘lmagan, ilmli millat har bir xalqning obro‘si, izzati va sharafidir... Oqillar oqili Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Olim bo‘l yo ilm tolibi bo‘l, yo eshituvchi bo‘l, yo ilmlarni yaxshi ko‘ruvchi bo‘l, ammo beshinchisi (ilmsizi) bo‘lmagin, unda halok bo‘lasan”, – deb behudaga ogohlantirmaganlar...*

Elimiz aytganidek, “Olim bo‘lsang – olam seniki!” Chunki chin olim jamiyat obro‘si, faxri, tashxischisi, targ‘ibotchisi, tashviqotchisi, u voqea hodisalar siri, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy evrilishlarning sabab va oqibatlarini bilguvchidir.

Shu ma‘noda olim va shoir ukamiz Siddiqjon ona tilimizning bugun va ertasi hamda ijtimoiy mavqeyi, lug‘aviy boyligi va bugungi kundagi dolzarb muammolarini jiddiy tadqiq qilish, tilshunosligimizning ilmiy-nazariy, falsafiy muammolarini yechish, borliqni ko‘rish, tushunish, talqin etish, ong, tafakkur til munosabatlarini yanada chuqur o‘rganishda tinmay ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. U kishining sevgan baytlari: *“Ki har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”* (Hazrat Alisher Navoiy). *Har bir odam buyukdir, faqat o‘z o‘rnida bo‘lsa, Ilm istarsen, kibr to‘nini yech, kamtarinlik jamosin kiy, ertayu kech, Tushsa senga bir xudo yorning ko‘zi, Yor bo‘lur senga xudoyimning o‘zi* (Jaloliddin Rumiy).

Qadrdonimiz SIDDIQJON MO‘MINOV! 70 yoshingiz muborak bo‘lsin!!! Sizga ulkan kuch-quvvat tilayman. Ilm yo‘lidagi chekkan zahmatlaringiz samarali bo‘lsin. G‘ayrat bilan til ilmiga doir asarlar ko‘proq yozavering. Bo‘ljak filolog yoshlarimizni yetuk olimlar safiga qo‘shishda o‘zingizning ilmiy maslahatlaringizni ayamang! Hayotiy va ilmiy ishlaringiz doimo bardavom va barakali bo‘lishini Allohimdan so‘rab qolaman!

Adabiyotlar

1. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Олимлар – олам кўрки. – Тошкент: Тамаддун, 2018. – Б. 26.
2. Сиддик Мўмин. Остонагда кутаётган бахт. – Фарғона: Фарғона, 2014. – Б.5.
3. Сиддиклик саодати. (Сиддик Мўмин замондошлари нигоҳида). – Фарғона: Poligraf Super Serves, 2016. – 162 б.
4. Сиддик Мўмин. Остонагда кутаётган бахт. – Фарғона: Фарғона, 2014. – Б.8-9.

ONOMASTIKA**XALQARO ELEKTRON ILMIY JURNALINING AXBOROT XATI**

“Onomastika” xalqaro elektron ilmiy jurnalida quyidagi ruknlar bo‘yicha maqolalar chop etiladi:

- davlat tili va onomastika, onomastikada imlo masalalari;
- zamonaviy onomastika;
- tarixiy onomastika va manbashunoslik;
- onomastika va neyning (brendologiya);
- onomastika va tarix (o‘lkashunoslik, etnografiya, arxeologiya, etimologiya);
- onomastika va geografiya;
- onomastik leksikografiya;
- turli sohalarda (shevalarda, folklorda, badiiy adabiyotda, ilmiy va rasmiy tilda, yozma yodgorliklar tilida) onomastik tadqiqotlar;
- tanqid va taqriz;
- soha zahmatkashlari.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 7 sahifadan kam bo‘lmasligi shart;
- Maqolalar o‘zbek, qoraqalpoq (barcha turkiy), rus, ingliz tillarida qabul qilinadi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola sarlavhasi bosh harflarda, o‘zbek (barcha turkiy), rus, ingliz tillarida yozilishi kerak.
 2. Muallifning F.I.Sh. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi kerak. Lavozimi, ilmiy unvoni, tashkilot, shahar, mamlakat va elektron pochta adresi, ORCID hamda UDK raqam ko‘rsatilishi shart.
 3. Annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 90-100 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim) o‘zbek (turkiy), rus, ingliz tillarida beriladi.
 4. Tayanch so‘z va iboralar o‘zbek (turkiy), rus, ingliz tillarida (8-10 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak).

Maqolaning tarkibiy qismi:

Kirish (Introduction)

Asosiy qism (Main part)

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Xulosalar (Conclusions)

Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi, .

- Maqola Times New Roman shriftida, 14 kattalikda, 1,5 intervalda tayyorlanadi;
- maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo'lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to'liq izohi yozilishi lozim;
- maqolaga havola (snoska)lar [1,2,...] ko'rinishida va maqola so'ngida adabiyot sifatida ko'rsatilishi lozim;
- maqola tomonlari chap: 3 sm, o'ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar "Antiplagiat" tizimi yordamida tekshiriladi.
- tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari egasiga qaytarilmaydi.
- maqolada keltirilgan ma'lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko'chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas'uldir;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi;
- maqola so'ngida muallif(lar) telefon raqamini kiritishlari shart.

Tahrir hay'atidan o'tgan maqola muallifi(lari) universitet hisob raqamiga 350 000 (uch yuz ellik ming) so'm miqdorida pul mablag'i o'tkazishi va to'lov kvitansiyasini ma'sul kotibga yuborishi kerak.

X/R: 400 1108 6010 4017 0941 0035 0003

STIR: 200671933

To'lov kvitansiyasiga bankdan yoki onlayn programmalar orqali "Onomastika" xalqaro elektron ilmiy jurnalida maqola chop etilishi uchun deb ko'rsatilishi lozim.

Umumiy ma'lumotlar:

- Maqolada keltirilgan ma'lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko'chirmachilik holati uchun muallif(lar) mas'uldir.
- Maqola ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi, tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi.
- Jurnal talablariga mos kelmaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Qarshi shahri Ko'chabog', 17. QarDU Filologiya fakulteti

Tel.: +998972221707, +998912205238; Telegram raqami: +998972221707,

+998912205238; e-mail: rano.saydullayeva@mail.ru

ОНОМАСТИКА**ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО
ЭЛЕКТРОННОГО НАУЧНОГО ЖУРНАЛА**

В научном международном журнале “Ономастика” статьи будут изданы по следующим направлениям:

- государственный язык и ономастика, проблемы правописания в ономастике;
- современная ономастика;
- историческая ономастика и источниковедение;
- ономастика и нейминг (брендология);
- ономастика и история (краеведение, этнография, археология, этимология);
- ономастика и география;
- ономастическая лексикография;
- ономастические исследования в различных областях (диалектология, фольклор, художественная литература, научный и официальный язык, язык письменных памятников);
- критика и обзор;
- ученые-ономасты.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи не менее 7 страниц;
 - Статьи принимаются на узбекском, каракалпакском (все тюркские), русском и английском языках;
 - Структура статьи:
 1. Название статьи следует писать заглавными буквами на узбекском (все тюркские), русском и английском языках.
 2. Ф.И.О автора (необходимо писать полностью), если авторов несколько, необходимо предоставить полную информацию о каждом из них. Должность, ученое звание, организация, город, страна, адрес электронной почты, ORCID, также номер UDK указываются полностью.
 3. Аннотация (краткое содержание и цель статьи, не меньше 90 слов), название статьи дается на узбекском (все тюркские), русском, английском языках.
 4. Ключевые слова и выражения на узбекском (все тюркские), русском, английском языках (должны состоять из 10-15 слов).
- Содержание статьи:

Введение

Главная часть

Результаты

Обсуждение

Выводы

Литература - перечисляются в алфавитном порядке.

Статьи оформляются в формате Times New Roman, размер шрифта 14, интервал 1,5;

- если в статью включены рисунки, таблицы, схемы, различные графические обозначения, то они должны быть четко и ясно описаны, должно быть написано полное расшифровывание сокращений;
- ссылки на использованные источники (сноски) приводятся после цитаты в квадратных скобках с указанием порядкового номера источника цитирования [1,2,...]. Список литературы помещается в конце текста под заголовком «Литература»;
- оформление статьи слева 3 см, справа 1,5 см, сверху и снизу 2 см;
- не менее 70-80% текста статьи должно быть основано на результатах личного исследования автора. Присылаемые статьи проверяются с помощью системы «Антиплагиат».
- статьи, поступающие в редакцию, рецензируются редакцией. После возврата статьи с рецензирования при необходимости все вопросы и возражения передаются автору на обработку. Копии статей не возвращаются владельцу.
- автор(ы) несут ответственность за научную основу, достоверность и правдоподобие информации и доказательств, представленных в статье;
- в 1 номере журнала публикуется только 1 статья автора;
- автор(ы) должны указать свой номер телефона в конце статьи.

Автор(ы) статьи, прошедшей(их) проверку редакционной коллегии, должны перевести 350 000 (триста пятьдесят тысяч) сумов на счет университета и отправить квитанцию об оплате ответственному секретарю.

X/R: 400 1108 6010 4017 0941 0035 0003

STIR: 200671933

В квитанции об оплате должно быть указано, что оплата производится за публикацию статьи в международном электронном научном журнале «Ономастика» через банк или онлайн-программы.

Общая информация:

- Автор(ы) несут ответственность за научную достоверность, надежность и отсутствие плагиата в информации и доказательствах, представленных в статье.

- Статья проходит рецензирование. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами; статьи, не рекомендованные экспертами, публиковаться не будут.
- Статьи, не соответствующие требованиям журнала, не будут рассматриваться редакционной коллегией и не будут возвращены авторам.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

г. Карши, Кучабаг, 17. Филологический факультет КарГУ
Тел.: +998972221707, +998912205238; номер телеграма: +998972221707,
+998912205238; электронная почта: hojamurod@list.ru
e-mail: rano.saydullayeva@mail.ru

ONOMASTICS

INFORMATION LETTER OF THE INTERNATIONAL ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

In the international scientific journal “Onomastics”, articles will be published in the following fields:

- state language and onomastics, spelling issues in onomastics;
- modern onomastics;
- historical onomastics and source studies;
- onomastics and naming (brandology);
- onomastics and history (local studies, ethnography, archaeology, etymology);
- onomastics and geography;
- onomastic lexicography;
- onomastic research in various fields (dialectology, folklore, fiction, scientific and official language, language of written monuments);
- criticism and review;
- onomastic scholars.

REQUIREMENTS FOR ARTICLE FORMATTING:

- The article must be at least 7 pages in length;
- Articles are accepted in Uzbek, Karakalpak (all Turkic languages), Russian, and English;
- The structure of the article should be as follows:
 1. The title of the article must be written in capital letters in Uzbek (all Turkic languages), Russian, and English.
 2. Full name of the author (written in full), if there are multiple authors, complete information for each author must be provided: position, academic degree and title, organization, city, country, e-mail address, ORCID, as well as the UDC number.
 3. Abstract (a brief summary and purpose of the article, not less than 90 words), the title of the article should be given in Uzbek (all Turkish languages), Russian, and English.
 4. Keywords and key phrases in Uzbek (all Turkish languages), Russian, and English (should consist of 10–15 words).

Article Content:

- Introduction
- Main part
- Results
- Discussion

- Conclusions

The list of references should be arranged in alphabetical order.

- Articles must be formatted in Times New Roman, font size 14, line spacing 1.5;
- If the article includes figures, tables, diagrams, or other graphical elements, they must be clearly and accurately described, and all abbreviations must be fully explained;
- References to cited sources (footnotes) should be provided after quotations in square brackets indicating the reference number [1, 2, ...]. The list of references should be placed at the end of the text under the heading “References”;
- Page margins must be as follows: left – 3 cm, right – 1.5 cm, top and bottom – 2 cm;
- At least 70–80% of the article text must be based on the author’s original research results. Submitted articles are checked using the “Anti-plagiarism” system;
- Articles submitted to the editorial office are peer-reviewed. After the article is returned from review, if necessary, all comments and objections are forwarded to the author for revision. Manuscripts are not returned to the authors;
- The author(s) bear full responsibility for the scientific basis, reliability, and validity of the information and evidence presented in the article;
- Only one article by the same author may be published in a single issue of the journal;
- The author(s) must indicate their phone number at the end of the article.

Author(s) of an article that has successfully passed the editorial board review must transfer 350,000 (three hundred and fifty thousand) Uzbek sums to the university account and send the payment receipt to the responsible secretary.

Account number (X/R): 400 1108 6010 4017 0941 0035 0003

STIR: 200671933

The payment receipt must specify that the payment is made for the publication of an article in the international electronic scientific journal “Onomastics”, via a bank or online payment systems.

General Information

- The author(s) are responsible for the scientific accuracy, reliability, and absence of plagiarism in the information and evidence presented in the article;
- All articles undergo peer review. Only articles recommended by experts are published in the journal; articles not recommended by experts will not be published;
- Articles that do not meet the journal’s requirements will not be considered by the editorial board and will not be returned to the authors.

CONTACT ADDRESS:

Karshi city, Kuchabag, 17.

Faculty of Philology, Karshi State University

Tel.: +998 97 222 17 07, +998 91 220 52 38

Telegram numbers: +998 97 222 17 07, +998 91 220 52 38

E-mail: xojamurod@list.ru

e-mail: rano.saydullayeva@mail.ru

